O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

A.A. SHERNAYEV
N.E. JIYANOVA

DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2019

UO‘K: 336.11(075.8)
KBK: 65.261ya736

Taqrizchilar: *i.f.n., dots.* **S.Xudoyqulov;**
i.f.d., dots. **Sh. Jalilov**

D 14 Davlat moliyasini boshqarish: *Darslik /* A.A.Shernayev, N.E.Jiyanova; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 380 b.

Mazkur darslik iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan va “Davlat moliyasini boshqarish” fanidan o‘quv kurslarini o‘qitishga mo‘ljallangan.

Ushbu darslik davlat moliyasini boshqarish bo‘yicha nazariy, ilmiy, tartibga soluvchi va amaliy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar, test sinovlari va “Davlat moliyasini boshqarish” fanining o‘quv dasturi mavzulariga mos keladi.

Darslik iqtisodiy sohadagi magistratura mutaxassislari, professor-o‘qituvchilari, turli davlat tashkilotlari, muassasalari, korxonalarining yuqori malakali mutaxassisliklari uchun “Davlat moliyasini boshqarish” fanining bilimlarini takrorlash va mustahkamlash uchun foydali bo‘ladi.

5A340601 – «Davlat moliyasini boshqarish», 5A340605 «Xalqaro moliya», 5A340602– «Investitsiyalarni boshqarish (Tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)» magistratura mutaxassisliklari uchun

UO‘K: 336.11(075.8)
KBK: 65.261ya736

ISBN 978-9943-13-861-2

© A.A.Shernayev,
N.E.Jiyanova, 2019
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2019

KIRISH

Davlat moliyasini boshqarish mamlakat moliya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Davlat moliyasini boshqarish – bu mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning birinchi yalpi taqsimotidan so‘ng taqsimlanish jarayonini muvofiqlashtiruvchi asosiy soha bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayonining organik davomi sanaladi. Aynan davlat moliyasini boshqarish orqali ishlab chiqarish, xizmat va ishlar jarayonining aylanmasi ta’minlanadi. Shuningdek, jamiyat subyektlarini uzluksiz moliyalashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratiladi. “Davlat moliyasini boshqarish” fani moliyaviy munosabatlarni oqilona va adolatli tashkil etish, rivojlantirish va takomillashtirishda muhim fanlardan biridir. Fan ushbu maqsadga samarali erishish uchun zarur bo‘lgan maqsad va vazifalarga ega bo‘lib, ular uni boshqa fanlardan farqlab turadi.

Ushbu fanni o‘rganish, tahlil va tadqiq qilish maqsadi – davlat byudjeti, byudjetdan tashqari davlat jamg‘armalari va davlat korxonalarining moliyasini samarali tashkil etish, mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash va xarajatlarini samarali taqsimlash masalalari yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni oqilona tashkil etish va samarali boshqarish sanaladi.

1-BOB. DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISH XUSUSIYATLARI

1.1 Davlat moliyasi iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatida

Davlat moliyasi – moliyaviy resurslarning markazlashgan jamg‘armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq real pul aylanmasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

Moliyalashtirishning moddiy asosini pul aylanmasi tashkil qiladi.

Real pul aylanmasi – bu qiymat harakatini yuzaga keltiruvchi hamda pul to‘lovlari va hisob-kitoblar oqimlari bilan birga kuzatiluvchi iqtisodiy jarayondir. Real pul aylanmasi obyekti sifatida kengaytirilgan ishlab chiqarishning moliyalashtirish manbalari hisoblanuvchi moliyaviy resurslar namoyon bo‘ladi.

Davlat moliyasi iqtisodiyotning davlat va mahalliy sektorlari, ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha va ijtimoiy sektorning eng muhim dasturlari, byudjet sohasidagi tashkilotlar va muassasalar kabilarni markazlashgan moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlashga oid iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Ularning faoliyati ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning umumiy maqsadlariga erishishga qaratilgan[1].

Davlat moliyasi – makroiqtisodiy tartibga solishning kuchli dastagidir. Ushbu instrumentdan mohirona foydalangan holda davlat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tartibga solish, pul birligi barqarorligini saqlab turish, ssuda foizlari darajasini tartibga solish, konyunktur tebranishlarni silliqlash kabi turli vazifalarni hal qilishi mumkin. Ushbu bo‘limda biz davlat moliyasining mohiyati, tushunchalari va asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqamiz.

Davlat moliyasi – bu moliyaviy resurslarning markazlashgan fondlarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq

[1] И.Н.Мысляева Государственные и муниципиальные финансы .-М.:Инфра-М, 2013.-С.393

holda real pul aylanmasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidir[2].

Davlat moliyasi – bu davlat faoliyatining asosidir, faqat yetarli miqdordagi mablag‘larni tasarruf etgan holdagina davlat ijtimoiy siyosatni amalga oshirishi, iqtisodiyotning alohida tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashi, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishi yoki mudofaani ta’minlashi mumkin.

Davlat moliyasi davlatni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan davlat moliya tizimining muhim sohasidir. Iqtisodiy funksiyasi jihatidan davlat moliyasi – bu ijtimoiy mahsulot qiymati va milliy boylik qismini taqsimlash va qayta taqsimlash bo‘yicha pul munosabatlaridir. Mazkur pul munosabatlari quyidagilar bilan bog‘liq:

1) davlat va uning korxonalari tasarrufida moliyaviy resurslarni shakllantirish bilan;

2) davlat mablag‘larini ishlab chiqarishni kengaytirish xarajatlari uchun sarflash;

3) o‘sib borayotgan ijtimoiy va madaniy ehtiyojlar, davlat mudofaasi, boshqaruv ehtiyojlarini qondirish bilan.



1.1-rasm. **O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasi tuzilmasi**[3]

[2] Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы/ Система государственного и муниципального управления: Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям «Государственные и муниципальные финансы», «Юриспруденция», «Политология» - 2-е изд.,перераб. и доп. (ГРИФ) /Мухаев Р.Т.; Мухаев Р. Т.; 2009; Юнити-Дана

[3] И.Н.Мысляева Государственные и муниципиальные финансы .-М.:Инфра-М, 2013.-393

Davlat moliyasi tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

– davlat boshqaruvining turli darajalari byudjetlari;

– byudjetdan tashqari fondlar;

– davlat krediti;

– davlat korxonalari moliyasi.

Davlat moliyasining tarkibiy qismida respublika va mahalliy daraalarda shakllanadigan o‘zaro byudjet aloqalari muhim o‘rin tutadi.

Turli darajadagi byudjetlar (respublika, mahalliy) mos ravishda respublika hamda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining faoliyati uchun moliyaviy baza sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy funksiyalarni bajarish uchun davlat byudjeti tuziladi, buning natijasida quyidagilar ta’minlanadi:

1) iqtisodiyotni barqarorlashtirish bo‘yicha umumdavlat tadbirlarini amalga oshirish;

2) ijtimoiy sohani rivojlantirish;

3) tashqi chegaralarni qo‘riqlash;

4) qurolli kuchlar ta’minoti;

5) boshqaruv organlari ta’minoti;

6) xalqaro iqtisodiy va siyosiy bitimlarni bajarish.

Respublika byudjeti quyidagi maqsadlar uchun taqsimlanadi:

– ijtimoiy ishlab chiqarishning ilg‘or tuzilmasini ta’minlash;

– iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy yo‘nalganligini kuchaytirish;

– muayyan hudud fuqarolari ijtimoiy himoyalanganligining yagona darajasini ta’minlash.

Mahalliy byudjet:

– iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda foydalaniladi;

– ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta’sir qiladi;

– mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, hududiy infratuzilmani yaratish va mehnat resurslarini qayta tiklash xarajatlarini moliyalashtirishga imkon beradi.

Mahalliy byudjetlar sezilarli darajada iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish va mehnat resurslarini ishga tushirish uchun foydalaniladi.

Mahalliy byudjetlar ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Mustaqil moliya bo‘g‘ini davlat korxonalari moliyasini vujudga keltiradi. Uning paydo bo‘lishi bir qator G‘arbiy Yevropa mamlakatlari (Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Avstriya) iqtisodiyotida davlat sektorining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, Ikkinchi jahon urushidan keyin bu jarayon juda keng tarqalgan. Uning asosiy maqsadi o‘ziga xosligi tufayli past rentabellikka ega va shu sababli tadbirkorlik uchun foydasiz (temir yo‘l, havo transporti, elektr energiyasi, gaz, ko‘mir sanoati va h.k.), biroq o‘ta muhim ishlab chiqarish sohalarini saqlab qolish va rivojlantirish orqali xususiy xo‘jalikni qo‘llab-quvvatlash sanaladi.

Shunday qilib, davlat korxonalari xususiy tadbirkorlik manfaatlari va milliy iqtisodiy muammolar o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga urinishni o‘zida aks ettiradi. Shu bilan birga, davlat korxonalari moliyasi – bu davlat moliyasi bo‘g‘inidir. U orqali davlat milliy daromadlarni birlamchi taqsimlashda ishtirok etadi, ushbu korxonalarda vujudga keltirilgan daromadlarning bir qismini o‘z qo‘lida to‘playdi. Davlat korxonalari o‘zlariga biriktirilgan asosiy va aylanma jamg‘armalarga ega, mustaqil smeta bo‘yicha faoliyat yuritib, davlat byudjeti bilan qonunchilik asosida tartibga solingan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishadi. Korxona turiga qarab ular turli darajada avtonomlik, ishlab chiqarish va moliyaviy mustaqillikka ega bo‘ladi.

Davlat moliyasining maxsus qismi sifatida davlat krediti mazmunini tashkil etuvchi pul munosabatlari namoyon bo‘ladi. Davlat kredit munosabatlari korxona, tashkilotlar va aholining vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larini jalb qilish va ularni davlat xarajatlari moliyalashtirilishini ta’minlash uchun davlat hokimiyati organlariga vaqt bo‘yicha o‘tkazish bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi.

Davlat krediti – barcha darajadagi hokimiyat va boshqaruv organlari qarz oluvchi, kreditor hamda kafil sifatida namoyon bo‘ladigan pul munosabatlaridir.

Davlat kreditida bu munosabatlar korxona, tashkilotlar va aholining vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish va ularni davlat

ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun davlat organlariga o‘tkazish bilan bog‘liq. Xalqaro kreditda xorijiy davlatlar, ularning kompaniyalari, firmalar, shuningdek, xalqaro va davlatlararo moliyaviy muassasalar o‘zaro munosabatlarga kirishadi.

Davlat moliyasining tarkibiy qismida byudjetdan tashqari fondlar alohida bo‘g‘inni vujudga keltiradi. Davlat byudjeti ko‘p jihatdan daromadlar xarajatlarning aniq turlariga biriktirilmaganligi tufayli mablag‘lar jalb qilinishiga imkon beradi. Biroq sarf-xarajatlar satrlari bo‘yicha mablag‘larning ortiqcha jalb qilinishiga erishish mumkin emas, xususan, ijtimoiy ehtiyojlar alohida tashvish uyg‘otadi, chunki har doim bu maqsadlar uchun xarajatlarni kamaytirish xavfi mavjud. Shuning uchun rivojlantirish lozim bo‘lgan eng keskin sohalarni aniqlab olish, kelib tushayotgan mablag‘larning maqsadli yo‘naltirilishi va foydalanilishini ta’minlash o‘ta muhimdir. Mazkur holat tegishli byudjetdan tashqari fondlardan maqsadli umumdavlat vazifalarini moliyalashtirishni tashkil etish uchun jiddiy asos bo‘ldi.

Byudjetdan tashqari fondlar qat’iy maqsadli vazifa, avtonom boshqaruvga ega bo‘lib, maxsuslashtirish va byudjetdan maxsus davr uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega muayyan xarajatlarni ajratish asosida, yoki xususiy daromad manbalarini fondlarga biriktirib qo‘yish asosida shakllantirilishi mumkin. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ikkala usul ham qo‘llaniladi. Byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirishning maqsadi jamiyat uchun favqulodda muhim xarajatlarni byudjetga qo‘shimcha ravishda mustaqil daromad manbalari bilan ta’minlashdir.

Byudjet defitsiti ham byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish maqsadga muvofiqligini belgilab beruvchi muhim omillardan biridir. Byudjet xarajatlarining daromadlardan ortib ketishi nafaqat uni qoplash uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslar topishni, balki korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi tomonidan kelib tushayotgan mablag‘larni xarajatlarning muayyan turlarini qoplash uchun qayta taqsimlashni talab qiladi. Mulkchilik va boshqaruv shakllarining xilma-xilligi byudjet metodlari bilan birga jamiyatda pul mablag‘larini qayta taqsimlash zaruratini taqozo etadi.

Davlat moliyasini tashkil etish va ishlash tamoyillarini belgilab olish muhim metodologik omil sanalib, bu iqtisodiyotning davlat va mahalliy sektorlarini rivojlantirishga moliyaning ta’sir yo‘nalishlarini aniqlash, ularni ishlash mezonlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Davlat va mahalliy moliya axborot oqimlariga tayanadi. Hukumat qarorlarini qabul qilish axborotlar majmuiga asoslangan. Kelib tushayotgan axborotlar tahlili qaror qabul qilish vaqtida ham, uni bajarish jarayonini nazorat qilishda ham muhimdir. Ushbu axborotlar tezkor va statistik hisobotlarda, shartnoma va bitimlarda, hisoblashish hujjatlari va boshqalarda mujassam bo‘ladi.

Davlat moliyasi aniq maqsadli yo‘nalishga ega. Ular jamiyatning alohida qatlamlarining muayyan ijtimoiy-siyosiy manfaatlariga ta’sir qiladi. Biroq o‘zining barcha jihatlariga ko‘ra ular davlat va mahalliy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan.

Davlat moliyasi davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarini bajarishi uchun zaruriy pul mablag‘lari bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan mamlakatning moliya tizimining muhim bo‘g‘inidir. O‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra davlat moliyasi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonida davlat ixtiyorida pul jamg‘armalarini shakllantirish va mazkur davlatning pul jamg‘armalaridan kengaytrilgan takror ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha xarajatlarga, jamiyat a’zolarining o‘sib borayotgan ijtimoiy madaniy ehtiyojlarini qondirishga, mudofaa va boshqarish sohalarini moliyaviy ta’minlash bo‘yicha ehtiyojlarni qondirishga ishlatish bilan bog‘liq makroiqtisodiy munosabatlar tizimidir. Davlat moliyasining o‘ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qatnashuvchi subyekt sifatida davlatning o‘zi maydonga chiqadi.

Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati turli-tuman talqin qilinadigan bo‘lib, uning tarkibida alohida o‘zaro bogliq bo‘g‘inlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi. Davlat moliyasining tarkibiga quyidagilar kiritiladi: davlat boshqaruvining turli darajalarida shakllantiriladigan byudjet munosabatlari, byudjetdan tashqari jamg‘armalar, davlat krediti munosabatlari, davlat korxonalari

moliyasi. Yuqorida sanab o‘tilgan davlat moliyasi bo‘g‘inlarining funksional vazifalari yordamida davlat iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning keng spektrlariga ta’sir qiladi, tarmoq va hududiy muammolarni hal qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Davlat moliyasi davlatning umumiy daromadlarini shakllantirish va davlat xarajatlari yo‘nalishini o‘z ichiga oluvchi qiymat taqsimot munosabatlarini o‘zida aks ettiradi. Byudjet davlat moliyasining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Chunki byudjet orqali YaIMning taxminan 20-25 %i qayta taqsimlanadi. Davlat byudjet orqali yirik miqdordagi pul resurslariga ega bo‘ladi. Bunday pul resurslari orqali davlat o‘zining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa vazifalarini amalga oshiradi.

Byudjet munosabatlari yordamida moliyaviy usulda qayta taqsimlash natijasida milliy daromadning sezilarli qismi jamlanadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy bazasi davlat byudjeti hisoblanadi.

Byudjet iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, chunki uning moddiy asosini ijtimoiy ishlab chiqarish natijasida olinadigan pul daromadlari tashkil etadi. Shuning uchun ham har qanday mamlakatda byudjet munosabatlarini tashkil qilish jarayonida ishlab chiqarish manfaatlari hisobga olinishi lozim.

Byudjet vositasida davlat iqtisodiyotga faol ta’sir qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Chunki byudjet vositasida iqtisodiyotning yirik miqdordagi pul resurslari tarmoqlar va hududlar o‘rtasida qayta taqsimlanadi. Demak, byudjet daromadlarini shakllantirish va ulardan ijtimoiy extiyojlar uchun foydalanish jarayonida davlatning barcha tarmoq va sohalaridagi pul daromadlari va jamg‘armalarni tartibga soladi, mamlakatlarning turli hududlaridagi iqtisodiy potensial, investitsion faollikni va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan bog‘liq hududiy muammolarni hal qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, davlat moliyasining tarkibiy qismi sifatida davlat byudjeti 4 asosiy sifat belgilari bilan tavsiflanadi:

Byudjet davlat qo‘lida milliy daromadni bir qismini jamlash va ijtimoiy ehtiyojlar uchun undan foydalanish bilan bog‘liq qayta taqsimlash munosabatlarining alohida iqtisodiy shakli hisoblanadi.

Byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos shakli sifatida imperativ xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlari hisoblanadi.

Byudjet orqali milliy daromadni ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim sohalari o‘rtasida, iqtisodiyot tarmoqlari ichida, ijtimoiy faoliyat sohalari o‘rtasida, mamlakat hududlari o‘rtasida qayta taqsimlash amalga oshiriladi.

Byudjetning taqsimlash sohasi davlat moliyasida muhim rol o‘ynaydi.

Demak, byudjetning iqtisodiy mohiyati nuqtayi nazaridan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘rib utiladigan bo‘lsa, davlatning moliyaviy asosini qonuniy o‘rnatilishi nuqtayi nazaridan esa byudjet davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

O‘zining jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy iqtisodiy funksiyalariga asoslangan holda byudjetdan tashqari jamg‘armalar davlat moliyasida muhim ahamiyatga egadir.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalari asosan ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida markazlashtirilgan shaklda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan pul daromadlarini bir qismini ijtimoiy extiyojlar yo‘nalishida foydalanish uchun qayta taqsimlash jarayonida shakllantiriladigan pul jamg‘armasidir.

1.2 Davlat moliyasini boshqarishning asosiy funksiyalari

Davlat moliyasini boshqarishning mohiyati ular tomonidan bajariladigan funksiyalarda namoyon bo‘ladi. Funksiyani o‘rganish davlat moliya siyosatini amalga oshirish uchun zarur. Moliya fanlari doirasida davlat moliyasi va korxonalar moliyasining funksiyalari o‘rtasida muayyan birlik bor va ayni paytda faoliyatning umumdavlat manfaatlari va tadbirkorlik jihatlari ahamiyatini belgilab beruvchi bir qator tafovutlar mavjud.

Moliya tizimi uchun, umuman olganda, quyidagi davlat moliyasini boshqarish funksiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish, nazorat.

1. Rejalashtirish funksiyasi maqsadlarni shakllantirish va ularga erishish yo‘llarini tanlashni o‘z ichiga oladi. Rejalashtirish funksiyasiga, odatda, rivojlanish maqsadlari va ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda vaqt jihatidan cheklangan moliyaviy resurslar hajmini taqsimlash, ularni respublika va mahalliy byudjetlar o‘rtasida qayta taqsimlash ham kiritiladi. Mazkur funksiya tegishli moliya yili va istiqbol uchun byudjetlar, moliyaviy resurslar balanslari, soliqqa tortish tartiblari va boshqalar tuzish orqali amalga oshiriladi.

2. Tashkil etish funksiyasi byudjet tuzilishi va byudjet tasnifini o‘z ichiga olib, byudjetni tuzish, tasdiqlash va bajarish tartibini belgilash, vakolatli kredit muassasalarini tanlash, byudjet jarayonida qonunchilik va ijro hokimiyati organlari vakolatlarini cheklash, moliya organlarining funksional bo‘linmalarining huquq va majburiyatlarini aniqlash zaruratini taqozo etadi. Davlatning byudjet oqimlari va moliyaviy resurslarini tartibga solish va nazorat qilish ichki tizimini tashkiliy tuzish jarayoni ushbu jarayonga bog‘liq.

3. Rag‘batlantirish funksiyasi maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan faoliyatga asoslanadi. Ushbu funksiya yordamida moliyaviy faoliyatga ta’sir etuvchi va uning pul mablag‘lariga ehtiyojini hisobga oluvchi omillar tushuntiriladi. Moliyaning taktik va strategik jihatlari bo‘yicha qaror qabul qilish jarayonida xodimlarning xulq-atvorini belgilovchi omillar muhim o‘rin tutadi.

4. Nazorat funksiyasi belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga ko‘maklashishni anglatadi. Bu natijalarni baholash etaloni, mezoni hisoblanuvchi norma va normativlar ishlab chiqish, erishilgan yutuqlarni belgilangan maqsadlar va o‘rnatilgan mezonlar bilan solishtirish, moliyaviy faoliyat shart-sharoitlari va omillariga zaruriy o‘zgartirishlar kiritishni ta’minlash kabilarni o‘z ichiga oladi.

Davlat moliyasining real pul aylanmasini tartibga solish bilan bog‘liq funksiyalari:

1. Davlat moliyasining taqsimot funksiyasi shundan iboratki, qayta yaratilgan qiymatni taqsimlash va qayta taqsimlash orqali umumdavlat ehtiyojlari ta’minlanadi, iqtisodiyotning ijtimoiy sektorini moliyalashtirish manbalari shakllantiradi, yagona byudjet tizimi doirasida byudjetlar va byudjetdan tashqari fondlar balanslashtirilganligiga erishiladi.

Davlat moliyasi moliya resurslarini markazlashgan fondlar tizimi orqali qayta taqsimlash asosida ishlaydi. Ushbu funksiya yordamida ular alohida tarkibiy tuzilmalar doirasida bo‘lgani kabi, umumdavlat miqyosidagi ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat qiladi.

Taqsimot funksiyasi shundan iboratki, qayta yaratilgan qiymat byudjet, banklar, kontragentlar oldida korxonalarning moliyaviy majburiyatlarini bajarish maqsadida taqsimlanishi lozim. Uning natijasi markazlashgan pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish, iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasini ta’minlashi kerak.

Moliyaning taqsimot funksiyasini amalga oshirishning asosiy obyektlari byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to‘lovlar, shuningdek, byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida daromadlarni qayta taqsimlash jarayoni alohida o‘rin tutadi.

2. Davlat moliyasining nazorat funksiyasi davlatning o‘zi ham qatnashayotgan real pul aylanmasida, markazlashgan pul mablag‘lari fondlari shakllanishida nazoratni amalga oshirishdan iborat. Nazoratning ikki shakli mavjud: moliyaviy ko‘rsatkichlar, to‘lovlar va hisob-kitoblardagi o‘zgarishlar ustidan nazorat; moliya strategiyasi amalga oshirilishini nazorat qilish.

Birinchi holda majburiy yoki ogohlantiruvchi xarakterdagi choralarni qo‘llovchi sanksiyalar va rag‘batlantirish tizimlari qo‘llaniladi. Ikkinchi holda gap uzoq muddatli moliya siyosatini amalga oshirish haqida borib, bunda asosiy e’tibor o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra olish va ularga moliyalashtirish tartibi va shartlarini moslashtirishga qaratiladi. Moliya tizimidagi muntazam o‘zgarishlar, yangilanishlar

bunga hukumatning barcha bo‘g‘inlaridan mutanosib javobni taqozo etadi.

Moliyaning nazorat funksiyasi doimo aniq namoyon bo‘ladi. U muayyan darajadagi byudjetga, byudjetdan tashqari fondga, korxona yoki muassasa va boshqalarga yo‘naltirilishi mumkin.

Davlat moliyasining nazorat funksiyasi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: 1) markazlashgan fondlarga mablag‘lar to‘g‘ri va o‘z vaqtida o‘tkazilishi ustidan nazorat; 2) iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olgan holda pul mablag‘larining markazlashgan fondlarining belgilangan parametrlarga rioya etishi ustidan nazorat; 3) moliyaviy resurslardan maqsadli va samarali foydalanish ustidan nazorat.

Moliyaviy resurslarning maqsadli va samarali ishlatilishi pul fondlarining shakllanishi va sarflanishiga doir tuziladigan rejali va hisobot smetalari asosida nazorat qilinadi.

1.3. Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida davlat va moliya siyosatining iqtisodiy roli

Zamonaviy shart-sharoitlarda davlatning iqtisodiy roli mulkchilik munosabatlari, tuzum vertikalini isloh qilish, institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish va jamiyatda iqtisodiy samaradorlik hamda ijtimoiy adolat o‘rtasida muvozanatga erishish hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiy roli uni tartibga solish, qayta taqsimlash, ijtimoiy va nazorat funksiyalarida namoyon bo‘ladi.

1. Tartibga solish funksiyasi shunga bog‘liqki:

a) davlatning yetakchi mavqeiga ega bo‘lgan sohalar mavjud (masalan, mudofaa, ijtimoiy yordam va boshqalar);

b) davlat iqtisodiy siyosatini institutsional tizim orqali amalga oshiradi;

d) davlat mulkdor sanaladi va iqtisodiyotning tadbirkorlik sektoridagi turli tuzilmalar bilan o‘zaro munosabatga kirishadi. Tartibga solish sohalariga tadbirkorlik faoliyati, davlat moliyasi, pul muomalasi,

naqdsiz hisoblashishlar, tashqi iqtisodiy faoliyat, valyuta kursi, iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy sektor kabilar kiritiladi.

2. Qayta taqsimlash funksiyasi.

Yaratilgan milliy daromad ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida qayta taqsimlanish obyekti sanaladi. Ushbu funksiyani amalga oshirish uchun davlatda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi vakolatlar va boshqaruv predmetlari taqsimoti hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bunday qayta taqsimot mexanizmi sifatida soliq va byudjet tizimi xizmat qiladi.

3. Ijtimoiy funksiya. Davlat ijtimoiy adolat va ijtimoiy farovonlikning muayyan darajasini qo‘llab-quvvatlaydi, kun kechirish uchun zarur bo‘lgan narsalarning eng oz miqdorini, ish haqi o‘sishi va mehnat mahsuldorligi mutanosibligini kafolatlaydi, aholi bandligini ta’minlaydi. Ushbu funksiyani amalga oshirish uchun davlatning moliyaviy-iqtisodiy salohiyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazkur funksiyani amalga oshirish iqtisodiyotning ijtimoiy sektori talablarining kengayishi bilan bog‘liq. Ijtimoiy transfertlar tizimi, respublika va mahalliy darajada ijtimoiy rivojlantirish dasturlari, davlat minimal ijtimoiy standartlarining davlat ijtimoiy muhofaza tizimi, manzilli ijtimoiy yordam ushbu funksiyani amalga oshirish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

4. Nazorat funksiyasi. Davlat jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha mo‘ljallarni vujudga keltiradi, iqtisodiy va ijtimoiy o‘sish parametrlarini belgilaydi, tadbirkorlik faoliyati shartlarini aniqlaydi, uzoq muddatli, o‘rta muddatli va joriy iqtisodiy hamda ijtimoiy dasturlarni shakllantiradi, ularning bajarilishi esa nazorat obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur funksiyaning amalga oshirilishi davlat nazorati, jumladan, moliya organlari va institutsional tizimlar orqali ta’minlanadi. Ushbu funksiyani amalga oshirish mexanizmi turli darajadagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan ko‘rsatkichlar va mezonlar tizimi, sanksiyalar, rag‘batlar va imtiyozlar, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini tanlash tizimi hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiy roli va funksiyalari moliya siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning moliyaviy metodlarini belgilab beradi.

Davlat moliyasi holati – iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy tizim mukammalligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Byudjetdan eng muhim investitsiya dasturlari, ekologiya, mudofaa va boshqalarni moliyalash ta’minlanadi.

Davlat va mahalliy moliya quyidagi asosiy prinsiplarga yo‘naltirilgan:

– qonunchilik va normativ baza birligi;

– oshkoralik va shaffoflik;

– vakolatlar va boshqaruv predmetlari chegaralarini belgilash;

– maqsadli yo‘nalganlik;

– ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirishga ilmiy yondashuv;

– tejamkorlik va ratsionallik;

– moliyaviy oqimlarning markazlashgan asosda boshqariluvchanligi.

Maqsadlarga erishish rivojlanish strategiyasi bilan belgilanadi. Moliyaviy strategiya iqtisodiyotning davlat va mahalliy sektorlari tasarrufida bo‘lgan moddiy-texnik vositalar va moliyaviy resurslarni qiymat bahosini balanslashtirilgan boshqarish imkoniyatini belgilab beradi.

Iqtisodiyotni isloh qilishda moliya rolini belgilash alohida ahamiyat kasb etib, bu uchta hal qiluvchi omilga olib kelishi mumkin:

1) iqtisodiy barqarorlik;

2) bozor o‘zgarishlariga moslashish;

3) investitsion faollikni rag‘batlantirish.

1. Makrodarajada iqtisodiy barqarorlik iqtisodiyotda umumiy moliyaviy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar monitoringi moliyaviy sohadagi haqiqiy ahvolni aniqlash imkonini beradi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orasida byudjet defitsiti darajasi, byudjet ijrosi jarayoni, korxonalarning byudjet va kontragentlar oldida qarzdorlik darajasi, inflyatsiya darajasi, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi, valyuta kursining

o‘zgarishi va boshqalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moliyaviy barqarorlik barqaror moliyalashtirish manbalari mavjudligi, kapital bozoridan mablag‘ jalb qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish va iqtisodiyotning ijtimoiy sektorini rivojlantirish uchun resurslarni to‘plash imkoniyati borligini anglatadi.

2. Bozor o‘zgarishlariga moliyaviy moslashish shunda namoyon bo‘ladiki, davlat va korxonalar kreditor yoki qarz oluvchi sifatida qatnashgan holda kapital bozorining to‘laqonli ishtirokchilari sanaladi. Moliyani tashkil qilish bozordagi vaziyat o‘zgarishiga tez javob qaytarish, yangi shart-sharoitga moslashish, muqobil moliya instrumentlaridan foydalanish, soliq va boshqa pul majburiyatlarini bajarishga imkon beradi.

Moliyaviy moslashtirish uchun iqtisodiyotni isloh etish narxlarni liberallashtirish, xususiylashtirish, ijtimoiy o‘zgarishlar, jahon tizimiga integratsiyalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy munosabatlarni o‘zgartirish inflyatsiya va ishsizlikning past darajasi, tashqi iqtisodiy muvozanat, qulay ekologik muhit va yetarlicha yuqori turmush darajasiga asoslangan iqtisodiy o‘sishning yangi turiga o‘tishni anglatadi. O‘zgartirish maqsadi – ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini yaratishdir.

3. Davlat va har bir korxonaning investitsion faolligi iqtisodiy o‘sishning natijasi va indikatori hisoblanadi. Moliya investitsiyalarni jalb qilish, kapital bozori faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Investitsion faollikka nisbatan strategik yo‘nalganlik tamoyili hal qiluvchi sanaladi va moliyaning vazifasi uni amalga oshirishdan iborat.

Davlat moliya siyosati – makroiqtisodiy siyosat elementidir. Hozirgi vaqtda davlat moliya siyosati moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatlarini bartaraf etish, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan.

Moliya siyosati quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1) soliq siyosati;

2) byudjet siyosati;

3) pul-kredit siyosati;

4) institutsional o‘zgarishlar;

5) investitsiya siyosati;

6) ijtimoiy siyosat.

Moliya siyosatini amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

– ijtimoiy keskinlikni pasaytirish;

– davlat moliyasini takomillashtirish;

– bank sektorining normal faoliyatini tiklash;

– tovar va pul oqimlarining balanslashganligi;

– moliyaviy suiiste’molliklar va korrupsiyani bartaraf etish.

Moliya siyosatining muhim tarkibiy qismi soliq siyosati hisoblanadi. U davlat va bozor ishtirokchilari uchun maqbul bo‘lgan soliqqa tortish shartlarini yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak, bu iqtisodiyotning real sektoridagi moliyaviy ahvol yaxshilanishini ta’minlaydi. Uning asosiy vazifalari:

– soliq bazasini optimallashtirish, to‘lovsizlik darajasini pasaytirish maqsadida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini keng isloh etish;

– amaldagi soliq va bojxona imtiyozlarini qayta ko‘rib chiqish;

– yagona soliq to‘lovchi reestrini joriy qilish;

– soliq ma’muriyatchiligini kuchaytirish;

– byudjetga va byudjetdan tashqari davlat fondlariga to‘lovlar bo‘yicha penya va jarimalarni qayta tarkiblash.

Byudjet inqirozini bartaraf etish byudjet siyosatining eng muhim vazifasidir. Ushbu sohadagi eng dolzarb vazifalar quyidagilardir:

– xizmat ko‘rsatish va tashqi qarzlarni to‘lash uchun eksport bojlarini kiritish;

– davlat xarajatlarini tejash dasturlarini amalga oshirish;

– barcha daromadlar va byudjet mablag‘larini g‘aznachilik organlari hisob raqamlariga markazlashtirish;

– optimallashtirish maqsadida maqsadli dasturlarni taftish qilish;

– spirtli ichimliklarni ishlab chiqarish va aylanmasida davlat monopoliyasini ta’minlash;

– byudjet tashkilotlari va boshqa byudjet mablag‘lari oluvchilarga qarzdorlikni qoplash xarajatlarini maqsadli moliyalashtirish mexanizmidan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish;

– davlat qarzlarini qayta tarkiblash;

– tashqi va ichki qarzlarni, ulardan foydalanish natijalarini inventarizatsiya qilish.

Pul-kredit siyosatining eng muhim vazifasi bank inqirozini bartaraf etish, bank tizimiga bo‘lgan ishonchni tiklash va aholining tashkiliy jamg‘armalarini rag‘batlantirishdan iborat. Pul-kredit siyosatining vazifalari:

– bank tizimini qayta tashkil etish;

– banklar tomonidan majburiy standartlarga rioya etilishini nazorat qilish tartibini takomillashtirish;

– milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursining o‘zgarishini yumshatish;

– davlatning valyuta zaxiralarini to‘ldirish va kapitalning chet elga chiqib ketishini kamaytirish;

– davlat fondini to‘ldirish uchun oltin zaxirasi sotib olishni kuchaytirish;

– bojxona nazoratini kuchaytirish.

Davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirishda davlatning asosiy vazifalaridan kelib chiqqan institutsional islohotlar muhim rol o‘ynaydi. Bunga quyidagilar kiradi:

– tashkilotlarning kechiktirilgan soliq qarzlarini kapitalizatsiya qilish va ularni keyinchalik sotish natijasida davlat tomonidan aksiyalar sotib olish;

– davlatga tegishli aksiyalar paketini ishonchli boshqarishga o‘tkazish;

– ko‘chmas mulkni inventarizatsiya qilish va yagona mulk registrini yaratish;

– tugallanmagan qurilish obyektlarining jalb etilishi;

– korxonalarni yagona mulkiy kompleks sifatida xususiylashtirish;

– yoqilg‘i-energetika kompleksi, temir yo‘l transporti, aloqa va uy-joy-kommunal xizmatlarida raqobatni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan tarkibiy islohotlar;

– tabiiy monopoliya mahsuloti va xizmatlari uchun narx-navo registratsiyasi va tizimini takomillashtirish; respublika va viloyat ijro

hokimiyat organlari o‘rtasida tabiiy monopoliyalarni tartibga solish bo‘yicha vakolatlarni belgilash;

– xususiylashtirish loyihalarini, investitsiya dasturlarini, moliyaviy oqimlarni, bankrotlikni, qarzlarni respublika byudjetiga to‘lashni boshqarish va nazorat qilish bo‘yicha davlatning pozitsiyasini mustahkamlash.

Davlat moliya siyosati ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ushbu sohadagi vazifalarga quyidagilar kiradi:

– byudjet sohasi xodimlariga joriy ish haqini, harbiy xizmatchilarning pul ta’minoti va boshqa davlat ijtimoiy transfertlarini to‘liq hajmda to‘lash, shuningdek, byudjetdan bu guruhlar bo‘yicha qarzdorlikni qoplash grafigini bajarish;

– aholining kam ta’minlangan qatlamlari daromadlarini kompensatsiya qilish, jumladan, pensiyalarni differensial indeksatsiyalash va byudjet sohasi xodimlari stavkalari va ish haqini bosqichma-bosqich indeksatsiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish;

– ishsizlik o‘sishini cheklash va bandlikni kengaytirish uchun shart-sharoit yaratish;

– barqaror moliyalashtirish bilan ko‘p bosqichli pensiya tizimini shakllantirishni ta’minlovchi pensiya islohotlarini amalga oshirish; pensiyani jamg‘arish orqali moliyalashtirish elementlarini joriy etish;

– davlat ko‘magining asosiy qismini aholining kam ta’minlangan qatlamlariga yo‘naltirgan holda ijtimoiy imtiyozlar va to‘lovlar tizimini tartibga solish;

– majburiy migratsiyani tartibga solish.

Moliya siyosatini amalga oshirishda investitsion faoliyat muhim o‘rin egallab, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– davlat investitsiya siyosatini moliyaviy ta’minlash manbasi sifatida rivojlantirish byudjeti rolini oshirish;

– aholi jamg‘armalarini tartibli jamg‘arish va investitsiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

– ipoteka kreditini rivojlantirish;

– to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Moliya siyosati iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollarini belgilab beradi.

1.4. Moliya siyosatining mohiyati va turlari

Fiskal yoki byudjet-soliq siyosati – bu davlat xarajatlari, soliqqa tortish, imtiyozlar va subsidiyalar berish, transfert to‘lovlari tartibini o‘zgartirishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari majmui hisoblanadi. U moliyaviy resurslar akkumulyatsiyasi va makroiqtisodiy barqarorlik, resurslar va daromadlarni qayta taqsimlash, to‘liq bandlikni ta’minlash, noinflyatsiyaviy mahsulot ishlab chiqarishga erishishga ta’sir qilish maqsadida olib boriladi, pul-kredit siyosati chora-tadbirlari bilan birga esa tovar va xizmatlarning sof eksporti (importi)ga ta’sir ko‘rsatadi.

Byudjet-soliq siyosatining asosiy instrumentlari soliq va byudjet regulyatorlaridir. Soliq regulyatorlariga soliq va to‘lov turlari, ularning tuzilmasi, soliqqa tortish obyektlari, to‘lov subyektlari, soliq manbalari, stavkalar, imtiyozlar, sanksiyalar, undirish muddatlari, joriy etish usullari kiradi. Byudjet regulyatorlari – bu mablag‘larning davlat tomonidan markazlashtirish darajasi, respublika va mahalliy byudjetlar o‘rtasidagi nisbat, byudjet defitsiti, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar o‘rtasidagi nisbat, daromad va xarajat qismlarining byudjet tasnifi va boshqalar hisoblanadi.

Fiskal siyosat iqtisodiy vaziyatdagi o‘zgarishlarga ta’sir mexanizmiga bog‘liq ravishda diskretsion va nodiskretsion (avtomatik) turga bo‘linib, shunga mutanosib tarzda uning faoliyat mexanizmi belgilanadi, tartibga solish shakl va metodlari aniqlashtiriladi.

Diskretsion fiskal siyosat hukumat qarorlariga asoslanadi. Bunda hukumat soliq stavkalari yoki soliqqa tortish tuzilmasi, davlat xarajatlarining darajasi bilan manipulyatsiya qilgan holda, yalpi talab va yalpi taklif, milliy mahsulotning real hajmi, ish bilan bandlik darajasi, inflyatsiya va narxlar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Hukumat qarorlaridan qat’i nazar, iqtisodiy shart-sharoit o‘zgarganda davlat xarajatlari va soliq tushumlari darajasida avtomatik o‘zgarishlarning mavjudligiga bog‘liq holda avtomatik moliyaviy-soliq

siyosati shakllantiriladi. Bu o‘rnatma stabilizatorlar siyosati – o‘z-o‘zini tartibga solish rejimida ishlaydigan mexanizmlar bo‘lib, bu rejalashtirilgan xarajatlar va investitsiyalar umumiy hajmi va tuzilmasidagi o‘zgarishlarni kompensatsiyalaydi. O‘rnatma stabilizatorlar hukumat tomonidan maxsus qarorlar qabul qilmasdan turib, inqiroz davrida davlat byudjeti defitsitini oshirishi (yoki uning ijobiy saldosini qisqartirishi) va inflyatsiya davrida ijobiy saldoni oshirishi (yoki defitsitni kamaytirishi) mumkin. O‘rnatma stabilizatorlarga tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, narxlar va foiz stavkalari darajasi o‘zgarishlariga iqtisodiy tizim ta’sirchanligini susaytirishga xizmat qiluvchi soliqlar, ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, ijtimoiy to‘lov kiritiladi. Bu yerda yetakchi rol soliqlarga tegishli.

O‘rnatma stabilizatorlarning ta’siri quyidagicha izohlanadi:

1. Iqtisodiy inqiroz davrida ishsizlik darajasi o‘sib boradi va ijtimoiy nafaqalar bo‘yicha byudjet xarajatlari avtomatik ravishda ko‘payadi, shuning uchun aholi daromadlari va umumiy talab o‘sadi. Iqtisodiy yuksalish davridagi vaziyat esa aksincha.

2. Hukumatlar diskretsion, ya’ni, barqarorlashtiruvchi fiskal siyosat olib borib, u iqtisodiy sikl fazasiga bog‘liq ravishda sekinlashtiruvchi yoki rag‘batlantiruvchi (defitsit) bo‘lishi mumkin.

Sekinlashtiruvchi fiskal siyosat ortiqcha talabning ta’siri ostida yuzaga kelgan inflyasiyani bartaraf etish uchun iqtisodiy yuksalish bosqichida amalga oshiriladi. U ishbilarmon faollikni cheklash, YaIMning real hajmini uning potensial darajasiga nisbatan kamaytirishga qaratilgan. Sekinlashtiruvchi siyosatni amalga oshirish mexanizmi sof soliqlar oshishini (soliq undirishdan olingan davlat daromadlari bilan davlat transfert to‘lovlari o‘rtasidagi farq), yoki ularning davlat xarajatlarini (xaridlar va buyurtmalar) kamaytirish bilan birga o‘sishini nazarda tutadi, bu iqtisodiyotning xususiy sektorida umumiy talabning kutilgan jonlanishini kompensatsiyalaydi.

Rag‘batlantiruvchi (defitsit) fiskal siyosat ishlab chiqarish pasaygan davrda sof soliqlarni kamaytirish yoki buni davlat xarajatlarining oshishi bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar orqali ishsizlikning sezilarli darajasida amalga oshiriladi.

Soliqlar va davlat xarajatlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri.

Soliqlar va davlat xarajatlarining iqtisodiy rivojlanishga stabillashtiruvchi ta’siri shu bilan asoslanganki, ular multiplikatsion samaraga ega va umumiy talab, milliy ishlab chiqarish hajmi, aholi bandligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etadi. Masalan, inqiroz davrida hukumat davlat xarajatlarini qisqartirishni rag‘batlantirgan holda, iste’mol xarajatlarining o‘sishi va investitsiyalarning ko‘paytirish ehtiyoji yuzaga keltiradi.

Quyidagi nisbatga teng davlat xarajatlari multiplikatori (MRg)

$$\frac{1}{(1-MPC)}$$

(bu yerda MRC – iste’molga chegaraviy moyillik) tovar va xizmatlar xaridi uchun davlat xarajatlari o‘sishi natijasida YaIM ortishini ko‘rsatadi.

Ishsizlikning sezilarli darajasida davlat soliqlarini qisqartirish shaklida rag‘batlantiruvchi siyosatni amalga oshiradi. Ancha kam soliqlar uy xo‘jaligi daromadlari ortishiga olib keladi, bu esa xarajatlar ortishi va umumiy talab, narxlar o‘sishi, ishlab chiqarish va umumiy taklif kengayishini, natijada esa real YaIM oshishini keltirib chiqaradi. Shuningdek, ular uy xo‘jaligi jamg‘armalari o‘sishi va tadbirkorlik investitsiyalarining foydaliligi oshishini rag‘batlantiradi. Bu kapital jamg‘arish me’yori ortishi, ishlab chiqarish kengayishi, ishsizlik darajasi pasayishi va milliy mahsulot ko‘payishiga xizmat qiladi. O‘z navbatida, soliqlar ham multiplikatsion samaraga olib keladi.

Sof soliqlar multiplikatori (MRn) – bu jami talabning o‘zgarish qiymatining real sof soliqdagi berilgan o‘zgarish qiymatiga nisbati. Uning mutlaq qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

MRn=MRg-1.

Soliqlar davlat xarajatlariga nisbatan milliy mahsulot o‘zgarishiga kam darajada ta’sir ko‘rsatadi. Soliq multiplikatori iste’molga chegaraviy moyillik kattaligida davlat xarajatlari multiplikatoridan kamroq bo‘ladi:

$$MPH \square MMP \square MMR = \frac{MPC}{(1 \square MPC)}.$$

Buning sababi, davlat xarajatlari jami xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblansa, soliq faqat sarf-xarajatlarni qoplaydigan omil – umumiy xarajatlarning o‘zgaruvchilaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, tovar va xizmatlar sotib olish uchun foydalaniladigan har bir pul birligi YaIM o‘sishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilsa, soliqlar qisqarishi bilan uy xo‘jaliklari daromadining faqatgina bir qismi iste’molga o‘tadi, chunki ikkinchisi jamg‘arishga yo‘naltiriladi.

Stabillashtiruvchi siyosat modellari

Hukumat tomonidan stabillashtiruvchi fiskal siyosatni amalga oshirishning shakllari va usullarini tanlash davlat tomonidan qo‘llaniladigan davlat tartibotining konseptual modeliga bog‘liq. Bozor tizimiga ega davlatlarning nazariyasi va amaliyotida ikkita shunday model: neokeynscha va neoklassik model ajratib ko‘rsatiladi.

J.Keyns, o‘z fikriga ko‘ra, inqirozni to‘xtatishga qodir diskritsion byudjet-soliq siyosatiga alohida ahamiyat qaratadi. O‘rnatma stabillik soliqlar va milliy daromad o‘rtasidagi funksional munosabatlar mavjudligidan kelib chiqadi. Shu tariqa, to‘planadigan sof soliq miqdori sof milliy mahsulot (SMM) miqdoriga proporsional ravishda o‘zgarib boradi, o‘z navbatida, SMM o‘zgarishi bilan soliq tushumlari hajmi va yuzaga keladigan byudjet defitsiti hamda profitsitlarida avtomatik tebranishlar (ortishi yoki kamayishi) kuzatilishi mumkin (1.1-rasm).



1.1-rasm. **O‘rnatma stabillik: T – soliq tushumi; G – davlat xarajatlari.**

1-rasmda ko‘rsatilganidek, avtomatik ravishda yuzaga keladigan byudjet defitsiti hamda profitsitlari hajmi, o‘z navbatida, o‘rnatma stabillik soliqda SMM kattaligi o‘zgarishiga soliqlardagi o‘zgarishlar ta’sirchanligiga bog‘liq. Agar SMM o‘zgarishi ortidan soliq tushumlari shiddat bilan o‘zgarsa, u holda T chiziq og‘ishi tik bo‘ladi, T bilan G orasidagi vertikal masofa, ya’ni, davlat byudjeti defitsiti yoki profitsiti katta bo‘ladi. Buning natijasi iqtisodiy yuksalishning pasayishi va davlat byudjetining defitsitini bartaraf etish va byudjet profitsitini yuzaga keltirish tendensiyasini shakllantirish bo‘ladi.

Shunday qilib, Keyns nazariyasi bo‘yicha fiskal siyosatning asosiy ko‘rsatkichi byudjet pozitsiyasining o‘zgarishi, ya’ni, byudjet defitsiti yoki profitsiti hajmini oshirish hisoblanadi.

Soliq tartibotining neoklassik modeli “takliflar iqtisodiyoti” nazariyasiga asoslanib, uning tarafdorlari jamg‘armalar o‘sishi va investitsion faoliyat kengayishini ta’minlovchi shartlardan biri sifatida soliqlarning past darajasi ekanligini ta’kidlashadi. Buning uchun ular A. Lafferning byudjeti konsepsiyasidan foydalanib, unda soliqlarning chegaraviy stavkalari asosiy o‘zgaruvchan kattalik hisoblanadi. Masalan, agar chegaraviy stavkalar yetarlicha yuqori darajaga erishgan bo‘lsa, u holda tadbirkorlik tashabbuslari va ishlab chiqarishni kengaytirishga rag‘bat kamayadi, foyda pasayadi, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash jarayonlari kuchayadi, o‘z navbatida, umumiy soliq tushumlari ham kamayadi. Chegaraviy soliq stavkalarini kamaytirish qarama-qarshi ta’sirni yuzaga keltiradi.

Davlat moliyasi uchun soliqlarni kamaytirish oqibati tahlili Laffer egri chizig‘i asosida amalga oshiriladi. Soliq tushumlari soliq stavkalari va soliq bazasi mahsuli ekanligini hisobga olgan holda, Laffer ular o‘rtasidagi grafik o‘zaro aloqani kuzatadi (1.2-rasm) va soliqqa tortish me’yorlaridagi o‘zgarishlarning byudjet tushumlariga ta’sir samarasi soliq stavkasi bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish elastikligiga bog‘liq degan xulosaga keladi. Uning qiymati – 1 ga yetganda, soliq tushumlari pasaya boshlaydi. Shunday qilib, soliqqa tortish me’yorining 0 dan 100 % gacha o‘sishi ta’sirida davlat byudjetiga tushumlar 0 dan muayyan maksimal darajagacha o‘sadi, keyin esa undan yuqori soliq stavkalari

iqtisodiy faollikni sekinlashtirishi va soliq bazasini qisqartirishi tufayli yana 0 gacha pasayadi.



1.2-rasm. **Laffer egri chizig‘i**

Laffer egri chizig‘i miqdoriy mezonlarni o‘rnatmagan, ular keyinroq ishlab chiqilgan. Foydadan barcha soliq chegirmalari uning yarmidan oshmasligi lozimligi belgilab qo‘yilgan, chunki aks holda soliqning ishlab chiqarish-rag‘batlantirish funksiyasi ta’siri buziladi va u iqtisodiy faoliyatga nostabillashtiruvchi ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Foydaning 1/3 qismi yoki qiymatining 30-40 foizidan iborat soliq chegirmasi optimal hisoblanadi.

Shunday qilib, neokeynschilar soliq tartiboti mexanizmini soliq darajalaridagi o‘zgarishlar asosida (antisiklik siyosat o‘tkazish vositasi sifatida ularni pasaytirish, yuksalish davrida ishbilarmon faollikni sekinlashtirish maqsadida uni oshirish) neoklassiklar esa – jamg‘armalar va investitsiyalarning yuqori darajasini saqlab qolish, shuningdek, umumiy soliq tushumlarini kengaytirish uchun soliqlarning umumiy darajasini keng miqyosda va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda kamaytirish asosida quradilar.

Muhtaram Yurtboshimiz ta’kidlab o‘tganidek, soliq siyosatining avvalgi yilla-ridagi holatining tanqidiy tahlili mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o‘sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni

oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchan-ligi zaruriy darajasini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muam-molarning mavjudligini ko‘rsatdi. Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini sod-dalashtirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontsep-tsiyasining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.

2-BOB. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH: ASOSIY INSTRUMENTLAR VA USLUBLAR

2.1. Zamonaviy iqtisodiy tizimlarda davlat tomonidan tartibga solishning mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan mexanizmdir. Bozor iqtisodiyoti azaldan mavjud bo‘lib, u bir necha ming yillar mobaynida turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasida taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti yer yuzidagi barcha mamlakatlarda mavjud, lekin u erkin sohibkorlik hukmron joylardagina iqtisodiyotning asosiy turi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti o‘zining hozirgi darajasida bir qator muhim sifat belgilariga ega. Ulardan asosiysi tovar ishlab chiqaruvchining iqtisodiy erkinligi, ya’ni bozor uchun ishlab chiqaruvchi yoki ayrim kishining mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritishidir. Mustaqillikning birlamchi asosi – bu mulk egasi bo‘lish. Tovar ishlab chiqaruvchi mehnat vositasi egasi yoxud uni ijaraga olib, o‘zi bilganicha ishlatuvchi bo‘ladi. Shu boisdan ham u o‘zi yaratgan mahsulotning mulkdori bo‘lish, uni o‘zi bilganicha sotish yoki sotmay turish huquqiga ega. Bozorga chiqarilgan tovarni oldi-sotdi qilish sotuvchi bilan xaridorning erkin va ixtiyoriy munosabatiga asoslanadi, uni cheklash va ta’qiqlash o‘rinsiz.

Bozor iqtisodiyotiga xos tabiiy qonunlar mavjud bo‘lib, ulardan eng muhimi qiymat qonuni, talab va taklif qonuni va nihoyat, pul muomalasi qonunidir. Bozor iqtisodiyotining muhim talabi shuki, tovar ishlab chiqaruvchi kam mehnat sarflagan holda ko‘plab sifatli tovar chiqargandagina, ya’ni kishilarning talab ehtiyojini to‘laroq qondirgandagina foyda ko‘rib ishlashi mumkin. Bozor iqtisodiyotiga xos belgi bu tovar ishlab chiqaruvchilarning, umuman jamiyat a’zolarining o‘z daromadiga ko‘ra tabaqalanishidir. Ayrim korxonalar, kishilar va hatto davlatlar o‘z daromadi jihatidan tafovutlanadiki, bu tafovut ishlab chiqarish darajasidagi farqning oqibati hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti

sharoitida ishlab chiqarishning barqaror o‘sishi uchun bozor kengayib, uning turlari ko‘payib borishi, raqobat kurashi milliy doiradan chiqib xalqaro tus olishi kerak.

Iqtisodiyotni davlat moliyasi orqali tartibga solishning yuqorida bayon qilingan umumiy vazifalaridan tashqari hokimiyat organlari zimmasiga yuklatilgan aniq vazifalar ham bor. Ularga quyidagilar kiradi:



2.1-rasm. **Davlat moliyasini boshqarish organlarining milliy iqtisodiyotni tartibga solish bo‘yicha vazifalari**[4]

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichida o‘zaro bog‘liq maqsadlarni ishlab chiqish va asoslash hukumatning mamlakatni boshqarish san’ati hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining murakkabligi va o‘zaro bog‘liqligining qarama-qarshiligi, ularning ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi, tartibga soluvchi davlat organlarining o‘z maqsadlarini alohida holda emas, balki birgalikda, ularning o‘zaro bog‘liqligini inobatga olgan holda ishlab chiqishga majbur qiladi.

[4] Государственное регулирования рыночной экономики.–М.: Путь России. //Экономическая литература. 2002. С.26-27.

Iqtisodiyotni tartibga solish bo‘yicha davlat organlari oldida turgan maqsadlar ko‘p, lekin ularning ichida eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;
- mehnatga layoqatli aholi ish bilan bandligining yuqori darajasini ta’minlash;
- narxlar barqarorligini, pul muomalasi barqarorligini ta’minlash;
- tashqi iqtisodiy muvozanatni saqlash.

Iqtisodiyotni davlat moliyasi orqali tartibga solish mexanizmi o‘z ichiga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etish vositalarini oladi. Ularga quyidagilar kiradi:



2.2-rasm. **Iqtisodiyotni davlat moliyasi orqali tartibga solish vositalari**[5]

Cheklangan ishlab chiqarish resurslarini boshqarish deganda davlat o‘ziga qarashli tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, kapital, investitsion resurslarni to‘g‘ridan to‘g‘ri taqsimlash orqali iqtisodiy tizimdagi muvozanatni saqlashga, yangi nisbatlarni va mutanosibliklarni vujudga keltirishga intiladi. Ammo ba’zi hollarda cheklangan iqtisodiy resurslarning davlat tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri taqsimlanishi iqtisodiy tizimdagi muvozanatning va mutanosiblikning buzulishiga ham olib keladi.

Iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish xo‘jalik subyektlarini mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga

[5] Государственное регулирования рыночной экономики.–М.: Путь России. //Экономическая литература. 2002. С.29-30.

yo‘naltiradigan, rag‘batlantiradigan soliq stavkalari va tariflarni belgilash orqali amalga oshiriladi. Soliqqa tortish obyektlarini, soliq stavkalarini belgilash bilan bir qatorda imtiyozlar tizimi ham joriy etiladi. Soliq imtiyozlarini joriy etish davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish vositalaridan biri hisoblanadi.

Davlat moliyasining mohiyati ijtimoiy davr xarakteri bilan, jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari tabiati bilan, davlatning vazifalari bilan belgilanadi. Shu bilan birga takror ishlab chiqarishning nisbatlarini to‘g‘ri belgilashda, ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarishda, yalpi ichki mahsulot, milliy daromadni taqsimlashda va qayta taqsimlashda davlat moliyasidan muhim dastak sifatida foydalaniladi.

Davlat moliyasining mohiyati, uning roli va maqsadlari davlatlarni bajaradigan funksiyalari, ishlab chiqarish usullari, ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri bilan belgilanadi. Davlatlarning paydo bo‘lishi bilan moliyaning paydo bo‘lishini obyektiv shart-sharoitlari, davlatlar jamiyat iqtisodiy tizimidagi roli va unga tegishli bo‘lgan funksiyalarda namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiyotda xo‘jalik tarmoqlarini turli darajada rivojlanishi, xo‘jaliklararo va hududlararo iqtisodiy aloqalarni qiyinlashuvi xalq xo‘jaligi tarmoqlari va hududlarni bir-biriga bog‘liq holda va yaqin darajada iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan ta’minlanishini talab etadi. Shuning uchun ham davlat tomonidan moliyaviy tartibga solib turish muhim ahamiyatga egadir.

Davlatlarning iqtisodiy roli jamiyat iqtisodiy tizimida mulkchilik munosabatlarini isloh qilish, institutsional o‘zgarishlar, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy tenglik me’yorlarini ta’minlashdan iboratdir. Ana shunday davlatlarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rolini amalga oshirish uchun yirik miqdordagi moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi va bunday moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish jarayoni davlat moliyasini mazmunini anglatadi.

Bozor sharoitida davlatning iqtisodiyotga ta’siri mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizim va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashgan holda jiddiy to‘xtalishlarsiz normal ishlashi va muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun

shart-sharoitlar yaratish va uzluksiz tuzatishlar kiritib borishdan iborat. Bu esa quyidagilarni taqozo etadi:

- ✓ qonun ijodkorligi – xo‘jalik faoliyatining huquqiy normalarini ishlab chiqish va qabul qilish;
- ✓ yirik xo‘jalik subyektlari faoliyatini tashkil etish va tugatish;
- ✓ davlat mulkchiligidagi xo‘jalik subyektlarini bevosita boshqarish;
- ✓ butun mamlakat uchun va uning alohida hududiy tuzilmalari uchun prognozlar va indikativ rejalar ishlab chiqishda iqtisodiy vaziyat va kelgusi ehtimoliy o‘zgarishlar haqida xo‘jalik subyektlarini xabardor qilish;
- ✓ umummilliy maqsadlarda mintaqalar, sanoat va yirik korxonalarning faoliyatini tartibga solish;
- ✓ iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini moliyalashtirish va kreditlash;
- ✓ amaldagi qonunchilik buzilishining oldini olish maqsadida korxonalarning joriy faoliyatini nazorat qilish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish metodlari, ya’ni, uning subyektlari va ularning faoliyatiga ta’sir usullari shakliga ko‘ra aktiv va passiv, manzilliligiga ko‘ra bevosita va bilvosita, mazmuniga ko‘ra – huquqiy, ma’muriy va iqtisodiy usullarga ajratiladi.

Aktiv metodlar mamlakat ichida va uning tashqarisida o‘zgarib borayotgan iqtisodiy vaziyatga nisbatan davlat organlaridan tezkor tartibga solish harakatlarini taqozo etadi. Bunga misol tariqasida Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi bilan manipulyatsiyasini keltirish mumkin.

Passiv metodlar uzoq muddatli qoida va normalar (majburiy va tavsiyaviy) tizimini yaratishdan iborat bo‘lib, subyektlar bir vaqtning o‘zida jamiyat manfaatlariga rioya etgan holda o‘z manfaatlarini maksimal darajada amalga oshirish uchun ularga amal qilishi lozim. Bunday holatda davlat faqatgina majburiy talablarni buzilishini bartaraf etadi. Tegishli qonun hujjatlarini qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilib borish iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solishning passiv metodi sifatida xizmat qiladi.

Tartibga solishning **bevosita metodlari** manzilliligi, aniq subyektlar yoki jarayonlarga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

* muayyan mahsulot turlarini yetkazib berish, ishlarni bajarish, muayyan ishlab chiqaruvchilar tomonidan xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha davlat buyurtmalari va shartnomalari;

* u yoki bu hududlar, sohalar, korxonalarni qaytarilmaydigan tarzda maqsadli moliyalashtirish (subvensiyalar yoki bevosita subsidiyalar, ular turli – milliy, mintaqaviy, mahalliy darajadagi maxsus byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalardan har xil dotatsiyalar, nafaqalar, to‘lovlarni o‘z ichiga oladi);

* ishlab chiqaruvchilarga manzilli imtiyozli kreditlar berish;

* davlat mulkchiligidagi obyektlar qurilishini moliyalashtirish;

* ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha cheklashlar va taqiqlar;

* faoliyatning ayrim turlarini, tashqi savdo operatsiyalarini litsenziyalash va boshqalar.

Xo‘jalik subyekti tomonidan davlatning bunday harakatlarini inkor etish yoki iqtisodiy zararlarga, yoki ma’muriy sanksiyalarga sabab bo‘ladi.

Bilvosita metodlar bevosita mo‘ljalga ega bo‘lmaydi va iqtisodiy makondagi “o‘yin qoidalari”ni belgilab bergan holda yaxlit iqtisodiy makonga yo‘naltirilgan. Ular asosan tovar-pul dastaklariga tayanadi va xo‘jalik faoliyati subyektlarining iqtisodiy manfaatlariga ta’sir qiladi. Tartibga solishning bevosita metodlaridan farqli o‘laroq, bilvosita metodlar avtomatik ravishda amal qiladi. Ularga rioya qilmaslik, odatda, iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita metodlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

* iqtisodiy prognozlash, uning natijasida xususiy firmalar o‘z rivojlanishi, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yetarli darajada ishonchli mo‘ljallarga ega bo‘ladi;

* iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik maqsadlarini belgilash va ularni indikativ va boshqa rejalarda, maqsadli dasturlarda va hokazolarda ifodalash;

* soliqlar va soliq imtiyozlari tizimini manipulyatsiya qilish;

* narxlar va tariflar, resurslar uchun to‘lovlar, valyuta kurslari, amortizatsiya ajratmalari normalari, qayta moliyalash stavkalari, muomaladagi pul miqdori va boshqalarni tartibga solish.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan bilvosita tartibga solish ko‘lami kengayib bormoqda.

Shunday qilib, iqtisodiy manfaatlarga ta’sirning bevosita yoki bilvosita dastaklaridan foydalangan holda davlat xo‘jalik subyektlari xatti-harakatiga ta’sir qiladi. Endi ularning mazmuni nuqtayi nazaridan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish metodlarini ko‘rib chiqamiz.

Huquqiy metodlar normativ hujjatlar, talablar tizimiga tayanib, normal sharoitda barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar ularga amal qilishi lozim. Bu yerda gap, masalan, shartnomalar tuzish shartlari, korxonalar faoliyat yuritishini belgilab beruvchi huquqiy normalar, mehnat munosabatlari sohasida o‘zaro majburiyatlar, muayyan texnologiyalar va mahsulotlar sifati va sertifikatiga normativ talablar va hokazolar haqida bormoqda.

Huquqiy normalar va ularni qo‘llash mexanizmi iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va tegishli iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning asosi sanaladi. Hozirgi madaniy jamiyatda deyarli barcha xo‘jalik jarayonlari huquqiy shaklda amalga oshiriladi. Bu ularga maxsus belgilangan maqomni berib, shu orqali uning rivojlanishini sekinlashtirish, iqtisodiyot uchun zarur makonni vujudga keltirish, kerakli yo‘nalishni berish yoki uni butunlay “o‘z holiga tashlab qo‘yish” mumkin bo‘ladi. Mohirona tuzilgan qonunchilik tizimi va uni to‘g‘ri qo‘llash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini sezilarli darajada tezlashtirishi, xo‘jalik jarayonlari samaradorligini oshirishi mumkin.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, huquqiy normalar tizimi jamiyatning, xususan, iqtisodiyotning haqiqiy ahvoliga mos kelishi (bu ularni izchil o‘rganish va tushunishni talab etadi), ijobiy

tendensiyalarni rivojlantirish va salbiy tendensiyalarga barham berish uchun tegishli makonni vujudga keltirish zarur bo‘ladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishning **ma’muriy metodlari** quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) qandaydir faoliyatni taqiqlash, u yoki bu tovarlar va xizmatlarni hamda ularning komponentlarini ijtimoiy zararli, keraksiz, foydalanilishi uchun yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi deb e’tirof etish;

2) iqtisodiy faoliyatning ko‘plab turlarini olib borishga, tovarlar (dori vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari) olib kelish va olib chiqishga ruxsat berish (litsenziyalash, kvotalash va boshqalar);

3) majburlash (xodimlar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish);

4) nazorat (daromad, narxlar va hokazolar ustidan).

Ushbu chora-tadbirlar iqtisodiy manfaatlarga va ularni amalga oshiruvchi stimullarga asoslanmaydi, balki davlat hokimiyatiga, buyruq “kuchi”ga tayanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda tartibga solishning ma’muriy metodlari sezilarsiz ko‘lamda qo‘llaniladi. Ularning ko‘lami asosan atrof-muhit muhofazasi, aholining ijtimoiy kam himoyalangan qatlamini qo‘llab-quvvatlash uchun sharoitlar yaratish, tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish bilan cheklanadi.

Masalan, davlat import va eksport kvotasini o‘rnatish, muayyan tovarlar importi yoki eksportini vaqtinchalik taqiqlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi (masalan, 2006-yili Rossiyada Gruziya va Moldovadan vino, “Borjomi” mineral suvi, polyak firmalari tomonidan yetkazib beriladigan go‘sht mahsulotlari va hokazolarni olib kirish taqiqlangan edi). Davlat korxonalarni joylarda xodimlar malakasini oshirish, ishlab chiqarish o‘quvini tashkil qilish, xodimlari uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishni majbur qilib qo‘ydi.

Iqtisodiy metodlar xo‘jalik subyektlarining moddiy manfaatdorligiga ta’sir qiladi. Bunga quyidagilar kiradi:

* soliqlar va byudjet to‘lovlari, ular orqali xo‘jalik subyektlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri manzilli ta’sir amalga oshiriladi;

* pul-kredit instrumentlari (Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan hisob stavkasini manipulyatsiya qilish, moliya institutlari Markaziy bankda saqlashi majburiy bo‘lgan minimal zaxiralar miqdorini belgilash va o‘zgartirish, davlat majburiyatlari emissiyasi, ular bilan savdo qilish va qaytarish kabi davlat qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalar). Ushbu instrumentlar yordamida davlat moliya bozorida talab va taklif nisbatini kerakli yo‘nalishda o‘zgartirishga intiladi;

* amortizatsiya siyosati;

* iqtisodiyotni dasturlash, prognozlash va rejalashtirish;

* davlat mulki obyektlarini tashkil etish va ularning asosida xususiy biznes samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi tadbirkorlik va boshqa faoliyatni amalga oshirish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish metodlari orasida butunlay yaroqsizi va samarasizi yo‘q, ularning barchasi kerak; bunda eng asosiysi – u yoki bu metodni qaysi sohalarda qo‘llash va maqsadga muvofiqligini aniqlash hisoblanadi.

Boshqaruv – odamning turli obyektlarga va tevarak olamda kechayotgan jarayonlarga, shuningdek, ular bilan bog‘liq odamlarga ongli ta’sir etishi bo‘lib, bu jarayonlarga muayyan yo‘nalish berish va kerakli natijalarga erishish uchun amalga oshiriladi.

Boshqaruv ta’siri yo‘naltirilgan obyekt turiga, boshqarayotganlar qanday odamlar doirasiga ta’sir o‘tkazayotganiga bog‘liq ravishda, jamiyatni, davlatni, iqtisodiyotni, ijtimoiy jarayonlarni, korxonalarni, ishlab chiqarish jamoalarini va uy xo‘jaliklarini boshqarish kabi turli xil moliyaviy boshqaruvlar ajratib ko‘rsatiladi.

Moliyaviy boshqaruv – ularni takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida moliyaviy, aralash iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga ta’sir ko‘rsatish jarayonidir.

Moliyaviy boshqaruvni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Moliyaviy boshqaruv obyektlarining manfaatlarini hisobga olish nuqtayi nazaridan iqtisodiy va ma’muriy boshqaruv farqlanadi.

2) Boshqariladigan obyektga ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha tarmoq va hududiy moliyaviy boshqaruv uchun ajratiladi.

3) Qabul qilinayotgan qarorlarni bajarish muddatiga bog‘liq holda boshqaruv tezkor va strategik moliyaviy boshqaruvga bo‘linadi.

Moliyaviy boshqaruv asosida quyidagi tamoyillar yotadi:

– ilmiy asoslanganlik;

– maqsadga muvofiqlik, sifat va miqdoriy jihatdan aniqlik;

– optimallik;

– o‘z vaqtidalik;

– haqqoniylik.

Moliyaviy boshqaruv tizimi moliya organlarini umume’tirof etilgan moliyaviy islohotlarning dasturiy maqsadlari va vazifalariga muvofiq kuchlar bilan ta’minlash bo‘yicha metodik va tashkiliy jihatdan o‘zaro bog‘liq chora-tadbirlar majmuini o‘zida aks ettiradi.

Moliyani davlat tomonidan tartibga solish – bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan davlat moliyaviy boshqaruvining ajralmas qismidir.

Davlat moliyaviy tartibotining shakllari sifatida byudjet-soliq, pul-kredit va ma’muriy tartibga solishni aytish mumkin.

Byudjet-soliq tartiboti davlat byudjetini ishlab chiqish, tasdiqlash va ijro etishni talab qiladi. Pul-kredit tartiboti davlatning valyuta barqarorligini saqlash, inflyatsiyaga qarshi kurash bo‘yicha harakatlarini o‘z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyotini ma’muriy tartibga solish majburiy kartellashtirish yoki kichiklashtirish, litsenziyalash, kvotalash va h.k. kabi chora-tadbirlar bilan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy tartibotiga oid instrumentlar:

– iqtisodiy prognozlash;

– iqtisodiy rivojlanishni dasturlash;

– iqtisodiy rivojlanishni byudjetlashtirish;

– indikativ rejalashtirish.

Moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va asoslash metodlari ro‘yxati juda ko‘plab aniq yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bunga quyidagilar kiradi:

tuzilmaviy-mantiqiy va matematik modellar;

balansli va omilli metodlar;

“maqsadlar daraxti” vositasidan foydalangan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqish metodlari;

moliyaviy rivojlanish variantlarini optimallashtirish va shu asosda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash metodlari;

iqtisodiyotning tarmoq tuzilmalarini istiqbol uchun asoslash instrumenti sifatida tarmoqlararo balanslashtirish;

ratsional mintaqalararo munosabatlarni asoslashning balansli metodlari.

Davlat bir qator omillarga bog‘liq ravishda iqtisodiy taraqqiyotda ishtirok etadi:

– tanlangan jamiyatni rivojlantirish modeli;

– siyosiy tuzum;

– mavjud an’analar;

– tashqi omillar.

Bunda u quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– iqtisodiy rivojlanish normal kechishiga imkon beruvchi huquqiy bazani belgilaydi;

– raqobatni himoya qiladi va monopol faoliyatni cheklaydi;

– daromad va boylikni qayta taqsimlaydi;

– iqtisodiyotni barqarorlashtirishga ko‘maklashadi;

– resurslarni qayta taqsimlaydi.

Ushbu funksiyalar to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita moliya tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu aloqa ko‘proq oxirgi 3 funksiyada namoyon bo‘ladi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiy jarayonlarga davlat aralashuvi nafaqat zarur, balki asoslangan sanaladi.

Davlatning moliya, kredit va soliq siyosati jamiyatning iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy barqarorlashuviga xizmat qilishi lozim.

Bozor jarayonlariga davlat aralashuvi ko‘proq yumshoq iqtisodiy va huquqiy metodlar orqali amalga oshirilishi kerak.

Davlat moliyaviy tartibotining minimal va maksimal chegaralarini aniqlash mumkin.

Minimal talab qilinadigan davlat tomonidan tartibga solish normal faoliyatni ta’minlash, jumladan, iqtisodiyotning davlat sektori, mudofaa va xavfsizlik, mudofaa sanoati, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ilm-fan,

madaniyat va davlat apparatini moliyalashtirish; ijtimoiy ne’matlarni zarur miqdorda va kerakli sifatda ta’minlash; inflyatsiyaga qarshi va inqirozga qarshi siyosatni amalga oshirish bilan cheklanadi.

Davlat tomonidan tartibga solishning maksimal ruxsat etilgan chegaralari bozor mexanizmining normal ishlashiga putur yetkazmaydigan shakllar va miqdorlarda bozor jarayonlariga aralashuvi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning turlari:

- aralashmaslik;
- normativ va huquqiy tartibga solish;
- dirijizm.
- indikativ va direktiv rejalashtirish.

Iqtisodiyotning davlat tomonidan moliyaviy tartibga solish – bu uning faoliyatini har bir aniq bosqichida iqtisodiyotning makroiqtisodiy muvozanatiga ta’sir ko‘rsatish uchun davlat shakllari va xo‘jalik subyektlarida moliyaviy ta’sir metodlarini maqsadga yo‘naltirilgan va izchil tarzda qo‘llash jarayonidir.

Tartibga solish jarayoni turli kategoriyalar va ularning elementlaridan foydalangan holda obyektiv va subyektiv omillar, iqtisodiy faoliyat shart-sharoitlarining xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun mazkur asoslarga ko‘ra davlat tomonidan tartibga solish tizimini chegaralash turlari, ko‘rinishlari, shakllari va metodlarini tasniflash muhim sanaladi.

Ularning turlari quyidagilardir: iqtisodiy (moliyaviy, kredit, narx, valyuta) va ma’muriy.

Moliyaviy tartibga solinadigan turlari: soliq, byudjet, moliya-kredit, bojxona-tarif, valyuta-moliyaviy, ichki firma.

Tartibga solish shakli moliyaviy subkategoriyaning tegishli ko‘rinishi uchun ham, boshqa barchasi uchun ham xarakterli bo‘lgan sanab o‘tilgan turlarda sodir bo‘layotgan jarayonlarni anglatadi: masalan, byudjet ko‘rinishida quyidagi shakllar sanaladi: moliyalashtirish (subvensiyalar, subsidiyalar, transfertlar), soliq ko‘rinishida – bevosita va bilvosita soliqqa tortish, valyuta-moliya ko‘rinishida – tashqi investitsiyalash, tashqi zayomlar va tashqi qarzlar.

Rejalashtirish (prognozlash) umumiy shakl hisoblanadi.

Tasnifning eng ko‘p sonli elementlari ham tartibga solish metodlari sanalib, ular alohida shakllar uchun maxsus bo‘lishi (masalan, soliqda stavka metodi, zayomlardagi konversiya) yoki bir nechta shakllarda foydalanish uchun qo‘llanilishi mumkin (masalan, byudjetlarda va xo‘jalik subyektlarining moliyaviy rejalarida balanslash metodi, ushbu shakllarda zaxiralarni shakllantirish). Uslublar mustaqil usullar, uslublar bilan ajralib turadi va tartibga solish tizimining o‘zgaruvchan elementlari hisoblanadi.

Davlatni tartibga solish tizimining turlari - usullari, uslublari shakllari tanlangan yo‘nalishda muvofiqlashtirilgan, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Bozor sharoitida davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullariga ko‘proq e’tibor beradi. Ayniqsa, ishlab chiqilgan rivojlanish yo‘lidan sezilarli darajada noto‘g‘ri chayqalishlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri, aniq ko‘rsatmalar bilan to‘ldiriladi.

Boshqaruv obyektlari uchta makroiqtisodiy tuzilmalardan iborat. Birinchidan, bu umumiy ishlab chiqarish: barcha mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar majmuasi. Ikkinchidan, tartibga solishning obyekti yalpi ijtimoiy mahsulot sanaladi: muayyan davr uchun mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar (mahsulot va xizmatlar)ning umumiy miqdori. Uchinchidan, bu yalpi ehtiyojni o‘z ichiga oladi: jamiyatning barcha a’zolari ehtiyojlarining umumiy miqdori.

Ushbu makroiqtisodiy tuzilmalar uchta doiraviy diagramma ko‘rinishida keltirilgan (2.3-rasm).



2.3 -rasm. **Davlatning mikroiqtisodiy tuzilmasi**

Birinchi navbatda, jamiyatning barcha ehtiyojlarini qondiradigan ijtimoiy mahsulotni yaratish uchun ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan barcha hukumat obyektlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Kompleks ijtimoiy mahsulot tarkibidagi o‘zgarishlar ijtimoiy ishlab chiqarishdagi tarkibiy o‘zgarishlarga imkon beradigan o‘zgaruvchan umumiy ehtiyojlarning ta’siri bilan izohlanadi.[6]

Ushbu bevosita va teskari aloqalarning oshkor qilinishi makroiqtisodiy tartibga solishning asosiy maqsadini aniqlash imkonini beradi. Uning maqsadi xalq xo‘jaligining proporsionalligini doimiy ravishda ta’minlash sanaladi. Bu yerda gap ikkita o‘zaro bog‘liq nisbat haqida ketmoqda.

1. Jamiyatni o‘z hayot faoliyatida zarur moddiy shartlar bilan normal ta’minlash uchun quyidagilarning tengligini ta’minlash kerak:

- barcha ne’matlarni ishlab chiqarish;
- yalpi ijtimoiy mahsulot;
- jamiyatning umumiy ehtiyojlari.

2. Shu bilan birga, quyidagi tuzilmalarning bir-biriga mos kelishini ta’minlash kerak: ijtimoiy ishlab chiqarish (uning tarmoq tarkibi); yalpi ijtimoiy mahsulot (tovarlarning toifasiga kirishi); ijtimoiy ehtiyojlar (ularning turli xil turlarga bo‘linishi).

Agar ushbu nisbatlarga rioya etilmasa, turli xil disbalanslar yuzaga keladi. Bu yerda gap makroiqtisodiyotni proporsional rivojlantirishga oid obyektiv iqtisodiy qonun haqida ketmoqda. Ushbu qonun oddiy iqtisodiy tizim mavjudligini, odamlar irodasi va xohishidan qat’i nazar, ya’ni ishlab chiqarish, ijtimoiy mahsulot va ehtiyojlarning umumiy miqdori va tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni doimiy ravishda saqlab qolish zarurligini aks ettiradi.

Makroiqtisodiyotning proporsional rivojlanish qonunining buzilishi bizga ma’lum makroiqtisodiy nomutanosiblik turlarida namoyon bo‘ladi:[7]

[6] Васильев, В. П. Государственное регулирование экономики : учебник и практикум для СПО / В. П. Васильев. — 3-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 164 с.

[7] Васильев, В. П. Государственное регулирование экономики : учебник и практикум для СПО / В. П. Васильев. — 3-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 164 с.

a) tuzilmaviy inqirozlar (ishlab chiqarishning elementar tarkibi va umumiy ehtiyojlarning nomutanosibligi);

b) ortiqcha ishlab chiqarish iqtisodiy inqirozi (ishlab chiqarishning umumiy hajmining to‘lovga qobil ehtiyojlarning umumiy hajmidan oshib ketishi);

v) ommaviy ishsizlik (mehnat bozorida ishchi kuchiga taklifga nisbatan talabning kamayib ketishi);

g) inflyatsiya (pul taklifining ularga talabdan ortib ketishi).

Bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zini tartibga soluvchi va o‘z-o‘zini rivojlantirish tizimini aks ettiruvchi murakkab va doimiy rivojlanuvchi mexanizmdir. Bozor sharoitida iste’molchilar ham, ishlab chiqaruvchilar ham faqat o‘z shaxsiy manfaatlariga rioya qilishadi.

Makroiqtisodiy tartibga solish milliy iqtisodiyotni tashkil etish va tartibga solishning ommaviy usulidir. U quyidagi funksiyalarni bajaradi: millatning butun iqtisodiyotini yagona tizimda birlashtiradi; barcha quyi iqtisodiy aloqalarning ishlab chiqarish faoliyatini boshqaradi; ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq ishlab chiqarish tarmoqlari va turlari bo‘yicha mehnat va ishlab chiqarish vositalarini taqsimlaydi; yuqori samarali boshqaruvni rag‘batlantiradi.

Makroiqtisodiy tartiblagich muayyan obyektiv talablar, ayniqsa, yagona milliy iqtisodiyot sharoitida faoliyat yurita boshlaydi. Bu kabi sharoitlar birinchi marta rivojlangan tovar ishlab chiqarishni va qamrab oluvchi bozorni yaratadi. Ushbu rasmda iqtisodiy mexanizmning boshlang‘ich turi bozor mexanizmi bo‘lgan.

Tovar-bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlarning birja qiymati iqtisodiy nisbatlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi o‘ziga xos shakl sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun bozor iqtisodida milliy iqtisodiyotning mutanosib rivojlanish qonuni muayyan shaklda - makroiqtisodiy talabning muvozanat qonuni va makroiqtisodiy taklif sifatida namoyon bo‘ladi.

Makroiqtisodiy talab - bu jamiyat a’zolarining barcha ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflaydigan pul miqdori. Umumiy talabning hajmi quyidagi omillarga bog‘liq: narx darajasi; aholi daromadlari; iste’mol uchun daromadlarni taqsimlash

(joriy talab) va to‘planish (kelajak uchun kechiktirilgan talab); soliqlar (davlatga berilgan daromad qismlari); davlat xaridlari (davlat talabi); kredit muassasalaridan pul takliflari.

Makroiqtisodiy taklif – ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilarni barcha mijozlarga sotadigan tovarlar va xizmatlar narxlarining yig‘indisi. Yalpi taklifning hajmi quyidagi omillar bilan belgilanadi: bozor bahosining darajasi; mamlakatda ishlab chiqarishning potensial hajmi; ishlab chiqarish xarajatlari darajasi; ishlab chiqarishdan tijoriy foyda.

Makroiqtisodiy talab va makroiqtisodiy taklif o‘rtasida muayyan o‘zaro bog‘liqliklar mavjud.

Ular yakuniy o‘zaro bog‘liqlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Butun bozor xo‘jaligi miqyosidagi tartibga solish obyektlari ikkita doiraviy diagramma ko‘rinishida grafik tasvirlash mumkin (2.4-rasm).



2.4-rasm. **Bozor xo‘jaligining makroiqtisodiy nisbatlari**

Makroiqtisodiy talab va makroiqtisodiy taklif muvozanati qonuni erkin raqobat ustunlik qilgan davrda klassik kapitalizm sharoitida to‘liq amal qila boshlagan. Ma’lumki, XVIII–XIX asrlarda bunday sharoit Angliyada mavjud edi. Milliy xo‘jalikni bozor tomonidan tartibga solish mexanizmini ilk marta A.Smit nazariy o‘rgangani tasodifiy emas, u bozor tomonidan tartibga solish mexanizmi to‘g‘risida uchta asosiy qoidani ilgari surdi va asoslab berdi.

Birinchi qoida – davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishiga aralashmaslik. Ushbu tamoyil **laissez faire** ifodasini oldi. Xalqlar boyligi haqidagi kitobda A. Smit mamlakatni himoya qilish, adliya

idoralari, muayyan jamoat ishlari va davlat muassasalari (savdoni yengillashtirish, uni rag‘batlantirish, ta’lim uchun) uchun barcha turdagi davlat xarajatlarini aniq belgilab berdi. Ko‘rib turganimizdek, davlat xarajatlari ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiy boshqaruv xarajatlarini o‘z ichiga olmaydi.

Ikkinchi qoida – barcha xususiy tovar va xizmat ishlab chiqaruvchilarini jamiyat manfaati uchun harakatga keltiradigan “ko‘rinmas qo‘l” to‘g‘risida. A. Smitning fikriga ko‘ra, o‘z foydasini o‘ylaydigan tadbirkor “ko‘rinmas qo‘l” tomonidan aslida mutlaqo o‘z maqsadlariga kirmagan maqsadga yo‘naltiriladi. “Ko‘rinmas qo‘l”, albatta, bozordir. Har qanday muayyan samarali talabni qondirishga intilgan har bir tovar ishlab chiqaruvchisi jamiyatning umumiy ehtiyojlarini qondirishning umumiy sababiga jiddiy qiziqish bildiradi.

Uchinchi qoida – bozor tomonidan o‘zini-o‘zi tartibga solish mexanizmi to‘g‘risida. Bu mexanizm tovarlar ishlab chiqarish (tovarlar taklifi) va bozor talabi o‘rtasidagi bevosita va teskari iqtisodiy aloqalarni o‘z ichiga oladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik, mahsulot ishlab chiqarish (ta’minot) talabni oldindan belgilab beradi. Bir-biridan mustaqil bo‘lgan barcha xususiy tadbirkorlar, xaridorlar ehtiyojlari (talabi) bilan bog‘liq muammolarni mustaqil ravishda hal qiladilar: nima, qanday va kimga ishlab chiqarish kerak. Holbuki, klassik kapitalizm sharoitida, bozor narxlariga ta’sir qila olmaydigan alohida ishlab chiqaruvchilar, haqiqiy xaridorlarni va ularning so‘rovlarini bilmasdan ko‘r-ko‘rona harakat qiladilar. Shu sababli, ishlab chiqarish (ta’minot) va talab o‘rtasida o‘z-o‘zidan rivojlanib boruvchi aloqa, maqsadga erishish emas, balki ko‘pincha “muvaffaqiyatsizliklar”ni keltirib chiqarishi mumkin. [29]

Barcha tovarlar ishlab chiqaruvchilari bozordan ishlab chiqarishgacha bo‘lgan munosabatlardan foydalanadilar. Bunday aloqalar bozor narxlarining tizimi bo‘lib, doimiy ravishda signallarni – talab va taklif o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida ma’lumot jo‘natadi. Ushbu ma’lumot tadbirkorlarning ishlab chiqarishdagi harakatlariga o‘zgartirishlar kiritish imkonini beradi: ular yuqori talabga ega bo‘lgan va yanada daromadli bo‘lgan tovarlar ishlab chiqarishga o‘tishadi.

Bozorning o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi o‘z faoliyatining tarixiy chegaralariga ega. Bozorda kichik va mustaqil tovar egalari mavjud bo‘lsa, avvalambor o‘zining funksiyalarini to‘g‘ri bajarishi mumkin. Ikkinchidan, erkin raqobatning rivojlanishiga bog‘liq. Uchinchidan, bozor narxlarining tartibga soluvchi roli o‘zini to‘liq namoyon qilishi kerak.

Biroq XX asrning boshlarida bozorda mezoiqtisodiyotning paydo bo‘lishi va rivojlanishi natijasida to‘liq inqilob sodir bo‘ldi. Butun XX asr mobaynida ishlab chiqarish va muomalada yirik korporativ va moliyaviy kapital hukmronlik qildi. Erkin raqobat o‘rniga monopoliyalar va oligopoliyaning dominant pozitsiyasi keldi. Mezoiqtisodiyot subyektlari sotuvchilar va xaridorlarning xatti-harakatlarini bozor tomonidan tartibga solish bo‘yicha butun mexanizmni yo‘q qilishdi. Jahon xo‘jaligining xarobalari timsolida klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyaning ko‘plab olimlari (eskirgan qoidalari)ning umumiy kamchiliklari barcha uchun yaqqol namoyon bo‘ldi.

O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan bozor iqtisodiyoti yalpi taklif va yalpi talabning uzoq muddatli balansini ta’minlay olmasligi aniq bo‘ldi. SHu bilan birga, neoklassik dogma e’tiqodiga ishonuvchilar uchun bir xil tushuncha mavjud edi: bozor tizimi jamiyatni inqiroz va ishsizlikdan qutqara olmaydi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyotida “sof” va “mukammal” raqobat amal qilishi inkor etildi. Shunday qilib, barcha haqiqiy ahvolni anglab yetdi: XX asrda “nomukammal” raqobat bor. Bu tabiiy, qonuniy va boshqa monopoliyalarning keng tarqalishi, oligopoliya sanoatida ustunlik va monopol raqobat rivojlanishini anglatardi.

Nihoyat, milliy iqtisodiyot hech qanday davlat aralashuvisiz muvaffaqiyatli rivojlana olmasligi ayon bo‘ldi. Yangi makroiqtisodiy tartiblagichni izlash vaqti keldi.

Shu tariqa davlat chuqur iqtisodiy jarlikdan chiqish uchun barcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga oldi. Shunday qilib, AQShda prezident Ruzvelt iqtisodiy siyosatning “yangi yo‘nalishi”ni amalga oshirish uchun mutlaq vakolatlarga ega bo‘ldi. Ushbu kurs (1933-1938)

makroiqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning quyidagi tadbirlarini o‘z ichiga oldi:

1. Davlat aholi omonatlari xavfsizligini kafolatlashi sababli kredit tizimini to‘liq barbod bo‘lishdan qutqardi.

2. Pulni qadrsizlantirish yordamida fuqarolar uchun qarz yuki 40 foizga kamaydi (ular qarzlar uchun oldingi qiymatini yo‘qotgan dollar bilan hisoblashishdi).

3. “Sanoatni tiklash to‘g‘risida”gi qonun (1933 y.) “Adolatli raqobat kodekslari”ni amaliyotga joriy etishni nazarda tutib, bu sotish bozorida taqsimlanadigan mahsulot bahosini ma’lum darajada belgilab berdi.

4. Qishloq xo‘jaligini tartibga solish to‘g‘risidagi qonun (1933 y.) fermerlarni kasod bo‘lishdan qutqarish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bahosi oshirilishini ta’minladi.

5. Ishsizlikni kamaytirish maqsadida hukumat jamoat ishlarini tashkil qildi.

6. Mehnatkashlarning qashshoqlashuvini bartaraf etish uchun maoshni tartibga solish joriy etildi. Birinchi marta eng kam ish haqi joriy qilindi va eng kam ish haqi belgilandi. Davlat aholining qashshoqlashgan qatlamlariga moddiy yordam bera boshladi.

Amaliyotda davlatning inqirozga qarshi siyosatining yuqori samaradorligi isbotlandi. Shunday qilib, 1930-yillarda G‘arbda milliy iqtisodiyotni tartibga solish uchun mutlaqo yangi iqtisodiy mexanizmga haqiqatan ham inqilobiy o‘tish amalga oshirildi, bu hokimiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini fojiali zarbalardan qutqarish uchun mo‘ljallangan edi. Iqtisodiyot nazariyasining neoklassik yo‘nalishi bo‘yicha sifat jihatidan boshqa makro tartibga soluvchiga o‘tishning ajralmas qismiga aylandi.

Taniqli ingliz iqtisodchisi Jon Keyns yangi paradigma, ya’ni makroiqtisodiy muammolarni hal etish namunasiga aylangan muammolarni shakllantirish nazariyasi va modelini yaratdi. Bu iqtisodiy nazariyaning yangi bo‘limi – bozordagi stixiyali vayronkor kuchlarni to‘xtatishga qodir makroiqtisodiyotga va uning tartiblagichiga o‘tishni boshlab berdi. Keynschilikni makroiqtisodiy tartibga solish masalasida klassik va neoklassiklardan ajratib turadigan yangi tamoyillari qanday?

Birinchi tamoyil: milliy iqtisodiyotning tartiblagichi umuman olganda bozor emas, balki davlat sanaladi.

Davlat tartiblagichining bozor tartiblagichidan asosiy farqlari quyidagi 2.1-jadvalda keltirilgan.

2.1-jadval

Iqtisodiyotning bozor va davlat tartiblagichlarining belgilari

Bozor tartiblagichi	Davlat tartiblagichi
Xo‘jalik qarorlari (nima, qanday va kim uchun ishlab chiqariladi) mikroiqtisodiyot darajasida va firmalar hamda uy xo‘jaliklari manfaatlari yo‘lida qabul qilinadi	Boshqaruv qarorlari makro darajada qabul qilinib, umummilliy maqsadlar va manfaatlar hisobga olinadi
Firmalar va uy xo‘jaliklari o‘rtasida gorizontal (hamkorlik) iqtisodiy munosabatlarga ta’sir o‘tkaziladi	Milliy iqtisodiyotni boshqarish vertikal ravishda (yuqoridan pastga: davlatdan firmalar va uy xo‘jaliklariga) tuziladi
Iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish faqatgina shartnoma tamoyillari va moddiy manfaatlarga asoslanadi	Ierarxik aloqalar (iqtisodiy aloqaning eng past darajasiga bo‘ysunish tartibida) ko‘pincha iqtisodiy majburlashlar (soliq, bojxona to‘lovlari va boshqalar) asosiga quriladi

Siyosiy funksiyalardan tashqari, davlat iqtisodiy vazifalarni ham bajaradi.

U o‘z mulkiga ega bo‘lgan milliy iqtisodiyotning yetakchi subyektiga aylanadi. Shu asosda ma’lum makroiqtisodiyotning alohida davlat sektori shakllantiriladi. U ikki yo‘l bilan vujudga keltiriladi:

a) boshqa mulkdorlardan mol-mulkni sotib olish evaziga iqtisodiyotni milliylashtirish (davlatlashtirish) yo‘li bilan;

b) investitsiyalar hisobidan ilmiy va texnologik inqilob tomonidan ishlab chiqarilgan eng yangi sanoat tarmoqlarini tashkil etish orqali.

Ikkinchi tamoyil: milliy iqtisodiyotni prognozlashtirish va rejalashtirish.

Davlat tomonidan tartibga solishning asosi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining bir yil, o‘rta muddatli (3-5 yil) va uzoq istiqbol (10, 20 yil) uchun ilmiy prognozi sanaladi. Bunday prognozlar milliy hisoblar va tarmoqlararo balanslar yordamida aniqlanadigan xalq xo‘jaligi mutanosibligiga erishishda ko‘maklashadi.

Odatda, prognozning uchta varianti mavjud:

– pessimistik (ko‘rsatkichlar bo‘yicha eng kichkina);

– optimistik (ko‘rsatkichlarning eng yuqori qiymati bilan);

– bazaviy (aniq ko‘rsatkichlar bilan). U davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining strategik yo‘nalishlari va vazifalarini aks ettiradigan davlat rejasining asosi sifatida qabul qilinadi.

Rejalashtirilgan vazifalar qat’iyligi darajasiga ko‘ra, ikkita reja tuziladi: direktiv (qat’iy majburiy bajarilishi uchun) - birinchi navbatda davlat korxonalarida qo‘llaniladi; ko‘rsatkich (tavsiya, yo‘naltiruvchi). Ikkinchidan, ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishni ta’minlaydigan bir qator dasturlar mavjud. Kompaniyalar davlat buyurtmalarini berish orqali ularni amalga oshirishda ishtirok etishadi. Davlat tegishli tanlovlarni o‘tkazib, firmalarni tanlaydi.

Uchinchi tamoyil: davlat tomonidan “samarali talab” siyosatini amalga oshirish.

J. Keyns “Bandlikning umumiy nazariyasi, foiz va pullar” asarida (1936) ishlab chiqarishning pasayishi va ishsizlikning ortishi sabablarini tadqiq qildi. U bu sabablarni shaxsiy iste’mol va mahsulot ishlab chiqarish uchun iste’mol talabining yetishmasligida ko‘rgan. Uning fikricha, bu kabi yetishmovchilik daromad o‘sib borishi bilan foydali tovarlarga bo‘lgan talabning ortish sur’ati pasayishi bilan bog‘liq: odamlarda “iste’molga moyillik” kamayadi va “jamg‘arishga intilish” kuchayadi. J.Keyns ta’kidlashicha: “Asosiy psixologik qonun... shundan iboratki, daromadlari ortib borishi bilan odamlar o‘z iste’molini oshirishga moyil bo‘ladi, lekin bu daromadlari o‘sib borayotgan darajada bo‘lmaydi”.

Keynsning fikricha, davlatning asosiy vazifasi daromadlar ko‘payishiga olib keladigan “samarali talab”ning yuqori hajmini ta’minlashdan iborat.

To‘rtinchi tamoyil: samarali talab siyosati milliy xo‘jalikni boshqarish uchun zarur bo‘lgan ilmiy makroiqtisodiy modellarga asoslanadi.

J.Keyns iqtisodiy nazariyaga yangi sifat berdi. Bu, xususan, narx tizimining o‘z-o‘zidan tartibga soluvchi rolining bu jarayonning sonini hisobga olmasdan, faqat nazariy tahlilga qaratilgan klassik siyosiy iqtisodning fonida sezilarli. Keynschilik milliy iqtisodiyotning ekonometrik tahlilida “birinchi sahifa”ni ochdi. Uning arsenalida eng muhim matematik vositalar va texnikalar mavjud edi.

Birinchi marta umumlashtirilgan iqtisodiy qadriyatlar butun milliy iqtisodiyotni qamrab olgan holda qo‘llanila boshlandi. Mustaqil o‘zgaruvchanliklar aniqlandi, ular davlat tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qila olmaydilar (aholining iste’mol qilish va to‘planish tendensiyasi, foiz stavkasi va boshqalar). Mustaqil o‘zgaruvchilarga (ishsizlik miqdori, milliy daromad va boshqalar) ta’sir ko‘rsatishiga qarab o‘zgaruvchilar aniqlanadi. Ushbu ikki guruhning matematik modellardagi o‘zgaruvchan munosabatlari miqdori soni aniqlandi.

Keyns ommaviy ishsizlikning muqarrarligini tan olmadi va milliy miqyosda tartibga solinadigan milliy iqtisodiyotning mumkin va zarurligiga ishondi. U makroiqtisodiy o‘zgaruvchanlarning umumiy miqdoridagi miqdoriy aloqalarini - yalpi investitsiyalar va milliy daromadlarni o‘rganib chiqdi; investitsiya va ish bilan ta’minlash; milliy daromad, iste’mol va jamg‘arma; muomaladagi jami pul miqdori, narxlar darajasi, ish haqi, daromad va foizlar. Keyns mavjud bo‘lgan iqtisodiy tizim ichida hukumat tomonidan nazorat qilinishi yoki boshqarilishi mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchan narsalarni topishga harakat qildi. U tabiatan mumkin bo‘lgan va iqtisodiy prognozlash uchun zarur bo‘lgan “kutilgan toifalar” (kutilgan foyda, prognozdagi ishlab chiqarish narxlari, narxlarda kutilayotgan o‘zgarishlar, pul mablag‘lari, foizlar va boshqalar)dan keng foydalangan.

Ma’lumki, davlat bozor raqobat mexanizmlaridan tashqarida bo‘lgan ijtimoiy tovarlar guruhiga oid mahsulotlar (milliy aylanma, ta’lim, aloqa, transport tizimi va boshqalar) ishlab chiqarilishi va fuqarolarga yetkazib berilishida mas’ullikni o‘z zimmasiga olishi lozim.

Bozor raqobat mexanizmi hal qilmaydigan muammolar orasida tashqi yoki qo‘shimcha ta’sirlar (eksternaliya) ham mavjud. Tashqi ta’sirlar – narxlarda aks ettirilmagan bozor sarflari yoki foydalari. Salbiy tashqi ta’sir – bu muayyan iqtisodiy agentning boshqalar faoliyati natijasida yuzaga kelgan xarajati. Pozitiv tashqi ta’sir – bu muayyan iqtisodiy agentning boshqalar faoliyati natijasida yuzaga kelgan foydasi. Qandaydir mahsulotni ishlab chiqarish atrof-muhit ifloslanishiga olib kelsa, odatda, qo‘shimcha xarajatlar talab etiladi (aholi uchun suvni tozalash, sog‘liqni saqlash xarajatlari va boshqalar). Bunda ishlab chiqarilishi shunga o‘xshash qo‘shimcha ta’sirlarga sabab bo‘lgan mahsulot narxida bu aks etmasligi ham mumkin.

Bozor mexanizmi insoniyat uchun haqiqiy falokatga aylangan hodisalarga tezkor javob qaytarmaydi. Tashqi yoki qo‘shimcha ta’sirlar davlatning bevosita nazoratiga asoslangan holda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni ijtimoiy istiqbollari nuqtayi nazaridan baholash va ularni hal qilish uchun tartibga solinishi mumkin. Davlat sog‘liqni saqlash, ta’lim, turli xil xayriya dasturlarini subsidiyalashtiradi, chunki bu yo‘nalishdagi faoliyatni amalga oshirishdan nafaqat moddiy ne’matlarni bevosita oluvchilar, balki butun jamiyat foyda ko‘radi. [24]

Tranzaksion xarajatlar – bu firmaning shartnoma tuzish, tovarlarni ishlab chiqarish va sotish hamda o‘z faoliyatini tashkil etishda aloqalarni o‘rnatishda firmaga barcha ishlarni va xizmatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan chegaraviy xarajatlar, mulk huquqlarini o‘tkazish bilan bog‘liq ayirboshlash xarajatlaridan iborat. Muammoni faqatgina bozor mexanizmidan foydalanib hal qilish qiyin. Masalan, tezkor avtotrassa xizmatlarining kirish va chiqish joylarida har bir foydalanuvchi alohida haq to‘lashi tirbandliklarni yuzaga keltirgan, manzilga yetib olishni qiyinlashtirgan va oxir-oqibat bunday yuqori tezlikda yo‘nalish qurishning barcha afzalliklarini yo‘qqa chiqargan bo‘lardi. Yuqori tranzaksion xarajatli tovarlarni moliyalashtirishni davlat

o‘z zimmasiga olishi ko‘proq foyda keltiradi. Xuddi shu narsa ishlab chiqarish sug‘urtasiga ham tegishli (ishsizlik, keksalik holati uchun). Xususiy sug‘urta kompaniyalaridan farqli ravishda, davlat reklamaga, ma’muriy apparatni saqlash va sug‘urta agentlarini qo‘llab-quvvatlashga pul sarflamaydi, bu esa tranzaksion xarajatlarni sezilarli darajada qisqartiradi va jamiyatning ularni umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

Aynan davlat tartiblagichi ta’sirini kuchaytirishga olib kelgan asosiy sabablar esa quyidagilardan iborat:

Birinchidan, davlat hududiy boshqaruv va xalqaro munosabatlarning ishonchliligi va yaxlitligini ta’minlaydi, uning subyektlarining jahon bozoridagi mavqeini himoya qiladi.

Ikkinchidan, davlat umuman aholining uzoq muddatli manfaatlarini belgilaydi. Biznes bunday maqsadlar va manfaatlarni hurmat qilishi lozim.

Uchinchidan, davlat mamlakatda iqtisodiy manfaatlar muvozanatini saqlab turadi, bu jamiyatni barqaror, muvozanatli va rivojlangan tizimga aylantiradi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy qayta qurishning kengayishi, ya’ni infratuzilmani bosqichma-bosqich rivojlantirish (so‘zning keng ma’nosida) faqat davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Beshinchidan, faqat muayyan davlat doirasida institutsional muhit (huquqiy tizim, huquqiy institutlar, axborot tizimlari, boshqaruv va boshqaruv apparatlari) yaxshilanishi mumkinligi haqida gap boradi.

Biroq, davlat tomonidan ta’minlanishi zarur bo‘lgan birinchi narsa – bu bozorda faoliyat ko‘rsatuvchi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishdir. Normal iqtisodiy faoliyat yuritishi uchun subyektlar qonunchilik bilan himoyalangan bo‘lishi kerak. Birinchi navbatda – bu mulkchilik huquqini qonuniy ta’minlash, monopoliyalar hukmronligiga qarshi kurashish, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, intellektual mulkni himoyalash, bank sektori va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining normal faoliyat yuritishini ta’minlash, jinoyat qonunchiligini izchil shakllantirish.

Shunday qilib, davlat tomonidan tartibga solish imkoniyati bozor raqobat mexanizmi doirasidan tashqarida bo‘lgan sohalar mavjudligi bilan belgilansa, davlat tomonidan tartibga solish zarurati esa iqtisodiy faoliyatning huquqiy ta’minoti, ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish, tashqi ta’sirlarni kamaytirish, tranzaksion xarajatlarni minimallashtirish bilan bog‘liq.

Umuman, davlat fuqarolarning ushbu jamoasining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillarini amalga oshiradi. Makroiqtisodiy barqarorlik bozor jarayonlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Bozor iqtisodiyotidagi davlatning roli quyidagi muhim funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi:

a) iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun huquqiy asos yaratish. Davlat tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi;

b) iqtisodiyotni barqarorlashtirish. Hukumat narxlar va milliy valyutaning barqaror darajasini saqlab qolish, ishsizlikni kamaytirish, inflyatsiyani yumshatish, ishlab chiqarish pasayishini bartaraf qilish uchun byudjet-soliq va pul-kredit siyosatidan foydalanadi;

d) resurslarni ijtimoiy yo‘naltirilgan tarzda taqsimlash. Davlat xususiy sektor tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Bu qishloq xo‘jaligi, aloqa, transportni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratadi, mudofaa xarajatlarini aniqlaydi, fanni rivojlantirish, ta’limni rivojlantirish, sog‘liqni saqlash va boshqalar uchun dasturlarni shakllantiradi;

e) ijtimoiy himoya va ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash. Davlat eng kam oylik ish haqi, qarilik, nogironlik va ishsizlik nafaqasi, kam ta’minlangan oilalarga turli beg‘araz yordam va boshqalarni kafolatlaydi.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga faol jalb qilish va undan foydalanish samaradorligini oshirish uchun har bir hududning o‘z nisbiy ustunliklari, foyda-lanilmayotgan imkoniyatlari, o‘sish zaxiralari va salohiyatidan oqilona foydalanish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarish quvvatlarini hududlarning nisbiy afzalliklarini,

ulardagi mavjud resurslar, infratuzilma, ishchi kuchi kabi omil-lar imkoniyatlarini hisobga olgan holda joylashtirish kapitaldan foydalanish samaradorligini oshiradi va oxir-oqibatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, valyuta bozorini erkinlashtirish, yuqori likvidli tovarlarni sotishning bozor usullarini joriy etish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshiri-lgan chora-tadbirlar aholining keng qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar hamda iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

2.2.jadval

Makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlaridan kutilayotgan natijalar[8]

Asosiy stsenariy	Muqobil (xatarli) stsenariy
• iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalarining davom etishi va tashqi sharoitlarning sezilarli darajada o‘zgarmasligi hamda soliq sohasida va tarkibiy islohotlar borasida bosqichma-bosqich kutilgan natijalarga erishilib borilishi nazarda tutilgan; • soliq islohotlarining samarali amalga oshirilishi hamda iqtisodiyotni kreditlash hajmining o‘sish sur’atlarining maqbullashtirilishi (2019 yilda 25 %) ko‘zda tutilgan; • YaIM o‘sish sur’ati 2018 yil yakuniga ko‘ra 5,2 %, 2019 yilda esa 5,4 % bo‘lishi prognoz qilinmoqda. O‘tgan va joriy yillarda in-vestitsion faollikning oshishi hamda iqtisodiyotning real sektorida olib borilayotgan islohotlar natijasida keyingi yillarda iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari yanada tezlashishi kutilmoqda; •yillik inflyatsiya darajasining prognoz ko‘rsatkichlari 2018 yil-da 16–17 %ni, 2019 yilda 13,5–15,5 %ni va 2020 yilda 10–12 %ni tashkil etadi; 2021 yildan boshlab yillik inflyatsiya darajasi bir xonali ko‘r-satkichgacha pasayishi kutilmoqda.	• tashqi iqtisodiy sharoitlarning yomonlashuvi va amalga oshiriladigan tarkibiy islohotlarning sekinlashuvi taxmin qilingan; •tashqi va ichki sharoitlarning yomonlashuvi hamda tarkibiy islohotlarning kutilgan na-tija bermasligi hisobiga 2019 yilda inflyatsiya dara-jasining 17–18 %gacha o‘sishi kutilmoqda.

[8] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағишланган илмий-оммабоп қўлланма [Матн]. – Т.: «Маънавият», 2019. – 312 бет.

Makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda Markaziy bankning masuliyati ulkan ekanligini hisobga olib, uni ta’minlashda o‘zining aso-siy va muqobil stsenariylarni ishlab chiqdi. Ikkala stsenariyda ham Markaziy bank pul-kredit siyosatini yuritishda ehtiyotkorona yondashuvdan foydalanib, pul-kredit sharoitlarini bir maromda qat’iylashtirib borishni ko‘zda tutgan. Bunda muqobil stsenariyda yanada qat’iyroq choralardan foydalaniladi.

Unga ko‘ra, istiqbolda pul-kredit siyosatining muhim vazifalari sifatida in-flyatsiya darajasini pasaytirish va inflyatsion targetlash rejimiga o‘tish uchun asos yaratish, shu jumladan pul-kredit siyosati instrumentlari va transmission mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillar investitsion faollikning oshi-shi natijasida iqtisodiyotda vujudga keladigan yuqori talab va tartibga solinadigan narxlarning liberallashtirilishi kutilmoqda. Bunda davlat korxonalarining isloh qilinishi (sh.j. xususiylashtirish) doirasida kapital qo‘yilmalar hajmining o‘sishi investitsion faollikni rag‘batlantiruvchi asosiy omil bo‘ladi.

Iqisodiyot tarmoqlarida chuqur tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish, tovar va xizmatlarning sifatli bozorini shakllantirgan holda raqobatbardosh bozor iqti-sodiyotiga o‘tish jarayonini jadallashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizi-mini takomillashtirish va mustahkamlash, davlat aktivlarini boshqarishda bozor tamoyillarini joriy etish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Xo‘jalik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi mohiyatining hozirgi talqini

Hozirgi sharoitda bozor xo‘jaligida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish va barqarorlashtirish maqsadida vakolatli davlat muassasalari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va nazorat qiluvchi xarakterdagi namunaviy chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qayta ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning aniq yo‘nalishlari, shakllari, ko‘lami muayyan mamlakatda ma’lum bir davrda iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning tabiati hamda keskinligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektlari – bu avtomatik ravishda hal qilinmaydigan yoki uzoq istiqbolda hal qilinadigan qiyinchiliklar, muammolar yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan, bunday muammolarni hal etish normal iqtisodiy faoliyatni ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlash uchun zarur bo‘lgan soha, tarmoq, mintaqa, shuningdek, vaziyatlar, hodisalar va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlaridir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektlari hal qilinadigan vazifalar darajasiga ko‘ra farqlanadi: firmalar, mintaqalar, tarmoqlar, butun iqtisodiyot sektorlari (xo‘jalik sikli, pul muomalasi, narxlar), global (ijtimoiy munosabatlar, ekologiya), xalqaro (boshqa davlatlar bilan munosabatlar).

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi jamiyat, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik, mamlakatda mavjud tizimni mustahkamlash, uni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish, farovonligini ta’minlash hisoblanadi. Aralash iqtisodiyotda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish milliy xo‘jalikning bozor mexanizmi yordamida hal qilib bo‘lmaydigan yo‘nalishlari samarali faoliyat yuritishini ta’minlashi lozim.

Ushbu asosiy maqsad asosida davlat iqtisodiy siyosatining bevosita ifodalangan aniq maqsadlari yoki yo‘nalishlari shakllanib, ularni amalga oshirmasdan turib asosiy maqsadga ham erishib bo‘lmaydi. Bu aniq maqsadlar o‘zlari yo‘naltirilgan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektlari bilan shuningdek, mo‘ljallanganligi va ko‘lami bo‘yicha bir xil bo‘lmasa-da, bir-biri bilan ham chambarchas bog‘liq. Bir maqsad boshqa maqsadlarga bog‘liq bo‘lmagan tarzda belgilanishi va erishilishi mumkin emas. Masalan, bandlikni ta’minlash maqsadi bandlik obyektiga yo‘naltirilgan, lekin u kapital jamg‘arish uchun, xo‘jalikning sektor, tarmoq va hududiy tuzilmalarini yuzaga keltirish

uchun, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun tegishli shart-sharoit yaratish bilan bog‘liq.

Aniq maqsadlar boshqa, joriy vaqt uchun yanada yuksak maqsadlarga erishishga vositachilik qilishi mumkin. Ular bir-biri bilan qisman kesishadi, ulardan birontasi muhimroq bo‘lishi va davlat tomonidan tanlangan ustuvorliklarga, real xo‘jalik konyunkturasiga bog‘liq ravishda o‘ziga boshqalarni bo‘ysundirishi mumkin. Maqsadlarning har biri boshqa maqsadga erishilishida ko‘makdosh bo‘lishi yoki bunga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Maqsadlar daraxtida davlat iqtisodiy tartibotining alohida maqsadlari yoki yo‘nalishlarining holati barqaror sanalmaydi. Ular xo‘jalik vaziyatlari, oldinga chiquvchi iqtisodiy vazifalarga qarab muntazam o‘zgarib turadi. Inqiroz sharoitida undan chiqib olish, ya’ni, konyunkturani jonlantirish birlamchi maqsadga aylanadi. Qolgan barcha maqsadlar ortga chekinadi va birlamchi maqsadga bo‘ysundiriladi. To‘lov balansining uzoq muddatli defitsiti, tashqi qarzdorlik o‘sishi, valyuta zaxiralarining kamayishi sharoitida birinchi o‘ringa asosiy maqsad – to‘lov balansini sog‘lomlashtirish va unga bo‘ysundirilgan maqsadlar – jahon bozorida milliy tovarlar raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatga kapital jalb etish – chiqadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish maqsadlari ko‘plab omillarga bog‘liq: iqtisodiyotning umumiy rivojlanganlik darajasi, uning tuzilmasi (joriy va kelgusida ko‘zlangan), xalqaro mehnat taqsimotiga jalb qilinganlik o‘lchovlari. Burjua davlat maqsadlarining an’anaviy to‘plami – iqtisodiy o‘sish, to‘liq bandlik, iqtisodiy samaradorlik, narxlarning barqaror darajasi, iqtisodiy erkinlik, daromadlarni adolatli taqsimlash, iqtisodiy xavfsizlik, savdo balansidir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish hayotning boshqa sohalarini (siyosat, madaniyat) tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, mafiya va korrupsiyadan himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlashga majburdir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy chegarasi – iqtisodiy qarorlarni qabul qilish erkinligi sharoitida kapital mulk

egalarining xususiy manfaatlariga mos keladigan maqsadlarga ehtimoliy mos kelmasligidir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy asoslari yalpi ichki mahsulotning tarkibiy qismi bo‘lib, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalar hamda davlat mulki hisobiga qayta taqsimlanadi. Ushbu asos iqtisodiyotga davlat aralashuvining shakllarini belgilaydi –bevosita va bilvosita aralashuv. Iqtisodiyotga bevosita davlat aralashuvi davlatning moddiy resurslardan foydalanish huquqini kengaytirish, qonun chiqarish, sanoat korxonalarini boshqarishdan iborat. Iqtisodiyotga bevosita davlat aralashuvi iqtisodiy siyosatning turli tadbirlari orqali iqtisodiyotni boshqarishda namoyon bo‘ladi.

Bu ikki shakl bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, lekin bozor iqtisodiyoti bilan markazlashgan iqtisodiyotda bu aloqa sezilarli darajada farqlanadi. Ikki-uch asr avval shakllana boshlagan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar muntazam ravishda davlat tomonidan tartibga solish bilan tabiiy shakllangan bozor mexanizmining amal qilishi o‘rtasidagi optimal nisbatni qidiradi. Markazlashgan iqtisodiy tizimga ega mamlakatlar davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida davlat yordamida (bu qanchalar ajablanarli tuyulmasin) bozor usiz bo‘lishi mumkin bo‘lmagan o‘sha kuchli hayotbaxsh xususiy manfaatni qayta jonlantirishga harakat qilishadi. Bunda asosiy muammo shundaki, ushbu hayotbaxsh manfaatni davlat quchog‘ida o‘ldirib qo‘ymaslik ham lozim.

Davlat tomonidan tartibga solish turlari – markazlashgan tarzda boshqariladigan rejali iqtisodiyot, o‘ta iqtisodiy liberalizm (hech qanday cheklanmagan xususiy tadbirkorlik), davlat tartibotining keynscha modeli, aralash boshqaruv (buyuk neoklassik sintez), oraliq shakllar (Yaponiya, Shvetsiya modeli).

Davlat bozor tizimi muayyan talablar qo‘yadigan turli instrumentlarni qo‘llash orqali o‘z funksiyalarini amalga oshiradi.

Birinchidan, bozor munosabatlarini buzuvchi har qanday davlat harakatlari istisno qilinadi.

Ikkinchidan, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tizim sifatida bozorga asosan iqtisodiy metodlar bilan ta’sir qilish mumkin. Agar davlat faqat ma’muriy metodlarga tayansa, u bozor mexanizmini yo‘q qilishga qodir

bo‘ladi. Shu bilan birga, bu rivojlangan bozor iqtisodiyotida ma’muriy metodlar mavjud bo‘lish huquqiga ega emasligini anglatmaydi, ba’zi hollarda ulardan foydalanish nafaqat joiz, balki zarur hamdir.

Uchinchidan, iqtisodiy tartiblagichlar bozor stimullarini kuchsizlantirishi yoki o‘rin almashtirmasligi kerak, ularni qo‘llashda “bozorga xalaqit berma” tamoyiliga amal qilish lozim.

To‘rtinchidan, davlat iqtisodiy tartiblagichlarni qo‘llar ekan, u olib kelgan ijobiy va salbiy oqibatlarni muntazam nazorat qilishi, o‘z qarorlarining uzoq muddatli oqibatlariga javobgar bo‘lishi kerak.

Beshinchidan, mintaqalarning iqtisodiy faoliyatiga va iqtisodiy faoliyat subyektlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan milliy xususiyatlarni hisobga olish kerak.

Jahon xo‘jaligi amaliyotida tartibga solish metodlarining ko‘plab kombinatsiyalari ma’lum bo‘lsa-da, ularning ichki tuzilmasi, odatda, o‘zgarishsiz qolmoqda. Ayrim metodlar (iqtisodiy va ma’muriy) iqtisodiyotda tuzuvchi vazifasini bajarib, qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun yo‘naltirilgan bo‘lsa, boshqalari amortizator sifatida namoyon bo‘lib, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bilan birga kuzatiladigan salbiy ta’sirlarni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan.

Iqtisodiy siyosat maqsadlariga erishish va uning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning turli instrumentlari (ma’muriy va iqtisodiy) bilan ta’minlanadi.

Ma’muriy vositalar davlat hokimiyatining kuchiga asoslanadi va taqiqlash, ruxsat berish hamda majburlash choralarini o‘z ichiga oladi. Masalan, taqiqlash va ruxsat berish choralari bir yoki boshqa turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya berish shaklini olishi mumkin. Hukumat, masalan, shaharning tarixiy markazida yangi sanoat qurilishini tugatishdan manfaatdor bo‘lsa, ular jarima undirish va soliqlarni oshirish o‘rniga shunchaki yangi sanoat qurilishi uchun litsenziya berishni to‘xtadi. Aksincha, u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsat berilishi kapital joylashtirishning yangi sohalarini vujudga keltiradi, xo‘jalik faolligini kengaytiradi. Majburlash choralari qatorida rivojlangan mamlakatlarda davlat organlari tadbirkorlarni

mehnat muhofazasining muayyan shartlariga qat’iy rioya etish, tozalash inshootlari o‘rnatish va yoshlar uchun ishlab chiqarish ta’limini tashkil etishga majbur qilib qo‘yishini keltirish mumkin.

Iqtisodiy va ma’muriy metodlar o‘zaro bog‘liq. Masalan, istalgan iqtisodiy tartiblagich o‘zida boshqaruv elementlarini mujassamlashtiradi, chunki u yoki bu davlat xizmati tomonidan nazorat qilinadi. O‘z navbatida, har bir ma’muriy tartiblagichda iqtisodiy jihatdan qandaydir mazmun bo‘ladi, binobarin, u iqtisodiy tizim subyektlarining xatti-harakatiga bilvosita ta’sir qiladi. Narxlarni bevosita nazorat qilgan holda, davlat ishlab chiqaruvchilar uchun maxsus iqtisodiy tartib yaratadi, ishlab chiqarish dasturlarini qayta ko‘rib chiqishni majbur qiladi, kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirishning yangi manbalarini izlashga majbur qiladi va hokazo. Iste’molchilar ham moslashishi kerak bo‘ladi – joriy talab strukturasiga, shuningdek, uning hajmi bilan jamg‘arish summasi o‘rtasidagi nisbat o‘zgarishiga. [26]

Ayni paytda iqtisodiy va ma’muriy metodlar bir-biriga qarama-qarshidir. Iqtisodiy metodlar bozor qarorini erkin qabul qilish huquqini o‘zida saqlab qoluvchi subyektlar uchun tanlov erkinligini cheklamaydi. Masalan, davlat iqtisodiyotni tartibga solish uchun o‘z qarz majburiyatlari bo‘yicha foiz stavkasidan foydalanganda, pul daromadi egasi bunda o‘zi uchun omonatni foydali joylashtirish variantlariga (bank qo‘yilmalari, xususiy korporatsiyalar qimmatli qog‘ozlarini xarid qilish, ko‘chmas mulk sotib olish va hokazo) yana bittasi qo‘shilganligiga oid belgini ko‘radi. Bu yerda hamma narsa davlatning tartibga solish maqsadlariga erishish uchun omonat egasini o‘z tomoniga jalb qilish mahoratiga bog‘liq.

Aksincha, ma’muriy usullar iqtisodiy tanlov erkinligini sezilarli darajada cheklaydi, ba’zan esa hatto yo‘q holatga keltirib qo‘yadi. Bu ma’muriy boshqaruv iqtisodiy asoslangan chegaralardan tashqariga chiqqan joyda yuzaga kelib, ommaviylik xususiyatlarini namoyon qiladi va ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga aylanadi. So‘ngra nazorat butun xo‘jalik jarayoni – ishlab chiqarish va uning tuzilmasi, xarajatlar, narxlar, mahsulot sifati, ish haqi, daromad hamda uni taqsimlash va boshqalarni o‘z ichiga olgan holda keng qamrovli bo‘ladi.

Shu bilan birga, ma’muriy chora-tadbirlar individual iqtisodiy erkinlikni bosim ostiga olar ekan, agar ular ayrim subyektlarning maksimal erkinligi va umuman bozor xo‘jaligi uchun og‘ir yo‘qotishlarga sabab bo‘lgan hollarda qo‘llanilgan bo‘lsa, ularni to‘liq asoslangan deyish mumkin. Ma’muriy metodlarni qo‘llashda samarali va bozor mexanizmiga zid bo‘lmagan sohalar mavjud.

Birinchidan, monopol bozorlarni keskin davlat nazoratiga olish.

Ikkinchidan, tashqi ta’sirlarni va ularning atrof-muhitdagi oqibatlarini tartibga solish. Bu sohada iqtisodiy tartiblagichlar yetarli emas va samarasiz, chunki ko‘l yoki o‘rmon halokatga uchragan bo‘lsa, hech qanday moliyaviy sanksiya ularni tiklab bera olmaydi. Bu yerda ma’muriy choralar zarur: milliy resurslarning bir qismini konversatsiyalash, ulardan tijorat maqsadlarida foydalanishni taqiqlash, ishlab chiqarish faoliyatining ayrim turlarini amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydigan tabiiy qo‘riqlanadigan hududlarni ajratish, ekologik zararli texnologiyalardan foydalanishni to‘g‘ridan to‘g‘ri taqiqlash.

Uchinchidan, aholi uchun ekologik xavfsiz hayotni kafolatlaydigan ekologik standartlarni, milliy standartlarni va boshqalarni ishlab chiqish hamda ularga rioya etilishini nazorat qilish.

To‘rtinchidan, aholi farovonligining maqbul parametrlari – kafolatlangan eng kam ish haqi, ishsizlik nafaqalari va boshqalarni aniqlash va ta’minlash.

Beshinchidan, jahon xo‘jaligi tizimida milliy manfaatlarni himoya qilish, masalan, eksportni litsenziyalash yoki kapital importi ustidan davlat nazoratini o‘rnatish.

O‘zbekistonda iqtisodiyot barqaror rivojlanishining muhim yo‘nalishi sifatida xususiy mulkchilik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ustuvor rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratish lozim. shuni hisobga olib, kichik biznesning yangi subyektlarining tashkil etilishi va rivojlanishini har tomonlama rag‘batlantirish, kichik biznes nufuzini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashni faol-lashtirish hamda himoya qilishning institutsional normalarini yanada takomillashtirish lozim.

3-BOB . DAVLAT KORXONALARINING MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH: SHAKLLANTIRISH VA FOYDALANISH

3.1. Davlat wmoliyasining mustaqil bo‘g‘ini sifatida davlat korxonalari moliyasi tushunchasi va mohiyati

Davlat korxonalari moliyasi davlat moliyasining mustaqil bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu, eng avvalo, ular yalpi ijtimoiy mahsulot, milliy daromad va milliy boyliklar yaratiladigan moddiy ishlab chiqarish sohasiga xizmat ko‘rsatishi bilan belgilanadi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, davlat korxonalari moliyasi moliya tizimining o‘ziga xos qismidir. Ular davlat moliyasidan ajralib turadi, bu ularning ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishi bilan bog‘liq.

Davlat korxonalari moliyasi to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlab chiqarish bilan bog‘liq va iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi; ular iqtisodiy bazisning tarkibiga kiruvchi tushuncha sanaladi.

Davlat korxonalari moliyasi ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mamlakat iqtisodiyoti holatini aks ettiradi. Shu bilan birga, ularga moddiy ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati bilan bog‘liq xususiyatlar xos bo‘lib, bu yerda ishlab chiqarish jarayonining ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol kabi barcha jihatlari o‘zaro chambarchas bog‘langan.

Bunday xususiyatlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- davlat korxonasi yetarli darajada moliyalashtirilgan taqdirdagina undagi ishlab chiqarishning normal kechishiga erishish mumkin;
- korxonaning moliyaviy mexanizmi o‘zini-o‘zi moliyalashtirishni ta’minlashi kerak;
- alohida yuridik shaxs sanalgan holda davlat korxonasi byudjetlar, fondlar, yetkazib beruvchilar va xodimlar oldida keng ko‘lamli majburiyatlarni bajarishi lozim.

Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlaridagi davlat korxonalarida moliya yordamida ishlab chiqarish jarayonini ta’minlash uchun ishlab chiqarish ehtiyojlari hamda xodimlarning ijtimoiy va shaxsiy talablarini

qondirish maqsadida foydalaniladigan maqsadli pul fondlari shakllantiriladi. Davlat korxonalari moliyasi mamlakatning butun moliya tizimi uchun boshlang‘ich nuqta sanaladi.

Ko‘plab mamlakatlarda davlat sektorini yo‘lga qo‘yish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, davlat boshqa har qanday mulk egasi kabi o‘z funksiyalarini yetarli samarali bajara olmasligi mumkin. O‘z tasarrufida bo‘lgan mulkka nisbatan davlatning izchil siyosati deyarli hech bir mamlakatda yo‘q va davlatning harakatlari alohida yaqqol muammolarni hal etishga qaratilgan. Milliy iqtisodiyotdagi ushbu muammolar ikki guruhga bo‘linadi.

Birinchidan, kapitalida uzoq vaqt davomida davlat ulushi yuqoriligicha saqlanib qolgan korxonalar samarali boshqaruv metodlarini faol qidirmoqda. Bunday usul, masalan, davlat aksiyalari paketini yoki kompaniyalar uchun begona yuridik shaxslarga (bank-moliya xoldinglari, moliya-sanoat guruhlari, ixtisoslashtirilgan konsalting firmalari), yoki kompaniyaning o‘zining menejmenti (“O‘zbekyengilsanoat” AJ, “O‘zqurilishmateriallari” AJ, “O‘zeltexsanoat” AJ holatida bo‘lgani kabi) ishonchli boshqaruviga o‘tkazish bo‘lishi mumkin. Yirik davlat paketiga ega AJning boshqaruv organlarida davlat vakillari tarkibi va ushbu aksiyalar paketiga ovoz berish tartibi markazlashgan holda o‘rnatiladi.

Ikkinchidan, xususiylashtirishga tayyorlash amalga oshirilmoqda. Bu vaqtning u yoki bu davrida xususiylashtirilmaydigan obyektlar ro‘yxatida bo‘lgan korxonalar uchun xususiylashtirish strategiyasi ishlab chiqishdan iborat bo‘lishi mumkin. Bunday ro‘yxatlar xususiylashtirish dasturlari bilan birga barcha mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham tuzilgan. Bundan tashqari, davlat tasarrufidagi real nazorat imkoniyatini bermaydigan mayda aksiyalar paketlari ham “xususiylashtirishga tayyorlash” jarayoniga jalb etiladi. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida, Rossiyada xuddi O‘zbekistondagi kabi na daromad, na nazorat bilan ta’minlangan, davlat ishtirokining ahamiyatsiz ulushiga ega bir qancha kompaniyalar bor. Davlat uchun nominal jihatdan ularning egasi bo‘lib qolgandan ko‘ra, bu ulushlardan qutulgani foydaliroq.



2.5-rasm. **Davlat tadbirkorligi turlari**[9]

Davlat tadbirkorligi: a) davlat sektorining tijorat korxonalari; b) mulkchilikning aralash shakllariga asoslangan xo‘jalik subyektlari; d) davlat kapitaliga bozor taklifi sohasini shakllantirish vositasida amalga oshiriladi.

Keltirilgan shakllarning mazmunini ko‘rib chiqamiz. Davlat tijorat korxonalari ham davlat, ham xususiy huquq doirasida faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Ikkinchisining iqtisodiy mustaqilligi birinchisidan ancha yuqori. Ular keng doiradagi huquqlarga ega: yetkazib beruvchilar va xaridorlar tanlovidan to o‘z mahsulotlari uchun mustaqil narx belgilashgacha. Shular orqali o‘z joriy va kapital xarajatlar qoplanadi. O‘z-o‘zini moliyalashtirish kredit-moliya institutlaridan to‘liq mustaqil bo‘lishni anglatmaydi. Bu bir qator hollarda dotatsiyalar va subsidiyalar shaklida byudjetdan foydalanishni ham istisno etmaydi. Ammo bu – muayyan shartlarda jalb qilinadigan qo‘shimcha resurslardir. Agar bu ssuda kapitali bo‘lsa, keyinchalik qaytariladi va to‘lanadi.

Davlat mulkining barcha obyektlarini ikki asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

– faqat davlat tasarrufida bo‘lishi kerak bo‘lgan korxonalar (tijorat obyektlari emas);

[9] Расм ўрганилган материал асосида тузилган.

– tijoriy maqsadlarda foydalanish imkoniyati mavjud obyektlar (ochiq raqobatbardosh bozorda faoliyat yurituvchi korxona).

Bunday bo‘linish mulkni boshqarish tamoyillarini belgilab beradi.

Faqat davlat tasarrufida bo‘lishi lozim obyektlar (korxonalar)ga nisbatan davlat korxona faoliyatini boshqarish bo‘yicha asosiy strategik va tezkor qarorlar qabul qiluvchi katta menejer (boshqaruvchi) vazifasini bajaradi. Jumladan, davlat korxona nimani, qancha hajmda va qanday narxda ishlab chiqarishini hamda korxonani moliyalashtirish qanday amalga oshirilishini belgilab beradi. Bunda menejer-davlatning maqsadi muayyan rentabel sharoitda, berilgan hajmda, talab qilingan sifatda zaruriy mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarilishini ta’minlash hisoblanadi.

To‘liq yoki qisman davlatga tegishli bo‘lgan tijorat obyektlariga nisbatan davlat faqat investor (sherik) sifatida harakatlanishi lozim. B holatda davlat uchun korxona investitsiya obyektidir, shuning uchun boshqaruv tamoyillari investitsion menejmentda qo‘llaniladigan metod va yondashuvlarga asoslangan bo‘ladi. Investor davlatning maqsadi – investitsiyaviy kapitalning maksimal daromadliligini va mulkning (aksiyalar) bozor qiymati o‘sishini ta’minlashdan iborat.

Faqat davlat mulki sanaluvchi obyektlar.

Davlat menejer sifatida harakat qiladigan davlat tasarrufidagi obyektlarga quyidagi korxonalarni kiritish mumkin:

– mudofaa korxonalari;

– davlatni rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga ega ilmiy-tadqiqot markazlari;

– tijoriy nuqtayi nazardan jozibali bo‘lmagan ijtimoiy obyektlar;

– infrastruktura obyektlari, jumladan: transport, yo‘llar, aloqa, portlar, gaz quvurlari va boshqalar (davlat va xususiy mulkchilik shaklida bo‘lishi mumkin);

– makroiqtisodiy ta’sir nuqtayi nazaridan ahamiyatli obyektlar (ular davlat mulki ham, xususiy mulk ham bo‘lishi mumkin).

Yuqorida aytib o‘tilganidek, faqat davlatga tegishli korxonalarning eng muhim jihati mahsulotlar yoki xizmatlarning davlat uchun muhim raqobat bozorining mavjud emasligi hisoblanib, ularga bo‘lgan ehtiyoj

mustaqil, jumladan, xorijiy ishlab chiqaruvchilaridan xaridlar orqali qoplanishi mumkin emas. Mazkur holatda davlatning asosiy maqsadi zarur tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishini ta’minlash ekanligini hisobga olsak, bu toifadagi korxonalarni boshqarishda davlatning funksiyalari quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1. Korxonaning faoliyat rejasini ekspertizadan o‘tkazish;

2. Asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar qiymatlarini aniqlash;

3. Korxona rejasini, shu jumladan, shtat jadvali va mehnatga haq to‘lash shartlarini tasdiqlash;

4. Reja bajarilishini muntazam ravishda nazorat qilish;

5. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish (rejalarni korrektirovka qilish, xodimlar bilan bog‘liq masalalarni hal etish).

Davlat korxonalari moliyasi – davlat korxonalari tomonidan pul jamg‘armalaridan foydalanish va ular tomonidan ishlab chiqarish hamda xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar taqsimotini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy pul munosabatlari tizimi.

Davlat korxonalari moliyasi – davlat korxonalarining pul daromadlari va jamg‘armalarini shakllantirish va taqsimlash, shuningdek, tashqi majburiyatlarni bajarish uchun ulardan foydalanish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ijtimoiy xizmatlar va korxona xodimlarini moddiy rag‘batlantirish xarajatlarini moliyalashtirish bilan bog‘liq pul munosabatlaridir.

Davlat korxonalari orasida metallurgiya, ko‘mir sanoati, elektr energetikasi va boshqa ko‘plab korxonalar alohida ahamiyatga ega. Ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 100 foizigachasi davlat korxonalari tomonidan ishlab chiqariladi. Hatto AQShda, davlat sektori nisbatan kichik bo‘lgani holda elektr energiyasining 20 foizi davlat korxonalari tomonidan ishlab chiqariladi.

Davlat sektorining salmoqli qismini ilmiy-texnik taraqqiyotni belgilab beruvchi strategik tarmoqlar korxonalari tashkil qiladi. Dunyoning barcha mamlakatlarida pochta, telegraf, telefon, temir yo‘llarning salmoqli qismi davlat qo‘lida sanaladi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun davlat korxonalari o‘z mablag‘larini, byudjetlarini shakllantiradi.

Davlat korxonalari uchun moliyalashtirishning asosiy manbai ularning markaziy hukumat bilan o‘zaro munosabati asosida belgilanadi. Bir tomondan, ular mamlakatning barcha firma va kompaniyalari singari davlat va mahalliy byudjetlarga soliq to‘lash majburiyatini oladi, ikkinchidan, ular o‘z faoliyatini moliyalashtirish uchun markaziy byudjetdan subsidiyalar oladi. Ko‘pgina mamlakatlarda davlat korxonalari moliyalashtirilishini ta’minlash uchun markaziy hukumat soliqlarni kamaytiradi (yoki ular soliqlardan to‘liq ozod qilinadi). AQShda davlat korxonalari soliqdan to‘la ozod qilingan. Ba’zi mamlakatlarda davlat korxonalari faqat mahalliy byudjetga soliq to‘laydi.

Davlat korxonalarining asosiy xususiyati, odatda, ularning past rentabelligi bo‘lsa-da, ba’zi firmalarda ishlab chiqarish samaradorligi xususiy kompaniyalardan ortda qolmaydi.

Rentabellikning turli darajalari davlat korxonalari moliyasini shakllantirishga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi. Foyda bilan ishlashga qodir bo‘lgan davlat korxonalari, ya’ni, nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash, balki foyda olishga ham qodir bo‘lish uchun davlat korxonalari mustaqil byudjetga ega bo‘ladi. Markaziy davlat yoki mahalliy byudjetlarda faqat ular faoliyatining moliyaviy natijalari qayd qilinadi. Faoliyatini samaradorlik nuqtayi nazaridan belgilab bo‘lmaydigan korxonalar (ijtimoiy ahamiyatga molik mahsulotlar ishlab chiqarganlari uchun) davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi, ya’ni, byudjetdan moliyalashtirish tarkibida bo‘ladi. Ularning daromadlari va xarajatlari davlat byudjetiga kiritilgan. Odatda, bunday korxonalarning birinchi guruhiga davlat temir yo‘llari, pochta aloqasi, telegraf va telefon kiritiladi. Ikkinchi guruh esa davlat nashriyotlari, atom sanoati korxonalari, verflar va harbiy korxonalardan iborat.

Davlat ishtirokidagi korxonalar orasida aralash kompaniyalar alohida o‘rin tutadi. Ular xususiy kapital ishtirokida yangi kompaniyalar tuzish yo‘li bilan yoki xususiy kapitalga mansub kompaniyalar

aksiyalarini sotib olish yo‘li bilan tashkil etiladi. Bunday korxonalar ochiq aksionerlik jamiyatlari shaklida yuzaga keladi.

Davlat kapitali ishtirokidagi aralash kompaniyalar ikkiga bo‘linadi. Birinchisi, rentabelligi xususiydan kam bo‘lmagan korxonalardir. Xususiy korxonalar kabi ular ham foydadan soliq to‘laydi, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha dividend va foizlar to‘laydi, o‘z mablag‘lari hisobiga investitsiyalarni amalga oshiradi. Shuning uchun ularning moliyaviy manbalarining asosiy qismi daromad hisoblanadi. Shu bilan ular o‘z-o‘zini moliyalash juda kam rivojlangan davlat korxonalaridan tubdan farq qiladi. Zarurat tug‘ilganda, aralash kompaniyalar uchun aksiyalar va obligatsiyalar chiqarish hamda ularni sotishdan tushgan tushumlar qo‘shimcha moliyaviy manbaga aylanadi. Bundan tashqari, shu guruhga mansub aralash kompaniyalar ko‘pincha banklarga kredit olish uchun murojaat qilishadi. Ularning moliyasini shakllantirishda davlatning roli quyidagicha: kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun daromad yetarli bo‘lmaganda davlat ularga davlat byudjeti mablag‘laridan yordam beradi yoki aralash kompaniyalar aksiyalarining xususiy egalariga byudjet mablag‘lari hisobidan dividendlar to‘lanishini kafolatlaydi.

Ikkinchi guruh esa byudjetdan moliyalashtiriladigan aralash kompaniyalardan iborat. Ularning faoliyati to‘liq davlat tomonidan belgilanadi (mahsulot ishlab chiqarish va sotish, narxlarni belgilash, foydani taqsimlash). Kapital qo‘yilmalar manbai faqat davlat (yoki mahalliy) byudjetdan moliyaviy mablag‘lar hisoblanadi.

Chet davlatlarining moliya tizimida davlat korxonalari muhim o‘rin tutadi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida, 80-yillarda o‘tkazilgan xususiylashtirishga qaramay, ushbu mamlakatlarda davlat mulkchiligi iqtisodiyotda kuchli pozitsiyasini saqlab qolmoqda. Davlat korxonalari ko‘plab buyurtmalar olib, bu bilan xususiy tadbirkorlikni bir qator mahsulotlar sotish bo‘yicha keng va kafolatlangan bozor bilan ta’minlaydi. Moliya tizimining boshqa bo‘g‘inlari foydasiga milliy daromadni qayta taqsimlash yo‘li bilan kapital jamg‘arish jarayonini (davlat mahsulotlariga past narxlar va tariflar, davlat korxonalari tomonidan iste’mol qilinadigan xususiy korxonalarning mahsulotlari

uchun yuqori narxlar orqali) va o‘z mablag‘larini iqtisodiyotning kam rentabelli tarmoqlariga investitsiya qilish rag‘batlantiradi.

Ko‘pincha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan davlat korxonalarini shakllantirishning bir nechta sabablarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Iqtisodiy sabablar davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi zarurligidan kelib chiqqan. Davlat korxonalarining faoliyati moddiy ishlab chiqarishning alohida tarmoqlaridagi munosabatlarga ta’sir qiladi, uning tuzilmasi o‘zgarishiga hissa qo‘shadi, ilg‘or tarmoqlar o‘sishini tezlashtiradi.

Yangi texnika va ilmiy yutuqlarni keng joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish yirik moliyaviy resurslar va yuqori darajada rivojlangan energetika bazasini talab qiladi. Shu munosabat bilan davlat doirasida gaz, elektr energiyasi, neft va ko‘mir kabi sohalarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, davlat ilmiy-tadqiqot markazlari va tajriba korxonalari tashkil etiladi; bankrotlik chegarasida bo‘lgan monopol korxonalar qayta tashkil etiladi; yirik kapital talab etiladigan tarmoqlarda yangi korxonalar quriladi. Davlat korxonalari antisiklik va antiinflyatsion tartibga solish instrumenti sifatida keng qo‘llaniladi.

2. Yuqorida sanab o‘tilgan sohalarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish yirik boshlang‘ich kapital qo‘yilmalarni talab qiladi. Xususiy korxonalar yangi ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bilan bog‘liq risklarni qabul qilishga uncha xayrixoh bo‘lmaydi. Shuning uchun bu xarajatlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Moliyaviy sabablar ham shundan iborat.

3.Siyosiy sabablar baynalmilallashuv rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ishlab chiqarish va kapitalni integratsiyalash jarayonlarida davlat korxonalari ham keng ishtirok etishiga olib keldi. Zamonaviy sharoitda davlat va aralash korxonalar chet el kapitali ishtirokida xorijiy filiallar tashkil etmoqda, ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo‘yicha litsenziyaviy va boshqa shartnomalar tuzilmoqda va shu tariqa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bevosita ishtirokchilariga aylanishmoqda. Ko‘plab davlat korxonalari ishlab chiqarilgan mahsulotining salmoqli qismini chet elga sotmoqda (Bu ayniqsa Fransiya uchun xos bo‘lib, u

yerda davlat kompaniyalari ishlab chiqargan barcha mahsulotlarning 50-60 % i chet elga sotiladi).

Rivojlangan mamlakatlarda davlat korxonalarining faoliyat sohasi 2-jadvalda aks ettirilgan.

Chet mamlakatlarda davlat korxonalari huquqiy maqomi, boshqaruv tizimi, iqtisodiyot va moliyasini tashkil qilish, byudjet bilan o‘zaro munosabatlar xarakteriga ko‘ra farqlanadi. Ularni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: davlat korporatsiyalari, aralash korxonalar, byudjetdan moliyalashtiriladigan korxonalar.

Yirik sanoat majmualari bo‘lgan va tarmoqning barcha korxonalarini yoki ularning katta qismini o‘zida qamrab olgan davlat korporatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir korporatsiya maxsus parlament akti bilan tasdiqlanadi; u ishlab chiqarish va moliyaviy mustaqillikka, boshqa korxonalar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish huquqiga ega bo‘ladi.

Davlat korporatsiyalarining o‘ziga xos xususiyati ularning “avtonomligi”dir, ya’ni, ularning kundalik ishlab chiqarish faoliyati parlament nazoratidan tashqarida, moliyasi esa davlat byudjetidan ajratilgan.

Aralash korxonalar – bu kapitalining bir qismi davlatga tegishli korxonalardir. Ular davlat tomonidan xususiy kapital ishtirokida korxonalar qurish yoki davlat tomonidan korxonalarning aksiyalarini sotib olish natijasida tashkil etiladi. Bunday korxonalarni boshqarish aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruviga o‘xshaydi.

Byudjetdan moliyalashtiriladigan korxonalar tegishli vazirlik yoki mahalliy hukumat organlari boshqarmasi tarkibiga kiradi. Ularning barcha xo‘jalik faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi. Foyda to‘liq yoki qisman tegishli byudjetga kelib tushadi, kapital qo‘yilmalar esa asosan byudjet ajratmalari hisobidan moliyalashtiriladi. Ushbu korxonalar har yili davlat yoki mahalliy byudjetlar bilan bir vaqtning o‘zida tasdiqlanadigan smeta tuzadi. Davlat va mahalliy byudjetlarga nisbatan amal qiladigan tartib ularga ham to‘liq tatbiq qilinadi.

Davlat korxonalari moliyasi korxonalarning pul mablag‘lari fondi va jamg‘armalarni shakllantirish va ulardan foydalanish, shuningdek, ushbu

fondlar va jamg‘armalarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish ustidan nazorat qilish bilan bog‘liq iqtisodiy pul munosabatlari majmuini o‘zida ifodalaydi.

Byudjet tizimi bilan davlat korporatsiyalarining o‘zaro munosabatlari ular tomonidan davlat va mahalliy byudjetlarga soliqlar to‘lash, kreditlar bo‘yicha foiz to‘lash hamda asosan kapital qo‘yilmalar, dotatsiyalar va yuqori foizli kreditlarni moliyalashtirish uchun markaziy byudjetdan subsidiyalar olish orqali amalga oshiriladi.

Aralash korxonalarning davlat byudjeti bilan soliq yo‘nalishidagi o‘zaro munosabatlari xuddi oddiy aksiyadorlik jamiyatidagi kabi yo‘lga qo‘yiladi.

3.2. Davlat korxonalari moliyasini tashkil etish tamoyillari

Davlat korxonalari moliyasini tashkil etish asosida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. **Xo‘jalik yuritish mustaqilligi tamoyili** korxona xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, o‘z iqtisodiy faoliyati, foyda olish maqsadida pul mablag‘larini joylashtirish yo‘nalishlarini mustaqil belgilashini nazarda tutadi.

2. **O‘zini moliyalashtirish tamoyili** o‘z pul mablag‘lari va zaruratga ko‘ra bank va tijorat kreditlari hisobidan ishlab chiqarishni rivojlantirishga investitsiyalar, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari to‘liq qoplanishini anglatadi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish tadbirkorlik faoliyatining asosiy shartlaridan biri bo‘lib, korxona raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

3. Moddiy javobgarlik tamoyili – xo‘jalik faoliyatining yuritilishi va natijalari uchun muayyan javobgarlik tizimi mavjudligini anglatadi. Samarasiz faoliyat qayd qilingan holatda korxonaga nisbatan bankrotlik protsedurasi qo‘llanilishi mumkin. Korxona rahbarlari uchun moddiy javobgarlik tamoyili soliq qonunchiligi buzilgan hollarda jarima tizimi orqali amalga oshiriladi.

4. Faoliyat natijalaridan manfaatdorlik tamoyili tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi – foyda olish bilan belgilanadi. Xo‘jalik

faoliyati natijalaridan manfaatdorlik korxona xodimlari, korxonaning o‘zi va umuman davlatga teng darajada tegishlidir.

5. Moliyaviy zaxiralarni ta’minlash tamoyili bozor konyunkturasining ehtimoliy tebranishlari riski bilan bog‘liq kechadigan tadbirkorlik faoliyatini ta’minlovchi moliyaviy zaxiralarni shakllantirish zarurati bilan shartlangan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risk oqibatlari to‘g‘ridan to‘g‘ri tadbirkor zimmasiga tushadi, binobarin, u qarorlarni mustaqil qabul qiladi, joylashtirilgan pul mablag‘larining qaytmaslik riski ostida ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshiradi. Korxonaning moliyaviy qo‘yilmalari ham inflyatsiya darajasi yoki kapital joylashtirishning yanada daromadli sohalari bilan taqqoslaganda kam daromad olish riski bilan bog‘liq.

6. Moslashuvchanlik tamoyili korxona moliyasi boshqaruvini haqiqatdagi sotish hajmi rejalashtirilgandan og‘gan hollarda, shuningdek, uning joriy va investitsion faoliyat bo‘yicha rejalashtirilgan xarajatlari ortib ketgan hollarda manyovr qilish imkonini muntazam ta’minlaydigan darajada tashkil etishdan iborat.

7. Moliyaviy nazorat tamoyili ichki tahlil va audit asosida kompaniya ichidagi moliyaviy nazoratni amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydigan moliyalashtirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ichki tahlil va audit doimiy ravishda o‘tkazilishi, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini qamrab olishi va samarali bo‘lishi kerak.

3. Davlat korxonalarining moliyaviy munosabatlari quyidagilardan iborat:

1. Tovar-moddiy boyliklar yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar;

2. Tuzilgan shartnomalarga muvofiq mahsulot sotishda iste’molchilar bilan munosabatlar;

3. Bank tizimida kreditlarni olish va to‘lashda, valyutalarni xarid qilish va sotishda hamda boshqa operatsiyalarda bank xizmatlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar;

4. Sug‘urta kompaniyalari va tashkilotlari bilan tijorat hamda moliyaviy risklarni sug‘urtalash bo‘yicha munosabatlar;

5. Tovar, xomashyo va fond birjalari bilan ishlab chiqarish va moliyaviy aktivlar bilan ishlash bo‘yicha munosabatlar;

6. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish uchun investitsiya institutlari (fondlar, kompaniyalar) bilan munosabatlar;

7. Bo‘limlar va sho‘ba korxonalar bilan munosabatlar;

8. Ish haqi to‘lash bo‘yicha korxona xodimlari bilan munosabatlar;

9. Dividendlar to‘lash bo‘yicha aksiyadorlar bilan (mehnat jamoasining a’zolari bo‘lmagan) munosabatlar;

10. Ustav kapitalini shakllantirish va daromadlarni taqsimlash bo‘yicha muassislar bilan munosabatlar;

11. Byudjetga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga soliqlar va boshqa to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha soliq xizmati bilan aloqalar;

12. Auditorlik, yuridik va konsalting firmalari kabi xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan munosabatlar.

Sanab o‘tilgan munosabatlar pul tushumlari va to‘lovlar majmuini o‘zida aks ettiradi.

4. Davlat korxonalari moliyasi quyidagi **funksiyalarni** bajaradi: nazorat, taqsimlash, rag‘batlantirish va pul jamg‘armalarini shakllantirish hamda undan foydalanish funksiyasi.[10]



2.6-rasm. **Davlat korxonalari moliyasi funksiyalari**

[10] Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими: Дарслик/ Срожиддинова З. Х. «infoCOM.UZ» нашриёти, 2010 й.

Davlat korxonalari moliyasining taqsimlash funksiyasi moliyaviy resurslarni iqtisodiy mo‘ljallanganligi va mavjud qonunchilikka mutanosib ravishga turli yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlashdan iborat: byudjet, banklar va kontragentlar oldida pul majburiyatlarini bajarish, pul mablag‘larining maqsadli fondlarini (badal, mehnatga haq to‘lash fondi va boshqalar) shakllantirish va ulardan foydalanish, kapitalning samarali tuzilmasini saqlab turish. Taqsimlash funksiyasini amalga oshirishning asosiy obyekti sifatida korxona foydasi namoyon bo‘ladi.

Davlat korxonalari **moliyasining nazorat funksiyasi** moliyaviy hisobot va operativ hisob ko‘rsatkichlari yordamida pul mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanishni nazorat qilishdan iborat. Nazorat funksiyasi yoki moliyaviy nazorat uch yo‘nalishda amalga oshiriladi: kompaniya ichida bo‘limlar o‘rtasidagi munosabatlarda, tashqi muhit (kontragentlar) bilan munosabatlarda, davlat soliq inspeksiyasi yo‘nalishi bo‘yicha.

Rag‘batlantirish funksiyasi davlat korxonasi moliyasini oqilona tashkil etishda namoyon bo‘ladi, bu esa korxona samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Davlat korxonasi **fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish funksiyasi** ustav, zaxira va sug‘urta fondlarini, jamg‘arma fondini va iste’mol fondini shakllantirishdan iborat. Korxona fondlari xo‘jalik faoliyatini zarur pul mablag‘lari, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ilmiy-texnik taraqqiyotni moliyalashtirish, yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, korxona xodimlarini iqtisodiy rag‘batlantirishni ta’minlash uchun tashkil etiladi.

3.3 Davlat korxonalarining faoliyati va faoliyat yuritishi uchun normativ-huquqiy asoslarni tartibga solish

Davlat korxonalarining faoliyati va ularning moliyasi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, “O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi”, soliq to‘lovlari bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi”, “Davlat korxonalari to‘g‘risida”gi nizom (Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006 yildagi 215-sonli qaroriga

1-ilova), “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.02.1999 yildagi 540-sonli qaroriga ilova), O‘zbekiston Respublikasining 30.08.1996 yildagi N 279-I- sonli “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni, buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanmasi to‘g‘risida nizom (Moliya vazirining 23.12.2003 yildagi N 131-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 14-yanvarda 1297-son bilan ro‘yxatga olingan), “Milliy buxgalteriya standartlari” va boshqalar bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, mulkdor tomonidan mulkka biriktirilgan shaxsga egalik huquqi berilmagan tijorat tashkiloti unitar korxona hisoblanadi.

Unitar korxonaning mulki bo‘linmas sanalib, hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan, korxona xodimlari o‘rtasida taqsimlanmaydi.

Unitar korxonaning ustavida korxona ustav kapitalining miqdori, uni tuzish tartibi va manbalari to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Unitar korxonaning mulki unga xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqarish huquqi bilan tegishlidir. Unitar korxonaning firma nomida uning mulki egasi ham ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Unitar korxonaning organi mulkdor yoki vakolatli organ tomonidan tayinlangan va ularga hisobdor bo‘lgan rahbar hisoblanadi.

Unitar korxona o‘ziga qarashli barcha mol-mulk uchun o‘z majburiyatlari bo‘yicha javobgar sanaladi. U mulk egasining majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi. Unitar korxona mulkining egasi korxona majburiyatlari bo‘yicha javobgar sanalmaydi. Ushbu qoida, shuningdek, sho‘ba korxonaga muassis unitar korxonaning sho‘ba korxona majburiyatlari bo‘yicha javobgarligiga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona mulk egasining yoki u vakolat bergan organning qarori bilan tuziladi. Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan korxonaning ta’sis hujjati uning o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan nizomi hisoblanadi.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona yuridik shaxs sifatida o‘rnatilgan tartibda o‘z mulkining bir qismini xo‘jalik yuritish uchun taqdim etgan holda boshqa unitar korxona (sho‘ba korxona) tashkil etishi mumkin. Muassis sho‘ba korxonaning nizomini tasdiqlaydi va uning boshlig‘ini tayinlaydi.

Mulkni xo‘jalikni boshqarish huquqi asosida tasarruf etuvchi unitar korxona ushbu mol-mulkka egalik qiladi va undan foydalanadi. Qonunga muvofiq, mol-mulkini xo‘jalik yuritishga bergan mulkdor korxonani tashkil etish, uning faoliyati maqsadlari va predmetini belgilash, uni qayta tashkil etish va tugatish masalalarini hal qiladi, korxona direktori (boshlig‘i)ni tayinlaydi, korxona tomonidan o‘ziga tegishli mulkdan maqsadga ko‘ra foydalanilishi va saqlanishini nazorat qiladi. Mulkdor korxonaning xo‘jalik yuritishda bo‘lgan mulkdan foydalanishdagi daromadning bir qismini olish huquqiga egadir.

Unitar korxona o‘ziga xo‘jalik yuritish huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulkni sotishga haqli emas. Shuningdek, mulkdor roziligisiz uni ijaraga berishi, garovga qo‘yishi, xo‘jalik sherikchiligi va jamiyatlarining ustav fondiga ulush sifatida kiritishi yoki usulda tasarruf etishi mumkin emas. Korxonaga tegishli mol-mulkning qolgan qismini u mustaqil tasarruf etadi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, davlat organining qaroriga ko‘ra davlat tasarrufida bo‘lgan mulk bazasida tezkor boshqarish huquqi asosida davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin.

Davlat korxonasining ta’sis hujjati uning nizomi sanaladi. Tezkor boshqarish huquqiga asoslangan davlat korxonasining firma nomida korxona davlat korxonasi ekanligini ko‘rsatish lozim.

Davlat korxonasining mulki yetarli bo‘lmagan hollarda uning majburiyatlari bo‘yicha davlat ham subsidiar tartibda javob beradi.

Davlat korxonasi uni tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan davlat organi tomonidan qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

Davlat korxonasi o‘ziga biriktirilgan mulkdan qonunda belgilangan doirada, o‘z faoliyati maqsadlariga, mulkdorning (yoki uning topshirig‘iga ko‘ra u vakolat bergan davlat organi – muassisning)

topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi.

Davlat korxonasi yoki muassasasiga topshirilgan mulk egasi ortiqcha, foydalanilmayotgan yoki maqsadiga zid ravishda foydalanilayotgan mulkni olib qo‘yish va uni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etish huquqiga ega. Davlat korxonasi o‘z tasarrufidagi mol-mulkni ushbu mulk egasining roziligi bilan davlat ixtiyoriga o‘tkazishi yoki boshqacha tarzda tasarruf etishi mumkin.

Davlat korxonasi, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, o‘z mahsulotlarini mustaqil ravishda sotadi. Davlat korxonasining daromadlarini taqsimlash tartibi uning mol-mulki egasi tomonidan belgilanadi.

Muassasa o‘ziga biriktirilgan mulk va smeta bo‘yicha unga ajratilgan mablag‘lar hisobidan sotib olingan mulkni davlat ixtiyoriga o‘tkazishi yoki boshqacha tarzda tasarruf huquqiga ega emas. Agar ta’sis hujjatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiruvchi faoliyatni amalga oshirish huquqi taqdim etilgan bo‘lsa, u holda bunday faoliyatdan olingan daromad va ushbu daromadlar hisobidan sotib olingan mulk muassasaning mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda qayd etiladi.

Mulkdor tomonidan unitar korxona yoki muassasaga biriktirish haqida qaror qabul qilingan mulkka nisbatan ushbu korxona yoki muassasada xo‘jalik yuritish huquqi yoki mulkni operativ boshqarish huquqi agar qonunchilikda yoki mulkdorning qarorida boshqa holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, mulk o‘tkazilgan paytdan boshlab paydo bo‘ladi.

Xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqarishda bo‘lgan mulkdan foydalanish mevasi, mahsulotlari va daromadlari, shuningdek, unitar korxona yoki muassasa tomonidan shartnoma bo‘yicha yoki boshqa asoslarda sotib olingan mulk egalik huquqini qo‘lga kiritish uchun unitar korxona yoki muassasaning xo‘jalik yuritishi yoki tezkor boshqarishiga kelib tushadi.

Mulkka nisbatan xo‘jalik yuritish huquqi va tezkor boshqarish huquqi mulkdorning qaroriga binoan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarda bekor qilinadi.

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq, davlat korxonalari to‘g‘risida nizom davlat korxonalarining huquqiy maqomini, davlat korxonasi, uning sho‘‘balari va vakolatxonalarini tuzish hamda ularning faoliyatiga xos xususiyatlarni, muassisning, ijro organining huquq va majburiyatlari, davlat korxonasi va uning muassisi o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarni belgilab beradi.

Davlat korxonasi alohida mol-mulkka, mustaqil balansga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan valyuta hisob raqamlariga, ramzi, shtamplari va blankalariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o‘zining firma nomi davlat tilida yozilgan muhrga ega bo‘ladi. Davlat korxonasining firma nomida “davlat korxonasi” so‘zlari bo‘lishi kerak.

Davlat korxonasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Davlat korxonasi muassis roziligi bilan qonun hujjatlariga muvofiq tijorat tashkilotlari, shuningdek, ularda yuridik shaxslarning qatnashishiga yo‘l qo‘yiladigan notijorat tashkilotlar qatnashchisi (a’zosi) bo‘lishi mumkin. Davlat korxonasi davlatning boshqa korxonasi muassisi bo‘lishga haqli emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tashkil etilgan davlat unitar korxonalari faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini, faoliyatning ushbu turlarini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda, tegishli litsenziya olmasdan amalga oshirishga haqlidirlar.

Quyidagilarning qarorlari davlat korxonasini tashkil etish uchun asos sanaladi:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

– davlat boshqaruvi organi;

– mahalliy davlat hokimiyati organi.

Davlat korxonasi, agar uni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

Muassis tomonidan tasdiqlangan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli davlat organlarida ro‘yxatga olingan ustav davlat korxonasining ta’sis hujjati hisoblanadi.

Davlat korxonasi ustavida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

– firma nomi, joylashgan joyi (pochta manzili);

– faoliyatining predmeti va maqsadi;

– davlat korxonasi faoliyatini boshqarish tartibi;

– ustav fondining miqdori, uni shakllantirish tartibi va manbalari;

– ustav fondini ko‘paytirish va kamaytirish tartibi;

– mulkni tasarruf etish shartlari;

– daromad (foyda)ni taqsimlash va zararlarni qoplash tartibi;

– zaxira fondini va boshqa fondlarni tashkil etish tartibi;

– rahbarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;

– yillik hisobotlarni tuzish, tekshirish va tasdiqlash tartibi;

– davlat korxonasini qayta tashkil etish va tugatish tartibi.

Jamiyat ustavida qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa qoidalar bo‘lishi mumkin.

Davlat korxonasi ustaviga o‘zgartirishlar muassisning qaroriga ko‘ra kiritiladi va belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Davlat korxonasining mulki:

- muassis tomonidan davlat korxonasiga tezkor boshqarish huquqi bilan birkitilgan mulk;

- davlat korxonasining o‘z faoliyatidan olingan daromadlari;

- qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa manbalar hisobiga shakllantiriladi.

Davlat korxonasi mulkining qiymati korxonaning mustaqil balansida aks ettiriladi.

Tashkil etilgan davlat korxonasida davlat mulkini tezkor boshqarish huquqi, topshirish – qabul qilib olish dalolatnomasi korxona rahbari va muassis tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab paydo bo‘ladi.

Davlat korxonasi mulki bo‘linmas mulk hisoblanadi va qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan davlat korxonasi xodimlari o‘rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

Davlat korxonasi mulkini tasarruf etish quyidagi hollarda davlat korxonasining ijro etuvchi organi tomonidan muassis bilan kelishgan holda amalga oshiriladi:

– asosiy vositalarni sotish, ularni ijaraga yoki garovga topshirish;

– mulkni xo‘jalik jamiyati ustav fondiga ulush sifatida qo‘shish;

–xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari (ulushlari)ni sotib olish;

–mulkni davlat korxonasi faoliyati maqsadlariga muvofiq bo‘lmagan boshqacha tarzda tasarruf etish.

Davlat korxonasi muassis bilan kelishuv bo‘yicha, qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi mumkin.

Filial yoki vakolatxona tashkil etilgandan keyin bir hafta muddatda davlat korxonasi bu to‘g‘rida O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasini (uning hududiy organini) xabardor qilishi shart. Davlat korxonasining filiallari va vakolatxonalari ularni tashkil etgan davlat korxonasi nomidan, davlat korxonasi tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida faoliyat ko‘rsatadi va uni tashkil etgan davlat korxonasi mulkiga ega bo‘ladi. Davlat korxonasi filiali yoki vakolatxonasi rahbari davlat korxonasining rahbari tomonidan muassis bilan kelishgan holda tayinlanadi va uning ishonchnomasi asosida faoliyat ko‘rsatadi. Filial yoki vakolatxona rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘xtatilgan taqdirda ishonchnoma davlat korxonasi rahbari tomonidan bekor qilinishi kerak.

Davlat byudjetiga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga barcha soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan keyin davlat korxonasida qoladigan sof foyda korxona ixtiyorida qoladi va undan muassisning qaroriga binoan foydalaniladi.

Davlat korxonasi o‘z ixtiyorida qoladigan sof foyda hisobiga korxona ustavida nazarda tutilgan tartibda va muassis tomonidan tasdiqlanadigan miqdorlarda zaxira fondi va boshqa fondlarni tashkil etishi mumkin.

Davlat korxonasi o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mulk bilan javob beradi. Muassis korxona mulki yetarli bo‘lmaganda davlat korxonasi majburiyatlari bo‘yicha subsidiar tartibda javob beradi. Davlat korxonasi muassisning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi. Davlat korxonasining filiali va vakolatxonasi majburiyatlari bo‘yicha ularni tashkil etgan davlat korxonasi javob beradi.

Davlat korxonasi hisobot davri tugagach vakolatli organlarga moliyaviy hisobotni va ro‘yxati qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi hamda hujjatlarning saqlanishi va ularning belgilangan tartibda davlat tomonidan saqlashga berilishi uchun javob beradi.

Davlat korxonasi faoliyatini xo‘jalik yurituvchi organ sifatida nazorat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muassis va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonasi muassis qaroriga ko‘ra, tegishli ravishda Davlat mulki qo‘mitasi yoki uning hududiy boshqarmasi bilan kelishgan holda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yoxud sud qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Mazkur qaror davlat aktivlarini samarali boshqarishni ta’minlash, yagona texnik-iqtisodiy, ishlab chiqarish siyosatini amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, shu jumladan investitsiyalarni jalb etish yo‘li bilan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning yangi turlarini ishlab chiqarish va o‘zlashtirish hajmlarini kengaytirish maqsadida qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, davlat unitar korxonasi hisoblanadigan Markazga aksiyadorlik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalarning davlat

paketlari, shuningdek, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning ustav fondlaridagi davlat ulushlarini tasarruf etish huquqisiz egalik qilish va foydalanish uchun beriladi.

Davlat raqobat qo‘mitasining Toshkent shahri bo‘yicha hududiy boshqarmasi huzuridagi Davlat mulki ijarasi markazi tomonidan Toshkent shahri byudjetiga yo‘naltiriladigan mablag‘larning bir qismi 2013-yilda, 2014-yildan boshlab esa – davlat ulushi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga amalda tushgan dividendlarning bir qismi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan xarajatlar smetasi bo‘yicha davlat korxonalari foydasining bir qismidan ajratiladigan ajratmalar, ta’minot, zarur moddiy-texnik bazani shakllantirish, shuningdek, Markazning faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlarini qoplash manbai hisoblanadi.

3. Davlat korxonasi faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.02.1999-yildagi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqida 54-sonli qarori bilan tartibga solinadi.

Ushbu nizomga muvofiq, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ko‘rsatkichlari quyidagicha ifodalanadi:

1. Sotishdan olingan sof daromad va mahsulot sotish narxi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlangan mahsulot sotishdan olingan umumiy foydaga:

YAF=SST-IT,

bunda,

YAF – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

AFF = YAF-DX+BD-BZ,

bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

3. Xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

UF=AFF+MD-MX,

bunda,

UF – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4. **Soliq to‘langungacha olingan foyda**, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

STF=UF+FP-FZ,

bunda,

STF – soliq to‘langungacha olingan foyda;

FP – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar;

5. Yilning sof foydasi, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o‘zida foydadan to‘lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to‘langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

SF= STF-DS-BS,

bunda,

SF – sof foyda;

DS – foydadan to‘lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularning xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishi natijasida olinadigan **daromadlari** hisobotga quyidagi asosiy bo‘limlar bo‘yicha kiritiladi:

– sotishdan olingan sof tushum;

– asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari);

– moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

– favqulodda daromadlar.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning barcha xarajatlari quyidagilarga guruhlanadi:

mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

d) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ustama xarajatlar;

ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda ***davr xarajatlariga*** *kiritiladigan xarajatlar:*

a) sotish xarajatlari;

b) boshqarish xarajatlari (ma’muriy sarf-xarajatlar);

d) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

xo‘jalik yurituvchi subyektning umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo‘jalik yurituvchi subyektning ***moliyaviy faoliyati bo‘yicha xarajatlari****:*

a) foizlar bo‘yicha xarajatlar;

b) xorijiy valyuta bilan operatsiya bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari;

d) qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan mablag‘larni qayta baholash;

e) moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar.

Favqulodda zararlar, u foydadan olinadigan soliq to‘langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Moliyaviy natija u yoki bu hisobot davri uchun korxona faoliyatining sarhisobi sanaladi. Har bir tijorat tashkilotining maqsadi oxir-oqibat foyda olishdir.

Har bir korxonada foyda olish bilan birga uning taqsimlanishini samarali boshqarish ham ta’minlanishi kerak. Bunda hisobot davri daromadini taqsimlashning har bir sikli – bu bir vaqtning o‘zida kelgusi davrda uni kengaytirilgan asosda shakllantirishning samarali shart-sharoitlarini ta’minlash jarayoni, korxonani strategik rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish ekanligini ham yodda tutish zarur.

2017 yil 17 yanvardagi PF-4933 sonli “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston respublikasi Prezidentining Farmoni da xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat mulki obyektlarini sotish tartib-taomillarini yanada soddalashtirish va bu jarayonni jadallashtirish, ularni xususiylashtirishda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, xususiy mulk qilib sotilgan obyektlarda raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisiga, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlariga davlat mulki bo‘lgan nostrategik obyektlarni, shu jumladan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini investitsiya majburiyatlari qabul qilingan holda «nol» xarid qiymati bo‘yicha sotish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish huquqi berildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining qarorlari asosida sotiladigan davlat mulki obyektlarini sotishdan tushadigan mablag‘lar tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga hamda viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlariga yo‘naltiriladi, belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar bundan mustasno;

yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini bergan asosiy fondlarni modernizatsiyalashtirgan va mukammal ta’mirdan chiqargan davlat mulki obyektining ijarachisiga uni xususiylashtirishda ijaraga olingan obyektni birinchi navbatda sotib olish uchun ustun huquq beriladi;

tanlov va auktsionning birdan bir qatnashchisidan savdo shartlariga to‘liq mos keladigan taklif tushganida davlat mulki obyektini xarid qilish-sotish to‘g‘risidagi shartnomani tuzishga ruxsat beriladi;

2017 yilning 1 iyulidan boshlab davlat mulki obyektlarini baholash aktivlar qiymatiga ta’sir qiluvchi bozorning joriy kon’yunkturasini va obyektiv omillar yig‘indisini hisobga oluvchi yangilangan milliy standartlar asosida amalga oshiriladi;

O‘zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo‘mitasining Davlat arxitektura-qurilish nazorati xulosasiga muvofiq yaroqsiz deb topilgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini buzish to‘g‘risidagi qarorlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan qabul qilinadi.

Farmon bo‘yicha quyidagilar taqiqlangan:

O‘zbekiston Respublikasining talabgor rezidentlaridan tanlov savdolarida davlat mulki obyektlarini sotish vaqtida buyurtmanoma va biznes-rejadan boshqa hujjatlarni talab qilish, davlat mulkining strategik obyektlarini sotish hollari bundan mustasno;

davlat organlari, shu jumladan nazorat, huquqni muhofaza qilish organlari va sudlar tomonidan xususiylashtirish natijalarini, shu jumladan, obyektlar qiymatini baholash natijalarini qayta ko‘rib chiqish va bekor qilish masalalarini o‘rtaga qo‘yish.

Davlat mulki obyektlarini sotishda xalqaro amaliyotda keng foydalanilayotgan quyidagi shakllar joriy etildi:

fond birjasida aholiga va tadbirkorlik faoliyati subyektlariga aktsiyalarni birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) oshkora taklif etish;

ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan elektron shaklda o‘tkaziladigan tanlov va auktsion.

O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2017 yilning 1 apreliga qadar aktsiyadorlik jamiyatlarining ro‘yxati hamda ularning aktsiyalarini xalqaro amaliyotga muvofiq aholiga va tadbirkorlik faoliyati subyektlariga birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) oshkora taklif etish tartibi yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritilmoqda.

3.4. Davlat korxonalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish manbalari

Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilmasi, shuningdek, uning kadrlar tarkibi korxona kattaligi va uning faoliyati turiga qarab turli xil yo‘llar bilan tuzilishi mumkin. Yirik kompaniya uchun, odatda, buxgalteriya va moliya bo‘limini ham o‘z ichiga oluvchi moliya bo‘yicha vitse-prezident (moliyaviy direktor) tomonidan boshqariladigan maxsus xizmatni ajratish xarakterlidir. Kichik korxonalarda moliya menejeri vazifasini, odatda, bosh buxgalter bajaradi.

Firmaning moliyaviy resurslarini boshqarish, uning namoyon bo‘lishi ko‘p variantli ekanligini nazarda tutgan holda, amaliyotda bu ishlarni professional tashkil etmasdan turib amalga oshirilishi mumkin emas.

Uzoq vaqt mahalliy amaliyotda firmalarning moliyaviy xizmatlari hech qanday mustaqil ahamiyat kasb etmagan, ularning ishi qat’iy aniq shakllardan foydalangan holda hisob-kitoblarga xizmat qilish, real oqibatlarga ega bo‘lmagan oddiy moliyaviy rejalar va hisobot tayyorlash bo‘lgan. Faqatgina buxgalteriya ishi real oqibatlarga ega edi, ya’ni, moliyaviy ishni buxgalteriya hisobi bilan bitta xizmat – buxgalteriya doirasida birlashtirish maqsadga muvofiq sanalardi.

Moliyani tashkil qilishning bunday amaliyoti aksariyat korxonalarda mavjud bo‘lgan va hozirgacha mavjud. Biroq korxona boshlig‘i odam bir vaqtning o‘zida ham yaxshi buxgalter, ham yaxshi moliyachi bo‘la olmasligini e’tiborga olishi lozim.

Buxgalter ishida asosiy narsa – birlamchi hujjatlarni diqqat bilan tushunib olish va ko‘rsatmalarga mutanosiblikda o‘ta aniqlik bilan buxgalteriya registrlaridagi ularni aks ettirish qobiliyatidir.

Moliyaviy resurslarni boshqarish korxona boshqaruvining umumiy tizimining asosiy kichik tizimlaridan biridir. Uning doirasida quyidagi masalalar hal etiladi:

– Korxona oldiga qo‘yilgan maqsadlar va vazifalarga erishish imkonini beruvchi korxona aktivlarining optimal tarkibi va miqdori qanday bo‘lishi kerak?

– Moliyalashtirish manbalarini qayerdan topish mumkin va ularning optimal tarkibi qanday bo‘lishi kerak?

– Korxonaning to‘lov qobiliyatini va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, moliyaviy faoliyatni joriy va istiqbolli boshqarishni qanday tashkil etish kerak?

“Moliyaviy instrument” konsepsiyasini talqin qilishda turli yondashuvlar mavjud. Eng umumiy ko‘rinishda moliyaviy instrument deganda bitta korxonaning moliyaviy aktivlari va boshqa korxonaning moliyaviy majburiyatlarining bir vaqtning o‘zida o‘sishini ta’minlaydigan har qanday shartnoma tushuniladi.

Moliyaviy aktivlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– pul mablag‘lari;

– boshqa korxonadan pul mablag‘lari yoki boshqa turdagi moliyaviy aktivlarni olish uchun shartnomaviy huquq;

– moliyaviy instrumentlarni boshqa korxona bilan potensial jihatdan qulay sharoitlarda almashtirish bo‘yicha shartnomaviy huquq;

– boshqa korxona aksiyalari.

Moliyaviy majburiyatlar quyidagi shartnomaviy majburiyatlarni o‘z ichiga oladi:

– boshqa korxonaga pul mablag‘lari berish yoki boshqa turdagi moliyaviy aktivlarni taqdim etish;

– potensial noqulay sharoitlarda boshqa korxonalar bilan moliyaviy instrumentlarni ayirboshlash (xususan, debitorlik qarzini majburiy sotishda shunday vaziyat yuzaga kelishi mumkin).

Moliyaviy instrumentlar birlamchi (pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, joriy operatsiyalar bo‘yicha kreditorlik va debitorlik qarzlari) va ikkilamchi yoki hosila (moliyaviy opsionlar, fyucherslar, forvard shartnomalar, foiz svoplari, valyuta svoplari) instrumentlarga ajratiladi.

Bundan tashqari, “moliyaviy instrument” tushunchasi mohiyatini bundan-da soddaroq tushunish ham mumkin. Unga muvofiq, moliyaviy instrumentlarning uchta asosiy toifasi ajratiladi: pul mablag‘lari

(kassadagi pul mablag‘lari va joriy hisobdagi valyuta), kredit instrumentlari (obligatsiyalar, forvard shartnomalar, fyucherslar, opsionlar, svop va boshqalar) va ustav kapitalidagi ishtiroki usullari (aksiyalar va paylar).

Moliyaviy boshqaruv metodlari xilma-xil. Ularning asosiylari quyidagilardir: prognozlash, rejalashtirish, soliq, sug‘urta, o‘z-o‘zini moliyalashtirish, kreditlash, to‘lov tizimi, moliyaviy yordam tizimi, moliyaviy jazo tizimi, amortizatsion ajratmalar tizimi, imtiyozlar tizimi, narxni shakllantirish tamoyillari, trast operatsiyalari, garov operatsiyalari, transfert operatsiyalari, faktoring, ijara, lizing. Maxsus stavkalar, dividendlar, valyuta kurslari kotirovkasi, aksizlar, diskont va boshqalar keltirilgan metodlarning tarkibiy unsuri hisoblanadi. Moliyaviy boshqaruv tizimining axborot ta’minoti asosini moliyaviy xarakterdagi ixtiyoriy axborot tashkil etadi:

– buxgalteriya hisoboti;
– moliya organlari xabarnomalari;
– bank tizimi muassasalarining axboroti;
– tovar, fond, valyuta birjalari axboroti;
– boshqa axborotlar.

Moliyaviy menejment tizimini texnik qo‘llab-quvvatlash uning mustaqil va juda muhim elementi hisoblanadi. Qog‘ozsiz texnologiyalarga asoslangan ko‘pgina zamonaviy tizimlarni (banklararo hisob-kitoblar, tarmoqlar, kredit kartalari bilan hisob-kitoblar va boshqalar) kompyuter tarmoqlaridan, ilovalardan foydalanmasdan turib qo‘llash mumkin emas.

Har qanday moliyaviy boshqaruv tizimining faoliyat yuritishi amaldagi qonunchilik va tartibga solish qoidalari doirasida amalga oshiriladi. Bular: qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, vazirliklar va idoralarning buyruqlari, litsenziyalar, normativ hujjatlar, normalar, ko‘rsatmalar va boshqalar.

3.5. Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari

Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi aktivlarning aylanish tezligi va rentabellik ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Binobarin, boshqaruv samaradorligini xarajatlarni kamaytirish va tushumni oshirish hisobiga aylanma muddatini kamaytirish va rentabellikni oshirgan holda yaxshilash mumkin.

Aylanma mablag‘lar aylanmasini tezlashtirish kapital xarajatlar talab qilmaydi va ishlab chiqarish hamda sotish hajmi ortishiga olib keladi. Biroq inflyatsiya aylanma mablag‘larni yetarlicha tez qadrsizlantiradi, korxonalar xomashyo va yonilg‘i-energitika resurslarini sotib olish uchun ularning tobora ko‘proq qismini yo‘naltira boshlaydi, xaridorlar to‘lovsizligi mablag‘larning salmoqli qismini aylanmadan chetda qoldiradi.

Aylanma kapital sifatida korxonalarda joriy aktivlar qo‘llaniladi. Aylanma kapital sifatida foydalaniladigan mablag‘lar ma’lum bir sikldan o‘tadi. Likvid aktivlar tayyor mahsulotga aylantiriladigan xomashyo sotib olish uchun ishlatiladi; mahsulot kreditga sotilib, debitorlik hisobi ochiladi; debitorlik hisobi to‘lanadi va likvid aktivlarga aylangan holda inkassatsiya qilinadi.

Aylanma kapital ehtiyojlari uchun foydalanilmaydigan har qanday fondlar passivlarni to‘lash uchun yo‘naltirilishi mumkin. Bundan tashqari, ular asosiy kapitalni sotib olish yoki mulkdorlarga daromad shaklida to‘lash uchun ham qo‘llanishi mumkin.

Aylanma kapitalni tejashning, o‘z navbatida, uning aylanish tezligini oshirish yo‘llaridan biri zaxiralar boshqaruvini takomillashtirishdan iborat. Korxona zaxiralarini tashkil qilish uchun ham mablag‘ yo‘naltirgani bois, saqlash xarajatlari nafaqat ombor xarajatlari bilan, balki tovarlarning yaroqsiz holga kelish va eskirish riski bilan, shuningdek, kapitalning vaqt bo‘yicha qiymati, ya’ni, muqobil risk darajasida boshqa investitsion imkoniyatlar natijasida olish mumkin bo‘lgan foyda me’yori bilan ham bog‘liq.

U yoki bu hajmda muayyan turdagi joriy aktivlarni saqlashning iqtisodiy va tashkiliy-ishlab chiqarish natijalari mazkur aktiv turi uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Tayyor mahsulotlarning yirik zaxirasi (mo‘ljallangan savdo hajmi bilan bog‘liq) kutilmagan yuqori talabda mahsulot tanqisligi yuzaga kelish imkonini pasaytiradi.

Shu tariqa, xomashyo va materiallarning yetarlicha yirik zaxirasi korxonani kerakli zaxiralarning kutilmagan yetishmovchiligi yuzaga kelgan holatda ishlab chiqarish jarayonini to‘xtatish yoki undan qimmatroq o‘rin bosuvchi materiallar sotib olish ehtimolidan qutqarib qoladi. Xomashyo sotib olish uchun yirik buyurtmalar yirik zaxiralar yuzaga kelishiga olib kelsa-da, bu korxona yetkazib beruvchilar tomonidan narx pasaytirilishiga erishilgandagina ma’noga ega bo‘ladi. Shu sabablarga ko‘ra, korxona ishlab chiqarishni yanada tejamkor boshqarish imkonini beruvchi tayyor mahsulotlar zaxirasini yetarlicha darajada saqlab turishni afzal ko‘radi. Natijada, korxonaning o‘zi, odatda, mijozlariga chegirmalar taqdim etadi.

Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini oshirish zaxiralarni saqlash bilan bog‘liq natija va xarajatlarni aniqlashga, zaxira va xarajatlarni oqilona muvozanatga keltirishga olib keladi. Korxonada aylanma mablag‘lar aylanmasini tezlashtirish uchun quyidagilar maqsadga muvofiq:

– kerakli materiallarni xarid qilishni rejalashtirish;

– qattiq ishlab chiqarish tizimlarini joriy qilish;

– zamonaviy omborlardan foydalanish;

– talabni prognozlashtirishni takomillashtirish;

– xomashyo va materiallarni tez yetkazib berish.

Aylanma kapital aylanishini tezlashtirishning ikkinchi usuli debitorlik hisobini kamaytirishdan iborat.

Debitorlik qarzi darajasi ko‘plab omillar bilan belgilanadi: mahsulot turi, bozor hajmi, bozorning to‘yinganlik darajasi, korxonada qabul qilingan hisob-kitoblar tizimi va boshqalar. Debitorlik qarzini boshqarish, avvalo, hisoblardagi mablag‘lar aylanishi ustidan nazoratni taqozo etadi. Dinamikada aylanmalarning tezlashishi ijobiy tendensiya sifatida qaraladi. Bunda potensial xaridorlarni saralash va

shartnomalarda nazarda tutilgan tovarlar uchun to‘lov shartlarini belgilash katta ahamiyatga ega.

Saralash rasmiy mezonlardan foydalangan holda amalga oshiriladi: o‘tmishda to‘lov intizomiga rioya etilishi, so‘ralgan tovar hajmi uchun haq to‘lashda xaridorning prognoz moliyaviy imkoniyatlari, joriy to‘lov qobiliyati darajasi, moliyaviy barqarorlik darajasi, sotuvchi korxonaning iqtisodiy va moliyaviy shartlari (ixtiyoridagi tovar hajmi, naqd pulga ehtiyoj darajasi va boshqalar).

Tovarlar uchun doimiy mijozlar amalga oshiradigan to‘lov, odatda, kreditga amalga oshiriladi, bunda kredit shartlari ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda “2/10 to‘liq 30” sxemasi keng tarqalgan bo‘lib, bu quyidagini anglatadi:

– xaridor kreditlash davri boshidan o‘n kun ichida tovarlar uchun to‘lovni amalga oshirgan holda ikki foiz chegirmaga ega bo‘ladi;

– agar to‘lov kredit davrining 11 nchidan 30nchi kuniga bo‘lgan davrda amalga oshirilsa, xaridor tovarlarning to‘liq qiymatini to‘laydi;

– bir oy ichida tovar narxi to‘lanmagan holatda xaridor miqdori to‘lov kuniga bog‘liq ravishda turlicha bo‘lgan qo‘shimcha jarima to‘lashi kerak bo‘ladi.

Debitorlik qarzini undirish maqsadida qarzdorlarga ta’sir qilishning keng tarqalgan yo‘llari xat yo‘llash, telefon qilish, shaxsan tashrif, qarzdorlikni maxsus tashkilotlarga sotish (faktoring) kabilar hisoblanadi.

Aylanma kapitali xarajatlarini kamaytirishning uchinchi usuli naqd pul mablag‘laridan yaxshiroq foydalanish hisoblanadi. Investitsiyalash nazariyasi pozitsiyasiga ko‘ra, pul mablag‘lari tovar-moddiy qimmatliklarga investitsiyalashning xususiy hollaridan birini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ularga nisbatan ham umumiy talablarni qo‘llash mumkin. Birinchidan, joriy hisoblarni amalga oshirish uchun mablag‘larning asosiy zaxirasi talab qilinadi. Ikkinchidan, kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun pul kerak bo‘ladi. Uchinchidan, faoliyatning ehtimoliy yoki prognostik kengayishini ta’minlash uchun muayyan miqdorda bo‘sh naqd pul mablag‘lariga ega bo‘lish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, pul mablag‘lari miqdorini optimallashtirishga imkon beruvchi va zaxiralarni boshqarish nazariyasida ishlab chiqilgan

modellarni pul mablag‘lariga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Bunda so‘z quyidagilarni baholash haqida boradi:

– naqd pul mablag‘lari va uning ekvivalentlarining umumiy miqdorini;

– qaysi ulushni hisob raqamida, qaysisini esa tez sotiladigan qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida saqlash kerakligi;

– pul mablag‘lari va tez sotiladigan aktivlarning o‘zaro transformatsiyasini qachon va qanday hajmda amalga oshirish kerakligi.

Firmalar o‘z likvid aktivlarini ushlab turgan bank hisob raqamlari bo‘yicha foizlar to‘lanmaydi. Biroq boshqa likvid aktivlar (qisqa muddatli davlat qimmatli qog‘ozlari, depozit sertifikatlari, bir martalik zayom turlari) foiz ko‘rinishida daromad keltiradi.

4-BOB . O‘ZBEKISTONDA BYUDJET TUZILISHI VA BYUDJET JARAYONI

4.1. Davlat byudjeti: tushunchasi, mohiyati, funksiyalari, ishlab chiqarish jarayonida o‘rni va ahamiyati, holati

Byudjet – tegishli qaror bilan tasdiqlangan va individual yoki kollektiv subyekt tomonidan ijro etiladigan daromad va xarajatlarning hisob va chegaralovchi smetasi hamda muayyan vaqt davri uchun ularning ro‘yxatini anglatuvchi atamaning umumiy nomi.[11]

Davlat byudjeti moliyaning iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun davlat byudjetini iqtisodiy kategoriya – o‘z vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur davlat pul mablag‘lari jamg‘armasini shakllantirish, taqsimlash va foydalanishda yuzaga keluvchi obyektiv pul munosabatlari majmui sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjetiga xos xususiyatlar uning shakli, moddiy mazmuni va mohiyatida (iqtisodiy tabiatida) namoyon bo‘ladi.

Shakliga ko‘ra davlat byudjeti – bu davlatning asosiy moliyaviy rejasi bo‘lib, unda byudjet pul munosabatlar tizimi sifatida miqdoriy ifodalanadi, o‘z navbatida, aynan byudjet rejasi – mamlakatning eng muhim moliyaviy muddati tuziladi, ko‘rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi. U asosiy markazlashtirilgan pul mablag‘lari jamg‘armasini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo‘yicha iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi.[12]

Moddiy mazmuniga ko‘ra davlat byudjeti – byudjet rejasini amalga oshirish jarayonida shakllantirilgan va foydalaniladigan davlat pul mablag‘larining asosiy markazlashgan jamg‘armasi hisoblanadi.

[11] Тетерина Л.М. Государственный бюджет: Учеб.-метод. комплекс; Минский институт управления. – Мн.: Изд-во МИУ, 2015

[12] Мысляева И.М. Государственные и муниципальные финансы: Учебник. Изд. 2-е, перераб. и доп. — М: ИНФРА-М, 2013. - 360, с. 100.



4.1-rasm. **Davlat byudjetining iqtisodiy ahamiyati**[13]

O‘z mohiyatiga ko‘ra davlat byudjeti – davlat tartibotining eng muhim instrumenti, uning yordamida davlat ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sir qiladi, stixiyali bozor kuchlarining salbiy oqibatlarini yumshatadi.

Davlat tartiboti soliq, byudjetdan moliyalashtirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy kafolatlar, maxsus jamg‘armalarning byudjet mablag‘lari hisobidan tuzilmalar, iqtisodiyot rivojlanishida nomutanosibliklardan ogohlantirish uchun zaxiralar vositasida amalga oshiriladi.

Yuridik kategoriya sifatida davlat byudjeti – bu davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta’minlashga mo‘ljallangan pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil qilish va sarflashning qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan shaklidir.

[13] Бабич, А.М. Государственные и муниципальные финансы / А.М. Бабич, Л.Н. Павлова. - М.: Юнити-Дана, 2017. - 687 с

Byudjet hokimiyatning vakillik organi tomonidan qabul qilinadigan va shu sababli qonun kuchiga ega bo‘lgan huquqiy hujjat shakliga ega.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Davlat byudjeti daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar hajmi va sarflash yo‘nalishlarini ko‘zda tutuvchi markazlashgan davlat jamg‘armasini o‘zida aks ettiradi (jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari).

Ixtiyoriy iqtisodiy kategoriyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo‘ladi.

Davlat byudjeti moliyaning iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy qismi bo‘lgani uchun, byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi sanaladi, o‘z navbatida, ularga pul shakli va moliyaning asosiy funksiyalari: taqsimot (qayta taqsimlash) va nazorat xos.

Taqsimot funksiyasini byudjet daromadlari, jumladan, soliqlar, zayomlar, davlat mulki daromadlari, qog‘oz pullar emissiyasidan daromadlar bajaradi. Bunda byudjet jamg‘armasi sof milliy mahsulot: ishchi va xizmatchilarning ish haqi, yollanib ishlovchi shaxslarning daromadlari, tadbirkorlik foydasi, renta va foizlarning birlamchi taqsimoti natijasida olingan xo‘jalik subyektlari (yuridik va jismoniy shaxslar)ning daromadlari hisobidan shakllantiriladi.

Byudjet daromadlarining tuzilmasi barqaror emas, u har bir mamlakatning o‘ziga xos iqtisodiy sharoitlariga bog‘liq. Byudjet daromadlari tuzilmasidagi o‘zgarish iqtisodiy jarayonlar dinamikasi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Shunday qilib, soliqlar bilan qarzlar o‘rtasidagi nisbatning qarz ulushining ortishi tomon o‘zgarishi ishlab chiqarishdagi pasayish, jamiyatda iste’mol bilan jamg‘arish o‘rtasidagi o‘zaro nisbat o‘zgarganligidan dalolat beradi.

Byudjetning qayta taqsimlash funksiyasi aniq maqsadli byudjet xarajatlariga tegishli. Umumiy xo‘jalik subyekti sifatida namoyon bo‘luvchi davlat ishlab chiqarish jarayonidagi barcha ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlarini inobatga oladi, shuning uchun byudjet xarajatlari

xo‘jalik yuritishning barcha tarmoqlari va sohalarini qamrab oladi. Milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy proporsiyaga rioya etish zarurati alohida tarmoqlarni byudjetdan moliyalashtirish hajmini, ijtimoiy sohalar, iqtisodiy mintaqalar, mulkchilikning turli shakllari va alohida xo‘jalik subyektlarini tartibga solishni taqozo etadi.

Byudjetning nazorat funksiyasi byudjetga mablag‘lar tushishining o‘z vaqtidaligi va to‘liqligi hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalanish ustidan davlat nazoratining imkoniyati va majburiyatini nazarda tutadi.

Shunday qilib: taqsimot funksiyasi byudjet jamg‘armasi (byudjet daromadi) shakllantirilishini; qayta taqsimot – byudjet mablag‘laridan foydalanishni (byudjet xarajatlari); nazorat – byudjetga mablag‘ kelib tushishi va ulardan foydalanish ustidan nazorat qilish uchun shart-sharoit yaratishni ta’minlaydi.

Davlat byudjeti ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga faol ta’sir qiladi, milliy iqtisodiyotning tarmoqlari o‘rtasida, milliy daromad qayta taqsimlash imkonini beradi noishlab chiqarish sohasiga, jumladan, moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida milliy daromadning qayta taqsimlanishini ta’minlaydi (ishchi kuchini ishga solish uchun shart-sharoitlar yaratish, jamiyatni jismoniy va ma’naviy rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlik ko‘payishi uchun shart-sharoit yaratish, aholining kam ta’minlangan qatlami – pensionerlar, talabalar, ishsizlar, kam ta’minlangan ko‘p bolali oilalar va boshqalar munosib yashashini qo‘llab-quvvatlash); jamiyat uchun favqulodda muhim va zarur mahsulotlar va xizmatlar bo‘yicha barqaror past daromadlilikka ega tarmoqlarning (energetika, transport, aloqa va hokazo) moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradi va boshqalar.

Davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai bo‘lgan soliqlar orqali muayyan tarmoqlar, xo‘jalik subyektlari va jismoniy shaxslarning tasarrufida qoluvchi pul mablag‘lari ulushini kamaytirgan yoki ko‘paytirgan, tiyish yoki rag‘batlantirish siyosatini amalga oshirgan va shu tariqa iqtisodiy muvozanatni ta’minlagan holda ularning iqtisodiy faolligini tartibga soladi.

Shu bilan birga, byudjet orqali byudjet tizimi darajalari (subvensiyalar, transfertlar) o‘rtasida daromadlar qayta taqsimlanishini amalga oshirib, bu bilan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasini tenglashtirish uchun imkon yaratadi.

Shunday qilib, davlat byudjeti iqtisodiyotning samarali regulyatori hisoblanadi – u davlat uchun zarur moliyaviy resurslarni hajmini aks ettiradi, mamlakatning soliq siyosatini belgilaydi, mablag‘larni sarflash, milliy daromad va yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlashning aniq yo‘nalishlarini qayd qiladi.

Tarixning turli davrlarida davlat byudjeti milliy iqtisodiyotga turlicha ta’sir qiladi. Masalan, kapitalistik rivojlanish davrida davlat iqtisodiyotga faol aralashmadi – shuning uchun davlat byudjeti orqali milliy daromadning 19 foizigachasi qayta taqsimlandi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib davlat byudjeti makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning kuchli instrumentiga aylanadi – hozirgi paytda milliy daromadning 30-50 % gachasi byudjet orqali qayta taqsimlanadi.

Davlat byudjetining faoliyati maxsus iqtisodiy shakllar – daromad va xarajatlar bilan ta’minlanadi.

Byudjet daromadlari – davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tasarrufiga qonun hujjatlariga muvofiq beg‘araz tartibda kelib tushadigan pul mablag‘laridir.

Jahon amaliyotida byudjetga pul tushumlarining uchta asosiy yo‘llari mavjud:

– qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan soliqlar va yig‘imlar ko‘rinishida undiriladigan yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy to‘lovlari;

– foydalanilganligi uchun to‘lovlar yoki badallar undirilishi mumkin bo‘lgan davlat mulki va umumdavlat resurslari;

– davlat zayomlari, boshqa qimmatli qog‘ozlarni sotishdan olingan daromadlar, lotareyalar, davlat banklariga omonatlarning bir qismi va boshqa shakldagi jalb qilingan resurslar.

Byudjet daromadlarining miqdori YAIMning o‘sishiga va soliq stavkalari bo‘yicha belgilangan soliq yukiga bog‘liq. Daromadlar byudjet xarajatlarini ta’minlashga mo‘ljallangan.

Byudjet xarajatlari bu – davlat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vazifalari va funksiyalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltiriladigan pul mablag‘laridir.

Byudjet xarajatlari kategoriyasi xarajatlarning aniq turlari orqali namoyon bo‘lib, ularning har biri sifat va miqdoriy jihatdan tavsiflanishi mumkin. Sifat jihatidan tavsif byudjet xarajatlarining har bir turiga xos iqtisodiy mazmun va ijtimoiy ahamiyatni belgilash imkonini bersa, miqdoriy tavsif ularning kattaligini aniqlaydi.

Byudjetning uchta asosiy holati mavjud: defitsit, profitsit, balanslashgan. Byudjet xarajatlarining daromadlaridan ortib ketishi (byudjetning manfiy saldosi) byudjet defitsitidan darak beradi.

Byudjet daromadlarining xarajatlaridan ortiqligi (byudjetning musbat saldosi) byudjet profitsiti hisoblanadi.

Balanslashgan – xarajatlar summasi va kelib tushgan daromadlar miqdori teng bo‘lgan byudjet.

Iqtisodiyot nazariyasida agar defitsit yoki profitsit umumiy xarajatlarning 1 foizidan oshmasa, byudjetni balanslashgan deb hisoblash qabul qilingan.

Byudjet defitsiti davlat uchun yoqimsiz hodisa. Biroq byudjet defitsitini favqulodda va halokatli hodisalar toifasiga kiritish mutlaqo mumkin emas, chunki defitsit sifati va tabiati har xil bo‘lishi mumkin.

Davlat byudjeti defitsiti nazorat qilinuvchan hisoblanadi, agar uning hajmi YAIMning 3 foizidan (Maastrixt mezoni) oshmasa, iqtisodiyot uchun xavfli sanalmaydi. Aksincha holatda, u pul, kredit tizimi va umuman butun iqtisodiyotning faoliyatiga ta’sir qiladi.

Byudjet defitsitining quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi:

tuzilmaviy – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni kamaytirish bo‘yicha hukumat chora-tadbirlari natijasida yuzaga keluvchi defitsit, u ijtimoiy jarayonlarning inqiroz kechishini aks ettirmaydi, balki aniqrog‘i, ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasida progressiv siljishlarni ta’minlashga davlatning intilishi oqibati sanaladi;

davriy – ishlab chiqarishning davriy pasayishi natijasida yuzaga keladigan va iqtisodiyotdagi inqirozni, hodisani, hukumatning moliyaviy vaziyatini nazorat qilishga qodir emasligini aks ettiradigan defitsit.

Byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari sifatida o‘z mablag‘lari va qarz mablag‘lari namoyon bo‘lishi mumkin. O‘z mablag‘lari – davlat va mahalliy hokimiyatga tegishli bo‘lgan mol-mulkdan resurslar tushumi, qaytmas xarakterda bo‘ladi. Ichki va tashqi moliya bozorlaridan o‘zlashtirish qaytar xarakterga ega bo‘lib, davlat qarzining ko‘payishiga olib keladi, ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha foiz xarajatlari qoplanishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida Davlat byudjeti daromad manbalari va ulardan tushumlarni, shuningdek, xarajat yo‘nalishlari va moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar miqdorini nazarda tutuvchi markazlashgan davlat jamg‘armasini o‘zida aks ettiradi (jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari).

O‘zbekistonning Davlat byudjeti tarkibiga respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar kiradi. Shuningdek, davlat byudjeti tarkibida davlat maqsadli jamg‘armalari birlashtiriladi.

Respublika byudjeti – davlat byudjetining daromad manbalari va ulardan tushumlarni nazarda tutuvchi umumdavlat xarakteridagi tadbirlarni moliyalashtirish uchun foydalaniladigan qismidir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti – davlat byudjetining daromad manbalari va ulardan tushumlarni, shuningdek, xarajat yo‘nalishlari va moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar miqdorini nazarda tutuvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasidan iborat tarkibiy qismidir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va respublika (Qoraqalpog‘iston) bo‘ysunuvidagi tumanlar va shaharlar byudjetini o‘z ichiga oladi.

Mahalliy byudjet – davlat byudjetining daromad manbalari va ulardan tushumlarni, shuningdek, xarajat yo‘nalishlari va moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar miqdorini

nazarda tutuvchi tegishli viloyat, tuman, shaharning pul mablag‘lari jamg‘armasidan iborat qismidir.

Viloyat byudjetiga viloyat byudjeti, tumanlar va viloyatga bo‘ysunadigan shahar byudjetlari kiradi.

Tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar mavjud tumanlarning byudjetlari tuman byudjeti va tumanga bo‘ysunadigan shaharlar byudjetini o‘z ichiga oladi.

Tuman bo‘linishiga ega shahar byudjeti shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetidan iborat bo‘ladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari – davlat byudjeti tarkibiga birlashtiriladigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun qonunchilik bilan moliyalashtirish manbalari, har bir manbadan mablag‘lar tushumi me’yorlari va shartlari, shuningdek, ushbu mablag‘lar foydalanishi mumkin bo‘lgan maqsadlar belgilab berilgan.

Shunday qilib, mohiyatan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar (ya’ni, konsolidatsiyalangan byudjet) va byudjetdan tashqari jamg‘armalarning byudjetlarining daromad va xarajatlarini o‘z ichiga oluvchi jamlanma byudjetni o‘zida aks ettiradi.

Nazariya va amaliyot nuqtayi nazaridan jamlanma byudjet tegishli ma’muriy-hududiy birlik hududining barcha darajadagi byudjetlari jamlanmasi, davlat byudjet tizimi, daromadlar va xarajatlar bo‘yicha, shuningdek, mablag‘lar tushumi manbalari va ulardan hududlar bo‘yicha foydalanish va butun mamlakat byudjet tizimi bo‘yicha jamlangan ma’lumotlarni tavsiflovchi byudjet ko‘rsatkichlarining statistik to‘plami sanaladi. Konsolidatsiyalangan byudjet ko‘rsatkichlaridan quyidagilarda foydalaniladi:

– byudjetni rejalashtirishda, masalan, umumdavlat miqyosida tartibga solinuvchi soliqlardan mahalliy byudjetlarga ajratmalar me’yorlari kattaligini va dotatsiyalar miqdorini belgilashda;

– mamlakat aholisining yaxlit va alohida olingan hududlarda ta’minlanganligining jon boshiga tibbiy xizmat ko‘rsatishga byudjet xarajatlari, ta’lim, jon boshiga o‘rtacha byudjet daromadlari kabi alohida

hududlarning qiyosiy tahlili uchun mezon hisoblanuvchi turli ko‘rinishlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblashda;

– istiqbolli moliyaviy rejalashtirishda umuman davlatning va uning alohida hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish prognozlarini ishlab chiqishda. Masalan, byudjetni prognozlashning iqtisodiy-maBOB tik modellarini ishlab chiqish, jumladan, mintaqaning moliyaviy resurslari va byudjetdan ta’minlanganligini hisoblash YaIM, milliy daromad, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, qishloq xo‘jaligi kabi o‘zgaruvchilar va konsolidatsiyalangan byudjetlarning daromadlari hajmi o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlarni tadqiq qilish uchun zarur konsolidatsiyalangan byudjetlar ma’lumotlarisiz mumkin emas.

Davlat byudjeti respublika parlamenti – Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi va qonun kuchiga ega.

4.2. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimining byudjetlari

O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimining modeli markazlashgan bo‘lib, byudjet tizimi mos ravishda ikki darajaga ega.

Respublika byudjeti byudjet tizimining asosiy darajasi hisoblanadi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar majmui O‘zbekiston byudjet tizimining ikkinchi darajasini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti milliy soliq va majburiy to‘lovlar hisobiga shakllantiriladi va umumdavlat xarakteridagi tadbirlarni moliyalashtirish uchun foydalaniladi.

Respublika byudjeti daromadlarini quyidagilar shakllantiradi:

– umumdavlat soliqlari, yig‘imlari va to‘lovlari (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, jismoniy shaxslar daromadlariga soliqlar, QQS, aksiz solig‘i, yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun maxsus to‘lovlar va soliqlar, tadbirkorlik faoliyatining alohida turlari bo‘yicha qat’iy belgilanganlik soliq, davlat boji va bojxona to‘lovlari, yagona soliq to‘lovi, yer solig‘i);

– davlat moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirish, taqdim etish va ulardan foydalanishni ta’minlashdan olingan daromadlar;

– meros va xayriya huquqi asosida davlat mulkiga berilgan mablag‘lar;

– yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan beg‘araz pul tushumlari;

– rezident yuridik shaxslar va xorijiy davlatlarga beriladigan byudjet ssudalarini so‘ndirish hisobiga to‘lovlar;

– qonunchilik tomonidan taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Respublika byudjetining xarajatlari tasdiqlangan byudjet mablag‘lari doirasida quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

– respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilarning joriy xarajatlari;

– joriy byudjet transfertlari;

– kapital xarajatlar: asosiy jamg‘armalar va vositalar (jumladan, ular bilan bohliq ishlar va xizmatlar) ning davlat ehtiyojlari uchun sotib olinishi va ishga tushirilishi; chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulkni sotib olish; davlat ehtiyojlari uchun yer huquqi va boshqa nomoddiy aktivlarni sotib olish; davlat zaxiralarini yaratish;

– yuridik shaxslarga kapital xarajatlarni qoplash uchun byudjet transfertlari;

–Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga byudjet dotatsiyalari, byudjet subvensiyalari va byudjet ssudalari;

– rezident yuridik shaxslar va xorijiy davlatlarga byudjet ssudalari;

– davlat maqsadli jamg‘armalariga byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari;

– davlat qarzini qaytarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlar;

– qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa xarajatlar.

Respublika byudjetidan umumdavlat xarakteridagi tadbirlar moliyalashtiriladi:

– fan, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo‘ysunadigan byudjet tashkilotlari bo‘yicha);

– ijtimoiy ta’minot;

– mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlash;

– sud va prokuratura organlari faoliyatini ta’minlash;

– davlat va safarbarlik zaxiralarini yaratish va ta’minlash;

– davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish;

–davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va missiyalari faoliyatini ta’minlash;

– iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi respublika bo‘ysunuvidagi byudjet tashkilotlarini ta’minlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadli davlat dasturlari va chora-tadbirlarini amalga oshirish;

– yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarni amalga oshirish;

– qishloq xo‘jalik zararkunandalariga qarshi kurash;

– gidrometeorologiya, do‘lga qarshi tadbirlar;

– qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Respublika byudjeti defitsiti, asosan, davlat ichki va tashqi qarzi hamda moliya yili boshida respublika byudjetining qoldiq mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Byudjet tizimining ikkinchi darajali byudjetlari: Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti – daromad manbalari va ulardan tushumlarni, shuningdek, xarajat yo‘nalishlari va moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar miqdorini nazarda tutuvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasidir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti va respublika (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) bo‘ysunuvidagi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o‘z ichiga oladi.

Mahalliy byudjet – daromad manbalari va ulardan tushumlarni, shuningdek, xarajat yo‘nalishlari va moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar miqdorini nazarda tutuvchi tegishli viloyat, tuman, shaharning pul mablag‘lari jamg‘armasidir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromadlari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

– mahalliy soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar (mulk solig‘i, yer solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha soliqlar, transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moli uchun jismoniy shaxslardan soliqlar, alohida turdagi tovarlar chakana savdosi va ayrim turdagi xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlar);

– umumdavlat soliqlari, yig‘imlar, bojlar va qonunchilikda belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga yo‘naltiriladigan boshqa majburiy to‘lovlar;

– qonunchilikda belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obyektlarini joylashtirishdan, taqdim etishdan tushgan daromadlar;

– meros huquqi asosida davlat mulkiga berilgan mablag‘lar, qonun hujjatlariga muvofiq hadyalar;

– yuqori turuvchi byudjetdan byudjet dotatsiyalari, byudjet subvensiyalari va byudjet ssudalari;

– yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, xorijiy davlatlardan beg‘araz pul tushumlari;

– qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning xarajatlari tasdiqlangan byudjet mablag‘lari doirasida quyidagilar tarzida amalga oshiriladi:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar Respublikasi byudjetidan moliyalashtiriladigan joriy byudjet tashkilotlari;

– joriy byudjet transfertlari;

– asosiy jamg‘armalar va vositalarni (shu jumladan, ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar) davlat ehtiyoji uchun sotib olish va ishga tushirishga kapital xarajatlar hamda davlat ehtiyoji uchun yerga va boshqa nomoddiy aktivlarga egalik huquqini sotib olish;

– qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa xarajatlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan quyidagilarga xarajatlar moliyalashtiriladi:

– ilm-fan, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo‘yicha);

– ijtimoiy ta’minot;

– aholini ijtimoiy himoya qilish;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini ta’minlash;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi iqtisodiyotning turli tarmoqlariga oid byudjet tashkilotlarini ta’minlash;

– qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan maqsadli dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish;

– va boshqa maqsadlar uchun.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi quyidagi xususiyatlarga ega: Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar balanslashgan daromad va xarajatlarga ega bo‘lishi kerak, defitsitga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.3. Byudjet jarayonining metodologiyasi

Byudjet jarayoni davlat byudjeti va uning tarkibiga kiruvchi byudjetlarni tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga soladigan davlat organlari faoliyatini; ularning bajarilishini nazorat qilish, shuningdek, ularning bajarilishi bo‘yicha hisobotlarni tasdiqlashni o‘zida mujassamlashtiradi.

Byudjet jarayoni – byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda byudjet tizimini boshqarish bo‘yicha ijroiya va vakillik organlarining harakatlar majmui.

Byudjet jarayonining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– balanslashgan bozorga erishishda sezilarli muvaffaqiyat qozonish uchun barcha moddiy va moliyaviy zaxiralarni maksimal aniqlash;

– soliqlar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha byudjet daromadlarini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari va maqsadli dasturlariga muvofiq umumiy miqdorni belgilash;

– belgilangan maqsadlar bo‘yicha byudjet xarajatlarini, shuningdek, byudjetda nazarda tutilgan barcha umumdavlat ahamiyatiga molik barcha chora-tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirish zarurligidan kelib chiqib umumiy hajmini aniqlash.

– byudjetni iqtisodiyotda inflyatsiya tendensiyalarini bartaraf etish va milliy valyuta birligi barqarorligini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy barqarorlikning umumiy dasturi bilan muvofiqlashtirish;

– iqtisodiy jihatdan oqilona manbalar hisobidan byudjet defitsitini kamaytirish va bartaraf etish;

– davlatlar o‘rtasida, shuningdek, iqtisodiy sohalar va iqtisodiy hududlar o‘rtasida davlat daromadlarining manbalarini qayta taqsimlash orqali turli darajadagi byudjetlarni balanslash maqsadida byudjetni tartibga solish;

– barcha keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning mutanosibligi va muvozanatini ta’minlaydigan istiqbolli byudjet rejalashtirish (prognozlashtirish) rolini oshirish;

– yuridik shaxslarning moliyaviy faoliyatini nazorat qilishni kuchaytirish va soliq majburiyatlarini bajargan taqdirda fuqarolarning daromadlarini oshirish;

– elektron-hisoblash texnikasidan keng foydalangan holda moliyaviy hisob-kitoblarni avtomatlashtirish tizimi orqali byudjetlarni tuzish va ijro etish jarayonlarini avtomatlashtirish.



4.2-rasm. **Byudjet jarayoni bosqichini**

Byudjet jarayoni byudjet faoliyatining to‘rt bosqichini qamrab oladi:

Byudjet loyihasini tuzish bosqichida quyidagi masalalar hal etiladi: keyingi byudjet yili uchun byudjet hajmi, soliq va pul-kredit siyosati, mablag‘lardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari, byudjet defitsitini qoplash manbalari va byudjet tizimining byudjetlari o‘rtasida daromadlarning taqsimlanishi belgilanadi.

Byudjet loyihasini ishlab chiqishda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:

– iqtisodiyot samaradorligini oshirishga faol ta’sir;

– moliyaviy va boshqa resurslarni iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar – hukumat prognozlari bilan muvofiqlashtirishni ta’minlash;

– mablag‘larni sarflashda zarur nisbat va ustuvorliklarni belgilash;

– byudjet defitsitini qoplash uchun manbalarni topish.

Byudjet loyihasini tayyorlash boshlanishidan oldin Moliya vazirligi vazirliklar va davlat idoralari rahbarlariga muayyan sanagacha xarajatlar smetasi va ehtimoliy daromadlar hisobini taqdim etish bo‘yicha direktiv ko‘rsatmalar yo‘llaydi. Bir qator mamlakatlarda, masalan, Fransiyada ularga ehtimoliy ajratmalarning umumiy nazorat raqamlari ma’lum qilinib, ular byudjet aziralari (so‘rovlari) va smetalarning asosi sanaladi, boshqalarda esa byudjet so‘rovlari davlat organlari tomonidan mustaqil ravishda jo‘natiladi.

Byudjet to‘g‘risida qaror qabul qilayotganda, iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, inflyatsiya darajasi, ish bilan bandlik, ijtimoiy himoyadan foydalanadiganlar soni hisobga olinadi. Byudjetni tayyorlash jarayonida davlat boshlig‘i, hukumat, Moliya vazirligi, vazirlar va boshqa davlat idoralarining rahbarlari o‘rtasida axborot almashish, takliflar va baholashlar kuzatiladi.

Kelgusi yil uchun, shuningdek, o‘rta muddatli istiqbol (3-5 yil) uchun byudjet loyihasini ishlab chiqish paytida daromad va xarajatlarni hisoblashning turli metodlaridan foydalaniladi: dasturiy-maqsadli metod, jumladan, tizimli tahlil, iqtisodiy modellar va boshqalar.

Byudjet tartiboti – byudjetlarning daromad bazasini minimal zaruriy darajagacha tenglashtirish maqsadida turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida daromadlarni taqsimlash va mablag‘larni qayta taqsimlash jarayoni byudjet jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Byudjet loyihasini ko‘rib chiqish va tasdiqlash. Byudjet loyihasi oliy ijro organi – Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma’qullangandan so‘ng ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun qonun chiqaruvchi organ – parlamentga yuboriladi. Parlament palatalarida aniq byudjet masalalari bilan ko‘pincha dasturlar bo‘yicha shug‘ullanadigan maxsus qo‘mita va komissiyalar mavjud.

Ular byudjet loyihasini batafsil tahlil qilishadi, tuzatishlar kiritishadi va xulosa berishadi. So‘ngra, har bir palata byudjetni qabul qilganidan keyin va ular o‘rtasida ixtiloflar yo‘q bo‘lgan sharoitda byudjet haqida parlamentning umumiy qarori qabul qilinadi. Agar ixtiloflar yuzaga kelsa, ular ikkala palata vakillaridan tashkil topgan kelishuv komissiyasiga taqdim etiladi. Byudjet jarayonining ushbu bosqichi byudjetni qabul qilish bilan yakunlanadi.

Byudjet ijrosi va uning ijro etilishi ustidan nazorat. Byudjet ijrosi byudjet jarayonining ijro hokimiyati, moliya va soliq organlari, kredit tashkilotlari, soliq to‘lovchilar va byudjet mablag‘lari oluvchilari – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet mablag‘laridan foydalanish va safarbar qilish harakatlarini o‘z ichiga oluvchi muhim bosqichi sanaladi. Ushbu jarayon daromadlarning yaxlit va har bir manba bo‘yicha tushumini, shuningdek, moliya yili davomida byudjet mablag‘larini tasdiqlangan chegarada tashkilot va muassasalarning xarajatlari uchun to‘lanishini ta’minlaydi.

Byudjet jarayonining mazkur bosqichida byudjetning kassa ijrosi – mamlakat hududlarida byudjet mablag‘lari yig‘imini tashkil etish, ularning saqlash va sarflash, shuningdek, hisob va hisobotini yuritish muhim element hisoblanadi.

Byudjet ijrosi vakolatli organ tomonidan ma’qullangandan so‘ng boshlanadi. Moliya organlari byudjetning bajarilishini ta’minlash uchun har bir moliya organining bo‘linmalarining vazifalarini nazarda tutuvchi tashkiliy rejani tayyorlaydi. So‘ngra, byudjet daromadlarini bir xil safarbar qilish va byudjetdan to‘lanadigan tadbirlarni pul mablag‘lari bilan uzluksiz ta’minlash maqsadida byudjetni choraklar bo‘yicha taqsimlash amalga oshiriladi.

Xarajatlar bo‘yicha byudjet ijrosi quyidagi bosqichlarga ega:

– byudjet mablag‘lari oluvchilariga va taqsimlovchilariga byudjet mablag‘larini ajratish va tasdiqlash;

–byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan byudjet majburiyatlarining qabul qilinishi (byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan rasmiylashtirilgan byudjetga talablar qo‘yish huquqi);

– byudjet majburiyatlarining bajarilishini tasdiqlash va tekshirish;

– bajarilgan majburiyatlar bo‘yicha xarajatlar va to‘lovlar.

Jahon amaliyotida g‘aznachilik, bank va aralash byudjet ijro tizimi mavjud.

G‘aznachilik tizimida byudjet ijrosini tashkil qilish, ularning hisob va byudjet mablag‘larini boshqarish maxsus moliya organi – G‘aznachilik tomonidan amalga oshirilib, u barcha byudjet mablag‘lari oluvchilari va taqsimlovchilari uchun kassir sanaladi va byudjet muassasalari nomidan va ularning topshirig‘iga ko‘ra to‘lovlarni amalga oshiradi.

Bank tizimida byudjetlarni tashkil etish va ijrosi funksiyasini Markaziy banki (tijorat banklari ishtiroki ham mumkin) bajaradi.

Byudjet hisobiga xizmat ko‘rsatishning aralash tizimida ham, G‘aznachilik, ham Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

Daromad bo‘yicha byudjet ijrosi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– byudjet daromadlarini yagona G‘aznachilik hisobvarag‘iga o‘tkazish va qayd qilish (g‘aznachilik tizimida byudjet ijrosi);

– tasdiqlangan normativlarga muvofiq davlat tartibot soliqlarini byudjetlar o‘rtasida taqsimlash;

– tegishli byudjetlarda daromadlarni qayd qilish;

– ortiqcha to‘langan daromadlar summasini qaytarish;

– byudjet daromadlarini hisoblash va byudjet tasnifiga muvofiq daromad haqida hisobot tuzish.

Byudjet xarajatlari ijrosi byudjet xarajatlarini tasdiqlash va moliyalashtirish tartibini amalga oshirishni nazarda tutadi. Tasdiqlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– davlat byudjetidan byudjet mablag‘larini ajratish va tasdiqlash;

– davlat byudjetining majburiyatlari chegaralarini tasdiqlash va etkazish;

– davlat byudjetining majburiyatlarini qabul qilish;

– davlat byudjetining to‘lov majburiyatlarini tasdiqlash.

Byudjet ijrosi jarayonida xarajatlarning rejaviy miqdorida, masalan, daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmasligi yoki ortig‘i bilan bajarilishi oqibatida o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin.

Byudjet ijrosi moliya yoki byudjet yili davomida amalga oshiriladi. Uning boshlanishi va vaqt chegaralari turli mamlakatlarda turlicha, bu tarixiy an’analar, shuningdek, parlament sessiyalarining muddatlariga bog‘liq. Misol uchun: Fransiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekistonda byudjet yili 1 yanvarda; Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanadada – 1 apreldan; Shvetsiya, Norvegiya, Pokistonda – 1 iyuldan; Qo‘shma Shtatlarda – 1 oktyabrdan boshlanadi.

Byudjet ko‘rsatkichlarini iqtisodiy jihatdan oqilona, to‘g‘ri shakllantirishni nazorat qilish; daromadlarni safarbar etishning to‘liqligi; byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish; yuridik va jismoniy shaxslar – byudjetga soliq va yig‘im to‘lovchilar yoki byudjet mablag‘lari oluvchilar soliq va byudjet qonunchiligiga rioya qilishi byudjet jarayonining majburiy elementi sanaladi.

Byudjet nazorati hukumatning vakolatli organlari, Hisob palatasi (parlament nazorati), moliya va soliq organlari (ma’muriy nazorat) tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risida hisobot tuzish va uni Parlament tomonidan tasdiqlash – byudjet jarayonining so‘nggi bosqichi bo‘lib, moliya yili tugaganidan so‘ng boshlanadi. Byudjet ijrosi to‘g‘risida hisobotga muvofiq byudjet ijrosining turli jihatlari tahlil qilinadi. Byudjet ijrosi tahlilini o‘tkazish uchun muayyan metod va vositalardan foydalaniladi.

Byudjet tahlili quyidagi metodlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

– taqqoslash – hisobot davridagi byudjet ko‘rsatkichlari rejalashtirilgan yoki bazis (o‘tgan davrlar uchun) ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Zarur hollarda ko‘rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlash uchun ularning korrektirovkasi amalga oshiriladi (masalan, inflyatsiyaning yuqori sur’atlarida, taqqoslanayotgan ko‘rsatkichlarning har xilligida va boshqalarda);

– guruhlash – ko‘rsatkichlar analitik hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon beradigan, muayyan hodisalarning rivojlanishidagi muayyan tendensiyalarni, ularning o‘zaro bog‘liqligi, ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashga mo‘ljallangan jadvallarga bo‘linadi va guruhlanadi;

– zanjirli almashtirish (eliminatsiya) – alohida hisobot ko‘rsatkichini bazaviy ko‘rsatkichga almashtirish amalga oshirilib, bunda qolgan bazis ko‘rsatkichlar o‘zgarishsiz qoladi. Bu esa alohida omillarning jamlanma byudjet ko‘rsatkichiga ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Byudjet tahlili uchun instrumentariy sifatida byudjet koeffitsiyentlari – ayrim mutlaq byudjet ko‘rsatkichlarining boshqalarga nisbatini ifodalovchi hududning moliyaviy ahvolining nisbiy ko‘rsatkichlari qo‘llanilishi mumkin. Byudjet koeffitsiyentlari turli hududlarning moliyaviy ahvoli ko‘rsatkichlarini solishtirish, shuningdek, hududlarning moliyaviy holatidagi ko‘rsatkichlar va tendensiyalarni rivojlantirish dinamikasini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

Byudjet tahlili daromad va xarajatlar bo‘yicha alohida amalga oshiriladi. Byudjet tahlili uchun quyidagilar qo‘llanilishi mumkin:

–*gorizontal tahlil*, uning borishi davomida joriy byudjet ko‘rsatkichlari o‘tgan davr ko‘rsatkichlari bilan, shuningdek, haqiqatdagi ko‘rsatkichlar rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan solishtiriladi;

–*vertikal tahlil*, buning natijasida byudjet tuzilmasi, yakuniy ko‘rsatkichda alohida byudjet ko‘rsatkichlarining ulushi va ularning umumiy natijalarga ta’siri aniqlanadi;

–*trend tahlil*, byudjet ko‘rsatkichlarining dinamikasi o‘zgarishi u tendensiyalarini aniqlash uchun olib boriladi. Ushbu tahlil jarayonida bir necha yillar uchun rejalashtirilgan yoki hisobot ko‘rsatkichlari taqqoslanadi. Retrospektiv tahlil asosida kelgusi byudjet ko‘rsatkichlarini prognozlash mumkin;

–*omilli tahlil*, uning mohiyati alohida omillarning byudjet ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlashdan iborat (masalan, byudjet muassasalari xodimlarining soni, ushbu muassasalarning faoliyat davri,

narxlar darajasi, inflyatsiya indeksi va hokazo omillarning ijtimoiy-madaniy tadbirlarga xarajatlar ko‘rsatkichlari qiymatiga ta’siri).

Tahliliy ishlar jarayonida byudjetning daromad va xarajat qismlarining mutlaq ko‘rsatkichlari, nisbiy ko‘rsatkichlar – byudjet koeffitsiyentlari (o‘z daromadlari bilan ta’minlanganligi, o‘z va tartibga solinadigan daromadlarning nisbati va boshqalar) qo‘llanishi mumkin; byudjet ko‘rsatkichlarining rivojlanish tendensiyalari, byudjetni shakllantirish va ijro etish jarayoniga alohida omillarning ta’sirini miqdoriy va sifat jihatlari aniqlanadi.

Barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ijro hisoboti davlatning milliy valyutasida amalga oshiriladi.

4.4. O‘zbekiston Respublikasida byudjet jarayoni

Byudjet faoliyatining birinchi bosqichi – byudjet loyihasini tuzish har yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan quyidagilarga yuboriladigan keyingi moliya yili uchun byudjet so‘rovi bilan boshlanadi:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga – tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari loyihalarini tayyorlash uchun;

– respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilarga – byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni olishga buyurtmalar tuzish uchun.

Byudjet so‘rovini olganidan keyin mahalliy hokimiyat organlari uch kun mobaynida tegishli byudjet loyihalarini ishlab chiqish, ushbu loyihalarni tayyorlash tartibini va muddatini belgilash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mahalliy hokimiyat organlari qarorlari qabul qilinganidan so‘ng uch kun ichida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va

Toshkent shahar moliya organlari quyidagi organlarga byudjet so‘rovlarini yuboradilar:

–tumanlar va shaharlar hokimliklariga – tegishli byudjet loyihalarini tayyorlash uchun;

–Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilarga – Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan byudjet mablag‘lari olishga buyurtmalar tuzish uchun.

Viloyatga bo‘ysunadigan shaharlarning, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlarning hamda shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlarning hokimlari byudjet so‘rovi olinganidan keyin uch kunlik muddat ichida tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish va bu loyihalarni tayyorlash tartibini hamda muddatlarini belgilash yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Tuman va shahar hokimliklarining moliya organlari tegishli byudjet loyihalari tuzish haqida qarorlar qabul qilinganidan keyin uch kunlik muddat ichida shu tuman va shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘larini oluvchilarga byudjet so‘rovlari yuboradilar – tumanlar va shaharlarning byudjetlaridan byudjet mablag‘lari olish uchun asoslangan buyurtmalar tuzish uchun.

Byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar olish uchun beriladigan buyurtma shakli va uni tuzish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Kelgusi moliya yiliga byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar olishga buyurtmalar:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan – joriy yilning birinchi iyunidan kechiktirmay tegishli moliya organlariga;

– respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan – joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

Kelgusi moliya yiliga tegishli byudjetlar loyihalari:

tumanlar va shaharlar hokimliklari moliya organlari tomonidan – mahalliy hokimiyat vakillik organlari belgilagan tartibda va muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay yuqori moliya organlariga;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda, biroq joriy yilning birinchi iyulidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi kelgusi moliya yiliga mo‘ljallangan Davlat byudjeti loyihasini tayyorlaydi, uni joriy yilning 15 sentyabrigacha O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi hamda Davlat byudjeti loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan birga joriy yilning 1 oktyabrigacha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

Davlat byudjetining daromad qismi loyihasini tuzish tartibi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari olingan daromadlar bo‘yicha hisoblash shakllarini taqdim etish muddatini ko‘rsatgan holda tuman va shahar hokimligining moliya bo‘limlariga, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalariga yuboradi.

Tuman va shahar hokimliklarining moliya bo‘limlari olingan daromadlar bo‘yicha hisoblash shakllarini taqdim etish muddatini ko‘rsatgan holda tegishli tuman va shahar soliq inspeksiyalariga yuboradi.

Quyi moliya organlari tegishli soliq organlari bilan birgalikda tegishli byudjetlarning daromad qismi loyihasini tuzish uchun yuqori moliya organlariga tayyorlangan buyurtmalarni taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi quyi moliya organlari, Davlat soliq va bojxona qo‘mitasidan tegishli buyurtmalarni olgach, davlat byudjeti loyihasi kiritish uchun davlat byudjeti daromadlarining kontingenti ko‘rsatkichlari loyihasini tayyorlaydi.

Davlat byudjeti daromadlarining kontingenti ko‘rsatkichlari loyihasi O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha umumiy va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar kesimida tuziladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarining daromad va xarajatlarini balanslash uchun tegishli byudjetlarga umumdavlat soliqlaridan ajratmalarni tartibga solish rejasi tuziladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari loyihasining daromad qismining belgilash uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti bosh boshqarmasi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalarni tartibga solish rejasi tuzilib, unda quyidagilar belgilanadi:

–Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga tartibga soluvchi umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativi va miqdori;

–respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga biriktirilgan umumdavlat soliqlari ro‘yxati va miqdori;

–Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga biriktirilgan mahalliy soliqlar va yig‘imlar ro‘yxati hamda miqdori.

Tartibga solish rejasi mahalliy byudjetlarga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar miqdori va normativlarini, quyi turuvchi byudjetlarga ushbu byudjetlarning daromad va xarajatlarini balanslash uchun ajratilgan dotatsiyalar (subvensiyalar) hajmi.

Tartibga solish rejasi o‘z tarkibida boshqa quyi turuvchi hudud byudjetiga ega har bir hudud byudjeti uchun tuziladi, har yili keyingi moliya yili uchun byudjet loyihalarini tuziladi va moliya yili yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma xabarnomasi yaratiladi.

Davlat byudjetining xarajat qismi loyihasini tuzish tartibi. Byudjet mablag‘lari oluvchilar byudjet so‘rovini olgach, quyi tashkilotlardan

olingan ma’lumotlar asosida uni o‘rganib chiqadi va byudjetdan mablag‘ ajratish uchun buyurtmalar tuzadi.

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilar byudjet mablag‘lari olish uchun byudjet tasnifining tegishli bo‘limlari bo‘yicha buyurtma tuzadilar: bo‘limlar, boblar, paragraflar va xarajatlar moddalari, choraklar bo‘yicha ajratilmagan holda umumiy yillik miqdor.

Byudjet mablag‘lari olish uchun buyurtma har bir byudjet mablag‘lari oluvchilarga, o‘tkaziladigan tadbirlarga iqtisodiy tasnif moddalari kesimida tuziladi. Byudjet mablag‘lari olish uchun individual buyurtmalar asosida byudjet mablag‘larining Bosh taqsimlovchisi tomonidan unda keltirilgan har bir paragraf bo‘yicha umumiy buyurtma tuziladi.

Paragraflar bo‘yicha buyurtmalar, zaruratga ko‘ra, ularga har bir byudjet mablag‘lari oluvchilarga ilovalar bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tegishli moliya boshqarmalariga taqdim etiladi.

Byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet mablag‘larini olish uchun buyurtmalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining moliyalashtiruvchi boshqarmalari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tekshiriladi.

Byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet mablag‘larini olish uchun taqdim etgan buyurtmalarini ko‘rib chiqish va tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining moliyalashtiruvchi boshqarmalari tomonidan byudjet mablag‘lari oluvchilarning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet mablag‘larini olish uchun buyurtmalarni ko‘rib chiqish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tarmoq boshqarmalari:

– kelgusi yil uchun xarajatlar va ularni qoplash manbalarini aniqlash, shuningdek, xarajatlar smetasini tuzishda joriy narxlar, ish haqi, moddiy va pul sarflari me’yorini hisoblashda qo‘llash to‘g‘riligini tekshiradi;

– byudjet mablag‘larini olish uchun buyurtmalarni aniqlashtiradi, zarurat tug‘ilganda, ularga ko‘rib chiqish natijalariga bog‘liq ravishda o‘zgartirishlar kiritadi.

Respublika byudjeti xarajatlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasini shakllantirish uchun ajratmalarni ham o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalashgan davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjet loyihalariga (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi, Davlat mulkini boshqarish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat qo‘mitasining maxsus hisobi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Respublikasi) kiradi.

Har yili davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan yuborilgan byudjet so‘rovi asosida keyingi moliya yili uchun davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari loyihalarini tayyorlaydi.

Loyihalarda kelgusi moliya yili uchun daromad manbalari bo‘yicha tushumlar va har bir davlat maqsadli jamg‘armasi bo‘yicha mablag‘larni sarflash yo‘nalishi aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat maqsadli jamg‘armalarining taqsimlovchi organlari hamkorligida taqdim etilgan davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari loyihalarini ko‘rib chiqadi, zaruratga ko‘ra, taqdim etilgan loyihalarga aniqlik kiritish bo‘yicha takliflar bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o‘zi tuzgan respublika byudjeti loyihasi, ko‘rib chiqilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti loyihasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari loyihalari, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari loyihalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihasini tuzadi.

Keyingi moliya yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– byudjet tasnifiga muvofiq aks ettirilgan davlat byudjeti daromad va xarajatlari;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativi, shuningdek, ularning daromad va xarajatlari miqdori (jumladan, byudjet dotatsiyalari va subvensiyalari);

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarining naqd aylanma kassa mablag‘lari miqdori;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari miqdori, ularning doirasida tegishli byudjetlarning mablag‘lari kutilmagan xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilishi mumkin;

– davlat byudjeti defitsitining chegaraviy miqdori va uni moliyalashtirish manbalari;

– kafolat jamg‘armasi, ichki va tashqi davlat qarzi, davlat tomonidan beriladigan kreditlarning chegaraviy miqdori.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakolatli vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, shuningdek, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda quyidagi 7 hujjatni o‘z ichiga olgan byudjetnoma loyihasini ishlab chiqadi va 1 oktyabrgacha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi:

1) mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosi;

2) O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan o‘tgan yilgi Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobot va joriy yilgi Davlat byudjetining kutilayotgan ijrosi bahosi;

3) kelgusi yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar;

4) O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan mamlakat byudjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo‘nalishlari loyihasi;

5) mamlakat byudjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo‘nalishlariga sharhlar;

6) davlat ichki va tashqi qarzlari hamda ular bo‘yicha xarajatlar holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

7) O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan kelgusi moliya yiliga mo‘ljallangan Davlat byudjeti loyihasi.

Byudjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning o‘n beshinchi oktyabridan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritiladi.

Kelgusi moliya yiliga mo‘ljallangan Davlat byudjeti loyihasini tayyorlash jarayonini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi yoki uning topshirig‘iga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri amalga oshiradi.

Byudjet faoliyatining ikkinchi bosqichi byudjetni ko‘rib chiqish va tasdiqlash hisoblanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Byudjetnomani ko‘rib chiqish Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadi.

Davlat byudjetiga muvofiq quyidagilar qabul qilinadi:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari – Davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin ikki haftalik muddat ichida tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyat vakillik organlari tomonidan;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar byudjetlari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar byudjetlari qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddat ichida tuman, shahar hokimiyat vakillik organlari tomonidan;

– shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlari va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar byudjetlari – belgilangan muddatlarda mahalliy hokimiyatning yuqori turuvchi vakillik organlari tomonidan.

Byudjet faoliyatining uchinchi bosqichi byudjet ijrosi va uning ijro etilishi ustidan nazorat hisoblanadi.

Davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari e’tiboriga Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari daromadlari va xarajatlari miqdorini, shuningdek kelgusi moliya yili uchun ularga respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet subvensiyalari miqdorini va byudjetga oid boshqa ko‘rsatkichlarni – uch kunlik muddat ichida;

– O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi e’tiboriga Davlat byudjeti daromadlarining tasdiqlangan miqdorini – bir haftalik muddat ichida;

– respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar e’tiboriga ular uchun belgilangan daromadlar va xarajatlar miqdorini – o‘n kunlik muddat ichida yetkazadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar qabul qilinganidan keyin tegishli moliya organlari bir haftalik muddat ichida:

– davlat soliq xizmatining tegishli mahalliy organlari e’tiboriga – Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlarining tasdiqlangan miqdorini;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar e’tiboriga ular uchun belgilangan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar miqdorlarini yetkazadi.

Byudjet parametrlari tasdiqlanganidan so‘ng (40 kundan kechiktirmay), moliya organlari tasdiqlangan byudjetlar smetasi va byudjet tashkilotlarining shtat jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Tashkilotlar quyidagi tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim:

– O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetida bo‘lgan tashkilotlar – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida;

– mahalliy byudjetlar va Toshkent shahar byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetida bo‘lgan tashkilotlar – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmasida;

– shahar va tumanlar byudjetida bo‘lgan tashkilotlar – shahar, tuman va tuman moliya bo‘limlarida.

Belgilangan muddatda moliya organlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazmagan byudjet tashkilotlarini moliya organlari moliyalashtirmaydi, bank muassasalari esa to ro‘yxatdan o‘tkazilmaguncha ushbu tashkilotlarning ish haqi va xarajatlari uchun mablag‘ berishni to‘xtadi.

Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish amalga oshiriluvchi byudjet parametrlari qabul qilingandan keyin 40 kundan ko‘p bo‘lmagan muddat ichida byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish tugamagunga qadar tashkilot xarajatlarini moliyalashtirish o‘tgan moliya yili so‘nggi choragi uchun rejalashtirilgan byudjet ajratmalarining uchdan bir qismidan oshmagan miqdorda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining rahbarlari tomonidan tasdiqlangan shtat jadvali ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak.

Vazirliklar va huquq-tartibot tuzilmalari idoralarining shtat jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan shakllarga muvofiq respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan har bir tarkibiy bo‘linma uchun qabul qilinadi.

Namunaviy shtatlar belgilangan byudjet muassasalari va tashkilotlarining shtat jadvallari namunaviy shtatlarga muvofiq va ular tomonidan xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida qabul qilinadi.

Namunaviy shtatlarni ish hajmiga ko‘ra muayyan byudjet tashkilotlariga nisbatan qo‘llash mumkin bo‘lmagan hollarda, ro‘yxatga olish uchun rahbarlar tomonidan tasdiqlangan shtat jadvallari qabul qilinib, ushbu rahbarlarga o‘zi tomonidan o‘rnatilgan mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida shtatlarni tasdiqlash huquqi berilgan.

Byudjet tashkilotlari xodimlarining lavozim maoshi va tarif stavkalari mehnatga haq to‘lash bo‘yicha tasdiqlangan smetaga muvofiq belgilanadi, smetada nazarda tutilgan mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida ro‘yxatga olish uchun qabul qilinadi.

Byudjet tashkilotlari xodimlarining lavozim maoshi va tarif stavkalariga avval ro‘yxatdan o‘tkazilganga nisbatan o‘zgarishlar Hukumatning ish haqini oshirish to‘g‘risida qaroriga muvofiq, shuningdek, o‘rnatilgan tartibda xodimlarni navbatdagi attestatsiyadan o‘tkazishda va byudjet tashkilotlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi hisobida va doirasida o‘zgartirilishi mumkin. Bunday hollarda shtat jadvallari ro‘yxatga olinmaydi. Boshqa barcha hollarda shtat jadvaliga kiritilgan o‘zgartirishlar tegishli moliya organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi kerak.

Ish haqi miqdori tarifikatsiya bo‘yicha aniqlanadigan, ya’ni, ushbu xodimlarga attestatsiya natijalariga ko‘ra berilgan tegishli malaka toifasi mavjudligiga, ularning ish vaqtining haqiqatdagi hajmiga va boshqalarga bog‘liq mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi shtat jadvalida keltiriladi va u rahbar hamda bosh buxgalter (buxgalter) tomonidan imzolangan tarifikatsiya ro‘yxati bo‘yicha mehnatga haq to‘lash jamg‘armasiga muvofiq bo‘lishi lozim.

Xodimlarni moddiy rag‘batlantirish uchun maxsus jamg‘arma ajratilgan mehnatga haq to‘lash jamg‘armasining 15 foizi miqdorida ro‘yxatga olinadi.

Stipendiya jamg‘armasi byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi hisob-kitoblariga muvofiq ro‘yxatga olinadi.

“Boshqa xarajatlar” guruhi xarajatlar yoyilmasiga, xarajatlar smetasi hisob-kitobiga va xarajatlar smetasida tasdiqlangan ushbu guruhga muvofiqligini tekshirish bilan to‘lig‘icha ro‘yxatdan o‘tkazish uchun qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘larini sarflash.

Byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida moliya yili uchun tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida tayinlash sertifikatini muayyan davrga va summaga rasmiylashtirish orqali, shuningdek, byudjet mablag‘lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi) bilan tuzilgan, ushbu qonunga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilgan shartnomasi asosida:

– respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo‘yicha – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi yoki uning hududiy bo‘linmalari tomonidan;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan yoki mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligining hududiy bo‘linmalari tomonidan to‘lanadi.

Tayinlash sertifikatlarini tayyorlash, rasmiylashtirish, berish, ijro etish va hisobga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va barcha darajadagi mahalliy byudjetlarning yagona g‘azna hisobvarag‘idagi byudjet mablag‘lari qoldiqlari tasdiqlangan miqdorda aylanma kassa mablag‘i me’yorini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan byudjet tashkiloti tomonidan tejab qolingan byudjet mablag‘lari olib qo‘yilmaydi va ular Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkaziladi, kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag‘lar bundan mustasno.

Agar kelgusi moliya yili uchun Davlat byudjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan bo‘lsa, u holda Davlat byudjeti qabul qilingunga qadar bo‘lgan davrda davlat xarajatlari quyidagi shartlarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi:

– boshlangan moliya yilidagi xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning 1/3 qismidan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda, ularni boshlangan moliya yilida amalga oshirilishi rejalashtirilmagan xarajatlar summasiga aniqlashtirilgan holda, har oyda amalga oshiriladi;

– byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari har choraklik oyma-oy bo‘lingan muvaqqat xarajatlar smetasi va byudjet mablag‘lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi bilan tuzilgan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan shartnomasi asosida amalga oshiriladi;

– avvalgi moliya yilida qilinmagan byudjet xarajatlari amalga oshirilmaydi;

– avvalgi moliya yilida amalda bo‘lgan soliq solish va majburiy to‘lovlar to‘lash tartibi Davlat byudjeti qabul qilingunga qadar o‘z kuchini yo‘qotmaydi.

Davlat byudjeti moliya yili boshlanganidan keyin qabul qilingan taqdirda xarajatlarning umumiy summasi moliya yili mobaynida qabul qilingan Davlat byudjetiga muvofiqlashtirilishi kerak.

Byudjetdan ajratiladigan mablag‘larga moliya yili mobaynida o‘zgartirishlar kiritish bir byudjet mablag‘lari oluvchisi uchun byudjet mablag‘larining kamaytirilishi boshqa byudjet mablag‘lari oluvchisi uchun byudjet mablag‘larining tegishli ravishda ko‘paytirilishini nazarda tutgan tartibda:

1) tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmining o‘n foiziga qadari:

Davlat byudjetida ko‘rsatib o‘tilgan byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan tegishli moliya organlarining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimlar tomonidan (kapital qo‘yilmalar moddalari bundan mustasno);

2) tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmining 10 foizidan ortig‘i:

Davlat byudjetida ko‘rsatib o‘tilgan byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;

respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilanadigan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining

taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun — tegishli moliya organlarining O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda joylardagi tegishli hokimiyat vakillik organlari tomonidan (kapital qo‘yilmalar moddalari bundan mustasno) amalga oshiriladi.

Byudjet mablag‘lari oluvchining so‘roviga binoan moliya yili uchun unga nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar ayrim moddalar bo‘yicha (kapital qo‘yilmalar moddalari bundan mustasno) boshqa moddalar bo‘yicha byudjetdan ajratiladigan mablag‘lari teng miqdorda kamaytirilgan va mazkur byudjet mablag‘lari oluvchi uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning umumiy hajmi saqlab qolingan holda dastlabki hajmining 15 %iga qadar ko‘paytirilishi mumkin. Byudjetdan ajratilgan mablag‘larga mazkur o‘zgartirishlar:

– respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet mablag‘lariga — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan ajratiladigan byudjet mablag‘lariga — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda tegishli moliya organlari tomonidan kiritiladi.

Davlat byudjetini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari, agar muayyan harakatlari byudjet defitsitining qonun hujjatlarida belgilangan eng yuqori darajasidan oshib ketishiga olib keladigan bo‘lsa, Davlat byudjeti daromadlarini qisqartiruvchi yoki xarajatlarini oshiruvchi biron-bir harakat qilishga haqli emaslar.

Mahalliy byudjetlar qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida ayrim turlar bo‘yicha byudjet daromadlarini qisqartirishga olib keluvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organining qarori, agar unda boshqa turlar bo‘yicha daromadlarni ko‘paytirish va (yoki) byudjet xarajatlari tegishli miqdorda

qisqartirilishi kerak bo‘lgan moddalar nazarda tutilgan bo‘lsagina, qabul qilinishi va amalga kiritilishi mumkin.

Agar Davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida Davlat byudjetidan olingan byudjet mablag‘larini ko‘paytirish (kamaytirish) to‘g‘risida qaror qabul qilinadigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organlari tomonidan tegishli darajadagi byudjetlar hajmiga o‘zgartirishlar kiritiladi. Xarajatlarni ko‘paytirish yoki ularni qisqartirish byudjetlar o‘rtasida o‘zaro hisob-kitob qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Byudjetlar o‘rtasida o‘zaro hisob-kitob o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Soliq va byudjet to‘lovlari intizomini mustahkamlash yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida mahalliy byudjetlarga tasdiqlangan ko‘rsatkichlardan tashqari tushgan qo‘shimcha daromadlar aylanma kassa mablag‘i me’yori tasdiqlanganidan kam bo‘lmagan miqdorda saqlanib qolgan taqdirda qabul qilingan byudjetdagidan tashqari xarajatlarga yo‘naltirilishi mumkin.

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar yil mobaynida davlat daromadlari ancha qisqargan va Davlat byudjetining oldindan belgilangan defitsiti qonun hujjatlarida belgilangan chegara miqdoridan oshadigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining xarajatlarini alohida moddalar bo‘yicha qisqartirish to‘g‘risida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taklif kiritadi.

Turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik tafovutni to‘g‘rilash maqsadida moliya yili mobaynida ularga tegishli byudjetlardan byudjet ssudalari ajratilishi mumkin. Byudjet ssudalarini berishning eng kech muddati va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik tafovutni moliya yili mobaynida aylanma kassa

mablag‘i me’yori hisobiga uni moliya yili oxirigacha tasdiqlangan hajmga qadar tiklagan holda, byudjet mablag‘larining foydalanilmagan qoldiqlari hisobiga, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlatning qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarini chiqarish hisobiga qoplash mumkin.

Davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek, uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari Davlat byudjetining kassa ijrosini ta’minlaydi. Banklar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining topshirig‘iga binoan Davlat byudjetining kassa ijrosi operatsiyalarini bajaradi.

Byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari ularning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligida yoki uning hududiy bo‘linmalarida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlaridagi byudjetdan ajratilgan mablag‘lar qoldiqlari doirasida to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining daromadlari ijrosi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining daromadlariga O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonunining 11-moddasida nazarda tutilgan tushumlar kiritiladi.

Daromadni byudjetga o‘tkazish soliq organlari, bojxona organlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq shunga vakolatli boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ortiqcha kelib tushgan summa (ortiqcha to‘lov)ni hisobga olish yoki qaytarish O‘zR Soliq va Bojxona kodekslari hamda tegishli yo‘riqnomasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Respublika byudjetiga O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan umumdavlat soliqlari o‘tkaziladi. Bunda tartibga soluvchi umumdavlat soliqlari har yili tasdiqlanadigan normativlarga muvofiq respublika byudjetiga kelib tushadi.

Alohida umumdavlat soliqlari to‘liq miqdorda respublika byudjeti yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari o‘tkaziladi.

Soliq to‘lovchilar to‘lagan tartibga soluvchi umumdavlat soliqlari miqdori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan normativlarga muvofiq tegishli banklardan respublika byudjetiga ushlab qolinadi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda respublika byudjetining asosiy hisobiga o‘tkaziladi.

Hududlar byudjetlariga tartibga soluvchi umumdavlat soliqlarining bir qismi, mahalliy byudjetga biriktirilgan umumdavlat soliqlari, shuningdek, mahalliy soliqlar va yig‘imlar o‘tkaziladi. Bunda tartibga soluvchi umumdavlat soliqlari har yili tasdiqlanadigan normativlarga muvofiq hududlarning byudjetlariga o‘tkaziladi.

Yuqori hududiy hokimiyat organlari tomonidan quyi byudjetlarga tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini tuzish va ijro etish qoidalari bilan belgilab berilgan.

Byudjet mablag‘lari oluvchilar ular uchun byudjet mablag‘larini ajratish ko‘zda tutilgan byudjetdan moliyalashtiriladi.

Byudjet mablag‘lari oluvchilarni moliyalashtirishga ajratiladigan mablag‘lar ularning bo‘ysunish tamoyilidan kelib chiqqan holda tegishli byudjetda ko‘zda tutiladi va tegishli byudjetlarning daromad va xarajatlarining yillik ro‘yxatida nazarda tutilgan ajratmalar chegarasida amalga oshiriladi (byudjet ijrosi jarayonida unga o‘rnatilgan tartibda kiritilgan o‘zgarishlar hisobga olingan holda).

Davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari qonun hujjatlariga muvofiq ushbu jamg‘armalarning taqsimlovchi organlari tomonidan ijro etiladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalarining taqsimlovchi organlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddat va tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli jamg‘armalarning ijrosi to‘g‘risida hisobot beradi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari respublika byudjeti va hududlar byudjetlarining ijrosi hisobini yuritadi.

Moliya organlarida byudjet ijrosining buxgalteriya hisobi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarning moliya organlarida byudjet ijrosining buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomada belgilangan tartibda kassa daromadlari va xarajatlari bo‘yicha yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, mahalliy moliya organlari mos ravishda respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari ijrosi hisobini yuritadi.

Byudjet mablag‘lari oluvchilar nomidan va topshirig‘iga ko‘ra g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan tegishli g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazilgan (to‘langan) yoki vakolatli bank tomonidan maxsus g‘azna hisobvarag‘idan ish haqi hamda unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun byudjet mablag‘lari oluvchilarga berilgan barcha pul mablag‘lari (naqd yoki naqdsiz shaklda) kassa xarajatlari hisoblanadi. Kassa daromadlari – g‘aznachilik bo‘linmalarining tegishli g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazilgan daromadlar miqdori.

Tegishli byudjetlarning g‘azna hisobvaraqlaridan ijtimoiy nafaqalarni to‘lash uchun mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari hisoblariga o‘tkazilgan pul mablag‘lari ham kassa xarajatlari sanaladi.

Haqiqiy xarajatlar byudjet mablag‘lari oluvchilarning tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan haqiqiy xarajatlari, shu jumladan, kreditorlarning to‘lanmagan hisobi, hisoblangan ish haqi bo‘yicha, stipendiyalar, nafaqalar va buxgalteriya hisobining boshqa obyektlari bo‘yicha xarajatlar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va O‘zR tijorat banklari respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarining kassa ijrosini buxgalteriya hisobi amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat byudjeti ijrosi nazorat qilinishini amalga oshirish chog‘ida:

– turli darajadagi byudjetlar ijrosi yakunlarini ko‘rib chiqadi;

– turli darajadagi byudjetlarga mablag‘lar tushumi to‘g‘risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlardan axborotlar oladi;

– byudjet mablag‘lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi) bilan tuzilgan shartnomasini, shuningdek, buyurtmachining Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzilgan shartnomasini ro‘yxatdan o‘tkazadi;

– tovar yetkazib beruvchining (ish bajaruvchining, xizmat ko‘rsatuvchining) bevosita hisobvarag‘iga byudjet mablag‘larini oluvchilar nomidan to‘lovlarni amalga oshiradi;

– qonun hujjatlariga muvofiq banklardan byudjet mablag‘lari harakati to‘g‘risida ma’lumotlarni oladi;

– byudjet mablag‘lari oluvchilarning moliya-xo‘jalik faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida taftish qiladi va tekshiruvdan o‘tkazadi.

– qonun hujjatlariga muvofiq, byudjet mablag‘lari harakati to‘g‘risida banklardan ma’lumot oladi;

– o‘z vakolatlari doirasida byudjet mablag‘lari oluvchilarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish va tekshirishlarni amalga oshiradi.

Qonun hujjatlariga muvofiq, yanvar oyi moliya yiliga qo‘shimcha vaqt sifatida belgilangan, shu davr mobaynida yakunlangan yil uchun Davlat byudjetining g‘azna ijrosi amalga oshiriladi.

Qo‘shimcha vaqt davrida moliya organlari, Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari, shuningdek, byudjet tashkilotlari tomonidan hisobot yili uchun Davlat byudjeti ijrosi bo‘yicha operatsiyalar amalga oshiriladi, shu jumladan:

– byudjetlararo o‘zaro hisob-kitoblarni tartibga solish;

– byudjet mablag‘lari oluvchilarning o‘tgan yillardagi kreditorlik qarzlarini to‘lash;

– tejab qolingan pul mablag‘larini byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armalariga o‘tkazish;

– Davlat byudjeti ijrosi bo‘yicha boshqa operatsiyalar.

Byudjet faoliyatining to‘rtinchi bosqichi byudjet ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash hisoblanadi.

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilar hisobot davrida byudjet mablag‘laridan foydalanganlik to‘g‘risidagi hisobotlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag‘lardan hisobot davrida foydalanganlik to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi.

Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlaydi va ushbu hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va hududlarning moliya organlariga taqdim etadi.

Hududlarning moliya organlari byudjetning hisobot davridagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishli hokimliklarga hamda yuqori moliya organlariga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlarning Davlat byudjetiga hisobot davridagi tushumlari to‘g‘risidagi hisobotni har oyda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Davlat soliq xizmatining joylardagi soliq organlari soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlarning Davlat byudjetiga hisobot davridagi tushumlari to‘g‘risidagi hisobotni har oyda tegishli moliya organlariga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar hisobot davrida davlat maqsadli jamg‘armalariga mablag‘lar tushumi va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 1

apreligacha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga u tashqi audit va baholash o‘tkazishi uchun hisobot yilidan keyingi yilning 5 apreligacha yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotga doir xulosasini hisobot yilidan keyingi yilning 10 mayidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

5-BOB . RESPUBLIKA VA MAHALLIY BYUDJETLARNING DAROMADLARI VA XARAJATLARI

5.1. Davlat byudjeti daromadlarining iqtisodiy mohiyati va ularning davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o‘rni

“Hech narsa fuqarolardan daromadlarining qancha qismi undirib olinishi va qancha qismi ularda qolishi kerakligini belgilashchalik kabi ko‘p ilm va donolik talab etmaydi.”

Monteske

Har qanday davlatga o‘z funksiyalarini bajarish uchun pul mablag‘lari jamg‘armalari zarur bo‘ladi. Davlat byudjeti harakati maxsus iqtisodiy shakllar – YaIM qiymatini qayta taqsimlashning tadrijiy bosqichlarini o‘zida ifodalovchi daromad va xarajatlar vositasida sodir bo‘ladi. Byudjet daromadlari va xarajatlari – bu obyektiv shartli kategoriyalar bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos vazifaga ega: daromad davlat faoliyatining moliyaviy bazasi sifatida, xarajatlar esa – turli-tuman umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

Davlat byudjeti daromadlari davlat markazlashgan pul jamg‘armasini shakllantiruvchi davlat mulki va tasarrufiga kelib tushayotgan pul mablag‘larini o‘zida aks ettiradi. Moliyaviy resurslar manbai sifatida hukumat tomonidan o‘z fuqarolari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslardan to‘plangan pul mablag‘lari xizmat qiladi.

5.1-rasmda YaIMni qayta taqsimlash va byudjet jamg‘armasini shakllantirish jarayoni ko‘rgazmali ifodalangan bo‘lib, undan daromadlarga quyidagicha iqtisodiy mazmun berishi mumkin: byudjet daromadlari jamiyatning turli ijtimoiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan milliy daromadni, shuningdek, jismoniy shaxslar daromadlarining davlat tomonidan majburiy va ixtiyoriy to‘lovlar metodlari orqali jalb qilingan qismini taqsimlash va qayta taqsimlash natijasi sanaladi.



5.1-rasm. **YaIMni taqsimlash va byudjet jamg‘armasini shakllantirish jarayoni**[14]

Byudjet daromadlari ularni to‘lovchilar, soliqqa tortish obyektlari, undirish usullari, to‘lov muddatlari bo‘yicha farqlanadi, biroq ayni

[14] Нурмухамедова Б.И. Кабирова. Молия. Касб-хунар коллежлари учун дарслик, 2010.

paytda barcha uchun davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish umumiy xususiyatga ega. Byudjetga to‘lovlar pul shaklida bo‘ladi, byudjetga kelib tushganda ular naqdsiz holga keltiriladi, ya’ni, byudjetning daromad qismini shakllantirish jarayoni pul mablag‘larining bir tomonlama xarakteriga ega bo‘lib, ular umumiy “g‘aznaga” tushgach davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida sarflanadi. Shunday qilib, davlat byudjetida davlat, xo‘jalik subyektlari va alohida fuqarolarning manfaatlari kesishadi.

A.A. Golubev va N.P. Gavrilovga ko‘ra, davlat byudjeti daromadlari byudjet munosabatlarining jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan milliy daromadning muayyan qismini davlatga o‘tkazishdan iborat bo‘lgan qismi – byudjet jamg‘armasini shakllantirishni ifodalaydi[15].

Z.X. Srojiddinovaning fikricha, byudjet daromadlari – bu qonunchilikka muvofiq davlat byudjet tizimining byudjetlariga beg‘araz va qaytarilmas tartibda kelib tushayotgan pul mablag‘laridir[16].

L.M. Teterinaning fikriga ko‘ra, byudjet daromadlari – bu davlatning o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismidir. Byudjet daromadlari davlat pul mablag‘larining markazlashtirilgan jamg‘armasini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Ular jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan turli to‘lovlardan iborat bo‘lib, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan beg‘araz tushumlar shaklini ham olishi mumkin[17].

I.M. Mislyaevaga ko‘ra esa, byudjet daromadlari – bu milliy daromadning bir qismini qayta taqsimlash hisobiga shakllanadigan va davlat hamda mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan o‘z funksiyalarini bajarish uchun foydalaniladigan davlatning markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismidir. Byudjet daromadlari – “davlat daromadlari” tushunchasiga nisbatan tor

[15] Голубев А.А., Гаврилов Н.П. Финансы и кредит: Учебное пособие – СПб, ГУИТМО, 2011. – 95 с.
[16] Срожиддинова З.Х. Бюджетная система Республики Узбекистан: Учебник – Ташкент, 2010. – 480 с.
[17] Тетерина Л.М. Государственный бюджет: Учеб.-метод. комплекс; Минский институт управления. – Мн.: Изд-во МИУ, 2015

tushuncha, chunki davlat daromadi byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari jamg‘armalar resurslari, davlat sektori mulki, shuningdek, davlatga tegishli barcha to‘plangan boylikni ham o‘z ichiga oladi[18].

T.M. Bogolibning fikricha, byudjet daromadlari moliyaviy munosabatlar tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning to‘liqligi va o‘z vaqtidaligi mamlakatning faol ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun xarajat majburiyatlarining bajarilishi imkoniyatini belgilab beradi[19].

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq davlat byudjeti daromadlari:

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi[20].

Byudjet daromadlarini shakllantirish shakllari va metodlari ko‘plab obyektiv va subyektiv omillar ta’siri ostida o‘zgaradi, ularning orasida esa ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanganlik darajasi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Mavjud iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat, siyosat va mazkur bosqichda jamiyat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari, ko‘zlangan maqsadlarga erishish strategiyasi va taktikasi ham daromadlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Biroq har qanday holatda, daromadlarni safarbar qilishning asosiy

[18] Мысляева И.М. Государственные и муниципальные финансы: Учебник. Изд. 2-е, перераб. и доп. — М: ИНФРА-М, 2013. - 360, с. 100

[19] Боголиб Т. М. «Доходы бюджета в системе финансового регулирования», научный журнал «Europeansciencereview», выпуск № 5-6 / 2014

[20] Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 26 декабрдаги № ЎзРҚ-360 қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси

maqsadi barqaror moliyaviy bazani shakllantirish sanalib, bu barcha darajadagi davlat hokimiyati organlariga o‘z funksiyalarini bajarish va umumdavlat hamda mintaqaviy ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi. Daromadlarning maqsadi – byudjet xarajatlarini qoplashdir. Shu bilan birga, xo‘jalik subyektlari va aholi bilan o‘zaro moliyaviy munosabatlarda hamda byudjetning daromad qismini undirishda mehnat mahsuldorligini oshirishga, resurslardan samarali foydalanishga va oqibat o‘laroq tushumlar ortishiga rag‘batlantiruvchi shakllarni topish lozim. Daromadlarning fiskal va rag‘batlantiruvchi funksiyalari ham aynan shundan iborat bo‘lib, bu ular o‘sishining moddiy bazasini kengaytirishni, byudjetning daromad qismi mustahkamlanishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, byudjet daromadlari davlat organlari tasarrufida bo‘lgan pul tushumlari (soliq va soliqdan tashqari daromadlar) hisobiga shakllanadi va byudjetning markaziy ko‘rsatkichi sanaladi. Bu davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishga xarajatlari miqdorini, iqtisodiy o‘sish sur’atlari va xalq farovonligini darajasini aniqlashga imkon beradi.

5.2. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish tarkibi, tuzilmasi va manbalari

Birinchi paragrafda aytilganidek, byudjet daromadlari soliq va soliqdan tashqari xarakterga ega (5.2-rasm).

Soliqdan tashqari daromadlar davlatning iqtisodiy faoliyati yoki byudjet tizimi darajalari bo‘yicha allaqachon olingan daromadni qayta taqsimlash natijasida shakllanadi.

Soliqdan tashqari daromadlarning aksariyati qat’iy belgilangan stavkali fiskal-doimiy xususiyatga ega emas. Byudjetning boshqa daromadlaridan farqli o‘laroq, soliqdan tashqari daromadlar rejalashtirilmasligi kerak, ammo amaliyotda ular, odatda, o‘tgan yil tushumlari darajasida rejalashtiriladi.



5.2-rasm. **Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi**[21]

Soliqdan tashqari daromadlar xuddi soliq daromadlari kabi, yuridik va jismoniy shaxslar uchun O‘zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari tomonidan belgilanadi. Soliqdan tashqari daromadlar majburiy va ixtiyoriy to‘lovlar shaklida bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq “davlat byudjetining soliqdan tashqari daromadlariga quyidagilar kiritiladi:

[21] Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси асосида мустақил тузилган.

• davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;

• meros, hadya huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;

• yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

• rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar;

• qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar”[22].

Soliq daromadlari qayta yaratilgan qiymat natijasida va uni birlamchi taqsimlash (foyda, ish haqi, qo‘shilgan qiymat, ssuda foizi, renta, dividendlar va boshqalar) natijasida olingan daromadlar natijasida hosil bo‘ladi.

Byudjetga soliq to‘lovlariga barcha soliqlar va boshqa byudjetga majburiy to‘lovlar taalluqli sanaladi. Soliqlar quyidagilardan iborat:

• yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

• jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

• qo‘shilgan qiymat solig‘i;

• yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;

• aksiz solig‘i;

• suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

• mol-mulk solig‘i;

• yer solig‘i;

• obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;

• transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moli uchun soliq.

Majburiy to‘lovlarga quyidagilar kiritiladi:

• ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar;

• Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar;

• umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash uchun byudjetdan tashqari jamg‘armalarga majburiy ajratmalar;

[22] Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодекси, 9-боб, 50-модда.

• davlat boji;

• bojxona to‘lovlari;

• ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish uchun yig‘imlar.

Davlat necha asrdan beri mavjud bo‘lsa, soliqlar ham shunchadan beri mavjud va iqtisodiyot nazariyasi ham shuncha asrlardan beri optimal soliqqa tortish yo‘llarini izlab kelmoqda.

“Soliq” tushunchasining ildizi qadim asrlarga borib taqaladi. Soliq haqidagi dastlabki qaydlarni antik davr mutafakkirlarining falsafiy asarlarida uchratish mumkin. Kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk davrida faylasuflar garchi ularga ma’lum: urush o‘ljalari, qullar mehnatidan foydalanish, qurbonlik keltirish kabi soliq shakllari yovvoyilarcha bo‘lgan bo‘lsa-da, soliqni ijtimoiy jihatdan kerakli va foydali hodisa sifatida ko‘rib chiqishgan.

Ijtimoiy taraqqiyot tufayli soliq shakllari ham asta-sekin o‘zgarib, zamonaviy mazmuniga yaqinlasha bordi. “Soliq” tushunchasining tub ma’nosi – jamiyat uchun zarur bo‘lgan individual daromadlarning bir qismini umumlashtirish jarayoniga vositachilik qilish (zamonaviy ma’noda daromadlarni davlat g‘aznasiga qayta taqsimlash jarayoni) o‘zgarishsiz qoldi. Jamiyat bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning soliq shakllari o‘z davrida turlicha nomlarga ega bo‘lgan. Nemis olimlari soliqlarni fuqarolarning davlatga ko‘rsatadigan qo‘llab-quvvatlashi sifatida ko‘rib chiqilgan (“staure” – qo‘llab-quvvatlash). Angliyada soliq hali ham “duty” – burch (majburiyat) deb ataladi. AQSh qonunchiligi soliqni “tax” (taksa) deb ta’riflaydi. Fransiyaning soliq qonunchiligida soliq munosabatlariga “import” (majburiy to‘lov) deya ta’rif berilgan. Rossiya qonunchilik amaliyotida soliq shaklining majburiyligi “podati” (majburiy to‘lov) atamasi bilan ta’kidlangan.

Soliqlar byudjet daromadlarini shakllantirishning asosiy usuli hisoblanadi. Odatda, soliqlar turli darajadagi davlat hokimiyatining to‘lov qobiliyatini ta’minlash maqsadida olinadi[23].

[23] Перов А.В., Толкушкин А.В. Налоги и налогообложение: учеб.пособие для бакалавров — М.: Издательство Юрайт, 2012. — 899 с, стр. 27

Zamonaviy adabiyotlarda soliqlar bo‘yicha ko‘plab ta’riflar keltirilgan. Shu bilan birga, barcha ta’riflar soliqni majburiy to‘lov sifatida ta’kidlaydi. Boshqacha aytganda, to‘lovchilar uchun majburiy bo‘lmagan to‘lovlar soliqqa oid sanalmaydi[24].

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, soliqlar deganda muntazam, qaytmas va beg‘araz xarakterga ega, muayyan miqdorda byudjetga undiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi. Boshqa majburiy to‘lovlar – bu majburiy pul to‘lovlari, shuningdek, yig‘imlar, davlat bojlari bo‘lib, ularni to‘lash vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan soliq to‘lovchilarga nisbatan yuridik ahamiyatli harakatlarni, shu jumladan, muayyan huquqni taqdim etish yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlar berishni takomillashtirish shartlaridan biri sanaladi[25] .

Shunday qilib, soliq yuridik va jismoniy shaxslardan davlat foydasiga olinadigan majburiy to‘lovlardir. Agar ularning moddiy mazmunini ko‘rib chiqsak, u holda soliqlar – umumiy davlat ehtiyojlari uchun xo‘jalik subyektlari va aholidan undiriladigan milliy daromadning bir qismidir.

Ayni paytda soliqlar davlat byudjeti daromadlarining salmoqli qismini egallaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining byudjet daromadlarida soliq tushumlarining ulushi 90-97 % ni tashkil qiladi.

Soliqlar turli belgilariga ko‘ra turli guruhlarga ajratiladi. Shunday qilib, soliqlar quyidagicha tasniflanadi:

Soliq undirish xarakteri bo‘yicha:

• bevosita;

• bilvosita.

Boshqaruv darajalari bo‘yicha:

• Umumdavlat;

• Mahalliy.

Soliqqa tortish subyektlari bo‘yicha:

• Yuridik shaxslardan olingan soliqlar;

[24] Перов А.В., Толкушкин А.В. Налоги и налогообложение: учеб.пособие для бакалавров — М.: Издательство Юрайт, 2012. — 899 с.

[25] Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси, Ўзбекистон Республикасининг 25.12.2007 йилдаги ЎзРҚ-136-сонли Қонуни билан қабул қилинган.

• Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar.

Soliqqa tortish obyektlari bo‘yicha:

• Tovarlar va xizmatlarga soliqlar;

• Daromad (foyda) solig‘i.

Maqsadga yo‘naltirilganligi bo‘yicha:

• Umumiy;

• Maxsus.

Umumiy soliqlar xarajatlarning qandaydir turiga biriktirilmagan holda davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun ishlatilsa, maxsus soliqlar maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Maxsus soliqlarga quyidagilar kiradi: ijtimoiy sug‘urta uchun ajratmalar, yo‘l jamg‘armasiga ajratmalar va boshqalar.

Soliq stavkasi va daromad o‘rtasidagi nisbat belgisiga ko‘ra soliqlar quyidagilarga ajratiladi:

• Progressiv, bunda daromadlar oshib borishi bilan o‘rtacha stavka ham ortib boradi;

• Regressiv, bunda daromadlar ortishi bilan o‘rtacha stavka pasayadi;

• Proporsional, bunda daromad miqdoridan qat’i nazar o‘rtacha stavka o‘zgarmasligicha qoladi.

Soliqqa tortish obyektiga ko‘ra soliqlarni mulk, yer, renta, kapital, xizmatlar, tovarlar, iste’mol vositalari va boshqalardan undiriladigan soliqlarga ajratish mumkin. Soliqlarni tasniflash asosida tovarlar (ishlar, xizmatlar), mulk, daromad, foyda, tabiiy qazilmalar va boshqalarni sotish bo‘yicha operatsiyalarni tavsiflovchi belgi yotadi.

Undirish usuliga ko‘ra soliqlar tasnifini batafsil ko‘rib chiqamiz (5.3-rasm). To‘g‘ri soliqlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijasi, kapital aylanmasi, mulk qiymatining ortishi bilan bevosita bog‘liq soliqlardir. To‘g‘ri soliqlar afzalligi shundaki, ularni muayyan shart-sharoitlarga – oilaning kattaligi, daromadi, yoshi va umumiy ma’noda to‘lov qobiliyatiga moslashtirish oson. To‘g‘ri soliqlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: daromad solig‘i, foyda solig‘i, resurs to‘lovlari, mulk solig‘i va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan mulkka egalik hamda undan foydalanish bo‘yicha soliqlar.



5.3-rasm. **Undirish usuli bo‘yicha soliqlar tasnifi**

Egri soliqlar – bu narxga qo‘shimcha sanaladi yoki qo‘shimcha qiymat, aylanma yoxud tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish hajmiga qarab aniqlanadigan soliqlar hisoblanadi. Egri soliqlarning to‘g‘ri soliqlardan afzalligi sifatida ularning kichik miqdorda bo‘lishi va to‘plash osonligini aytish mumkin, chunki ular chakana va ulgurji savdo darajasi bilan belgilanadi.

Hokimiyat organlarining kompetensiyalari darajasi bo‘yicha soliqlar quyidagilarga bo‘linadi:

• davlat – davlat qonunchiligi tomonidan o‘rnatiladigan va butun mamlakat hududida amal qiladigan umumdavlat soliqlari va yig‘imlari;

• mahalliy – muayyan mintaqa hududida amal qiluvchi hududiy tuzilmalar (tumanlar va shaharlar, viloyatlar) soliqlari (5.4-rasm)



5.4-rasm. **Kompetensiya darajasi bo‘yicha soliqlar tasnifi**

Davlat soliqlari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar, aksiz solig‘i suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, fiksirlangan soliq, yagona soliq to‘lovini o‘z ichiga oladi.

Mahalliy soliqlarga mulk solig‘i, yer solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, transport vositalaridan benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moli uchun olinadigan soliq kiritiladi.

5.3. 2017-2019 yillar uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarida to‘g‘ri soliqlar tahlili

Davlat byudjeti daromadlari amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda va miqdorlarda byudjetning daromad qismiga kelib tushayotgan majburiy to‘lovlarni o‘zida aks ettiradi. Ushbu to‘lovlarning turlari, ularni shakllantirish va byudjet tizimining tegishli darajasiga o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetini tuzish va ijro etish qoidalari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti loyihasi umuman mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar prognozlariga muvofiq daromadlar va xarajatlar bo‘yicha tuziladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo‘yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini, ular o‘rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi. O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘laridan iborat bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasida soliqqa tortish tizimini tubdan isloh etish, shu jumladan, soliqlar va majburiy to‘lovlarni qisqartirish, samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish ko‘zda tutilgan.

Qulay raqobatli muhit yaratish, soliq qonunchiligi barqarorligi va soddalashtirilishini ta’minlash, soliq yuklamasini kamaytirish, respublikamizning investitsion jozibadorligini oshirish hamda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish konsepsiyaning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Shu sababli, 2019-yilda mamlakatimizda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan soliq siyosatiga asosan soliq tizimida mavjud soliqlarni undirish bo‘yicha belgilangan stavkalarda bir qator o‘zgarishlarni kuzatish mumkin (1-jadval).

2018-yilda yuridik shaxslarning foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i birlashtirilib, soliq stavkasi amaldagi 15,5 foiz o‘rniga 14 foiz (banklar uchun 22 foiz) qilib belgilangan edi. 2019-yilda ushbu soliq stavkasi 2 punktga kamaytirilib, 12 foiz (banklar uchun 22 foiz)ni tashkil etmoqda. Yuridik shakxslarning mol-mulk solig‘i stavkasi esa amaldagi 5 foiz o‘rniga 2 foiz qilib belgilandi.

2018-yilda jismoniy shaxslarning daromad solig‘i bo‘yicha uchinchi va to‘rtinchi shkaladagi stavkalari 0,5 foizga pasaytirilib, 16,5 va 22,5 foiz qilib belgilangan edi, 2019-yildan ushbu stavkalar umumlashtirilib, yagona 12 foizli soliq stavkasi joriy etildi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq o‘tgan yildan boshlab mol-mulkning inventar qiymatidan emas, kadastr qiymatidan hisoblanishi joriy etilib, soliqning asosiy stavkasi 1,7 foiz o‘rniga 0,2 foiz qilib belgilangan edi.

5.1-jadval

2017-2019-yillarda soliq stavkalarini o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumot[26] *(foizda)*

№	**Soliq va boshqa majburiy to‘lov turi**	**2017-yil**	**2018-yil**	**2019-yil**
1.	Yuridik shaxslarning foyda solig‘i	7,50	14,00	12,00
2.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	8,00		
3.	QQS	20,00		
4.	YuSh mol-mulk solig‘i	5,00	5,00	2,00

[26] www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

5.	Yagona soliq	5,00	5,00	4,00
6.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq		o‘rtacha 30 %ga pasaytirildi	o‘rtacha 12 %ga pasaytirildi
7.	Yer solig‘i		15 %ga oshdi	20 %ga oshdi
8.	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i**			
8.1.	eng kam ish haqining (EKIH)	0,00	0,00	12,00
	1 baravarigacha miqdorda			
8.2.	EKIHning 1 baravaridan 5 baravarigacha	7,50	7,50	7,50
8.3.	EKIHning 5 baravaridan 10 baravarigacha	17,00	17,00	16,50
8.4.	EKIHning 10 baravaridan yuqorisi	23,00	23,00	22,50
9.	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Inventarizatsiya qiymatiga nisbatan		
9.1.	Turar-joylar, kvartiralar (umumiy maydoni 200 kv.m. dan oshiq bo‘lganlari bundan mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	1,70	0,20	0,20
	Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo‘lgan turar-joylar va kvartiralar:			
9.2.	200 kv.m. dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	2,10	0,25	0,25
9.3.	500 kv.m. dan ortiq bo‘lgan	2,90	0,35	0,35
10.	Jismoniy shaxslar yer solig‘i		15 %ga oshdi	20 %ga oshdi

2018-yilda jismoniy shaxslar uchun soliq yuki keskin oshib ketmasligi uchun kadastr qiymatiga asosan hisoblangan soliq summasi 2017-yildagi soliq summasiga nisbatan 20 foizdan ko‘p bo‘lmasligiga e’tibor

qaratildi. 2019-yilda ham ushbu tendensiya saqlanib qolgan holatda soliq stavkasi o‘zgarmadi.

5.2-jadval

2017-2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti daromadlari tarkibining tahlili[27] *(mlrd so‘mda)*

№	Ko‘rsatkichlar	2017 yil (ijro)		2018 yil (reja)		2019 yil (reja)	
		summa	%	summa	%	summa	%
	Davlat byudjeti daromadlari	44469,6	100	62229,5	100	102627,6	100
1	To‘g‘ri soliqlar	10674,2	24	12805,4	20,6	29125,5	28,4
1.1.	Yuridik shaxslardan foyda solig‘i	1291,1	2,9	2510,9	4	15980,00	15,6
1.2.	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to‘lovidan ajratma	1613,2	3,7	1907,6	3	1192,1	1,2
1.3.	Yagona soliq to‘lovidan byudjetga ajratma sh,j, mikrofirma va kichik korxonalar	1622,8	3,7	2110,5	3,5		
1.4.	Jismoniy shaxslar daromadidan soliq	4476,1	10	5198,8	8,4	11367,4	11
1.5.	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlariga solinadigan qat'iy belgilangan soliq	831,7	1,8	1077,6	1,7	586,00	0,6
1.6.	Obodonlashtirish va ijtimoy infrastrukturani rivojlantirish uchun soliq	839,3	1,9				
2	Egri soliqlar	24285,4	54,6	33404,3	53,6	47029,8	45,8
2.1.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	13422,1	30,2	22019,4	35,4	35993,5	35,1
2.2.	Aksiz solig‘i	6870,8	15,5	8343,8	13,4	9017,5	8,8
2.3.	Bojxona boji	1632,2	3,7	1415,3	2,3	2018,8	1,9
2.4.	Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazdan foydalanganlik uchun soliq	1940,3	4,3	1323,2	2,1		
2.5.	Abonent raqamidan foydalanganlik uchun haq	420	0,9	302,5	0,4		
3	Mol-mulk solig‘i va resurs to‘lovlari	6049,5	13,6	9714,5	15,7	16906,00	16,5
3.1.	Mol-mulk solig‘i	1988,8	4,5	2158,9	3,6	1851,1	1,8
3.2.	Yer solig‘i	1102,5	2,5	1266,6	2	1834,3	1,8
3.3.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	2746,3	6,2	6203,1	10	12952,1	12,6
3.4.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	211,9	0,4	85,9	0,1	268,5	0,3
4	Yuqori foydaga solinadigan soliq	723,2	1,6	1367,7	2,2	130,00	0,1
5	Boshqa daromadlar	2737,3	6,2	4937,6	7,9	9436,3	9,2

[27] www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq stavkasi o‘tgan 2 yil mobaynida pasaytirilayotgan edi. Amaldagi tartibga ko‘ra 2019-yil 1-yanvardan boshlab, kalendar yilida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum 100 million so‘mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliqni hisoblash va to‘lash tartibi saqlab qolindi. Kalendar yilida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi 100 million so‘mdan oshgan, biroq bir milliard so‘mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar yagona soliq to‘lovini 4 foizli stavkada to‘lashga o‘tkazildi.

Kalendar yilida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bir milliard so‘mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda to‘laydi.

Yuqorida qayd etganimizdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida soliq tizimi takomillashib bormoqda. Shunday ekan, shu o‘rinda soliqlarni byudjet tarkubidagi ulushini tahlil qilamiz.

5.4. Davlat byudjet xarajatlarining mohiyati, zaruriyati va ularni moliyalashtirish usullari

Byudjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko‘zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun subyektlarga byudjetdan mablag‘larni taqdim etish tizimi tushuniladi. U pul mablag‘larini taqdim etishning o‘ziga xos bo‘lgan shakl va metodlari bilan xarakterlanadi hamda ma’lum bir prinsiplarga tayanadi. Byudjetdan moliyalashtirishning prinsiplari, shakllari va metodlari bu tizimning tarkibiy elementlari bo‘lib hisoblanadi va uning amal qilish natijalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etilayotgan hozirgi paytda oqilona va samarali byudjetdan moliyalashtirish tizimining ahamiyati yanada ortadi.

Iqtisodiy mazmun-mohiyatiga ko‘ra davlat byudjeti xarajatlari – davlatning markazlashgan pul fondida jamlanadigan pul mablag‘larini taqsimlash, qayta taqsimlash va ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan, davlat

bilan davlat byudjetidan mablag‘ oluvchilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan iqtisodiy pul munosabatlaridir.

Davlatning o‘z funksiyalari va vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq ravishda vujudga kelgan chiqimlar – byudjet xarajatlari davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag‘larini turli yo‘nalishlar bo‘yicha foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Byudjet xarajatlari tarkibi va tuzilmasi muayyan byudjet yili uchun tasdiqlanadigan davlat byudjeti parametrlarida bevosita ko‘rsatiladi va byudjet daromadlari kabi mamlakatda u yoki bu davrda qaror topgan iqtisodiy vaziyatga hamda ijtimoiy ustuvorliklar ko‘lamiga bog‘liq bo‘ladi.

Jamiyatning iqtisodiy hayotida byudjet xarajatlarining roli va ahamiyatini aniqlash uchun ularni ma’lum belgilarga ko‘ra turkumlashtirish maqsadga muvofiq. Ular o‘zlarining iqtisodiy mazmuni, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari, ijtimoiy mo‘ljallanganligi bo‘yicha va ma’lum maqsadlariga ko‘ra alohida guruhlarga ajratilishi mumkin.

Eng avvalo, o‘zining iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, Davlat byudjetining xarajatlari kapital va joriy xarajatlarga bo‘linadi.

Byudjetning kapital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatga yo‘naltirilgan xarajatlardir.

Davlat hokimiyat organlari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan byudjet xarajatlari, boshqa byudjetlar va iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga dotatsiya, subsidiya va subvensiya shaklida ko‘rsatiladigan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar va Davlat byudjeti xarajatlarining turkumlanishiga muvofiq kapital xarajatlarning tarkibiga kiritilmagan boshqa xarajatlar byudjetning joriy xarajatlari deyiladi.

Takror ishlab chiqarishdagi roliga ko‘ra, Davlat byudjetining xarajatlari milliy iqtisodiyotga (xo‘jalikka) qilinadigan xarajatlar va ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlariga bo‘linadi.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarmoq belgisi bo‘yicha guruhlarga ajratishning asosiga milliy iqtisodiyot (xo‘jalik)ning umume’tirof etilgan tarmoqlarga bo‘linishi qabul qilingan. Shunga muvofiq ravishda byudjet xarajatlari sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa, maorif, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta’minot, davlat boshqaruvi, mudofaa va h. k. xarajatlariga bo‘linishi mumkin.

5.3-jadval

2017-2019 yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va dinamikasi[28]

Xarajatlar		2017-yil		2018-yil		2019-yil (reja)	
		mlrd so‘m	% da	mlrd so‘m	% da	mlrd so‘m	% da
Xarajatlar - jami		49344,9	100	79 736,1	100	**107118,4**	**100,0**
1	Ijtimoiy xarajatlar	26922,7	54,6	42 658,9	53,5	58012,1	54,2
2.	NNT, NST va fuqorolik jamiyatlari institutlarini rivojlantirish uchun mablag‘lar va grantlar	12	0,02	17,8	0,02	28,6	0,0
3.	Iqtisodiyot xarajatlari	5280,7	10,7	7 637,8	9,6	14099,8	13,2
4.	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	3234,8	6,5	5 400,4	6,8	3960,2	3,7
5.	Davlat hokimiyati, boshqaruv organlari va sud organlarini va fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	1932,9	3,9	3 275,4	4,1	4827,3	4,5

[28] http://www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

6	Zaxira jamg‘armasi	0	0	604,2	0,01	908,6	0,8
7	Ish haqi va kommunal xizmatlar tariflari oshganligi uchun xarajatlar	0	0	0	0	3384,0	3,2
8	Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish	0	0	0	0	2533,5	2,4
9	Boshqa xarajatlar	11463,2	23,2	19 538,2	24,5	20797,8	19,4
Davlat byudjeti taqchilligi (-), profitsiti (+)		339,8	0,7	-637,1	0,8	-4484	4,3

Ijtimoiy mo‘ljallanganligi bo‘yicha Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy guruhlarga ajratilishi davlatning toifasi va u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarni o‘zida aks ettiradi. Shunga muvofiq ravishda Davlat byudjetining barcha xarajatlarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin[29]:

–ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

– milliy xo‘jalikka (iqtisodiyotga) xarajatlar;

– mudofaa xarajatlari;

– boshqaruv xarajatlari.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari o‘z tarkibiga maorif, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta’minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funksiyasini o‘zida aks ettirib, bu guruhdagi byudjetning xarajatlari xalq ta’limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo‘lgan talabini (ehtiyojini) qondirishga, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta’minotni amalga oshirishga keng yo‘l ochib beradi.

[29] Malikov T.S., Haydarov N.H.Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma / Toshkent Moliya instituti. – T.: “IQTISOD–MOLIYa”, 2007.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga ko‘ra Davlat byudjetining xarajat qismi quyidagilardan iborat[30]:

- ✓ ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;
- ✓ boshqa institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;
- ✓ iqtisodiyot xarajatlari;
- ✓ markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- ✓ davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;
- ✓ sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
- ✓ fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
- ✓ boshqa xarajatlar.

Quyidagi 2.3-jadvalda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibi keltirilgan bo‘lib, jami davlat byudjeti xarajatlari 2017-yilda 49344,9 mlrd so‘mni, 2018-yilda 79 736,1 mlrd so‘mni tashkil etib, 2019-yilda 107118,4 mlrd so‘mga rejalashtirilgan. O‘tgan yillar mobaynida davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarining salmog‘i yuqoriligicha qolmoqda. Xususan, ushbu xarajatlar byudjet xarajatlarini 2017-yilda 54,6 foizini, 2018-yilda 53,5 foizni tashkil etgan va 2019-yilda 54,2 foizga rejalashtirilgan.

Iqtisodiyot xarajatlari 2017-yilda jami byudjet xarajatlarining 10,7 foizini, 2018-yilda 9,6 foizini tashkl etgan va 2019-yilda 13,2 foizga yetishi ko‘zda tutilgan. Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari jami xarajatlarning 2017-yilda 6,5 foizini, 2018-yilda 6,8 foizini tashkl etgan bo‘lsa, 2019-yilda 3,7 foizga rejalashtirilgan.

Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari jami xarajatlar tarkibida o‘zgarishsiz bo‘lib, 0,3 foizni tashkil etadi.

[30] O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 69- modda, 2013 yil 26 dekabr

5.4-jadval

2017-2019 yillarda Davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlari tarkibi[31]

№	Xarajatlar	2017-yil		2018-yil		2019-yil	
		mlrd so‘m	% da	mlrd so‘m	% da	mlrd so‘m	% da
I	Ijtimoiy xarajatlar - jami	26922,7	54,56	62 170,00	100	58012,1	100
	Ijtimoiy xarajatlar	26708,7	54,12	42658,9	68,6	58012,1	54,2
1.1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	26708,7	54,12	39026,9	33,9	50334,1	47[32]
	Maorif	15977,7	32,4	19 504,3	31,4	28394,3	48,9
	Sog‘liqni saqlash	7030,3	14,2	9 562,0	15,4	12078,0	20,8
	Madaniyat va sport	750,2	1,5	1 165,4	1,9	1690,1	2,91
	Fan	275,6	0,6	389,3	0,6	801,0	1,4
	Bolali oilalarni hisobga olgan holda ijtimoiy nafaqalar	2239,6	4,5	3026,2	4,9	5167,2	8,9
2.	Ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlari	435,3	0,9	570,0	0,9	1514,0	2,6
3.	Qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturini birgalikda moliyalashtirishga kredit liniyasi	214	0,4	3632,0	5,8	500,0	0,9

Kichik korxonalar biznes faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyekt hisoblanadi. Hozirgi jamiyatimizda kichik korxonalar

[31] http://www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

faoliyatini ayrim kishilarning ehtiyojlarini qondirish sari yo‘naltirilgan. Bu narsa maishiy xizmat ko‘rsatish hamda xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarish sohalarida yaqqol ko‘rinmoqda. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g‘oyat katta ahamiyatga ega.

Davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2017-yilda ushbu xarajat 26922,7 mlrd so‘mni tashkil qilgan holda ta’lim xarajatlari (15977,7 mlrd so‘m) 32,4 foizni, sog‘liqni saqlash xarajatlari (7030,3 mlrd so‘m) 14,2 foizni, madaniyat va sport xarajatlari (750,2 mlrd so‘m) 1,5 foizni, fan xarajatlari (275,6 mlrd so‘m) 0,6 foizni, bolali oilalarni hisobga olgan holda ijtimoiy nafaqalar xarajatlari (2239,6 mlrd so‘m) 4,5 foizni, ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlari (435,3 mlrd so‘m) 0,9 foizni va qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturini birgalikda moliyalashtirishga kredit liniyasi uchun ajaratilgan xarajatlar (214 mlrd so‘m) 0,4 foizni tashkil etgan. E’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlardan biri 2017- yilgacha bo‘lgan davrda ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida ijtimoiy ta’minot xarajatlarining mavjudligi va 2017-yildan boshlab ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlarini kiritilganligidir.

Davlat byudjeti xarajatlarining, jumladan ijtimoiy soha (ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport hamda fan) xarajatlari 2017-2018 yillardagi ijrosi keltirilgan bo‘lib, jami xarajatlar 2017-yilda 105,12 foizga, 2018-yilda esa 128,3 foizga bajarilgan bo‘lsak, shu jumladan ijtimoiy soha xarajatlari 2018-yilda 152,0 foizga bajarilgan. Ijtimoiy soha xarajatlarini alohida-alohida ko‘radigan bo‘lsak, ta’lim xarajatlari 2018-yilda 105,8 foizga bajarilgan, bu o‘tgan 2017-yildagi ko‘rsatkichdan 50 foizga ko‘pdir. Sog‘liqni saqlash xarajatlarining ijrosi esa 102,14 foiz o‘rniga 100,2 foizga o‘zgargan. Madaniyat va sport xarajatlari 2017-yildagi 155,9 foiz o‘rniga 2018-yilda 115,5 foizni tashkil etgan. Fan xarajatlari xarajatlari 99,1 foiz o‘rniga 113,3 foizga bajarilgan. Ijtimoiy soha xarajatlari ijrosining bunday o‘zgarishi bir qator amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan bog‘liqdir.

2017-2018-yillarda ijtimoiy soha uchun rejalashtirilgan mablag‘lar summalarini o‘zgarishlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, byudjetning jami

xarajatlari summasi 2018-yilda o‘tgan 2017-yilga nisbatan 1,32 barobarga, jami ijtimoiy soha xarajatlari summasi esa 1,28 barobarga ko‘paygan. Jumladan, ta’lim xarajatlari summasi 1,19 barobarga, sog‘liqni saqlash xarajatlari summasi 1,39 barobarga, fan xarajatlari summasi 1,40 barobarga va madaniyat hamda sport xarajatlari summasi 2,42 barobarga ko‘paygan.

Byudjetning kapital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatga yo‘naltirilgan xarajatlardir. Bu xarajatlarning tarkibiga:

- tasdiqlangan investitsion dasturga muvofiq harakatdagi yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga investitsiyalar uchun mo‘ljallangan xarajatlar;
- yuridik shaxslarga investitsion maqsadlar uchun byudjet kreditlari sifatida beriladigan mablag‘lar;
- kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan kapital ta’mirlashni amalga oshirish xarajatlari va shu bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar;
- amalga oshirilishi davlat mulkiga tegishli bo‘lgan mulkni oshirish yoki uni yangidan yaratishga olib keladigan xarajatlar;
- byudjet xarajatlarining iqtisodiy turkumlanishiga muvofiq byudjetning kapital xarajatlari tarkibiga kiritiladigan boshqa xarajatlar kiradi.

Aniqroq ravishda byudjetning joriy xarajatlari tarkibi quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- davlat iste’moli xarajatlari (iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani, milliy xo‘jalikning davlat tarmoqlarini saqlash, fuqarolik va harbiy xarakterdagi tovarlar va xizmatlarni sotib olish, davlat muassasalarining joriy xarajatlari);
- hokimiyatning quyi organlari, davlat korxonalari va xususiy korxonalarga joriy subsidiyalar;
- transfert to‘lovlari;
- davlat qarzlari bo‘yicha foizlarni to‘lash;
- boshqa xarajatlar.

Amaliyotda byudjetdan moliyalashtirish, yuridik nuqtayi nazardan, quyidagi ikki ko‘rinishda amalga oshiriladi:

1) Xarajatlarni respublika byudjetidan moliyalashtirish;

2) Xarajatlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan moliyalashtirish.

Byudjetdan mablag‘larni taqdim etishning metodlari byudjetdan moliyalashtirishning muhim elementi bo‘lib hisoblanadi. Ularning yordamida moliya organlari byudjetda ko‘zda tutilgan tadbirlarni pul mablag‘lari bilan ta’minlaydi, pul mablag‘laridan foydalanishda yuqoriroq natijalarga erishish uchun mablag‘larni qayta o‘zgartirib taqdim etishni amalga oshiradi, moliyaviy resurslarni taqsimlashda tarkib topayotgan proporsiyalarni tartibga soladi.

Byudjet mablag‘larini sarf qilishning asosiy tamoyili ularning mo‘ljallanganligi va vaqt bo‘yicha qattiq reglamentatsiya qilinganligidir (tartibga solinganligidir).



5.5-rasm. **Xarajatlar smetasining mohiyati**[33]

Xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash) byudjet ijrosi jarayonida xarajatlar ro‘yxati va smetasiga kiritiladigan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda tasdiqlangan byudjet parametrlariga hamda byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga muvofiq tuzilgan byudjet

[33] Malikov T. va Haydarov N.larning “Byudjet daromadlari va xarajatlari” (T.: “Iqtisod-moliya”, 2007 y.) o‘quv qo‘llanmasi asosida talaba tomonidan mustaqil tayyorlandi.

xarajatlarining yillik ro‘yxatiga binoan amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlash normativlari asosida smeta va shtatlar jadvalini mustaqil ravishda ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

Smeta – notijorat faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotning maqsadga yo‘naltirilganligi nuqtayi nazaridan pul mablag‘larining tashkil topishi va sarflanishi to‘g‘risidagi axborotni o‘zida mujassamlashtiruvchi moliyaviy rejasidir. Ish haqini to‘lashga va joriy faoliyatga xarajatlar byudjetdan ajratilganligini, shuningdek, mablag‘larning maqsadliligi va choraklar bo‘yicha taqsimoti hajmini belgilovchi hujjatdir. Xarajatlar smetasi mohiyatini quyidagi rasm ma’lumotlaridan ham kengroq tushunish mumkin.

Shtatlar jadvali esa doimiy ishchilarning lavozimlari nomlarining ro‘yxati bo‘lib, unda bir nomdagi lavozimlar va lavozim bo‘yicha maoshlarning hajmi qayd etiladi, u mulk egasi, rahbar yoki yuqori organ tomonidan tasdiqlanadi. Shtat jadvali korxona, tashkilot va muassasalarning tarkibiy bo‘linmalari shtatlarini tegishli toifadagi ishchilar bilan to‘ldirib olish huquqini beradi.

Byudjet tashkilotlari tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yoki hududiy moliya organlariga taqdim etadilar.

Tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish, ilovalarni kelishish taqdim etilgan hujjatlarning tasdiqlangan byudjet xarajatlari limitlariga va normativlariga hamda byudjet parametrlariga muvofiqligi tahlili asosida tegishli moliya organlarida amalga oshiriladi. Ro‘yxatdan o‘tkazish mazkur byudjet tashkiloti xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash), byudjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 40 kundan kechiktirmay moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.



5.6-rasm. **Byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlar smetalaridagi xarajatlarning tarkibi**[34]

Smetalar O‘zbekiston respublikasi davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasiga muvofiq xarajatlarning to‘liq yoyilmasi ilova qilingan holda xarajatlarning to‘rt guruhi bo‘yicha tuziladi va hisobot berish maqsadida foydalaniladi.

Byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek, amaldagi smeta va shtatlar jadvaliga kiritiladigan moliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng amalga kiritiladi.

Byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek, amaldagi smeta va shtatlar jadvaliga kiritiladigan o‘zgartirishlar albatta Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari bilan kelishiladi.

Xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan byudjet tashkilotlari xarajatlari birinchi navbatda moliyalashtiriladi (to‘lanadi). Bunda II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag‘ o‘tkazmasdan I guruh

[34] Malikov T., Haydarov N. Byudjet daromadlari va xarajatlari. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2007 y., 192-bet

xarajatlarini amalga oshirish taqiqlanadi. Yagona g‘azna hisob raqamida, shuningdek, hududiy g‘aznachilik hisob raqamida birinchi va ikkinchi guruhlar bo‘yicha to‘lanmagan xarajatlar summasidan ortiq mablag‘lar mavjud bo‘lganda ortiqcha summa miqdorida uchinchi va to‘rtinchi guruhlar bo‘yicha xarajat qilishga ruxsat etiladi.

Kapital qo‘yilmalarga ajratmalar (III guruh xarajatlari) joriy byudjet yili uchun tasdiqlangan Respublika investitsiya dasturiga muvofiq qurilishlarning aniq ro‘yxatlariga muvofiq ajratiladi.

G‘aznachilik tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan buyurtmachilar obyektlari qurilishiga davlat byudjetida nazarda tutilgan xarajatlar G‘aznachilik va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining joriy yilga tasdiqlangan Investitsiya dasturiga hamda qurilishlarning aniq ro‘yxatiga muvofiq, buyurtmachilarning Moliya vazirligining G‘aznachiligida va uning hududiy bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan shartnomalarga asosan to‘lanadi.

Xarajatlarning I va II guruhlarini respublika va mahalliy byudjetlardan xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash) smetalarga va byudjet xarajatlari ro‘yxatlariga, ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda, shuningdek, oldingi hisobot davri uchun belgilangan baholash ko‘rsatkichlarining bajarilishiga muvofiq har oyda amalga oshiriladi.

Kapital qo‘yilmalarni va boshqa xarajatlarni moliyalashtirish (to‘lash) byudjetga mablag‘lar tushishiga qarab har oyda amalga oshiriladi.

G‘azna ijrosiga o‘tmagan byudjet tashkilotlari xarajatlarini:

- respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlash (to‘lash) – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida belgilangan shakldagi maqsadli sertifikat (unda byudjet tasnifnomasi paragraflari va xarajatlar guruhlarini ko‘rsatgan holda) va xarajatlarning har bir guruhi bo‘yicha bir satrda mablag‘ o‘tkazish uchun to‘lov qog‘ozi bilan rasmiylashtiriladi;

- mahalliy byudjetlardan mablag‘ bilan ta’minlash (to‘lash) – tegishli moliya organlarida belgilangan shakldagi tayinlash sertifikati va

xarajatlarning har bir guruhi bo‘yicha bir satrda mablag‘ o‘tkazish uchun to‘lov qog‘ozi bilan rasmiylashtiriladi.

G‘azna ijrosiga o‘tgan byudjet mablag‘i oluvchilar bo‘yicha xarajatlarni to‘lash:

- respublika byudjetidan – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning tegishli hududiy bo‘linmalari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan shartnomalar yoki byudjet mablag‘larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlariga o‘tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlardan – Moliya vazirligi G‘aznachiligining tegishli hududiy bo‘linmalari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan shartnomalar yoki byudjet mablag‘larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlariga o‘tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining xarajatlarini moliyalashtirishda (to‘lashda) yangi byudjet yilida mablag‘ ajratish rejasi byudjet tashkilotlarining hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvaridagi holatiga ko‘ra tovar-moddiy boyliklarning normativdan ortiq qoldig‘i summasiga kamaytiriladi.

O‘tgan yillar debitorlik qarzlarining qaytarilgan summasi, asosiy vositalarni va boshqa tovar-moddiy boyliklarni sotishdan tushgan summa (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga sotib olinganlari bundan mustasno) tegishli byudjetlar daromadiga o‘tkaziladi.

Byudjet mablag‘lari byudjet tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda, byudjet ijrosi jarayonida belgilangan tartibda ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida sarflanadi. Bunda xarajatlarning I va II guruhlarini moliyalashtirish (to‘lash) birinchi navbatda amalga oshiriladi.

Xarajatlarning III guruhi byudjet tashkilotlari tomonidan Respublika investitsiya dasturida joriy moliya yili uchun belgilangan limitlar doirasida moliyalashtiriladi (to‘lanadi).

“Boshqa xarajatlar” IV guruhi bo‘yicha mablag‘lar belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda sarflanadi:

- ovqatlantirish;
- dori-darmonlar;
- kommunal xizmatlar;
- boshqa xarajatlar.

Xarajatlarning u yoki bu guruhida paydo bo‘lgan kreditorlik qarzlari joriy moliya yiliga belgilangan limitlar doirasida ularning paydo bo‘lishi navbatiga ko‘ra har qaysi guruh bo‘yicha to‘lanadi.

Hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida byudjet tashkilotlarining hisob raqamlarida qolgan tejab qolingan byudjet mablag‘lari (kapital qo‘yilmalarni mablag‘ bilan ta’minlash uchun nazarda tutilgan mablag‘lar bundan mustasno) olib qo‘yilmaydi, byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkaziladi.

G‘azna ijrosiga o‘tgan byudjet tashkilotlari bo‘yicha hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida byudjet tashkilotlarining Moliya vazirligi G‘aznachiligida va uning hududiy bo‘linmalarida ochilgan hisob raqamlarida qolgan tejab qolingan mablag‘lar (kapital qo‘yilmalar bo‘yicha xarajatlarni to‘lash uchun nazarda tutilgan mablag‘lar bundan mustasno) olib qo‘yilmaydi, byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkaziladi.

Byudjet mablag‘lari hisobot choragida tejab qolinsa, tashkilotlarni kelgusi chorakda mablag‘ bilan ta’minlash hajmi kamaytirilmaydi.

5.5. Davlat byudjeti xarajatlarining asosiy yo‘nalishlari va ularning tashkiliy-huquqiy asoslari

Bizga ma’lumki, mamlakatda sodir bo‘layotgan har qanday jarayonlar tegishli qonuniy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi. Bosh hujjat esa – bu O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Byudjet munosabatlarini tartibga solib turuvchi asosiy qonuniy hujjat ham Konstitutsiya hisoblanadi. Davlat bilan bog‘liq bo‘lgan barcha huquqiy-me’yoriy hujjatlar ham Konstitutsiya bilan belgilab qo‘yilgan normalar asosida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Davlat byudjeti va uning tuzilishi bilan bog‘liq normalar Konstitutsiyaning XXV bobida “O‘zbekistonning Davlat byudjeti respublika byudjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat”[35] ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Ma’lumki, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish mos huquqiy bazaga tayanishi lozim. Shu sababli, yangi qonunlar turkumini ishlab chiqish zaruriyati tufayli O‘zbekistonda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qator qonunlar qabul qilindi. Bunday qonunlar avvalgi “markazlashtirilgan rejali tizim ruhi bilan sug‘orilgan”, haddan tashqari mafkuralashtirilgan, xalqaro me’yorlar va qoidalarning talablarini inkor etuvchi sovet davri qonunlarining o‘rniga keldi va yosh mustaqil davlatimizning huquqiy demokratik yo‘ldan og‘ishmay ravnaq topishi uchun xizmat qila boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet qurilishi, byudjet tizimining amal qilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining barcha darajalaridagi (markaziy, hududiy va mahalliy) byudjet borasidagi vakolatlari byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Biz mamlakatimiz byudjet tizimini isloh etishda, byudjet daromadlarini barqarorlashtirishda quyidagi Xitoy Xalq Respublikasining amaliyotidan quyidagi jihatlarini tatbiq qilsak bo‘ladi[36]:

- soliq va soliq tizimidagi islohotlarni jadallashtirish, soliq turlari bo‘yicha yaxlitlashgan tizimni ishlab chiqish;
- soliqlarning byudjet daromadlari ulushida yuqori darajasini kamaytirish, soliqsiz to‘lovlar hajmini oshirish;
- byudjet daromadlari va xarajatlarini mutanosib boshqarish,
- byudjet bilan bog‘liq tashkilotlarda Byudjetdan moliyalashtirish mexanizmini samarali tashkillashtirish hamda Byudjetga to‘lovlar orqali Byudjet daromadlarini barqarorligini ta’minlash borasida ichki audit tizimlarini ishlab chiqish;
- davlat investitsiyalari muvaffaqiyatliligini ta’minlash;

[35] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 122-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 213-modda

[36] Ministry of Finance in China “ Report on the execution of the central and local budgets for 2016 and on the draft central and local budgets for 2017” 2017 y March 5. www.scopus.com.

Huquqiy me’yorlarning mazmunidan kelib chiqqan holda, byudjet qonunchiligini bir necha darajaga ajratish mumkin:

1-daraja – O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi – byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

2-daraja – O‘zbekiston Respublikasi hukumatining (Vazirlar Mahkamasining) byudjet masalalaridagi qarorlari.

3-daraja – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyruqlari, farmoyishlari va byudjet sohalariga taalluqli bo‘lgan boshqa me’yoriy hujjatlari (nizomlar, yo‘riqnomalar, qoidalar)

4-daraja – mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlari (Masalan, tegishli viloyat, tuman (shahar) mahalliy byudjet parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi Xalq deputatlari Kengashlarining va hokimlarining qarorlari).

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi byudjet qonunchiligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslangan va O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjet huquqlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan “Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni va byudjet masalalari bo‘yicha boshqa qonuniy va normativ hujjatlardan tashkil topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga asosan davlat byudjetining huquqiy asoslarining sifat jihatdan tartibga solish tushunchasini o‘z ichiga olsa, miqdor jihatdan o‘z ifodasini topgan byudjet xarajatlari va daromadlar miqyosini belgilashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har yilga mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risidagi qaroriga asosan miqdor jihatdan tartibga solinadi.

Masalan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilga mo‘ljallangan asosiy

makroiqtisodiy koʻrsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari toʻgʻrisida”gi qarori, 2017-yil 29-dekabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yilga moʻljallangan asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari toʻgʻrisida”gi qarori, 2018-yil 26-dekabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yilning asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga byudjet moʻljallari toʻgʻrisida”gi PQ-4086-son qarori. Oʻzbekiston Respublikasi Prezdentining aynan shunday har yilgi qarorlari asosida Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari belgilanadi.

Byudjet kodeksi mamlakatning asosiy moliyaviy hujjati — Davlat byudjeti daromadlarining toʻgʻri va toʻliq shakllantirilishini mos ravishda ta’minlash, xarajatlarini toʻgʻri yoʻnaltirishga qaratilgan oqilona soliq va byudjet siyosatini ishlab chiqish hamda tatbiq etishda mazkur bir-biriga uzviy bogʻliq jarayonlarning yaxlit, yagona tizimli huquqiy bazasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ana shu nuqtayi nazardan byudjetga doir barcha munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning jamlanmasi boʻlgan ushbu kodeks yurtimizda izchil davom etayotgan islohotlarni yangi bosqichga koʻtarishda oʻziga xos huquqiy tayanch boʻlib xizmat qilmoqda. Zero, kodeksda nazarda tutilgan norma va qoidalarning amalga oshirilishi byudjet jarayonining barcha bosqichlarida yagona huquqiy norma va yondashuvlar qoʻllanilishini ta’minlashga xizmat qilib, byudjet jarayoni barcha ishtirokchilarining faoliyatini yengillashtirishda muhim omil boʻlmoqda.

Ayniqsa, unda tumanlar va shaharlar byudjetlarini tasdiqlash va ularni soʻnggi byudjet jarayoni ishtirokchisigacha yetkazish boʻyicha tegishli muddat va tartib yoritib berilgan. Eng muhimi, kodeks talablari byudjet mablagʻlarini maqsadli sarflash va ulardan samarali foydalanish imkoniyatini bermoqda. Davlat byudjeti davlat moliyasi tizimida markaziy oʻrinni egallaydi. Iqtisodiyot rivojlanishini turli bosqichlarida byudjet davlat siyosatini amalga oshirish quroli, moʻljallangan davlat dasturlari va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablagʻlarini asosiy manbai hisoblanadi

Davlat byudjeti, davlat hokimiyatining kundalik masalalarini ham, rivojlanish istiqbollari vazifalarini ham hal etishda katta ahamiyatga egadir.



5.6-rasm. **O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining tasnifi**[37]

[37] Byudjet Kodeksi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayorlandi.

Byudjetni shakllantirish avvalo uning xarajat qismini tuzish yo‘li bilan yuz beradi, chunki davlat o‘zida mavjud moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqibgina xarajatlar qilishi mumkin emas. Davlat avvalo jamiyatni samarali rivojlantirish maqsadida uning oldida turgan vazifalarni bajarish uchun zarur mablag‘lar hajmini belgilashi va shundan keyingina o‘z qo‘lida bo‘lgan byudjet daromad qismini to‘ldirishning asosiy vositasi – soliqlar va boshqa manbalar yordamida ana shu moliyaviy resurslarni jalb etishi kerak.

Davlat byudjeti pul resurslarining markazlashtirilgan jamg‘armasi (fondi) bo‘lib, mamlakat hukumati boshqaruv organlarini, qurolli kuchlarni tutib turish, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy funksiyalarni bajarish uchun uni tasarruf etadi.

Hozirgi shart-sharoitda byudjet davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, xo‘jalik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish, shuningdek, inqirozga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishning qudratli vositasi hamdir. Hozirgi davlat byudjeti uning butun xilma-xil funksiyalarini aks ettiradigan murakkab, ko‘p ko‘rinishli hujjat hisoblanadi. Avvalo byudjetda davlat xarajatlari va daromadlari tartibi o‘z aksini topadi. Xarajatlar byudjet mablag‘ini sarflanish yo‘nalishlari va maqsadlarini ko‘rsatadi.

Xarajat moddalarining ahamiyati juda muhim, chunki ularning qanchalik maqsadga muvofiqliligi mazkur davlat soliq to‘lovchilari zimmasiga yuklatiladigan soliq yukiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan shu narsa ravshanki, mazkur aniq davrda amal qiladigan soliqlar tizimi (soliq miqdori, ularni stavkalari, soliq solinadigan baza) davlat byudjetida xarajatlarning qanday moddalari ko‘zda tutilganiga va ularni qoplash uchun qancha miqdorda mablag‘lar zarurligiga to‘la ravishda bog‘liqdir.

Iqtisodiyotni ishlab chiqarish sektorlari faoliyati uchun eng qulay shart-sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq xarajatlar davlat xarajatlarining eng muhim moddalari qatoriga kiradi.

Nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil qilishda yetakchi rolni O‘zbekiston Respubikasi Moliya vazirligi bajaradi. Har yili mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi va o‘tgan yillar bilan solishtiriladi.

Mahalliy byudjetlar ijrosini taftish va tekshirishlardan o‘tkazish Moliya vazirining buyrug‘iga asosan amalga oshiriladi va vazirlikning barcha soha mutaxassislari jalb qilinadi.

Bundan tashqari, moliya organlarida hukumat topshiriqlari va Moliya vazirligi Hay’ati yig‘ilishi hamda vazirlik rahbariyati topshiriqlariga asosan ma’lum bir yo‘nalish, soha bo‘yicha mavzuli tekshirishlar ham o‘tkazilishi mumkin.

Yana shuni e’tirof etish lozimki, o‘tgan yilni muvaffaqiyatli yakunlash va joriy yilgi Davlat byudjeti parametrlari ijrosi jarayonida byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishini hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining kelgusi yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida har yili Moliya vazirligining 1-2-sonli buyruqlari chiqariladi va shu buyruqqa asosan moliya organlari ustidan nazorat ishlari amalga oshirilib boradi.

Davlat byudjeti parametrlari ijrosi jarayonida byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash maqsadida quyidagilar belgilanadi:

O‘tgan yil uchun Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni o‘z vaqtida va sifatli shakllantirilishini ta’minlash maqsadida, Davlat byudjeti bosh boshqarmasi va Hududlar moliyasi bosh boshqarmasi, Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari, hududiy moliya idoralari belgilangan muddatda byudjetlararo o‘zaro hisob-kitoblarni tartibga solinishini ta’minlashlari;

Byudjet tashkilotlarining joriy yil uchun xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro‘yxatga olish tugallangunga qadar, quyidagilar ma’lumot va ijro uchun qabul qilishlari:

-xarajatlarni moliyalashtirish (to‘lovlarini amalga oshirish);

“O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni

tasdiqlash haqida”gi (ro‘yxatga olish raqami № 2634, 15.12.2014) buyrug‘iga muvofiq amalga oshiriladi.

Respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlari quyidagilarga asosan amalga oshiriladi:

-Respublika byudjetidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlar bo‘yicha – joriy yil;

-I chorak uchun dastlabki (vaqtinchalik) xarajatlar yoyilmalari;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriluvchi tashkilotlar bo‘yicha – joriy yil I chorak uchun vaqtinchalik xarajatlar smetalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilgi Davlat byudjeti parametrlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Moliya vazirligining tarmoqlarni moliyalashtirish boshqarmalari boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar Moliya boshqarmalari boshliqlari, shuningdek, tuman (shahar) moliya bo‘limi mudirlari:

-xarajatlar yoyilmasini tuzish hamda byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga, shuningdek, amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga qat’iy rioya etilishini;

-birinchi navbatda I va II guruh xarajatlariga, IV guruh xarajatlari bo‘yicha esa tegishli byudjetlarning tasdiqlangan xarajatlar parametrlari doirasida kommunal xizmatlar, ko‘mir sotib olish va yetkazish, yoqilg‘i va YaMM, dori-darmon va oziq-ovqat mahsulotlariga zarur mablag‘lar rejalashtirilishini;

-o‘tgan yilda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlarni, byudjet mablag‘lari oluvchilar sonining o‘zgarishini har tomonlama tahlili asosida, shuningdek, xarajatlarning mavsumiyligini hisobga olgan holda byudjet mablag‘lari oluvchilariga byudjet mablag‘larini taqsimlanishini.

Bunda, xarajatlar smetasini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida vujudga kelgan bo‘shab qoladigan mablag‘larni kelgusi yil byudjet xarajatlari yoyilmasining tegishli bo‘limi, 999-kichik bo‘limi “Alohida tashkilotlarga maqsadli xarajatlar uchun ajratiladigan mablag‘lar”, 92-bobi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi”, 48, 21, 180 moddasida ko‘zda tutish lozim;

-byudjet daromadlari va xarajatlari yoyilmasini belgilangan muddatda va tartibda tayyorlanishini;

-byudjet tashkilotlarining joriy yilgi shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangandan boshlab 40 kundan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tkazilgan xarajatlar smetalarida qayd etilgan ma’lumotlarni “G‘aznachilik-4” dasturiy majmuasiga o‘z vaqtida kiritish choralari ko‘rilishini;

-joriy yil uchun byudjet xarajatlari yoyilmasiga indeksatsiya mablag‘larini belgilangan ilovadagi koeffisiyentlarga muvofiq kiritish hamda ularni belgilangan tartibda faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan ishlatilishini ta’minlashlari lozim.

Yuqoridagi rasmda Davlat byudjeti xarajatlari dinamikasi aks ettirilgan. Davlat byudjeti xarajatlarining salmog‘i o‘sib bo‘lmoqda.

Asosiysi, byudjet sohasi xodimlari ish haqlari, pensiya va nafaqalarini inflyatsiya ko‘rsatkichidan yuqori oshirish bilan birga tarbiyachilar, o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, professor-o‘qituvchilar, madaniyat xodimlarining ish haqlari 30 foizdan 100 foizgacha oshirildi[38].

2018-yilda davlat byudjeti xarajatlarining asosiy parametrlarida davlat byudjet xarajatlari (maqsadli jamg‘armalarsiz) jami 79736.1 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. Uning tarkibidagi eng yuqori ko‘rsatkich ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari hisoblanadi. Ikkinchi o‘rinda esa 19538,2 mlrd so‘m bilan boshqa xarajatlar hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlardan shuni ko‘rishimiz

[38] www.mf.uz- Moliya vazirligining rasmiy sayti ma’lumotlari.

mumkinki, davlatimiz byudjeti ijtimoiy yo‘naltirilgan byudjet hisoblanadi.

5.5-jadval

2016-2018-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining asosiy ko‘rsatkichlari (mlrd.so‘m)[39]

№	Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018
Maqsadli fondlarsiz byudjet xarajatlari jami:		40 911,3	27 223,3	79736.1
1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	24 101,6	27 009,3	39026.9
2	Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari xarajatlari	335,5	498,6	3632.0
3	Iqtisodiyot xarajatlari	4 319,5	5 280,7	7637.8
4	Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	2 089,1	3 234,8	5400.4
5	Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari	1 822,6	1 932,9	3275.4
6	Boshqa xarajatlar	8 567,5	11 151,0	19538.2

Qayd etilishicha, 2019-yilda Davlat byudjetining xarajatlari 107,1 trln so‘mni tashkil etadi. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan 1,4 baravar ko‘p bo‘lib, bunda Davlat byudjetining xarajatlari asosan ijtimoiy sohalarga yo‘naltiriladi.

Jumladan, ijtimoiy soha xarajatlari 57,8 trln so‘mni yoki umumiy xarajatlarga nisbatan 54,0 foizni tashkil etadi. Bunda ushbu xarajatlarning o‘sishi avvalgi yilga nisbatan 34,4 foiz ko‘payadi.

[39] Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda talaba tomonidan tayyorlandi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarini moliyalashtirishga 4,0 trln so‘m, umumiy ta’limga 17,1 trln so‘m yo‘naltiriladi, kadrlar tayyorlashga ajratiladigan mablag‘lar 3,8 trln so‘mni tashkil etadi.

Sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishga esa, 12,1 trln so‘m yo‘naltiriladi yoki avvalgi yilga nisbatan 30,5 foiz o‘sish bilan umumiy xarajatlarga nisbatan 11,3 foizni tashkil etadi.

Madaniyatni moliyalashtirish uchun 1,0 trln so‘m, ilm-fanga 0,8 trln so‘m yo‘naltiriladi. Ijtimoiy nafaqalar, kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam to‘lash va kompensatsiya to‘lovlari uchun xarajatlar o‘tgan yildagiga nisbatan 61,8 foiz oshgan holda 5 267,2 mlrd so‘mni tashkil etadi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlarini amalga oshirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 6,3 trln so‘m yo‘naltiriladi, bu esa, 478 ta aholi punktida turmush sharoitlari yaxshilanishini ta’minlaydi.

Davlat dasturlarini amalga oshirish doirasida 2019-yilda 372 ta obyektda ichimlik suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish hamda modernizatsiyalash, 1 916,1 km. uzunlikdagi suv o‘tkazish tarmog‘ini qurish va rekonstruksiya qilish nazarda tutilmoqda.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari so‘nggi yillarda biri-biriga mos ravishda deyarli bir xil bo‘lgan va shunga ko‘ra, byudjet tasdiqlangan. 2018-yilda bu ko‘rsatkich boshqa yillardan biroz farq qilgan. Ya’ni davlat byudjeti xarajatlari oshib ketgan.

5.6-jadval

2019-yil uchun davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi[40]

№	Ko‘rsatkichlar	summa, mlrd.so‘m	jamiga nisbatan, %
	Davlat byudjeti xarajatlari	**107118,4**	**100,0**
1	Ijtimoiy xarajatlar	58012,1	54,2

[40] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4086-sonli qarori asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1.1.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	50334,1	47,0
1.2.	Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga subsidiyalar	4700,0	4,4
1.3.	Uy-joy qurilishini hamkorlikda moliyalashtirish uchun ishtirokchi banklarga kredit liniyalari	2978,1	2,8
2	Iqtisodiyotga xarajatlar	14099,8	13,2
3	Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	3960,2	3,7
4.	Davlat hokimiyati, boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash	3749,4	3,5
5	Sud organlarini saqlash	319,9	0,3
6.	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash	758,0	0,7
7.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlarning viloyat byudjetlarining, Toshkent shahrining shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar Byudjetlarining zaxira jamg‘armalari	908,6	0,8
8.	Nodavlat va notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash	28,6	0,0

9.	Ish haqini oshirish va kommunal xizmatlar tariflarining oshishi bilan bog‘liq xarajatlar	3384,0	3,2
10.	Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish va qoplash bilan bog‘liq xarajatlar	2522,5	2,4
11	Boshqa xarajatlar	19375,3	18,1

Ijtimoiy nafaqalar, kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam va kompensatsiyalar to‘lash uchun sarflanadigan xarajatlar 5,2 trln so‘mni tashkil etadi, bu esa 2018-yilga nisbatan 61,8 % ga ko‘proqdir.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari doirasida moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 478 ta aholi punktida yashash sharoitlarini yaxshilashga 6,3 trln so‘m yo‘naltiriladi. 2019-yilda Davlat Byudjeti taqchilligi YaIMga nisbatan 1,1 % miqdorida bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

Davlat byudjeti taqchilligi – 4490,8 mlrd so‘m, Davlat maqsadli jamg‘armalar byudjetlari xarajatlari – 27508,1 mlrd so‘m, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi xarajatlari – 6 317,1 mlrd so‘m rejalashtirilgan.

2019-yilda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarning jami xarajatlardagi qismi 54,5 foizni tashkil qilishi, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va stipendiyalar miqdorini har yarim yilda o‘tgan yilgi inflyatsiya darajasidan past bo‘lmagan miqdorlarda oshirish ko‘zda tutilgan. 2019-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy nafaqalar miqdorlari absolyut summada belgilanadi.

Obod qishloq va obod mahallaga 417 ta qishloq va 104 ta mahallalarda bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirishga 1,5 trln so‘m. Imtiyozli kreditlar “Yoshlar kelajagimiz” 0,5 trln so‘m bandlik jamg‘armasi 0,15 trln so‘m “Mikrokredit bank” va “Xalq bank” 0,35 trln so‘m sarflangan. Arzon uy-joylar qurilishni kredit liniyalari orqali moliyalashtirishga 3,8 trln

so‘m, markazlashgan investitsiyalarga qariyb 1,0 trln so‘m mablag‘ sarflandi.

5.7-jadval

2019-yilga mo‘ljallangan davlat dasturlari bo‘yicha xarajatlar (mlrd.so‘m)[41]

719.7	Shahar, tuman, posyolkalarni obodonlashtirish (liftlarni almashtirish, tashqi yoritish tizimlari, issiqlik ta’minoti, ichki yo‘llarni ta’mirlash)	“Toza hudud” dasturi bo‘yicha chiqindi yig‘ish punktlarini qurish va maxsus texnikalar bilan ta’minlashga	163.4
3000	Uy-joy qurish bo‘yicha Dasturlarni birgalikda moliyalashtirishda ishtirok etadigan banklarga kredit liniyalariga	Boshqa xarajatlarga	500000

2019-yilga mo‘ljallangan davlat dasturlari bo‘yicha xarajatlari shahar, tuman, posyolkalarni obodonlashtirish (liftlarni almashtirish, tashqi yoritish tizimlari, issiqlik ta’minoti, ichki yo‘llarni ta’mirlash) 719,7 mlrd so‘m, “Toza hudud” dasturi bo‘yicha chiqindi yig‘ish punktlarini qurish va maxsus texnikalar bilan ta’minlashga 163,4 mlrd so‘m, uy-joy qurish bo‘yicha Dasturlarni birgalikda moliyalashtirishda ishtirok etadigan banklarga kredit liniyalariga 3000 mlrd so‘m, boshqa xarajatlarga esa 500000 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Toza ichimlik suvi bilan ta’minlashga 0,5 trln so‘m, maktabgacha ta’lim muassasalarini qurilish ishlariga 0,7 trln so‘m, xotin-qizlar va oila jamg‘armalarini moliyalashtirishga 0,3 trln so‘m.

[41] www.mf.uz- Moliya vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

5.8-jadval

Davlat byudjetining qo‘shimcha xarajatlari yo‘nalishlari[42]

Obod qishloq va obod mahalla	**Imtiyozli kreditlar**	**Arzon uy-joylar qurilishi**	**Markazlashgan investitsiya**
417 ta qishloq va 104 ta mahallalarda boshlangan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirishga	“Yoshlar kelajagimiz” 0,5 trln so‘m Bandlik jamg‘armasi 0,15 trln so‘m “Mikrokredit bank” va “Xalq bank” 0,35 trln so‘m	Arzon uy-joylar qurilishni kredit liniyalari orqali moliyalashtirishga	Markazlashgan investitsiyalarga qariyb
1,5 trln so‘m	1,0 trln so‘m	3,8 trln so‘m	1,0 trln so‘m
Toza	Qurilish ishlari	Jamg‘armalarga	Ish haqlarini oshirish
Toza ichimlik suvi bilan ta’minlashga	Maktabgacha ta’lim muassasalarini qurilish ishlariga	Xotin-qizlar va oila jamg‘armalarini moliyalashtirish	Barcha byudjet tashkilotlarida ishlaydigan xodimlarning ish haqlari inflyatsiya darajasidan kam bo‘lmagan miqdorlarda ikki bosqichda amalga oshirildi.
0.5 trln so‘m	0.7 trln so‘m	0.3 trln so‘m	2 trln so‘m

Barcha byudjet tashkilotlarida ishlaydigan xodimlarning ish haqlari inflyatsiya darajasidan kam bo‘lmagan miqdorlarda ikki bosqichda amalga oshirildi va unga 2 trln so‘m mablag‘lar sarflandi. Respublika

[42] www.mf.uz- Moliya vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

hukumati tomonidan iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishlari va bozor mexanizmlarini ishga tushirish choralari ko‘rildi, natijada qator moliyaviy institutlarning samarali faoliyati ta’minlandi[43]. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasida soliqqa tortish tizimini tubdan isloh etish, shu jumladan, soliqlar va majburiy to‘lovlarni qisqartirish, samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish ko‘zda tutilgan. Qulay raqobatli muhit yaratish, soliq qonunchiligi barqarorligi va soddalashtirilishini ta’minlash, soliq yuklamasini kamaytirish, respublikamizning investitsion jozibadorligini oshirish hamda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish konsepsiyaning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Quyidagi keltirilgan rasmda 2019-yilda bashorat qilinayotgan byudjet xarajat va daromadlari aks etgan



5.7-rasm. **2019-yil soliq-byudjet siyosatini natijalari tarkibi (mlrd so‘mda)[44]**

Mamlakatimizning bosh moliyaviy hujjati iqtisodiyotning barcha darajalarida barqarorlikni ta’minlash, davlatning o‘z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi va yurtimizning taraqqiyot yo‘lida sobitqadam bo‘lishini ta’minlaydi.

5.9-jadval

[43] “Davlat byudjeti” uslubiy majmua. Nurmuhammedova B, Xamdamov Sh.T.:TMI 2018.
[44] Ushbu rasm talaba tomonidan mustaqil tayyorlandi

2016-2018-yillarda Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab- quvvatlash xarajatlarining salmog‘i[45]

№	Ko‘rsatkichlar	2016-yil	2017-yil		2018-yil	
		mlrd so‘m	mlrd so‘m	o‘zgarish % da	mlrd so‘m	o‘zgarish, % da
I	Davlat maqsadli jamg‘armalarsiz xarajatlar-jami	40911,30	49344,90	120,61	62170,00	125,99
1.	Ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun xarajatlar - jami	22766,00	26708,70	117,32	34664,00	129,79
	shu jumladan:					
1.1	Maorif	13831,70	15977,70	115,52	19504,30	122,07
1.2	Sog‘liqni saqlash	5811,60	7030,30	120,97	9562,00	136,01
1.3	Madaniyat va sport	460,60	750,20	162,87	1165,40	155,35
1.4	Fan	238,20	275,60	115,70	389,30	141,26
1.5	Ijtimoiy ta’minot	161,10	-	-	-	-
1.6	Oilalarga ijtimoiy nafaqalar shu jumladan bolali oilalar	2043,20	2239,60	109,61	3150,80	140,69
1.7	Ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlar	-	435,30	100,00	714,00	100,00
1.8	Qishloq joylarda yakka tartibdagi turar-joy qurish Dasturini moliyalashtirish uchun kredit liniyalari	1335,50	214,00	120,61	370,00	172,90

[45] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Byudjet sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan ushbu sohadagi muassasalar, jumladan, ta’lim muassasalari uchun byudjetdan tashqari qo‘shimcha daromadlar olish hisobiga moliyalashtirish manbalarini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Xususan, ushbu xarajatlar 2016-yilda 40911,0 milliard so‘m, 2017-yilda esa 49344,0 milliard so‘mga teng bo‘ldi. 2018-yil uchun ushbu xarajatlar 62170,0 milliard so‘m hajmiga teng bo‘lgan.

5.6. Mahalliy byudjetlar mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Iqtisodiyotni rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli yangilanishlar hamda islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ijtimoiy va iqtisodiy sohani isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan dasturlar ijrosini ta’minlash bilan bir qatorda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishdir. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi kundagi bosib o‘tayotgan taraqqiyot yo‘li iqtisodiyotni barqaror va izchil sur’atlarda yuksaltirish maqsadida davlat moliyasi tizimida zamonaviy yondashuvni, tizimning tarmoq va segmentlarini izchillik bilan takomillashtirishni talab qiladi. Davlat moliyasi tizimidagi taraqqiyotning asosiy mazmuni davlat byudjeti mutanosibligiga erishishga, byudjetning moliyaviy resurslarini to‘liq shakllantirishga va ulardan oqilona hamda samarali foydalanishga, byudjet jarayonidagi har bir bosqichni fuqarolar va soliq to‘lovchilar uchun ochiq va shaffof bo‘lishiga erishishga qaratilgan.

Davlat mablag‘lari mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotini ta’minlashning hamda turli davrlarda iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning asosiy va eng muhim manbai hisoblanadi, bundan tashqari davlat moliyaviy resurslari hukumat tomonidan mo‘ljallangan ijtimoiy dasturlar va tadbirlarni moliyaviy ta’minlashning asosiy manbai hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar davlat moliyasi tizimining muhim segmenti hisoblanadi hamda “davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib,

unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi”[46].

Mahalliy byudjetlar davlat byudjetida muhim tarkibiy qismini tashkil etadi va mahalliy hokimiyatlarning faoliyat yuritishlarida moliyaviy asos bo‘lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar faoliyati mahalliy talab-ehtiyojlarni to‘laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarining bajarilishi bilan uzviy bog‘liq holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy byudjetlar mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda asosiy manba va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining iqtisodiy asosi bo‘lganligi tufayli byudjetga qo‘shimcha mablag‘lar jalb etish manbalarini izlab topish va mavjud mablag‘larni samarali sarflanishini ta’minlash orqali byudjet siyosati samaradorligini ta’minlaydigan asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Hududiy davlat boshqaruv organlari moliyaviy tizimining asosiy tarkibiy qismi – bu mahalliy byudjet hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar mamlakat moliya tizimining asosiy sohasi bo‘lishi bilan bir qatorda mahalliy organlarning o‘z oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarini amalga oshirishda moliyaviy resurslar bilan ham ta’minlab turadi. Hududiy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi mahalliy byudjetlar hisoblanar ekan ularga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishi ularning moliyaviy mablag‘larga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Mahalliy byudjetlar orqali hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlab boriladi. Shunday ekan mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish respublika va uning hududlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy byudjet davlat byudjeti iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi va iqtisodiy manoda hududiy boshqaruv organlarining o‘z vazifa va funksiyalarini bajarishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan davlatning markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondidir. Huquqiy jihatdan esa, mahalliy byudjet bu

[46] Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik /Toshkent Moliya instituti. — Toshkent: “Noshir”, 2011. 712 bet. 670-bet.

mahalliy boshqaruv organlarini vazifa va funksiyalarini moliyaviy ta’minlash uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etish va sarflashning qonun bilan belgilangan shaklidir. Byudjet huquqiy akt shakliga ega bo‘lib, vakolatli hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadi va shu sababdan u qonuniy kuchga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq mahalliy byudjet - Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.



5.10-rasm. **O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tuzilmasi**[47]

O‘z navbatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetini hamda

[47] O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 34 va 35-moddalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

respublikaga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o‘z ichiga oladi. Viloyatlarning byudjeti viloyat byudjetini, viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o‘z ichiga oladi. Tumanlarga bo‘linadigan shaharning byudjeti shahar byudjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini o‘z ichiga oladi. Tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan tumanning byudjeti tuman byudjetini va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar byudjetlarini o‘z ichiga oladi.

Mahalliy byudjetning hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi eng muhim ahamiyati shundaki, hududlar iqtisodiyotining real sektorini moliyaviy qo‘llab quvvatlaydi, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan va iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari tizimidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish va ishlab chiqarishni jonlantirish, hududlar infrastrukturasini rivojlantirish, ish va xizmatlar ko‘rsatish kabi sohalarni rag‘batlantiruvchi vazifasini o‘taydi.

Mahalliy byudjetlarni mablag‘ bilan ta’minlash zarurati uning nimaga sarflanishi hamda qanday maqsadlarda sarflanayotganligiga e’tibor qaratilsa, yaqqol namoyon bo‘ladi, bundan tashqari mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini kengroq va ravshanroq tushunish uchun, uning qanday yo‘nalishlarni moliyalashtirishini ko‘rib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Amaldagi byudjet qonunchiligiga ko‘ra mahalliy byudjet orqali quyidagi sohalar mablag‘ bilan ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ishlatishning huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, Bojxona Kodeksi, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar, nizomlar hamda turli huquqiy hujjatlar tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet qurilishi, byudjet tizimining amal qilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining barcha darajalaridagi (markaziy, hududiy va mahalliy) byudjet borasidagi vakolatlari byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Byudjet qonunchiligi – byudjet munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solib turishga xizmat qiluvchi barcha qonuniy va me’yoriy-huquqiy hujjatlar yig‘indisi. Huquqiy me’yorlarning mazmunidan kelib chiqqan holda byudjet qonunchiligini bir necha darajaga ajratish mumkin:

− birinchi daraja – O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi - byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi;

− ikkinchi daraja – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet masalalaridagi qarorlari;

− uchinchi daraja – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyruqlari, farmoyishlari va byudjet sohalariga taalluqli bo‘lgan boshqa me’yoriy hujjatlari (nizomlar, yo‘riqnomalar, qoidalar);

− to‘rtinchi daraja – mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlari (masalan, tegishli viloyat, tuman (shahar) mahalliy byudjeti parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi Xalq deputatlari Kengashlarining va hokimlarining qarorlari).

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, 9 ta bo‘lim, 28 ta bob, 192 moddadan iborat. Ushbu Kodeks:

- O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini;
- O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjetini tuzish prinsiplari va uning tuzilmasini;
- davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini;
- davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarini shakllantirish va ularning xarajatlarini amalga oshirish prinsiplarini;
- davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni;
- davlat byudjeti mablag‘lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartiblarini belgilab beradi.

Kodeksda byudjet tizimi va byudjet tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar tarkibi, davlat byudjetining daromad va xarajatlari tarkibi, respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi va ularning byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash tartiblari, byudjet jarayonini tashkil qilish tartiblari; byudjet taqchilligini qoplash manbalari, davlat maqsadli jamg‘armalari, ularni tashkil qilish va ular mablag‘laridan foydalanish tartibi kabilar belgilab berilgan.

Hududlardagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati organlari alohida o‘rin egallaydi. 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi №913- XII sonli qonuniga muvofiq “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari”[48] hisoblanadi. Xalq deputatlari Kengashi va hokimlari viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta’minlaydi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirishga ko‘maklashish asosida boshqarish organlarining faoliyatini yo‘naltirib turadilar.

Mahalliy byudjetlarni shakllantirish hamda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda mahalliy byudjetlardan foydalanish jarayonlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi. O‘zbekiston

[48] O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi (02.09.93.) 913-XII sonli qonuni, 1-modda.

Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga “mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish”[49] vakolati berilgan. Shu bilan mahalliy hokimiyat organlarining byudjet sohasidagi faoliyatining konstitutsiyaviy asosi o‘rnatilgan. Joylardagi mahalliy vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati organlarining bu sohadagi vazifalari, vakolatlari turlicha bo‘lib, ular avvalo “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning chuqurlashuvi mahalliy hokimiyat organlarining ularga tegishli hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yanada oshirib, moliya-byudjet sohasidagi huquqlarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustahkamlashni talab qiladi. Mahalliy byudjetlarning salmog‘i oshishi ustun ravishda xarajatlarning oshib borishi bilan bog‘liq, ya’ni markaziy hokimiyat hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani saqlash, ishchi kuchini qayta tayyorlash bilan bog‘liq vakolatlarni joylarga berib bormoqda. Mahalliy byudjetlardan davlat takror ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir etishda keng foydalanmoqda, mahalliy boshqaruv organlari hududiy darajada davlatning maqsadga muvofiq vazifalarini tobora ko‘proq bajarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 7-moddasiga muvofiq “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma’muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutlaq O‘zbekiston Respublikasi mulkida bo‘lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimi o‘zlari idora qilayotgan hududdagi mulkchilikning turli shakliga

[49]O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘R QHT, 2014-y., 16-son, 176-modda.

asoslangan korxonalar uchun O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilmagan, tadbirkorlik va xo‘jalik faoliyatini erkin yuritishga to‘sqinlik qiladigan cheklovlarni joriy etishga haqli emaslar”.

Yuqoridagi qonunning 8-moddasiga muvofiq esa “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o‘ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq o‘zi sotib olgan obyektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to‘liq amalga oshiradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, mahalliy byudjetlarning mablag‘lari va byudjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo‘lgan muhandislik infratuzilmasi obyektlari va boshqa obyektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag‘lari hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek, ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog‘ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo‘lishi mumkin”[50].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan bo‘lib, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida yuzaga keladigan dolzarb muammolarni hal qilishda ijobiy rol o‘ynadi. Shu bilan birga ushbu qonun qabul qilingan davrdan beri markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining ham normativ-huquqiy, ham tashkiliy-amaliy jihatlari tubdan o‘zgartirildi va qayta tashkil etildi. Shu sababli, ushbu qonunga bir qator o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish va uni takomillashtirish zarurati yuzaga keldi. Yangi qonun loyihasining asosiy maqsadi mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga mos ravishda muvofiqlashtirishdan iborat. Umuman olganda qonun loyihasida quyidagi yo‘nalishlarda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi ko‘zda tutilgan:

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifalari va vakolatlari;

[50] “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasi (O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi O‘RQ-439-sonli qonuni tahririda - O‘R QHT, 2017-y., 35-son, 914-modda)

– Toshkent shahri va viloyat hokimlarining aholi tomonidan saylanishi tizimi;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;

– hokimlarning aholi oldida hisobdorligi va hokimlarning faoliyatini baholash;

– xalq deputatlari tomonidan hokim, prokuror, sud raislari, ichki ishlar organlari rahbarlarining hisobotlarining eshitilishi;

– mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining iqtisodiy asoslari, jumladan, hududning rivojlanish strategiyasi, mahalliy byudjet, fiskal nomarkazlashtirish mexanizmlarini joriy etish;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining boshqa davlat organlari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Vazirlar Mahkamasi, davlat boshqaruvi organlari, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari) bilan o‘zaro munosabatlari.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 4-bob, 27-moddasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining, 28-moddasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining, 30-moddasi bilan esa hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari belgilab qo‘yilgan.

Kodeksning tegishli moddasiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari[51]:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko‘rib chiqadi va qabul qiladi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishincha

[51]O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 27-modda. O‘RQHT, 2014-y., 36-son, 452-modda

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Byudjet Kodeksining tegishli bob va moddalarida hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari (30-modda), mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi va ularning byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash tartiblari belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyunda “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5075-son farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan aholining real daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirish maqsadida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirilishini ta’minlash, markaz byudjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy byudjetlar mablag‘larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat byudjet siyosatining asosiy vazifalari etib belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son va “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-son farmonlarini ijro etish yuzasidan, shuningdek, mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish va yangi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi “Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 29-iyunda 445-son qarori qabul qilindi.

Qaror asosida moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarni ko‘paytirishga va soliq solinadigan bazani kengaytirishga yo‘naltirilgan ishlarini

takomillashtirish borasidagi faoliyatini tartibga solish va o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi Vaqtinchalik nizom qabul qilindi. Vaqtinchalik nizom doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari davlat soliq xizmati, moliya organlari va boshqa tegishli mahalliy organlar hamda tijorat banklari bilan birgalikda har bir tuman (shahar)ning o‘ziga xos xususiyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda qo‘shimcha manbalarni izlash va shu asosda mahalliy byudjet daromadlari bazasini kengaytirish yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari parametrlarini so‘zsiz bajarish bo‘yicha faoliyat muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi ko‘zda tutildi. Bu borada qabul qilingan keyingi me’yoriy-huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda PF-5283-sonli “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni mahalliy byudjetlar darajasida soliq-byudjet siyosatining ustuvor vazifalarini belgilab berdi.

5.7. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishning hozirgi holati tahlili

Iqtisodiy mazmun-mohiyati jihatidan davlat byudjeti daromadlari – davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o‘rtasidagi davlat markazlashgan pul fondining shakllanishi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlari hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning daromadlari esa mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari oldidagi muhim strategik ahamiyatga molik bo‘lgan vazifalarning amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish bilan bog‘liq pulli munosabatlar shaklidir[52].

Mahalliy byudjetlarning daromadlari tizimini ikki guruhga ajratish mumkin, ya’ni mahalliy byudjetlarning biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlari tizimiga.

[52] **Ракитина И., Берёзина Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебник и практикум М: Юрайт - М, 2017. – 69- с.**

Biriktirilgan daromadlar – bu byudjet huquqi subyektiga tegishli mablag‘dir, ya’ni yuqori byudjetni chetlab o‘tib, doimiy asosda, qat’iy belgilangan ulushda yoki to‘liqligicha tegishli byudjetga kelib tushuvchi mablag‘lardir. Biriktirilgan daromadlar asosini mahalliy soliqlar va yig‘imlar, qat’iy ulushda va doimiy asosda mahalliy byudjetlarga berilgan umumdavlat soliqlaridan o‘tkazmalar tashkil etadi. Davlat mahalliy hukumat organlariga ular qaramog‘idagi biriktirilgan daromadlarning ortiqcha mavjudligini moliyaviy resurs sifatida, ularga biriktirilgan vazifalarni bajarish uchun taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari tarkibi quyida keltirilgan 3-rasmda yoritilgan.



5.11-rasm. **Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari tarkibi**[53]

[53] O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 52-modda. O‘RQHT, 2014-y., 36-son, 452-modda

Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo‘naltiriladigan davlat bojlari, yig‘imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tgan mol-mulkni, huquq bo‘yicha davlat daromadiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromadlari hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo uchun aksiz solig‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o‘tkazib beriladi.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tasdiqlangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahri shahar byudjeti hamda tumanlar va shaharlar byudjetlari o‘rtasida qayta taqsimlanishi mumkin[54]. Mahalliy soliqlar mahalliy byudjetlar tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliqlar mahalliy byudjetga biriktirilgan xarajatlarini moliyalashda yetarli moliyaviy manba bo‘la olmaydi. Byudjet parametrlarini belgilash vaqtida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar belgilanadi. Bu jarayon har yili byudjet

[54] Mamajonov I. va boshqalar O‘rta muddatli byudjet. Namangan shahar byudjeti misolida: uslubiy qo‘llanma - Toshkent: Baqtria press. 2017 y. 38- b.

parametrlarini tasdiqlash paytida ishlab chiqiladi va Prezident qaroriga muvofiq belgilanadi va tasdiqlanadi[55]. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar ulushi har yili mahalliy byudjetlarning o‘z daromadlarining tushumi hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning miqdoriga qarab o‘zgartirilib boriladi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Agar kelgusi yili mahalliy byudjetlarning o‘z daromad manbalari (soliqlari) ko‘payib qolsa, umumdavlat soliqlaridan ajratma berishning hojati qolmaydi. Mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalarga qarab belgilanib, ularga doimiy va to‘liq biriktirib berilgan. Mahalliy hukumatlar asosan ijtimoiy masalalarni, ya’ni maktab, sog‘liqni saqlash, madaniyat, maorif, shaharlar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Qariyb aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining 100 foizga yaqini mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladi. Qayd etish joizki, mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy byudjetlarni talab etiladigan moliyaviy resurslarini asosan 30-40 foizga yaqinini qoplaydi.

Keyingi vaqtlarda mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlar salmog‘ini 50-60 foizga yetkazish kabi hukumat qarorlari mavjudki, bu ayni jamiyat va davlat qurilishini erkinlashtirish kabi vazifaga monanddir[56]. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda tartibga soluvchi daromadlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan hozirgi paytda amaldagi tartibga muvofiq ravishda mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta’minlashda quyidagilardan tartibga soluvchi daromadlar sifatida foydalanilayotganligini qayd etib o‘tishimiz mumkin: qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, mikrofirma va kichik korxonalarni qo‘shib hisoblaganda yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq, yerosti

[55] Po‘latov D.X, Nurmuxamedova B.I. G‘aznachilik. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2014. – 63- b.
[56] Srojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – T.: “infoCOM.UZ”, 2010. – 59- b..

boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar. Tartibga soluvchi daromadlar – bu yuqori byudjetlardan quyi byudjetga, ularning daromad va xarajatlarini boshqarib turish (balanslashtirish) maqsadida beriladigan pul mablag‘lari majmuasidir. O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ga muvofiq, tartibga soluvchi daromadlar – byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar. Soliq bo‘lmagan to‘lovlarga byudjet tizimi byudjetlariga kelib tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘lmagan to‘lovlar kiradi[57].

Quyida biz tahlil obyektimiz bo‘lgan Toshkent shahri mahalliy byudjetining daromadlarining tarkibi va uning ko‘rsatkichlarini ko‘rishimiz mumkin (5.10-jadval).

5.10-jadval

Toshkent shahri mahalliy byudjetining daromadlari tarkibi va ularning asosiy ko‘rsatkichlari[58]

T/r	Ko‘rsatkichlar	2018-yil		2019-yil (prognoz)	
		Miqdori (ming so‘m)	Jamiga nisbatan (%)	Miqdori (ming so‘m)	Jamiga nisbatan (%)
Daromadlar jami		2378949305	100,0	3236227699	100,0
1	Yagona soliq to‘lovidan ajratmalar	1107522830	46,6	524268887,2	16,2
2	Aksiz solig‘i	-	0,0	699347434	21,6
3	Bozorlar daromadidan tushum	85102312	3,6	129449108	4,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	72780880	3,1	362523513	11,2
5	Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i	331212400	13,9	187111200	5,8
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	131200000	5,5	287938600	8,9
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	18640835	0,8	30864700	1,0
8	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz	201304000	8,5	-	0,0

[57] O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi” 3-modda. O‘RQHT, 2014-y., 36-son, 452-modda
[58] Toshkent shahri Moliya Bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida

	iste’mol qilganlik uchun soliq				
9	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq	259440000	10,9	153773100	4,8
10	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	93569255	3,9	108787245	3,4
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	54 330 000	2,3	65528168	2,0
12	Davlat boji	-	0,0	468859632	14,5
13	Jarimalar	-	0,0	175290460	5,4
14	O‘zR IIV Yo‘l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan undiriladigan yig‘imlar	-	0,0	13451256	0,4
15	Mahalliy yig‘imlar	23 846 793	1,0	32 362 277	1,0

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, Toshkent shahri mahalliy byudjetining daromadlari tarkibi o‘tgan yilga nisbatan o‘zgargan. Agar 2018-yilda Toshkent shahar mahalliy byudjetining daromadlari tarkibida asosiy daromad ulushi yagona soliqdan ajratmalar tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yil prognozlari bo‘yicha aksiz solig‘i yuqori ulushni tashkil etganini ko‘rishimiz mumin. 2019-yil prognozlariga qaraganda Toshkent shahri mahalliy byudjeti daromadlari tarkibida asosiy ulushni yana davlat bojidan tushumlar (14,5 %), yagona soliq to‘lovidan ajratmalar (16,2 %)ga to‘g‘ri kelmoqda.

Amaliyotda mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlar hisobidan to‘liq ta’minlashning iloji bo‘lmayapti. Bunga erishish uchun respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga katta miqdordagi subvensiyalar ajratilmoqda.

Albatta biriktirilgan daromadlar ko‘rsatkichining yuqori darajada bo‘lishi mahalliy byudjetning moliyaviy imkoniyatlarining oshishiga va ular daromadlari barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Tartibga soluvchi daromadlar ham o‘z navbatida ma’lum bir me’yorda mahalliy

byudjetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi balanslikni ta’minlashga yordam berib, ular ham mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini oshishiga yordam beradi.

5.8. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini amalga oshirishning hozirgi holati tahlili

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 71-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

– umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, maktabdan tashqari ta’lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta’lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

– bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta’lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko‘p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug‘ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo‘yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek, qonun hujjatlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to‘lash xarajatlari;

– qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

– hududiy madaniyat va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– shahar yo‘lovchilar transporti tashuvchilarining yo‘lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo‘yicha tashish, shuningdek, alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini qoplash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

– qishloq xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat organlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to‘lash, shuningdek, yerlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish;

– uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlarida ta’mirlash ishlarini olib borish;

– suv yo‘llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;

– aholi punktlarini obodonlashtirish;

– shaharlarning, boshqa aholi punktlarining ko‘chalarini va xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini ta’mirlash, shuningdek, ayrim tashkilotlar xarajatlari;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o‘rmon xo‘jaligini saqlab turish xarajatlari;

3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo‘lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.

4) Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesini;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo‘limlarini saqlab turish xarajatlari.

5) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalarini shakllantirish xarajatlari.

6) Davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash xarajatlari;

7) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga byudjet ssudalari, dotatsiyalar, subvensiyalar va o‘tkazib beriladigan daromadlar ajratilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 72-moddasiga muvofiq, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

– tumanlar (shaharlar) xalq ta’limi muassasalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta’minlash va tashkil etish bo‘limlarini, shuningdek, ular tasarrufidagi maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida

tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta’lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

– tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalarini hamda davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tuman, shahar muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

– qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

– tumanlar (shaharlar) madaniyat va sport ishlari bo‘limlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek, madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan kam ta’minlangan oilalarga tayinlanadigan hamda to‘lanadigan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam, uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o‘tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

– veterinariya laboratoriyalari va hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish stansiyalarini saqlab turish;

– shaharlarning va boshqa aholi punktlarining ko‘chalarini, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini ta’mirlash;

– uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlarida ta’mirlash ishlarini olib borish;

– aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo‘limlarini saqlab turish xarajatlari;

4) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

5) boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Byudjet resurslarini taqsimlashda jahon amaliyotida quyidagi mezonlar hamda ko‘rsatkichlar asos qilib olinadi[59]:

- aholi jon boshiga ko‘ra byudjet resurslarining taqsimlanishi;
- iqtisodiy potensialdan foydalanish darajasiga qarab byudjet resurslarining taqsimlanishi.

Ma’lumki, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning tutgan o‘rni kattadir. Mahalliy byudjetlarning 70-80 % xarajatlari aynan ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishga qaratilgandir. Mahalliy byudjetlardan moliyalashtirishning umumiy prinsiplari va boshqarish usullari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

– minimum xarajatlarda maksimum samarani olish;

– byudjet assignatsiyalaridan foydalanishning maqsadli xarakterdaligi;

– ko‘zda tutilgan rejalarning bajarilishi va oldin berilgan assignatsiyalarning foydalanilganligini inobatga olgan holda byudjet mablag‘larini taqdim etish.

Umumiy prinsiplar bilan birgalikda byudjetdan moliyalashtirish amaliyotida xususiy prinsiplardan ham foydalaniladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

– faqat ishlab chiqarishni kengaytirish xarajatlariga byudjet assignatsiyalarini ajratish;

– byudjet assignatsiyalarining o‘lchamini aniqlashda “qoldiq” yondashuvidan foydalanish;

– byudjetdan moliyalashtirishni rejalashtirilayotgan xarajatlarni kredit metodi orqali ta’minlash bilan birgalikda foydalanish;

– korxonalarning moliyaviy holatini byudjetli tartibga solish prinsipi va boshqalar.

Amaliyotda byudjetdan moliyalashtirishning turli shakllaridan foydalaniladi. Smetali moliyalashtirish, dotatsiya, subvensiya, subsidiya, byudjet ssudalari, baholardagi farqni qoplash va boshqalar byudjetdan moliyalashtirishning shakllaridir.

[59] Левина В.В. Бюджетная система Российской Федерации. Феникс, 2017 г. 68 с.

Mamlakatimizda islohotlarning dastlabki davridan boshlab ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Taraqqiyotning o‘zbek modeli:

– biz tanlagan strategik yo‘lning eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham uning kuchli ijtimoiy siyosat yuritish masalasini yetakchi o‘ringa qo‘ygani bilan bevosita bog‘liqdir. Ma’lumki, o‘zbek modelining o‘zagi – ratsional mag‘zini tashkil etadigan mashhur besh tamoyildan biri ham aynan kuchli ijtimoiy siyosat olib borishni nazarda tutadi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining asosiy qismini ijtimoiy sohalar va aholini qo‘llab quvvatlash bilan bog‘liq xarajatlar egallaydi.

5.11-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, ya’ni Toshkent shahri mahalliy byudjeti xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun sarf etilmoqda. Shu qatorda hudud iqtisodiy rivojlanishi uchun mahalliy byudjetning 12-16 % xarajati sarf etilmoqda. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, oxirgi yillarda Toshkent shahrida maorif xarajatlari va sog‘liqni saqlash sohasiga qilinayotgan xarajatlar o‘sish sur’atiga ega. 2018-yilda maorif xarajatlari jami mahalliy byudjet xarajatlarining 38,9 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib 44,6 %ga o‘sgan va ushbu xarajat agar 2018-yilda jami mahalliy byudjet xarajatlarining 16,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib 21,4 % ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

5.11-jadval

Toshkent shahri mahalliy byudjetining xarajatlari tarkibi va ularning asosiy ko‘rstkichlari[60]

T/r	Ko‘rsatkichlar	2018-yil		2019-yil (prognoz)	
		Miqdori (ming so‘m)	Jamiga nisbatan (%)	Miqdori (ming so‘m)	Jamiga nisbatan (%)
Xarajatlar jami		2378949305	100,0	3236227699	100,0
1.	Maorif xarajatlari	924 242 682	38,9	1441753648	44,6
2.	Sog‘liqni saqlash xarajatlari	598 949 621	25,2	843930750	26,1
3.	Kadrlar tayyorlash xarajatlari	204 104	0,0		0,0

[60] Toshkent shahri Moliya Bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida

4.	Madaniyat xarajatlari	21 265 478	0,9	55151055	1,7
5.	Jismoniy tarbiya xarajatlari	30 936 447	1,3	39473059	1,2
6.	Fan xarajatlari	1 459 120	0,1	2829650	0,1
7.	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar	3 632 190	0,2	3602389	0,1
8.	Chernobil falokatini bartaraf etishda qatnashganlarni ijtimoiy himoyalash	5 049	0,0	5907	0,0
9.	Davlat mukofotlarini to‘lash bo‘yicha xarajatlar	2 522 096	0,1	3441543	0,1
10.	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	1 483 652	0,1	1746882	0,1
11.	Iqtisodiyotga xarajatlar	389 931 290	16,4	411523447	12,7
12.	Markazlashtirilgan kapital qo‘yilma (kapital qurilish)	219 765 100	9,2	70720500	2,2
13.	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	30 359 314	1,3	74005659	2,3
14.	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash	32 091 421	1,3	44815447	1,4
15.	Zaxira jamg‘armasi	23 554 000	1,0	32041858	1,0
16.	Boshqa xarajatlar	2 736 480	0,1	101068797	3,1
17.	Isitish qozonxonalari va isitish tizimlarini kapital ta’mirlash	9 143 838	0,4	10698290	0,3
18.	Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	2 952 000	0,1	5284700	0,2
19.	Shahar passajir transportida ba’zi kategoriyadagi kishilarning bepul yurishlarini byudjetdan qoplash	5 525 839	0,2	7676127	0,2
20.	Cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan shahar yo‘lovchi tashish	20 000 000	0,8	23400000	0,7

	transporti tashuvchilari ko‘radigan zararlarni qoplash				
21.	Shahar passajir transportida bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo‘yicha hisobga olinadigan yo‘lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	43 902 441	1,8	44143580	1,4
22.	Toshkent metropolitenida bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo‘yicha hisobga olinadigan yo‘lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	6 020 775	0,3	9708683	0,3
23.	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining kreditini qaytarish	8 266 368	0,3	9205728	0,3

Mamlakatning barqaror rivojlanishi, uning iqtisodiy salohiyati, chet el investitsiyalari va innovatsiya texnologiyalarini jalb qila olish qobiliyati ko‘p jihatdan hududlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalalari “Hududlarni kompleks rivojlantirishni ta’minlashda mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarorida[61] hamda “O‘zbekiston Respublikasini yanada

[61] “Hududlarni kompleks rivojlantirishni ta’minlashda mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-fevraldagi 2495-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 8-son, 75-modda.

rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi dasturda[62] o‘z ifodasini topgan. Ta’kidlash joizki, hududlarni kompleks rivojlantirishda mahalliy byudjetlarning o‘rni yuqori bo‘lib, ko‘plab hududiy loyihalarning amalga oshirilishi, aholiga o‘z vaqtida sifatli ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasi mahalliy byudjetlarning mustaqilligi va daromadlarning barqarorligiga bog‘liq hisoblanadi. Biroq, so‘ngi yillarga kelib davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarda mahalliy byudjetlarning ishtiroki kamayib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Mahalliy byudjetlar daromadlarining o‘z xarajatlarini moliyalashtirishga yetmasligi, hududlar ixtiyorida kam daromad bazaga ega soliq turlarining biriktirilganligini mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy sabab sifatida keltirish mumkin. Mahalliy byudjetlar mustaqilligini cheklovchi yana bir omil bu – mahalliy byudjetlar orqali asosan ijtimoiy xarajatlarning amalga oshirilishidir.

Mahalliy byudjetlarning qoplanmagan xarajatlarini moliyalashtirish respublika byudjeti tomonidan umumdavlat soliqlaridan ajratmalar ajratish va ularning me’yoriy miqdorini belgilash orqali amalga oshiriladi. Me’yorlar mahalliy byudjetlar daromadlari to‘liqligini ta’minlamagan hollarda, respublika byudjeti tomonidan dotatsiya, subvensiya ko‘rinishidagi boshqa moliyaviy transfertlar o‘tkazish amaliyotidan foydalaniladi. Bu o‘z navbatida hududlarning kompleks rivojlanishidagi o‘zaro farqni kamaytiradi, lekin mahalliy byudjetlar xarajatlarini respublika byudjeti tomonidan moliyalashtirilishi quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

– bu ko‘rinishdagi moliyaviy o‘tkazmalar mahalliy byudjetlarning mustaqilligini cheklash bilan birga yuqori byudjetga bo‘lgan qaramlikni oshiradi;

– o‘z xarajatlarini mustaqil qoplay olmaydigan hududlar taqchilligini boshqa hududlar byudjet daromadlari hisobidan qoplanishi,

[62] “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

donor viloyatlardagi soliq daromadlarini yanada oshirishga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Shu sababli, mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish va optimal byudjetlararo munosabatlar tizimini yaratish maqsadida mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish jaryoniga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu borada o‘tkazilgan amaliyotlar bo‘yicha jahon tajribasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak quyidagi xususiyatlar alohida ahamiyatga molik.

1. Davlat byudjeti daromadlari shakllanishidagi asosiy ahamiyat kasb etuvchi umumdavlat soliqlardan foydalanish mexanizmini tartibga solish. Umumdavlat soliqlaridan tushumlarni respublika va mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlash mexanizmi turli davlatlarda turlicha ko‘rinishda bo‘lib, aksariyat davlatlar amaliyotida (Xitoy, AQSh, Germaniya) asosan soliqlar mahalliy byudjet tomonidan yig‘iladi, ayrim holatlarda mahalliy byudjetlar soliq stavkalarini o‘zgartirish huquqi beriladi.

2. Soliqqa tortish bazasini oshirish maqsadida mahalliy byudjet xarajatlari tarkibida iqtisodiyotga xarajatlar miqdorini oshirish. Mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlash uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar yagona me’yorlarini o‘rnatish, hudud doirasida ayrim sohalarga soliq imtiyozlar qo‘llash va ularni ta’qiqlash singari ishlar amalga oshiriladi.

3. Mahalliy byudjetlar qaramligini kamaytirish va xarajatlarni qisqa muddat ichida samarali moliyalashtirish maqsadida AQSh va Yevropa davlatlarida qarz majburiyatlari ko‘rinishida qimmatli qog‘ozlar chiqarish imkoniyatidan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi masalalari muhim ahamiyat kasb etib bormoqda

5.9. Mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirishda byudjetlararo munosabatlardan foydalanish amaliyoti

Byudjetlararo munosabatlar byudjet jarayonida, davlat byudjetini shakllantirish va ijro etishda turli darajadagi byudjetlar, shuningdek, davlat byudjeti bilan davlat maqsadli jamg‘armalari o‘rtasidagi byudjet mablag‘larining harakati bilan bog‘liq munosabatlar majmuidir. Byudjetlararo munosabatlarning mazmunini yoritishda rus iqtisodchi olimlari A.M.Babich va L.N.Pavlovaning “Государственные и муниципальные фынансы” nomli darsligida: “Byudjetlararo munosabatlar davlat hokimiyati organlari, markaziy hokimiyat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari o‘rtasida byudjetlarni tuzish va ijro etish hamda byudjet jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq huquq va majburiyatlar, vakolatlarning biriktirilishi va chegaralanishiga oid munosabatlar majmuyidir”[63] mazmunida ta’rif keltirilgan. Ammo byudjetlararo munosabatlarga berilgan ushbu ta’rif mazkur masalaning huquqiy asoslarini, byudjet jarayoni ishtirokchilarining turli darajadagi byudjetlarni shakllantirishdagi huquqiy munosabatlarnigina aks ettiradi. Byudjetning ijro etilishi davomida mablag‘larning bir byudjet bo‘g‘inidan boshqasiga yoki bir darajadagi byudjetlar o‘rtasidagi haqiqatdagi harakati haqida fikr bildirilmagan.

Z.Srojiddinovaning “Byudjetlararo munosabatlar” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida esa: “Byudjetlararo munosabatlar, deganda byudjet jarayoni davomida davlat va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida yuzaga keluvchi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmuyi tushuniladi. Byudjetlararo munosabatlar davlat boshqaruvi tizimida vertikal yoki gorizontal bo‘yicha paydo bo‘ladi va amal qiladi hamda hokimiyat har bir darajasining faoliyat maqsadlaridan kelib chiqib, ularning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda tartibga solinadi”[64], degan fikrlar o‘rin olgan.

[63] Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебник для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 703 с.
[64] Srojiddinova Z.X. Byudjetlararo munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. T.: infoCOM.UZ. – 2010. b.5.

Maxsus adabiyotlar va ilmiy ishlarda, shuningdek, byudjetlararo munosabatlarga quyidagicha ta’riflar berilgan: “Byudjetlararo munosabatlar davlat byudjet mexanizmining muhim va ajralmas elementi bo‘lib, markazdan turib mamlakatning ma’muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o‘rtasida barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta’minlaydigan va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o‘zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat byudjetida jamlangan pul mablag‘larining ushbu subyektlar o‘rtasida qayta taqsimlanishini o‘z ichiga oluvchi munosabatlar yig‘indisidir”[65] (bu haqida mazkur o‘quv qo‘llanmaning 3-bobida ham qisqacha to‘xtalgan edik).

Umuman olganda, byudjetlararo munosabatlarning iqtisodiy voqelik sifatidagi tabiatini tahlil qilish asosida quyidagilarni ta’kidlash zarur:

– birinchidan, byudjetlararo munosabatlar – keng qamrovli byudjet siyosatini markaziy va hududiy darajada amalga oshirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida ham “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish” chora-tadbirlari ichida “Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta’minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish”[66] vazifalari belgilangan;

– ikkinchidan, byudjetlararo munosabatlar byudjet siyosatining boshqa yo‘nalishlariga nisbatan birlamchi ahamiyat kasb etadi, chunki mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta’minlash, ularning daromad bazalarini mustahkamlash, hududlarning iqtisodiy va byudjet potensialini oshirish masalalari byudjet siyosatining asosiy masalalari

[65] B. Nurmuhamedova “Davlat byudjeti”. O‘quv qo‘llanma. T. 2018 y. 87-b.

[66] 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 3.1-band.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilova. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

sifatida qaraladi, ularning ijobiy yechimi byudjetlararo munosabatlarning to‘g‘ri tashkil etilishiga ko‘p jihatdan bog‘liq;

– uchinchidan, byudjetlararo munosabatlar – nafaqat turli darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o‘rtasidagi munosabat, balki markaziy davlat hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini hududlar darajasida bajarish, jamiyat taraqqiyoti uchun normal sharoitlarni yaratish maqsadlariga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan barcha byudjet mablag‘larining maqsadga muvofiq taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonidagi munosabatlardir;

– to‘rtinchidan, hududlar mablag‘larning markaziy hokimiyat (respublika byudjeti) ixtiyoriga tushib turishini ta’minlar ekan, bu bilan hududiy boshqaruv organlari markaziy hokimiyatdan davlat boshqaruvi bo‘yicha aniq majburiyatlarning bajarilishini talab qilib olish huquqiga ham ega bo‘ladilar, bu holat markaziy hokimiyatning hududlar manfaatlari yo‘lida yagona va samarali boshqaruvning olib borilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga mablag‘ ajratish mexanizmlari bilan markaziy hukumat mahalliy hokimiyatlar zimmasidagi byudjet majburiyatlarining bajarilishiga erishadi, ularda boqimandalik kayfiyatlarini oldini olish uchun dastak yaratadi hamda ularni hududlarning iqtisodiy-moliyaviy jihatdan barqarorligini ta’minlashga undaydi;

– beshinchidan, byudjetlararo munosabatlar – teng ahamiyatli tarzda yuqoridan quyiga va quyidan yuqoriga harakatlanuvchi byudjet mablag‘lari, moliyaviy oqimlardir. Ushbu munosabatlar turli darajadagi byudjetlar, ayniqsa, byudjet tizimining quyi pog‘onasi bo‘lgan tuman byudjetlarining daromadlilik darajasini tartibga solish uchun xizmat qiladi, ushbu moliyaviy oqimlar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiruvchi ta’sirchan omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 132-moddasida: “Byudjetlararo munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tumanlar, shaharlar byudjetlari, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari o‘rtasidagi tegishli byudjetlarga biriktirilgan

xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga doir munosabatlardir”, deb belgilab qo‘yilgan.



5.12 -rasm. **Byudjetlararo munosabatlarda moliyaviy oqimlarning harakati**[67]

Byudjet kodeksida belgilab qo‘yilganidek, byudjet jarayonida:

– O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan;

– davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining bir-biri bilan, shuningdek, boshqa ma’muriy-hududiy birlikning tumanlari va shaharlari byudjetlari bilan;

– tumanlar va shaharlar byudjetlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

[67] B.Nurmuhamedova “Davlat byudjeti” T. “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2018 y.-92 b.

Turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan byudjetlararo munosabatlar byudjetlararo transfertlar tizimi orqali amalga oshiriladi.



1. *Umumdavlat daromadlari va soliqlari bir qismining to‘liq respublika byudjetiga tushishi.*
2. *Umumdavlat soliqlari bir qismining o‘rnatilgan ajratma me’yorlari asosida respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishi.*
3. *Mahalliy soliqlarning tegishli mahalliy byudjetlarga biriktirilishi asosidagi harakati.*
4. *Mahalliy yig‘imlarning tegishli mahalliy byudjetlarga biriktirilishi asosidagi harakati.*
5. *Mahalliy byudjetlarga respublika byudjetidan byudjet dotatsiyalari va subvensiyalarining harakati.*
6. *Mahalliy byudjetlarga respublika byudjetidan byudjet ssudalari va o‘tkazib beriladigan daromadlarning harakati.*
7. *Mahalliy byudjetlarga respublika byudjetidan maqsadli ijtimoiy transfertlarning harakati.*
8. *O‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘larning harakati.*

5.13-rasm. **Davlat byudjeti mablag‘larining byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlanishi**[68]

Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlilik darajasini tartibga solishda tartibga soluvchi daromadlar muhim o‘rin egallaydi (shu sababli ular “tartibga soluvchi daromadlar” deb ataladi). Byudjet kodeksining 3-moddasida: “Tartibga soluvchi daromadlar – byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar”, deb ta’rif berilgan. Tartibga soluvchi daromadlardan tushgan tushumlar byudjet qonunchiligi bilan belgilangan tartibda byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi (5-rasmda ularning harakati uzuq chiziqlar bilan ko‘rsatilgan). Ulardan mahalliy byudjetlarga ajratmalarning normativlari O‘zbekiston

[68] B.Nurmuhamedova “Davlat byudjeti” T. “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2018 y.-94 b.

Respublikasi Prezidenti yoki u vakolat bergan organ tomonidan har moliya yili uchun belgilanadi va Prezidentning (yoki u vakolat bergan organning) maxsus qarori bilan tasdiqlanadi. O‘z navbatida, tartibga soluvchi daromadlardan mahalliy byudjetlarga tushgan mablag‘larning Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti bilan respublika tasarrufidagi tumanlar va shaharlar byudjetlari, viloyat byudjetlari bilan uning tuman va shaharlari byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti bilan uning tumanlari byudjetlari o‘rtasida taqsimlanishi tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadigan ajratma me’yorlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Tartibga soluvchi daromadlarni byudjet tizimining byudjetlari o‘rtasida taqsimlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan (byudjet daromadlarining g‘azna ijrosi yo‘li bilan) amalga oshiriladi. Muayyan moliya yili uchun Byudjet kodeksida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha ajratma normativlari belgilanmagan bo‘lsa, o‘sha daromadlar to‘liq hajmda respublika byudjetiga kirim qilinadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tegishli moliya organlarining taklifiga ko‘ra mahalliy soliqlarning to‘liq hajmda kiritiladigan byudjet darajasini (masalan, viloyatning viloyat byudjeti yoki viloyatning tuman/shahar byudjeti) belgilaydi. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishda mahalliy byudjetlar uchun o‘rnatilgan cheklovlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, mahalliy byudjetlar byudjet qonunchiligiga ko‘ra balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo‘lishlari hamda mahalliy byudjetlarning haqiqatdagi taqchilligiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim. Shu sababli, mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlarini balanslashtirish va ularning taqchil bo‘lmasligini ta’minlash maqsadida byudjet amaliyotida byudjetlararo munosabatlar mexanizmlariga murojaat qilinadi.

Byudjetlararo transfertlar — O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan, shuningdek,

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan mablag‘lar. Byudjetlararo transfertlar subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi, o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘lar va maqsadli ijtimoiy transfertlar shaklida amalga oshiriladi.

Subvensiyalar asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilangan xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi. Foydalanilmagan subvensiyalar joriy moliya yili oxirida tegishli yuqori turuvchi byudjetga qaytarilishi kerak[69].

Tegishli ma’muriy-hududiy birliklar hududida shakllantiriladigan va yuqori turuvchi byudjetga o‘tkaziladigan daromadlar ular qaysi ma’muriy-hududiy birlikda shakllantirilgan bo‘lsa, o‘sha ma’muriy-hududiy birlik byudjetiga o‘tkazib berilishi mumkin. O‘tkazib beriladigan daromadlarning umumiy hajmi:

– O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga — asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari

[69] O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi” 135-modda. O‘RQHT, 2014-y., 36-son, 452-modda

tomonidan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga tushumlari o‘tkazib beriladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hamda ular tomonidan to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning turlari ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda tasdiqlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan tumanlar va shaharlar byudjetlariga tushumlari o‘tkazib beriladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hamda ular tomonidan to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning turlari ro‘yxati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga o‘tkazib beriladigan daromadlarning summasi tegishli quyi turuvchi byudjetga tushishi lozim bo‘lgan daromadlar hisobga olingan holda belgilanadi. O‘tkazib beriladigan daromadlarni o‘tkazish ular bo‘yicha haqiqatda tushgan tushumlar doirasida, biroq ularning tasdiqlangan hajmidan ortiq bo‘lmagan miqdorda amalga oshiriladi (5.12-jadval)[70].

Yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga dotatsiya quyi turuvchi byudjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi subvensiyalar va o‘tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur byudjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlariga dotatsiya jamg‘armalar xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi yil boshidagi qoldiq hisobga olingan holda jamg‘armalar daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratilishi mumkin. Dotatsiyaning miqdori:

– O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga ajratilganda — asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

[70] O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi” 136-modda. O‘RQHT, 2014-y., 36-son, 452-modda

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratilganda — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

Quyida keltirilgan 5.13-jadvalda umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlardan ajratmalarning 2019-yil uchun Toshkent shahri mahalliy byudjetlari me’yorlari keltirilgan.

Byudjetlararo o‘zaro hisob-kitoblar moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o‘zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro pul munosabatlaridir. Byudjetlararo o‘zaro hisob-kitoblar:

– qonun hujjatlari qabul qilinganligi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlarining prognozi aniqlashtirilganligi;

– byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning bo‘ysunuvi o‘zgarganda xarajatlar bir byudjetdan boshqa byudjetga o‘tkazilganligi;

– kapital qo‘yilmalar limitlari byudjetlar darajalari o‘rtasida qayta taqsimlanganligi munosabati bilan yuzaga keladi.

Byudjetlararo o‘zaro hisob-kitoblarga kiritilishi lozim bo‘lgan summa yuqori turuvchi moliya organi tomonidan aniqlanadi.

5.12-jadval

2019-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlardagi ajratmalar me’yorlari[71]

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslar foydasiga soliq	Jismoniy shaxslar daromadidan soliq	Qo‘shilgan qiymat solig‘i
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	100	100	100
2	Andijon viloyati	100	100	60
3	Buxoro viloyati	100	100	20
4	Djizax viloyati	100	100	61
5	Qashqadaryo viloyati	100	100	50
6	Navoiy viloyati	100	100	26
7	Namangan viloyati	100	100	100
8	Samarqand viloyati	100	100	36
9	Surxandaryo viloyati	100	100	63
10	Sirdaryo viloyati	100	100	29
11	Toshkent viloyati	-	77	20
12	Farg‘ona viloyati	100	100	100
13	Xorazm viloyati	100	100	31
14	Toshkent shahri	-	10	-

[71] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.12.2018 y., 07/18/4086/2354-son.

5.13-jadval

2019-yil uchun Toshkent shahri bo‘yicha soliqlardan shahar va tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yorlari[72]

Tumanlar nomi	Yagona soliq to‘lovi-dan ajratma	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuv-chi yuridik va jismoniy shahslardan olinadigan qat’iy belgilangan soliq	Aksiz soli-g‘i	Yuridik saxslar mol-mulkiga solinadi gan soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadi gan soliq	Yuri-dik shaxs lar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalan-ganlik uchun soliq	Jari-ma-lar	Bozorlar daroma-didan tushum	Mahal-liy yig‘im lar
Shayxontohur	15	100	100	-	100	-	100	100	100	100	100
Uchtepa	53	100	100	-	100	-	100	100	100	100	100
Chilonzor	75	100	-	-	100	-	100	100	100	100	100
Mirobod	50	100	100	-	100	-	100	100	100	100	100
Mirzo Ulug‘bek	91	100	100	-	100	100	100	100	100	100	100
Yakkasaroy	9	100	-	-	100	-	100	100	100	100	100
Olmazor	97	100	-	-	100	100	100	100	100	100	100
Yashnobod	63	100	-	100	100	100	100	100	100	100	100
Sirg‘ali	94	100	-	-	100	-	100	100	100	100	100
Bektemir	14	100	-	-	100	-	100	100	100	100	100
Yunusobod	91	100	100	-	100	-	100	100	100	100	100

[72] Toshkent shahar hokimining 2018-yil 27-dekabrdagi 1865-sonli “Toshkent shahrining 2019-yilgi mahalliy byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarori. 3-ilova.

Maqsadli ijtimoiy transfertlar yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga ta’lim va tibbiyot muassasalarining ish haqi va yagona ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarini qoplash uchun ajratiladi.

5.14-jadval

2019-yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan ajratiladigan ijtimoiy transfertlar hajmi[73]

№	Hududlar nomi	Tegishli byudjetlarga qoldiriladigan daromadlar	Tegishli byudjetlarga biriktirilgan xarajatlar	Maqsadli ijtimoiy transfertlar[74]
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2683,5	2683,5	-
2	Andijon viloyati	1912,7	3292,0	1379,3
3	Buxoro viloyati	2266,6	2266,6	-
4	Jizzax viloyati	1106,2	1836,8	730,6
5	Qashqadaryo viloyati	3493,7	3493,7	-
6	Navoiy viloyati	1495,8	1495,8	-
7	Namangan viloyati	1784,7	3096,9	1312,2
8	Samarqand viloyati	2270,9	4031,8	1760,9
9	Surxondaryo viloyati	1657,2	2872,0	1214,8
10	Sirdaryo viloyati	736,3	1217,4	481,1
11	Toshkent viloyati	3169,0	3169,0	-
12	Fargona viloyati	4038,0	4038,0	-
13	Xorazm viloyati	1232,2	2116,4	884,2
14	Toshkent shahri	3236,2	3236,2	-
	Jami hududlar bo‘yicha	31083,0	38846,1	7763,1

[73] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.12.2018 y., 07/18/4086/2354-son.

[74] Respublika byudjetidan maqsadli ijtimoiy transfertlar tuman va shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan halq ta’limi, maktabgacha ta’lim va tibbiyot muassasalarining ish haqi va yagona ijtimiy to‘lovi xarajatlarini qoplash uchun beriladi

Maqsadli ijtimoiy transfertlarning miqdorlari:

– O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga – asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga — Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tasdiqlanayotganda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi. Foydalanilmagan maqsadli ijtimoiy transfertlar joriy moliya yili oxirida tegishli yuqori turuvchi byudjetga qaytarilishi kerak.

Yuqoridagi 5-jadvaldan ko‘rish mumkinki, ya’ni Respublika byudjetidan 2019-yilda Andijon viloyati, Jizzah viloyati, Namangan viloyati, Samarqand viloyati, Surxondaryo viloyati, Sirdaryo viloyati, Xorazm viloyatlari uchun tuman va shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va tibbiyot muassasalarining ish haqi va yagona ijtimiy to‘lovi xarajatlarini qoplash uchun mablag‘lar ajratilishi ko‘zda tutilgan.

5.15-jadval

Toshkent shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2019-yil daromadlari va xarajatlari, shahar mahalliy byudjetidan tuman mahalliy byudjetlariga ajratiladigan maqsadli ijtimoiy transfertlari miqdori[75]

(ming.so‘m)

T/r	**Hududlar nomi**	**Daromadlar**	**Xarajatlar**	**Maqsadli ijtimoiy transfertlar**
1.	Shayxontohur	109958114	181135647	71177533
2.	Uchtepa	125088411	206364067	81275656
3.	Chilonzor	124027806	198574880	74547074
4.	Mirobod	77609426	124476707	46867281
5.	Mirzo Ulug‘bek	141524838	214940808	73415970

[75] Toshkent shahar hokimining 2018-yil 27-dekabrdagi 1865-sonli “Toshkent shahrining 2019-yilgi mahalliy byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarori. 3-ilova.

6.	Yakkasaroy	67097378	95300870	28203492
7.	Olmazor	128311107	210186714	81875607
8.	Yashnobod	114283115	182957740	68674625
9.	Sirg‘ali	99101461	168555426	69453965
10.	Bektemir	33328023	48368941	15040918
11.	Yunusobod	153001397	249423625	96422228
12.	Toshkent shahri	2062896623	1355942274	-706954349
Mahalliy byudjet bo‘yicha jami		3236227699	3236227699	-

5.15-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, ya’ni 2019-yilda Toshkent shahri mahalliy byudjetidan tuman va shahar byudjetlari uchun 706954349000 so‘m mablag‘ maqsadli ijtimoiy tarnsfertlar uchun ajratilishi rejalashtirilgan. Maqsadli ijtimoiy transfertlarning eng ko‘p hajmi Olmazor tumaniga to‘g‘ri kelmoqda va u tuman byudjetlarini balanslashtirishga xizmat qilmoqda.

Byudjet ssudasi shaklidagi byudjetlararo transfert (byudjet ssudasi) byudjet manbalarining to‘liq safarbar qilinishi tegishli byudjetlarda nazarda tutilgan xarajatlar qoplanishini ta’minlamagan taqdirda, qaytarish sharti bilan va foizsiz beriladi. Byudjet ssudasi:

– prognoz qilingan daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar o‘rtasidagi rejali vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun — to‘qqiz oygacha bo‘lgan muddatga;

– daromadlar tushumlari va xarajatlarni amalga oshirish o‘rtasida kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun — olti oygacha bo‘lgan muddatga beriladi.

Rejali byudjet ssudasi daromadlarning prognoz qilingan tushumlari, nazarda tutilgan subvensiya, o‘tkazib beriladigan daromadlarning summasi maqsadli ijtimoiy transfertlar, aylanma kassa mablag‘laridan va yil boshidagi erkin qoldiqlardan vaqtinchalik mablag‘ jalb qilish, dotatsiya tasdiqlangan tegishli byudjetlarda nazarda tutilgan ayrim choraklardagi xarajatlar qoplanishini ta’minlamagan hollarda beriladi.

Byudjet ssudasi:

– O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan — Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga,

viloyatlarning viloyat byudjetlariga, Toshkent shahrining shahar byudjetiga, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti mablag‘lari hisobidan — tumanlar va shaharlar byudjetlariga ularning daromadlari hamda xarajatlari o‘rtasidagi rejali yoki kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun beriladi.

5.16-jadval

2019-yil 1-choragida Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratilgan maqsadli ssudalar [76]

(mln.so‘m)

№	Hudud nomi	Jami berilgan ssuda	Qaytarilgan ssuda	Qaytarilmagan ssuda
	Jami	682300	249000	433300
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	15000	15000	-
2	Andijon viloyati	8300	-	8300
3	Buxoro viloyati	70000	20000	50000
4	Jizzax viloyati	70000	20000	50000
5	Qashqadaryo viloyati	119000	119000	-
6	Navoiy viloyati	-	-	-
7	Namangan viloyati	-	-	-
8	Samarqand viloyati	25000	25000	-
9	Surxondaryo viloyati	55000	10000	45000
10	Sirdaryo viloyati	-	-	-
11	Toshkent viloyati	25000	-	25000
12	Fargona viloyati	85000	40000	45000
13	Xorazm viloyati	-	-	
14	Toshkent shahri	210000	-	210000

5.16-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, ya’ni Respublikamizda 2019-yil 1-choragi ijrosi bo‘yicha berilgan ma’lumotlarga asosan jami berilgan ssudalar 682300 mln so‘mni tashkil etmoqda, shundan qaytarilgan ssudalar 249000 mln so‘mni tashkil etmoqda, qaytarilmagan

[76] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida

byudjet ssudalari miqdori respublika bo‘yicha 433300 mln so‘mni tashkil etmoqda.

Byudjet ssudalarini berishning majburiy sharti ulardan belgilangan maqsadda foydalanish, shuningdek, joriy moliya yili mobaynida ularni o‘z vaqtida qoplashdan iboratdir. Byudjet ssudasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamg‘armasini taqsimlovchi organ rahbarining byudjet ssudasiga bo‘lgan ehtiyojni asoslovchi hisob-kitoblar ilova qilingan yozma so‘rovi asosida beriladi. Byudjet ssudasi berish to‘g‘risidagi yozma so‘rovni ko‘rib chiqishda moliya organi qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborot va hisob-kitoblarni so‘rab olish huquqiga ega.

Xulosa qilib aytganda, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishda asosiy e’tiborni hududlarning iqtisodiy holatini yaxshilash va shu asosda ular byudjet salohiyatini mustahkamlashga qaratish lozim. Shundagina byudjetlararo pul oqimlarini minimallashtirishga erishiladi.

Mahalliy hukumatlar asosan hududiy darajadagi ijtimoiy masalalarni – ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin ko‘p hollarda bu soliqlar va yig‘imlar ular byudjetlarining balansliligini ta’minlay olmaydi va natijada byudjetlararo transfertlardan foydalanish mexanizmlari ishga tushadi.

6-BOB. BYUDJETDAN TASHQARI MAQSADLI JAMG‘ARMALARNING DAROMADLARI VA XARAJATLARI HAMDA ULARNING XUSUSIYATLARI

6.1. Byudjetdan tashqari jamg‘armalar tushunchasi, mohiyati va tasnifi

Ixtiyoriy davlat mavjud bo‘lishi uchun, mamlakatning ayrim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini qo‘shimcha moliyaviy resurslar bilan ta’minlash uchun byudjetdan tashqari jamg‘armalar muhim ahamiyat kasb etib, ular markaziy yoki mahalliy hokimiyat organlari tasarrufida bo‘lgan, maqsadli yo‘nalishi, shakllantirish va foydalanish tartibi moliya huquqi bilan tartibga solinadigan moliyaviy resurslar majmuini o‘zida aks ettiradi.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar turli darajadagi davlat organlari tasarrufida bo‘lib, muayyan faoliyatni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan maxsus jamg‘armalarda to‘plangan. Shunday qilib, byudjetdan tashqari jamg‘armalar davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishning bir usuli sanaladi[77].

Tarixiy jihatdan, davlat o‘z faoliyatini kengaytirishi barobarida bu yanada yangi xarajatlarni talab qilardi. Ularni qoplash uchun mablag‘lar maxsus jamg‘armalarda markazlashgan va maxsus maqsadlar uchun mo‘ljallangan. Bunday mablag‘lar, odatda, vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lardi. Davlat tomonidan ko‘zlangan maqsadlarga erishilishi va ularni moliyalashtirish to‘xtatilishi bilan jamg‘armalar ham o‘z faoliyatini yakunlagan.

Maxsus jamg‘armalar soni muntazam o‘zgarib turgan: ayrimlari paydo bo‘lsa, boshqalari bekor qilingan. Umuman, jamg‘armalar soni va hajmining ortish tendensiyasi kuzatilgan. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarning ko‘pligi muayyan moliyaviy noqulayliklarni yuzaga keltirgan, chunki ayrim jamg‘armalarda mablag‘lar yetishmasligi, boshqasida esa ortiqchaligi kuzatilgan va bu ularni boshqarishda

[77] Финансы, денежное обращение и кредит:. Учебник / Под ред. М.В. Романовского и О.В. Врублевской. 2-е изд. М.: ЮРАЙТ, 2010. -С.180.

qo‘shimcha xarajatlarni talab qilgan. Markazlashgan davlat mustahkamlanishi bilan jamg‘armalarni birxillashtirish davri boshlanadi.

Ushbu jamg‘armalarni sarflash qat’iy belgilangan maqsad bo‘yicha amalga oshiriladi, aynan esa: davlat va ijtimoiy sug‘urta, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun qo‘shimcha moliyalashtirish xarajatlari, fiskal va huquq-tartibot organlarining ijtimoiy ta’minoti, hududlarning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish.

Zamonaviy shart-sharoitlarda byudjet bilan bir qatorda byudjetdan tashqari jamg‘armalarning ahamiyati ham ortib bormoqda. Ushbu jamg‘armalarning soni va hajmining ortishi bir qator sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, davlat hokimiyati organlarida, ayniqsa, beqaror iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik hayotiga va tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga aralashish uchun qo‘shimcha vositalar yuzaga keladi. Ikkinchidan, bu jamg‘armalar byudjetdan ajratilgan holda, davlat tomonidan alohida e’tibor talab qilinadigan yangi muhim masalalarni hal etish uchun mo‘ljallangan. Mablag‘laridan qat’iy maqsadli foydalanish asosida byudjetdan tashqari jamg‘armalarning paydo bo‘lishi davlat nazorati yanada samarali kechishini ta’minlaydi. Uchinchidan, byudjetdan tashqari jamg‘armalar muayyan sharoitlarda, ya’ni, aktiv saldo mavjudligida byudjet defitsitini qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar bir qancha asosiy yo‘llar bilan tashkil qilinadi. Birinchi yo‘l – bu byudjetdan o‘ta muhim ahamiyatga ega muayyan xarajatlarni ajratish bo‘lsa, ikkinchisi – o‘z daromad manbalariga ega byudjetdan tashqari jamg‘armani shakllantirishdir[78]. Masalan, ko‘plab mamlakatlarda aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etilgan. Boshqa jamg‘armalar jamiyat tomonidan alohida e’tibor talab qilinuvchi yangi ilgari ma’lum bo‘lmagan xarajatlar kelib chiqishi bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘ladi. Bu holatda hukumatning taklifi bilan qonun chiqaruvchi organ mazkur byudjetdan tashqari jamg‘armani shakllantirish bo‘yicha maxsus qaror qabul qiladi. Bir qator davlatlarda iqtisodiy byudjetdan tashqari jamg‘armalar shu tariqa yuzaga kelgan. Maxsus byudjetdan tashqari jamg‘armalar maqsadli foydalanish uchun

[78] Финансы: Учеб. пособие / Под ред. АМ. Ковалевой. 6-е изд. М.: Финансы и статистика, 2010. -С.62

mo‘ljallangan. Odatda, jamg‘arma nomidan mablag‘larni sarflash maqsadiga ishora qilinadi.

Moliya tizimining boshqa bo‘g‘inlari kabi byudjetdan tashqari jamg‘armalarning moddiy manbai ham milliy daromad hisoblanadi. Jamg‘armaning asosiy qismi uni qayta taqsimlash jarayonida vujudga keltiriladi.

Jamg‘armalarni shakllantirishdagi qayta taqsimot jarayonida milliy daromadni safarbar etishning asosiy metodlari quyidagilardir:

– maxsus soliqlar va yig‘imlar;

– byudjet mablag‘lari;

– zayomlar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari.

Birinchi holatda maxsus soliq va yig‘imlar qonunchilik hokimiyati tomonidan o‘rnatiladi va bu maxsus jamg‘armalarni shakllantirishning asosiy metodi hisoblanadi, ushbu metod asosan umumdavlat byudjetdan tashqari jamg‘armalarini shakllantirish uchun qo‘llaniladi.

Davlat byudjetdan tashqari jamg‘armalarining salmoqli qismi markaziy va mahalliy byudjetlar mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi. Byudjet mablag‘lari beg‘araz subsidiyalar yoki soliq tushumlaridan muayyan ajratmalar shaklida kelib tushadi.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalarning daromadlari sifatida qarz mablag‘lari ham namoyon bo‘lishi mumkin. Byudjetdan tashqari jamg‘armalar ijobiy saldoga ega bo‘lgan hollarda, u qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va dividendlar yoki foizlar shaklida foyda olish uchun foydalanilishi mumkin.

Bundan tashqari, byudjetdan tashqari jamg‘armalarning daromad qismi homiylik mablag‘lari, ko‘ngilli xayriya, yuridik va jismoniy shaxslarning hadyalaridan tashkil topishi mumkin.

Jamg‘armalarning xilma-xilligi jamg‘armalar va moliya tizimining boshqa bo‘g‘inlari o‘rtasida yuzaga keladigan murakkab ko‘p bosqichli aloqalarni taqozo etadi. Shunga bog‘liq ravishda bir tomonlama, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama aloqalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Bir tomonlama aloqalarda pul mablag‘lari moliyaviy bo‘g‘inlardan byudjetdan tashqari jamg‘armalarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bunday aloqa byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirishda yoki ular

tomonidan mablag‘lardan foydalanishda yuzaga keladi. Masalan, ko‘plab mamlakatlarning valyuta jamg‘armalari markaziy byudjet mablag‘lari hisobiga qaytarilmaydigan subsidiyalar shaklida shakllanadi. Bir tomonlama aloqa jamg‘arma o‘z mablag‘larining bir qismini boshqa moliyaviy bo‘g‘inlarga o‘tkazib berganda ham kuzatiladi. Misol uchun, maxsus soliqlar hisobiga shakllantiriladigan AQSh yo‘l jamg‘armasi o‘z tasarrufida ortiqcha mablag‘ bo‘lgan vaqtlarda federal byudjetga zayom taqdim etadi.

Ikki tomonlama aloqalarda pul oqimi byudjetdan tashqari jamg‘armalar va moliyaviy tizimning boshqa qismlari o‘rtasida har ikki yo‘nalishda ham harakat qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari nafaqat sug‘urta mukofotlari, balki markaziy byudjet mablag‘lari hisobiga ham shakllantiriladi. Aktiv saldo mavjudligida ular bir vaqtning o‘zida qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi va byudjet kreditori bo‘ladi.

Ko‘p tomonlama aloqalarda bir vaqtning o‘zida byudjetdan tashqari jamg‘arma turli xil moliyaviy bo‘g‘inlar bilan bog‘lanadi, ya’ni, pullar ularning o‘rtasida turli yo‘nalishlarda harakat qiladi.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘larini qayta taqsimlash sohasi davlat byudjetinikiga nisbatan ancha tor bo‘ladi, chunki byudjetdan tashqari jamg‘armalarning moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash doirasi jamg‘armaning maqsadli yo‘nalishlari bilan cheklangan, tarmoqlararo jamg‘armalarda esa – tarmoqqa mansublik tushunchasi ham mavjud. Moliya tizimidagi ushbu bo‘g‘inning qayta taqsimlash funksiyasidagi bunday cheklov ayrim hollarda moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning byudjet shakliga qaraganda bir qator afzalliklarga ega. Moliyaviy mablag‘larning bir qismini byudjetdan tashqari jamg‘armaga ajratishda markazlashgan manbalar va ehtiyojlarning mutanosibligini o‘rganib chiqish osonroq, moliyaviy resurslarning ushbu qismini boshqarish masalalari ancha tezkor hal qilinadi, ushbu jamg‘armalar bo‘yicha defitsit muqarrarligi bartaraf etiladi, binobarin, iqtisodiy inqiroz sharoitida byudjetlarda bunga erishishning iloji yo‘q bo‘ladi.

Davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalanadigan jamg‘armalar hisoblanuvchi davlat maqsadli jamg‘armalari alohida o‘rin egallab,

ularning har biri uchun moliyalashtirish manbalari, har bir manbadan kelib tushadigan mablag‘lar me’yorlari va shartlari, shuningdek, ushbu mablag‘lardan foydalanish mumkin bo‘lgan maqsadlar qonunchilik bilan belgilangan bo‘ladi. Ulardan birida mablag‘lar yetishmasligi yuzaga kelgan taqdirda, uning xarajatlarini qoplash uchun konsolidatsiyalashgan davlat byudjeti tarkibiga kiruvchi boshqa jamg‘armalar mablag‘laridan foydalanish yoki davlat byudjetining o‘zida yoxud uning bir bo‘g‘inidan, masalan, Respublika byudjetidan yordam berishi mumkin. Ortiqcha mablag‘lar mavjud bo‘lgan sharoitda esa ushbu mablag‘lar keyingi moliya yilida foydalanish uchun davlat maqsadli jamg‘armasida qoldirilishi yoki boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar tomonidan foydalanish uchun yo‘naltirilishi mumkin.

Davlat moliya tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan davlat byudjetdan tashqari jamg‘armalari quyidagi kabi qator xususiyatlarga ega:

– hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan rejalashtirilgan va aniq maqsadli yo‘nalishlarga ega;

– jamg‘armalarning pul mablag‘lari byudjetga kiritilmagan davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi;

– asosan yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy ajratmalari hisobiga shakllantiriladi;

– jamg‘armalarga sug‘urta badallari va ularni to‘lash natijasida kelib chiqadigan o‘zaro munosabatlar soliq tabiatiga ega bo‘ladi, badallar tariflari davlat tomonidan belgilanadi va majburiy sanaladi;

– jamg‘armaning pul mablag‘lari davlat mulki hisoblanadi, ular byudjet tarkibiga, shuningdek, boshqa jamg‘armalarga kiritilmaydi va qonunchilikda to‘g‘ridan to‘g‘ri nazarda tutilmagan biron-bir maqsad uchun olib qo‘yilmaydi;

– jamg‘armalardan mablag‘larni sarflash Hukumat yoki maxsus vakolatli organ (Jamg‘arma boshqaruvi) buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, byudjetdan tashqari jamg‘armalar davlat tomonidan uning bir qator funksiyalari va vazifalari bajarilishini ta’minlaydigan instrumentlardan biri, degan xulosaga kelish mumkin.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalarning tasnifini ko‘rib chiqamiz:

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar huquqiy maqomi bo‘yicha davlat va mahalliy jamg‘armalarga ajratiladi.



6.1-rasm. **Foydalanish maqsadlariga bog‘liq ravishda byudjetdan tashqari jamg‘armalar tasnifi**[79]

Amal qilish muddatiga ko‘ra jamg‘armalar vaqtincha va doimiy turga bo‘linadi.

Shuningdek, byudjetga munosabati bo‘yicha ham byudjetdan tashqari jamg‘armalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

– byudjetga kiritiladigan byudjetdan tashqari jamg‘armalar;

– mustaqil byudjetdan tashqari jamg‘armalar;

– qisman mustaqillikka ega jamg‘armalar.

Iqtisodiy jamg‘armalar iqtisodiy hayotni tartibga solishga qaratilgan. Iqtisodiy jamg‘armalarga quyidagi jamg‘armalar kiradi:

– investitsiyaviy;

– kredit;

– zaxira;

– konyunkturaviy va boshqalar.

[79] Молия (./ А.М. Ковалева таҳрири остида. 6-нашр. М.: Финансы и статистика, 2010.- 65-бет.) ўқув қўлланмасидаги маълумотлар асосида бажарилган.

Bunday jamg‘armalarning mablag‘lari xususiy korxonalar va past rentabelli korxonalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladi. Yordam beg‘araz subsidiyalar va imtiyozli kreditlar shaklida taqdim etiladi.

Ijtimoiy jamg‘armalar – bu resurslari jamoatchilikka xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan jamg‘armalardir. Davlat ijtimoiy byudjetdan tashqari jamg‘armalari majburiy to‘lovlar va yuridik hamda jismoniy shaxslarning ajratmalari hisobidan shakllantiriladigan hamda pensiya ta’minoti, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy ta’minot, sog‘liqni saqlash va tibbiy yordam olish uchun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan moliyaviy resurslarning markazlashgan maqsadli jamg‘armalari sanaladi.

Shakllantirish manbalari, foydalanish maqsadlari va ko‘lami bog‘liq ravishda byudjetdan tashqari jamg‘armalar markazlashgan va markazlashmagan jamg‘armalarga bo‘linadi.

Shunday qilib, byudjetdan tashqari jamg‘armalar davlat tomonidan uning bir qator funksiyalari va vazifalari bajarilishini ta’minlaydigan instrumentlardan biri, degan xulosaga kelish mumkin.

6.2. Xorijiy mamlakatlar moliya tizimida byudjetdan tashqari jamg‘armalarning ahamiyati

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar byudjet paydo bo‘lishidan ancha avval yuzaga kelgan. Ularning paydo bo‘lishi davlat faoliyatining kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu yangi xarajatlarni, mos ravishda, ularni amalga oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘larni talab qilgan. Davlat jamg‘armalarining soni doimo o‘zgarib turgan. Ular, odatda, vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lib, maxsus jamg‘armalar yoki maxsus hisob shaklida bo‘lgan, shuningdek, ularni boshqarish uchun qo‘shimcha xarajatlar zarur edi.

Ilk byudjetdan tashqari jamg‘armalarga Xitoy, Hindiston, Misr, Qadimiy Yunoniston va Qadimiy Rim kabi qadimgi dunyo mamlakatlarida vujudga kelgan xayriya jamg‘armalarini kiritish mumkin. Islom dunyosida “vaqf” jamg‘armalari shakllanib, arab tilidan tarjima qilinganda u “fuqarolik muomalasidan chiqarilib, davlat tomonidan diniy yoki xayriya maqsadlari uchun berilgan mulk” degan

ma’noni anglatadi. Keyinchalik ushbu jamg‘armalar turli funksiyalarga ega bo‘ldi: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqalar.

Markazlashgan davlatning mustahkamlanishi ko‘plab maxsus jamg‘armalarni birxillashtirishga olib keldi, oxir-oqibat, ular davlat byudjetiga (XVII asr oxiri) birlashtirildi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish davlatlar tomonidan o‘z funksiyalari va vazifalarini to‘la hajmda amalga oshirish uchun qo‘llanishda davom etadi. Masalan, XIX asr oxirida Germaniya kansleri Otto fon Bismark dunyoda birinchi marta ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy qildi, u keyinchalik pensiya jamg‘armalarini tashkil etishga asos bo‘lgan avlodlar oldida birdam mas’ullik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, jahonning turli mamlakatlariga keng tarqaldi.

1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi davrida davlatlar o‘rtasida byudjetdan tashqari pul mablag‘larining qo‘shimcha jamg‘armalarini shakllantirishga ehtiyoj yuzaga keldi, bu davlatning iqtisodiy rivojlanish jarayonida ta’sirini kengaytirish zaruratidan kelib chiqadi. Ushbu davrda iqtisodiy yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat byudjetidan tashqari jamg‘armalari (ayrim ijtimoiy guruhlar manfaatlarini himoya qilish uchun) paydo bo‘ladi[80].

Hozirgi shart-sharoitlarda davlat byudjetdan tashqari jamg‘armalarining dolzarbligi, ayniqsa o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, shuningdek, iqtisodiy inqirozlar davrida saqlanib qolmoqda, chunki:

• ushbu jamg‘armalar byudjet bilan bir qatorda davlatga iqtisodiyotga aralashish imkonini beradi va tadbirkorlikka moliyaviy yordam ko‘rsatadi;

• byudjetdan tashqari jamg‘armalarning maqsadga yo‘naltirilganligi va mo‘ljallanganligi davlat tomonidan ularning mablag‘laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilishni yengillashtiradi;

[80] Сирожиддинова З.Х. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет тизими. Дарслик. - Т. “infoCom”, 2010. -б.343.

• muayyan sharoitlarda (aktiv saldoning mavjudligida) byudjet defitsitini qoplash uchun jamg‘armalar mablag‘laridan foydalanish mumkin.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar qat’iy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, avtonom boshqaruvga ega bo‘ladi. Ular byudjetdan mazkur davr uchun muhim ahamiyatga ega muayyan xarajatlar uchun mablag‘lar ajratish asosida, yoki jamg‘armalarga daromadlarning o‘z manbalarini biriktirish asosida tashkil etilishi mumkin.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar hajmiga ko‘ra mamlakatning davlat byudjetiga yaqinlashadi, masalan, Fransiya va Yaponiyada davlat xarajatlarining yarmidan ko‘pi, Buyuk Britaniyada esa uchdan bir qismi byudjetdan tashqari jamg‘armalardan moliyalashtiriladi. Maxsus jamg‘armalar hisobidan davlat korxonalarga subsidiyalar va kreditlar, tashqi qarzlar ajratadi, aholi uchun ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadi.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar, odatda, muayyan maqsad uchun yo‘naltiriladi. Masalan, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi pensiya va nafaqa to‘lovlarini to‘lash uchun mo‘ljallangan. Kredit jamg‘armalari korxonalar yoki boshqa davlatlarga kredit berish maqsadiga ega bo‘ladi. Biroq ayrim jamg‘armalarda xarajatlar turi har doim ham aniq belgilanmagan. Misol uchun, Buyuk Britaniyada vazirlik va idoralarning mablag‘lari qoldiqlaridan barcha jamg‘armalarda muvozanatni saqlab turish uchun tashkil etilgan bosh g‘aznachi (moliya vaziri) jamg‘armasi mavjud.

Yaponiyada soliq tushumlarini qayta taqsimlash uchun maxsus hisob mavjud. Davlat byudjeti daromadlarining bir qismi ushbu hisobda jamlanadi va mahalliy byudjetlarning ehtiyojlariga qarab yo‘naltiriladi. Ushbu qayta taqsimot aholi soni o‘rtasida farq va prefekturalarning rivojlanish darajasi bilan bog‘liq.

Maxsus jamg‘armalar huquqiy maqomi, foydalanish maqsadlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

Huquqiy maqomiga ko‘ra maxsus jamg‘armalar davlat va mahalliy jamg‘armalarga ajratiladi. Davlat jamg‘armalari markaziy hukumat ixtiyorida bo‘ladi. Ularning eng muhimlari sirasiga investitsiyaviy, valyuta va boshqa jamg‘armalarni kiritish mumkin.

Mahalliy hokimiyat organlarining tasarrufida ko‘plab mahalliy jamg‘armalar mavjud bo‘lib, ularning orasida eng yirigi zayom jamg‘armalari hisoblanadi. Buyuk Britaniyada XIX asrning oxiridan beri bunday jamg‘arma kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun foydalaniladi. Foydalanish maqsadlariga bog‘liq ravishda maxsus jamg‘armalar iqtisodiy, ilmiy-tadqiqiy, kredit, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, davlatlararo kabi turlarga bo‘linadi.

Iqtisodiy jamg‘armalar xo‘jalik hayotini tartibga solishga qaratilgan. Unga, masalan, investitsiyaviy, konyunkturaviy jamg‘armalar kiradi.

Ushbu jamg‘armalarning mablag‘lari, ayniqsa, davriy inqirozlar paytida xususiy kompaniyalar va past daromadli davlat korxonalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Yordam beg‘araz subsidiyalar va imtiyozli kreditlar shaklida taqdim etiladi.

AQShda federal byudjet mablag‘lari hisobidan shakllantiriladigan iqtisodiyotni qayta qurish va rivojlantirish jamg‘armasi faoliyat ko‘rsatadi. Uning asosiy vazifasi – xususiy sanoat kompaniyalari bilan bank operatsiyalarini sug‘urtalashdir.

1984-yildan beri ushbu jamg‘arma orqali yangi iqtisodiy rivojlanish dasturlari, eng avvalo, qora metallurgiyadagi dasturlarni boshqarish amalga oshirildi. Ushbu jamg‘arma, ayniqsa, ishlab chiqarishda inqiroz kuzatilgan yillarda xususiy biznesni rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, tadbirkorlikka madad shtatlar darajasida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, har bir shtat iqtisodiy taraqqiyot agentligi jamg‘armasiga ega bo‘lib, uning maqsadi kompaniyalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy yordam ko‘rsatishdan iborat.

Ikkinchi jahon urushi nihoyasiga yetgach, Fransiyada modernizatsiya jamg‘armasi tashkil etilgan. 1955-yilda u boshqa jamg‘armalar bilan birlashtirilgandan so‘ng, Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot jamg‘armasiga (IITJ) aylantirildi. Unga asosan ssuda kapitali bozoriga joylashtiriladigan zayomlar, shuningdek, byudjetdan ajratmalar kelib tushadi. Jamg‘arma investitsiya dasturlar va mintaqaviy rivojlanish rejalarini, mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishni, ishchi kuchlarini qayta tayyorlashni, sanoat korxonalarini industrial markazlardan qoloq hududlarga ko‘chirishni moliyalashtiradi. Bunda

mablag‘lar umumdavlat taraqqiyot dasturiga muvofiq investitsiyalashni amalga oshirayotgan davlat va xususiy korxonalarga qaytarilmas ssudalar va uzoq muddatli imtiyozli zayomlar shaklida taqdim etiladi.

Yaponiyada investitsiyaviy byudjet (davlat investitsiyalari va zayomlari dasturi) deb ataladigan yirik jamg‘arma mavjud bo‘lib, u omonat, sug‘urta, pensiya va boshqa maqsadli jamg‘armalar mablag‘laridan shakllantiriladi hamda davlat sektorini, shuningdek, maxsus hisobni (markaziy hukumat yoki mahalliy hokimiyatlarning avtonom byudjetlari) beg‘araz subsidiyalar va imtiyozli kreditlar shaklida moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Ko‘plab mamlakatlarda fundamental tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy markazlarni qurish va ta’minlash uchun, sanoatda ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun ilmiy-tadqiqot jamg‘armalari tashkil etilgan. Masalan, AQShda ikkita yirik jamg‘arma mavjud: Milliy fan jamg‘armasi (MFJ) va Standartlar Byurosining ilmiy jamg‘armasi (SBIJ).

MFJ mablag‘lari federal byudjet tushumlari, sanoat korxonalarining foydasidan ajratmalar, universitetlar va kollejlar badallari hisobidan shakllantiriladi. Ular fundamental tadqiqotlar sohasidagi dasturlarni moliyalashtirish, ilmiy tadqiqotlar uchun olimlarni mukofotlash, ilmiy markazlar qurish, o‘quv mashg‘ulotlari, kadrlar tayyorlash uchun sarflanadi. SBIJ tajribalar o‘tkazayotgan va ilmiy tadqiqotlarni sanoat hamda qishloq xo‘jaligida foydalanish darajasigacha yetkazadigan kompaniyalarni moliyalashtiradi[81].

Buyuk Britaniyada tadqiqotlarni rivojlantirish bo‘yicha milliy korporatsiya jamg‘armasi mustaqil balansga ega va davlat byudjetiga bog‘liq emas. Uning mablag‘lari ixtirolardan foydalanish huquqi uchun litsenziyalarni sotishdan daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Davlat jamg‘armaga muddatsiz bo‘naklar va yillik subsidiyalar taqdim etadi. Jamg‘arma mablag‘lari ilmiy muammolarni ishlab chiqish va ushbu ishlanmalarning natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish bilan shug‘ullanadigan xususiy korxonalarning kapital qo‘yilmalariga sarflanadi. Jamg‘arma mablag‘lari hisobiga davlat universitetlari, milliy

[81] Финансы. Учебник для вузов. Под ред. проф. Л. А. Дробозиной. М. ЮНИТИ. 2010 г. – С. 256.

va xususiy kompaniyalarning laboratoriyalarida tadqiqotlar amalga oshirilib, ular sanoat tomonidan o‘zlashtirishgacha yetkaziladi.

Kredit jamg‘armalari – davlat banklari, omonat kassalari, boshqa kredit tashkilotlari tasarrufida bo‘lgan, qaytarish va foiz to‘lash sharti bilan taqdim etiladigan resurslardir. Davlat buyurtmalarini bajaradigan yoki mamlakatni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari doirasida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar bunday jamg‘armalardan foydalanishda ustuvor huquqqa ega bo‘ladi. Kredit jamg‘armalari Fransiyada ancha keng tarqalgan: Fransiya Banki, Tashqi savdo banki va depozitar-ishonch kassalari.

Qo‘shma Shtatlarda uchta eng muhim tarmoq – qishloq xo‘jaligi, uy-joy qurilishi va tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha dasturlarni amalga oshiradigan bir qator kredit jamg‘armalari faoliyat yuritmoqda. Qishloq xo‘jaligini kreditlash uchun o‘rta muddatli kredit va federal kooperatsiya bo‘yicha federal yer banklari, federal banklar faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshiruvchi fermerlik krediti ma’muriyati jamg‘armasi tashkil etilgan.

Mazkur kredit muassasalarining jamg‘armalari g‘aznachilik mablag‘lari hisobidan, shuningdek, o‘z majburiyatlarini sotish orqali shakllantiriladi va turli maqsadlar (hosilni sotish, omborlar qurish va boshqalar) uchun ssudalar taqdim etishda foydalaniladi.

Amerika kapitalini eksport qilishda AQSh eksport-import banki jamg‘armasi muhim o‘rin tutadi. Bank Amerika eksport kompaniyalariga kredit (15-20 yil muddatgacha) beradi, xususiy banklarning eksport kreditlari bo‘yicha kafolatlar taqdim etadi (kredit summasining 30-60 %i atrofida). Bank resurslarining asosiy manbai – o‘z mablag‘lari va zayomlardir.

Yaponiyada ko‘p sonli kredit jamg‘armalari mavjud bo‘lib, ularning orasida moliyaviy korporatsiyalar jamg‘armalari (uy-joy qurilishini moliyalashtirish, kichik va o‘rta korxonalarni moliyalashtirish) va ixtisoslashgan banklar jamg‘armalari (Yaponiya eksport-import banki, Yaponiya taraqqiyot banki, qishloq xo‘jaligi uchun Markaziy kooperatsiya banki va boshqalar) ancha nufuzli sanaladi.

Moliyaviy korporatsiyalarning jamg‘armalari byudjetdan, shuningdek, berilayotgan kreditlar uchun foizlardan shakllantiriladi. Ushbu jamg‘armalar “riskli korxonalarni” moliyalashtirish maqsadida yoki boshqa kredit manbalaridan foydalana olmaydigan kompaniyalarga yordam berish uchun o‘rtacha foizlar bilan zayomlar taqdim etadi.

Ijtimoiy jamg‘armalar – aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan resurslardir. Ishlab chiqarish rivojlanishi natijasida yollanib ishlovchilar sonining o‘sishi, ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarida nomuvofiqlikning kuchayishi va avvalroq tilga olingan boshqa omillar ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalarini ko‘paytirish zaruratini yuzaga keltirdi.

2008-yildan so‘ng ijtimoiy jamg‘armalarning miqdori 5-8 barobar oshdi. Ular quyidagilar hisobidan shakllantiriladi: jismoniy shaxslarning sug‘urta badallari, tadbirkorlarning sug‘urta badallari, davlat subsidiyalari.

Sug‘urtalangan shaxslarning badallari ularning daromadlaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri chegirma, ya’ni, mohiyatan, maqsadli to‘g‘ri soliq sanaladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda badal stavkasi yalpi daromadga foiz sifatida belgilanadi va daromad miqdoridan proporsional mustaqil hisoblanadi. Badalning yillik maksimal summasi yoki stavkasi qo‘llaniladigan maksimal daromad nazarda tutiladi.

Badal stavkalari turli mamlakatlarda turlicha: AQShda – 7,15 % (jismoniy va yuridik shaxslar uchun bir xil stavka), Buyuk Britaniyada – 5,7 va 9 % (daromadga qarab), Fransiyada – 5,7 %, Yaponiyada – 5,3 %.

Ba’zi mamlakatlarda, masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida jismoniy shaxslar tomonidan sug‘urtaning barcha turlari bo‘yicha bitta, boshqa mamlakatlarda esa (Germaniya, Yaponiya) bir qancha badal to‘lanadi, bunda ularni to‘lash ijtimoiy xizmatlarning ayrim turlaridan foydalanish huquqini beradi.

Korxonalardan olinadigan sug‘urta badallari ish bilan band xodimlarning umumiy ish haqiga emas, balki oldindan belgilangan maksimal yalpi ish haqiga nisbatan foizlarda undiriladi, ya’ni, ushbu maksimumdan oshgan summa hisobga olinmaydi. Kompaniyada

malakali xodimlar ulushi va ularning ish haqi qancha yuqori bo‘lsa, kompaniyaning ijtimoiy jamg‘armalarga ajratmasi shuncha kam bo‘ladi.

Ijtimoiy jamg‘armalarga ajratmalar ishlab chiqarish xarajatlariga kiritiladi va narxlarni oshiradi. AQShda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun turli ma’muriy bo‘ysunuvdagi ko‘plab ijtimoiy jamg‘armalar faoliyat yuritadi.



6.2-rasm. **AQShning yirik umummilliy jamg‘armalari**

Germaniyada ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari sug‘urtaning alohida turlari, shu jumladan, ishchi va xodimlarning pensiya sug‘urtasi, kasallik sug‘urtasi, ishsizlik sug‘urtasi va boshqalarni o‘z ichiga olgan avtonom jamg‘armalar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Buyuk Britaniyada ikkita asosiy ijtimoiy jamg‘arma mavjud: milliy sug‘urta jamg‘armasi va davlat korxonalarining pensiya jamg‘armasi.

Yaponiyada 4 ta yirik jamg‘arma mavjud: sog‘liq sug‘urtasi jamg‘armasi, Milliy pensiya jamg‘armasi, ishlab chiqarishda jarohatlanish sug‘urtasi jamg‘armasi va ishsizlikdan sug‘urtalash jamg‘armasi.

Fransiyada eng muhim ijtimoiy jamg‘armalar orasida kasallik, nogironlik, ona sug‘urtasi, pensiya jamg‘armasi, oilani qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, milliy ishsizlik jamg‘armasi mavjud.

Davlatlararo jamg‘armalar o‘rtasida Xalqaro valyuta jamg‘armasi eng muhim ahamiyat kasb etib, uning maqsadi to‘lovlar balansidagi muvozanatni saqlash uchun xalqaro likvidlikni tartibga solishdan iborat. Shuningdek, a’zo mamlakatlarning hukumatlari kafolati ostida ko‘pincha 20 yil muddatga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun uzoq muddatli kreditlar beradigan Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) ham muhim jamg‘armalar qatoridan joy olgan. Yevropa Ittifoqida bir qator davlatlararo jamg‘armalar, jumladan, Yevropa Ittifoqi byudjeti, Yevropa Taraqqiyot jamg‘armasi va boshqalar tashkil etilgan.

6.3. O‘zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari jamg‘armalarni rivojlantirish

Respublikada bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayoni juda salbiy sharoitda boshlandi (inqiroz iqtisodiyotning deyarli barcha soha va tarmoqlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi, aholining turmush darajasiga pasaydi) va moliyaviy resurslar cheklanganligi bilan murakkab tus olgan edi. Shunga bog‘liq ravishda davlat tomonidan O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni barqarorlashtirish bo‘yicha eng muhim vazifalar bajarilishini ta’minlash uchun maqsadli byudjetdan tashqari jamg‘armalar tuzila boshlandi.

O‘zbekistonda 1992-yilda aniq pirovard vazifalarni hal etish uchun oltita byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalari tashkil etildi:

• Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi – ish bilan band ishchi kuchlarining ishdan bo‘shatilishi va ishsizlikning o‘sishi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun;

• Mineral resurslarni tiklash jamg‘armasi – o‘z mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish uchun;

• Respublika yo‘l jamg‘armasi – O‘zbekiston hududida avtotransport kommunikatsiyalarini saqlash va rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun;

• O‘zbekiston davlat jamg‘armasi – makroiqtisodiy masalalarni hal qilish uchun;

• Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi – ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy sug‘urta uchun;

• Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi jamg‘armasi – mehnat qiluvchilarning huquqlarini himoyalash masalalarini hal qilish uchun.

1995-yildan buyon byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘laridan maqsadga yo‘naltirilgan tarzda foydalanish davom etilgan holda ularning mablag‘lari davlat byudjetida konsolidatsiyalanadi. Ushbu chora davlatning fiskal organlari nazorati ostida barcha davlat mablag‘larini konsolidatsiyalash imkonini beradi.

1998-yilda mablag‘lari davlat byudjetining “Maqsadli jamg‘armalar xarajatlari” va “Maqsadli jamg‘armalar daromadlari” nomli maxsus bo‘limlarida aks ettirilgan holda davlat byudjetida konsolidatsiyalanadigan byudjetdan tashqari jamg‘armalarning soni to‘rttagacha kamaydi. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 25-dekabrdagi “Byudjet kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonuni bilan ularga davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalanadigan davlat maqsadli jamg‘armalari maqomi berilib, ular quyidagilardir:

• O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi;

• O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitasining maxsus hisob raqamlari;

• Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi;

• O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi.

Ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘lar kelib tushish me’yorlari va shartlari, shuningdek, ushbu mablag‘lardan foydalanish maqsadlari qonunchilik tomonidan belgilab qo‘yilgan.

Davlat maqsadli jamg‘armalari – ayrim davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va mablag‘lar tushumi hamda ulardan maqsadli foydalanish ustidan yanada to‘liq davlat nazoratini ta’minlash uchun mamlakatning byudjet tizimi tarkibida konsolidatsiyalanadigan jamg‘armalardir[82].

[82] Сирожиддинова З.Х. Бюджетная система Республики Узбекистан. Учебник. - Т. “infoCom”, 2010. -С.344.

Davlat maqsadli jamg‘armalarini tashkil etish, mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi[83]. Operativ boshqaruv tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan maxsus ma’muriy apparat tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga binoan bugungi kunda alohidaligi va maqsadga yo‘naltirilganligi saqlangan holda davlat byudjetida quyidagi byudjet va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari jamlanadi:

• O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha xarajatlarini moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa manbalardan kelib tushayotgan pul mablag‘larini jamg‘aradi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘arma kuzatuv kengashi hisoblanadi.

• O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi majburiy to‘lovlar va boshqa manbalardan kelib tushayotgan pul mablag‘larini jamg‘arib, keyin ularni umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish dasturlarini (loyihalari) va yo‘llarning tegishli texnik holati va o‘tkazuvchanlik qobiliyatini saqlashga yo‘naltirilgan tadbirlarni moliyalashtirishda foydalanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘arma Kengashi hisoblanadi.

• Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasi belgilangan tartibda taqsimlanadigan davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘larni jamg‘aradi.

• O‘zbekiston Respublikasi bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi bandlik va aholini ijtimoiy himoyalash sohasida xarajatlar moliyalashtirilishini ta’minlash uchun yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar va boshqa manbalardan mablag‘larni jamg‘aradi.

[83] Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси, 26.12.2013 й. № ЎРҚ-360, 25-модда.

• O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi majburiy to‘lovlar va boshqa manbalardan maktabgacha ta’lim muassasalarini, umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlarini, akademik litseylarni, bolalar musiqa va san’at maktablarini, oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalarini, shuningdek, tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash (qayta jihozlash) ishlarini moliyalashtirish, sog‘liqni saqlash muassasalarini eng yangi laboratoriya, tashxis qo‘yish va davolash asbob -uskunalari, kompyuter texnikasi hamda boshqa tibbiy apparatlar, maxsus mebel va anjomlar bilan jihozlash hamda tizimli ravishda qayta jihozlashni moliyalashtirish, belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa maqsadlar uchun foydalanishga yo‘naltiriladigan mablag‘larni jamg‘aradi. Ushbu jamg‘armaning oliy boshqaruv organi Jamg‘arma boshqaruv kengashi hisoblanadi.

• O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug‘oriladigan yerlarni meliorativ yaxshilash jamg‘armasi sug‘oriladigan yerlarni meliorativ yaxshilash bo‘yicha dasturlarni (loyihalarni) va melioratsiya obyektlarining tegishli texnik holatini ta’minlash, shuningdek, melioratsiya texnikasini xarid qilish bo‘yicha choralarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamg‘aradi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining oliy organi Jamg‘arma Kengashi sanaladi.

• O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg‘armasi oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamg‘aradi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini boshqarish vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi[84].

[84] Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. 26.12.2013 й. № ЎРҚ-360. 37-44-моддалар.

7-BOB. RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASI DAROMADLARI VA XARAJATLARI

7.1. Respublika yo‘l jamg‘armasining maqsadi va vazifalari

Oldingi bobda ta’kidlanganidek, davlat maqsadli jamg‘armalari faoliyat maqsadiga ko‘ra ijtimoiy hamda iqtisodiy maqsadlarga yo‘naltirilgan jamg‘armlarga ajratiladi. Iqtisodiy maqsadlarga yo‘nalgan davlat maqsadli jamg‘armalrini tashkil etishdan bosh maqsad – bu shubhasiz, davlat byudjetini qo‘llab-quvvatlashdir. Bunda jamg‘armalar tovar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ilm-fan, ta’lim, atrof-muhit himoyasi kabi bir qator ustuvor tarmoqlarda resurslar yetishmovchiligini oldini olish, shuningdek, moliyalashtirishning davomiyligini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi. Ushbu jamg‘armalar ham xuddi ijtimoiy maqsadli jamg‘armalar kabi o‘z byudjetiga ega va hukumat darajasida ko‘rib chiqiladi. Iqtisodiy yo‘naltirilgan davlat maqsadli jamg‘armalarining o‘ziga xos farqli jihatlaridan biri sifatida ularning vaqtinchalilik xususiyatini misol qilishimiz mumkin. Ya’ni, amaliyotda, faqatgina eng zarur va rivojlanishi taqozo etadigan tarmoq va sohalar uchungina maxsus jamg‘armalar tashkil etiladi. Biroz muddat o‘tib, ya’ni rivojlanishning me’yoriy nuqtasiga yetgach ushbu jamg‘armalarga ehtiyoj qolmaydi va ular tugatiladi yoki restrukturizatsiya qilinib, faoliyat yo‘nalishi o‘zgaradi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy maqsadda tashkil etilgan byudjetdan tashqari jamg‘armalar orasida eng mo‘tadil va muvozanatli faoliyat ko‘rsatuvchi jamg‘arma bu – yo‘l jamg‘armasidir.

O‘zbekiston Respublikasi geografik joylashuviga muvofiq, okean va dengiz bandargohlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish uchun kamida ikkita mustaqil mamlakatning davlat chegarasini bosib o‘tishi lozim. Bunday holat, o‘z navbatida, dengiz transportini tashkil etish va undan foydalanishga imkoniyat bermaydi, albatta. Bu narsa bizda havo yo‘li transporti, temir yo‘l transporti, quvur transporti va eng asosiysi avtomobil yo‘l transportini boshqa davlatlardagi (Rossiya Federatsiyasi,

Ukraina, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh va bir qator Fors hamda Arab mamlakatlari)ga qaraganda jadal va tez sur’atda rivojlantirishni obyektiv zarurat deb biladi. Buni teran his etgan mamlakatimiz rahbariyati mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish, qayta ta’mirlash, rekonstruksiya qilish chora-tadbirlariga katta ahamiyat berib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasida tranzit transport tashuvlari chorrahasida joylashuvi bevosita avtomobil yo‘llarini muttasil yangilanishini va davr talabiga mos rivojlanishini talab etadi. Respublikamiz transport siyosatining birlamchi maqsadi — mahalliy iste’molchilar bilan birga, xorijiy mamlakatlar foydalanadigan eng yaxshi, qulay va yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lgan transport yo‘laklarini respublika hududidan o‘tkazishni ta’minlashdan iboratdir.

Avtomobil yo‘llarini davr talabiga mos ravishda tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirishga erishish, mahalliy ishlab chiqaruvchilaming ishlab chiqargan mahsulotlarini xalqaro bozorlarga yetkazish bo‘yicha transport xarajatlarini kamaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlashdir. Avtomobil yo‘llarini mana shunday ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olib, 1992-yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 10 ta moddasi bevosita yo‘l ishlarini moliyalashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning birinchi bandida shunday talablar o ‘z aksini topgan: “Umumiy foydalanishdagi yo‘1 ishlarini (avtomobil yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash) moliyalashtirish tartibi Yo‘1 jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi”. Qonunda aks etgan ushbu bandning o‘zi respublikada maxsus yo‘l jamg‘armasini tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu bois, 1990-yillarning boshlaridayoq “O‘zavtoyo‘l” davlat konserni bazasida Respublika Yo‘l jamg‘armasi tashkil etilgan edi. Pirovard natijada, respublikamizda xalqaro va mintaqaviy ahamiyat kasb etadigan umumiy

yo‘llar barpo etildi, ko‘plab jahon andozalariga mos xos keladigan yo‘l ko‘priklari qurildi va ko‘rilmoqda.

Mamlakatning izchil rivojlanishi va jahon integratsiyasiga yaqinlashishi, Respublika Yo‘l jamg‘armasi moliyaviy resurslarini shakllantirish va moliyalashtirishni samarali tashkil etishni talab qila boshladi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustida “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yo‘l jamg‘armasi va «O‘zavtoyo‘1» davlat aksionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 361-sonli qarori e’lon qilindi. Mazkur qarorning 5-ilovasiga muvofiq, Respublika yo‘1 jamg‘armasi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yo‘riqnoma ishlab chiqildi. Yo‘riqnomada Respublika yo‘l jamg‘armasining umumiy qoidalari, maqsadi, asosiy vazifalari va funksiyalari, jamg‘armaning huquq va majburiyatlari, jamg‘armani boshqaruv kengashi haqida va ijrochi organi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar aks etgan.

Oldingi bobda ta’kidlaganimizdek, endilikda Respublika Yo‘l jamg‘armasi Vazirlar Mahkamasi huzurida o‘z faoliyatini olib boradi. Avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarni loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish ishlariga kompleks yondashish asosida yo‘l xo‘jaligini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, bu borada loyihalashtirish va yo‘l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to‘laqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida, shuningdek, tugatilayotgan Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat-aksiyadorlik kompaniyasi (“O‘zavtoyo‘l” DAK) negizida O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasini tashkil etish nazarda tutiladi.

Ushbu farmonda, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari tushumi va sarf-xarajatlarining yillik va choraklik balanslarini shakllantirish;

- yo‘l xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va jihozlashning manzilli ro‘yxatlarini belgilangan tartibda kelishish;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llaridan foydalanish va ularni saqlash xarajatlari smetasini ro‘yxatdan o‘tkazish;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash, jihozlash hamda ulardan foydalanish borasidagi tadbirlarni tasdiqlangan xarajatlarga muvofiq moliyalashtirish[85].

Shuningdek, yo‘l jamg‘armasiga har yili kelgusi yil uchun maqsad va strategik rejalar belgilab beriladiki, ularning amalga oshirilishi mamlakatimiz transport infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qiladi. Jumladan, mintaqaviy avtomobil yo‘llarining yo‘l qoplamalari holatini zarur darajaga keltirish va ularni ekspluatatsiya qilish xususiyatlarini oshirish orqali yo‘l-transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholining hayot faoliyati uchun, ayniqsa, qishloq joylarda qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini va hududlarini istiqbolli rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2018 yillarda mintaqaviy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Dasturda quyidagi vazifalar nazarda tutilgan:

• 2017-2018-yillarda 5454 kilometr, jumladan, 2017-yilda 2700 kilometr, 2018-yilda 2754 kilometr xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullarning ko‘chalarini kapital va joriy ta’mirlash;

• xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullarning ko‘chalarini joriy ta’mirlash ishlarini bajarish uchun mintaqaviy yo‘llarni ta’mirlashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni 330 ta yo‘l texnikasi bilan ta’minlash;

[85] Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g‘risida. PF4954. 2017-yil 14-fevral.

• mavjud respublika xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullar ko‘chalarini bosqichma-bosqich xatlovdan o‘tkazish va ularni pasportlashtirish, bu boradagi ishlar natijalari bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini yaratish, shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha – 295 kilometr, Andijon viloyati bo‘yicha – 324 kilometr, Buxoro viloyati bo‘yicha – 439 kilometr, Jizzax viloyati bo‘yicha – 222 kilometr, Qashqadaryo viloyati bo‘yicha – 679 kilometr, Navoiy viloyati bo‘yicha – 216 kilometr, Namangan viloyati bo‘yicha – 309 kilometr, Samarqand viloyati bo‘yicha – 479 kilometr, Surxondaryo viloyati bo‘yicha – 535 kilometr, Sirdaryo viloyati bo‘yicha – 267 kilometr, Toshkent viloyati bo‘yicha – 516 kilometr, Farg‘ona viloyati bo‘yicha – 520 kilometr, Xorazm viloyati bo‘yicha – 321 kilometr va Toshkent shahri bo‘yicha – 332 kilometr yo‘llar va ko‘chalarni ta’mirlash nazarda tutilgan. Bevosita ushbu jamg‘armaning daromad va xarajatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘ziga xos jihatlarga guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, Yo‘l jamg‘armasi daromadlari ham xuddi Pensiya jamg‘armasida kuzatilgani kabi o‘sish tendensiyasiga ega. Quyidagi jadval asosida daromadlar tarkibi va ularning egallagan ulushlariga baho berishimiz mumkin.

Yo‘l xo‘jaligi sohasining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yuksak ahamiyatga ega ekani uning muhim xususiyati hisoblanadi. Iqtisodiyotning umumiy rivoji, aholi barcha qatlamlarining hayot sifati ayni shu tizimning samarali faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liq.

Mustaqillik yillarida viloyatlar va tumanlarning ma’muriy markazlarini bog‘lovchi keng tarmoqli transport aloqalari hamda davlatlararo xavfsiz transport tashuvlarini ta’minlashga qaratilgan yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha katta miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Ayni vaqtda, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini boshqarish tizimi, avtomobil yo‘llarini saqlashga ko‘p mablag‘ ajratilmoqda.

7.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining 2014-2017-yillardagi daromadlari tarkibi tahlili[86]

Ko‘rsatkichlar	2014-yil		2015-yil		2016-yil		2017-yil	
	mlrd so‘mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd so‘mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd so‘mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd so‘mda	Jamiga nisbatan foizda
Daromadlar jami, shu jumladan	**2111,8**	**100,0**	**2782,6**	**100,0**	**2974,0**	**100**	**3424,9**	**100**
Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	-	-	-	-	-	-	365,7	
Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan majburiy ajratmalar	1298,1	61,5	1684,4	60,5	1815,2	61,0	1863,0	54,4
O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki sotib olinayotgan avtotransport vositalari egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro‘yxatdan o‘tganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi yig‘imlari	364,3	17,3	448,6	16,1	510,6	17,2	550,0	16,1
Bir avto tashuvchi uchun xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o‘tishi uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar *(valyuta tushumlarining so‘mdagi ekvivalenti)*	47,1	2,2	54,0	1,9	60,2	2,0	67,5	2,0
Xalqaro moliya institutlarining zayomlari	332,1	15,7	584,6	21,0	529,1	17,8	536,7	15,7
Boshqa tushumlar	46,1	2,2	11,0	0,4	36,6	1,2	42,0	1,2
Valyutalarning kursdagi farqi	24,0	1,1	29,3	1,1	22,3	0,7	0,0	0,0

[86] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrdagi PQ-2455, 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699, 2017-yil 29-dekabrdagi PQ-3454 sonli qarorlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi

Ko‘rinib turganidek, jamg‘arma daromadlari 2014-2015-yillarda har yili o‘rtacha 30-35 % ga ortgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib o‘sish sur’atlari biroz pasaygan (10 %), shuningdek, 2017-yilgi ko‘rsatkichlari o‘sish sur’ati 15 % ga teng bo‘lishini aks ettirmoqda. Agar daromadlarning turli yillardagi qiymat ifodasiga qaraydigan bo‘lsak, bu 2014-yilda 2111,8 mlrd so‘m, 2015-yilda 2782,6 mlrd so‘m va o‘tgan 2016-yilda 2974,0 mlrd so‘mni tashkil etgan. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan majburiy ajratmalar;

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki sotib olinayotgan avtotransport vositalari egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro‘yxatdan o‘tganlik uchun yig‘imlar;
- Bir avtotashuvchi uchun xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o‘tishi uchun yig‘imlar (valyuta tushumlarining so‘mdagi ekvivalenti);
- Xalqaro moliya institutlarining zayomlari;
- Boshqa tushumlar.



7.2-rasm. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo‘l jamg‘armasi jami daromadlari tarkibida daromad moddalarining ulushi (2017-yil)**[87]

Yuqoridagi rasmga e’tibor bersak, 2016-yilda Respublika Yo‘l jamg‘armasi daromadlari tarkibida mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan majburiy ajratmalar ulushi eng yuqori – 61 % ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Turli yillarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 65 % ni qayd etgan, shuningdek, 2017-yilda esa, 54,4 % tashkil etishi kutilmoqda. Bu 1863,0 mlrd so‘mga tengdir va bu o‘tgan 2016-yilgi 1815,2 mlrd

[87] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-yilda Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va parametrlari prognozi to‘g‘risida”gi qarori.

so‘mdan 47,8 mlrd so‘mga ko‘p demakdir. Ushbu daromad moddasining o‘sish sur’atlari oxirgi 2 yilda kamayganiga e’tibor qaratish lozim. Chunki, 2014-yilda o‘sish farqi 208.0 mlrd so‘mga, 2015-yilda 386,3 mlrd so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, o‘tgan 2016-yilda esa 130,8 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu jamg‘arma faoliyatining sustlashganidan emas, balki boshqa daromad manbalari ulushining ortganligidan dalolat beradi.

Jumladan, daromadlar tarkibida O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki sotib olinayotgan avtotransport vositalari egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro‘yxatdan o‘tganlik uchun yig‘imlar ulushi ham yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, ushbu yig‘imlar hajmi 2014-yilda 364,4 mlrd so‘mni, 2015-yilda 448,6 mlrd so‘mni hamda 2016-yilda 510,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Joriy yilda ushbu ko‘rsatkich yanada ortib, umumiy summa 550,0 mlrd so‘mga yetishi kutilmoqda. Demak, yuqori o‘sish sur’atlari kelgusi yillarda ham saqlanib qolishi mumkin. Respublika Yol jamg‘armasi daromadlari tarkibida xalqaro moliya institutlarining zayomlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi ushbu jamg‘arma davlat maqsadli jamg‘armalari orasida o‘zining investitsion faolligi bilan ajralib turadi. Xalqaro manbalar hisobidan shakllangan moliyaviy resurslar doimiy yillik o‘sish tendensiyasiga ega.

Bir avtotashuvchi uchun xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o‘tishi uchun yig‘imlar (valyuta tushumlarining so‘mdagi ekvivalenti) ham jamg‘arma daromadlari tarkibida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ushbu manba hisobida turli yillarda o‘rtacha 50-55 mlrd so‘mga teng mablag‘lar jamg‘arilgan. Bu umumiy daromadlar hajmiga nisbat 1,8-2,0 % demakdir.

Jamg‘armaning jami xarajatlari 2014-yilda 2065,0 mlrd so‘mni, 2015-yilda 2782,6 mlrd so‘mni hamda o‘tgan 2016-yilda esa 3214,4 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu yilgi byudjet parametrlariga ko‘ra esa, jamg‘arma xarajatlari 3424,9 mlrd so‘mdan iborat bo‘lishi prognoz qilingan. Bevosita jamg‘arma xarajatlari tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, Respublika Yo‘l jamg‘armasi o‘z xarajatlari xilma-xilligi bilan boshqa maqsadli jamg‘armalardan ajralib turadi. Jadvalda aks ettirilganidek, umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish xarajatlari eng yuqori ulushni egallagan. Mazkur xarajatni moliyalashtirishda 2013-yilda 916,6 mlrd so‘m ajratilgan

bo‘lsa, otgan 2016-yilda esa 1606,9 mlrd so‘m sarf qilingan. Joriy yil byudjet prognoziga ko‘ra esa, yana ham ko‘proq, ya’ni 2006,7 mlrd so‘m aynan ushbu xarajat uchun yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan. Bu esa o‘z o‘rnida yurtimiz transport yo‘llarini jahon standartlari darajasiga olib chiqishda ulkan qadamlardan biri hisoblanadi.



7.2-rasm. **Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini ta’mirlash va saqlash xarajatlarining harakati tahlili**[88]

Rasmda aks ettirilgan ma’lumotga e’tibor beradigan bo‘lsak, jamg‘armaning asosiy xarajatlaridan hisoblangan umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarini ta’mirlash va saqlash xarajatlarining o‘zgaruvchan harakatiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ushbu xarajat uchun ajratilgan mablag‘lar jami miqdori 2013-yilda 658,4 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, kelgusi yili biroz kamroq 647,9 mlrd so‘mdan iborat bo‘lgan. Keyinchalik, 2015-yilda bu summa yuqori o‘sish sur’atini ko‘rsatib, 838,9 mlrd so‘mga yetgan. Biroq o‘tgan 2016-yilda ushbu xarajat turi uchun yo‘naltirilgan xarajat miqdori yana kamaygan va 735,6 mlrd so‘mni qayd etgan.

Joriy yilgi byudjet parametrlari va prognozlariga tayanib shuni ta’kidlash mumkinki, mazkur xarajatni moliyalashtirish uchun 752,4

[88] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrdagi PQ-2455, 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699, 2017-yil 29-dekabrdagi PQ-3454 sonli qarorlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi

mlrd so‘m yo‘naltiriladi va bu o‘tgan yilgiga nisbatan 16,8 mlrd so‘mga ko‘p demakdir.

Mamlakatimizda avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarni loyihalashtirish, qurish va foydalanish jarayoniga kompleks yondashish asosida yo‘l xo‘jaligini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, loyihalashtirish va yo‘l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to‘laqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4954 farmoniga binoan, Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat-aksiyadorlik kompaniyasi («O‘zavtoyo‘l» DAK) negizida O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi tashkil etiladigan bo‘ldi.

Endilikda, O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi: majburiyatlar va shartnomalar, shu jumladan, xalqaro shartnomalar bo‘yicha:

Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat-aksiyadorlik kompaniyasining («O‘zavtoyo‘l» DAK) huquqiy vorisi hisoblanadi hamda avtomobil yo‘llari sohasida maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Yuqoridagi jadvalda “O‘zavtoyo‘l” DAK boshqaruv apparatini hamda hududiy yo‘llardan foydalanish tashkilotlarini boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular jami xarajatlar tarkibida 2013-yilda 8,3 mlrd so‘m bilan 0,3 % ni, 2014-yilda 9,7 mlrd so‘m bilan 0,31 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yildan boshlab yuqoriroq ko‘rsatkichni, ya’ni 14,8 mlrd so‘mga teng 0,5 %ni egallagan. O‘tgan 2016-yilda esa, 16,1 mlrd so‘m mablag‘lar aynan shu tashkilot xarajatlari uchun yo‘naltirilgan. Joriy yil ham ushbu xarajatlar salmog‘i oshishi prognoz qilingan bo‘lib, jamiga nisbatan 0,6 % ga teng bo‘lgan 22,0 mlrd so‘m bo‘lishi rejalashtirilgan.

Umumiy nuqtayi nazardan, Respublika yo‘l jamg‘armasi ham daromadlarining shakllanish manbalari ham xarajatlarning xilma-xilligi nuqtayi nazaridan ham iqtisodiy barqaror jamg‘arma hisoblanadi. Ushbu jamg‘arma faoliyatini yanada rivojlantirish hamda mamlakat ijtimoiy-

iqtisodiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismiga aylantirishda bajarilayotgan ishlar sifatini ularga sarflanayotgan moliyaviy resurslarga munosib holatda bo‘lishini nazorat qilib borish muhim deb hisoblaymiz. Chunki, talabga javob bermaydigan qurilish obyekti, juda qisqa vaqt ichida yana ta’mirtalab holatga kelishi va qoshimcha xarajat talab qilishi mumkin. Agar ushbu vazifa bajarilsa, jamg‘arma o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarni qo‘shimcha xarajatlarsiz va daromadlardan samarali foydalangan holda amalga oshirishi mumkin bo‘ladi.

Avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarni loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish ishlariga kompleks yondashish asosida yo‘l xo‘jaligini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, bu borada loyihalashtirish va yo‘l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to‘laqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmonda tugatilayotgan Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat-aksiyadorlik kompaniyasi (“O‘zavtoyo‘l” DAK) negizida O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasini tashkil etish nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga mablag‘larni yig‘ish va tushumlarning to‘liqligini nazorat qilish funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga, Davlat bojxona qo‘mitasiga va Ichki ishlar vazirligiga yuklanadi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘laridan asosli va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklanadi;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlariga, shu jumladan, investitsiya loyihalari va mukammal ta'mirlash obyektlarini texnik-iqtisodiy asoslashni (texnik-iqtisodiy hisob-kitobni), avtomobil yo‘llarini mukammal ta'mirlash obyektlarining ish hujjatlarini va avtomobil yo‘llarini jihozlash bo‘yicha tanlov hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish

bo‘yicha buyurtmachi funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasiga yuklanadi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar va yig‘imlar umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy yig‘imlar hisoblanadi, ularning miqdori har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tasdiqlanishi bilan bir vaqtda belgilanadi.

8-BOB. PENSIYA FONDI VA UNDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

8.1. O‘zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya fondi faoliyatining tashkiliy va iqtisodiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009-yil 30-dekabrdagi PF-4161-sonli farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009-yil 30-dekabrdagi PQ-1252 sonli qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi 2010-yil 19-fevralda 30-sonli O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida nizomi qabul qilindi.

Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlarini va boshqa to‘lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to‘lanish monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo‘yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

Jamg‘arma o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

8.1-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining vazifalari[89]

1.	Fuqarolarning davlat pensiya ta’minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarning qayta hisoblab chiqilishini ta’minlash
2	Pensiyalar va boshqa to‘lovlarni to‘liq hajmda moliyalashtirish va to‘lanishini tashkil qilish, hisob va hisobotni yuritish
3.	Tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o‘tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan qat’iy maqsadli foydalanilishini ta’minlash
4.	Mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to‘langan mablag‘larni da’volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish
5.	Tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil qilish

Jamg‘armaning daromadlari va Jamg‘arma mablag‘lari bo‘yicha majburiy to‘lovlar, badallardan mablag‘larni hamda boshqa to‘lovlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligidagi hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarga xarajatlarni moliyalashtirishni ta’minlaydi, har yili manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Jamg‘arma daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi, davlat ijtimoiy sug‘urtasi tizimining barqarorligini ta’minlash va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg‘arma daromadlari va xarajatlarining o‘rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi.

[89] Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi 30-son qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida” nizomining, 2-bo‘limi.



8.1-rasm. **Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armalarining asosiy funksiyalarini ko‘rish mumkin**[90]

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 15-moddasiga muvofiq mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to‘langan mablag‘larni aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da’volar bo‘yicha belgilangan tartibda undirib oladi, badallar va boshqa to‘lovlar tushishi hisobini olib boradi, shuningdek, yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning hamda dehqon xo‘jaliklari a’zolarining mehnat daftarchalarini belgilangan tartibda yuritadi va saqlaydi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo‘yicha, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo‘lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlaydi, ko‘rib chiqadi va tekshiradi.

Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlarida pensiyalar tayinlash bo‘yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi, zarur tarzda

[90] Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi 30-son qaroriga “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida” nizomining, 2-bo‘limi.

rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo‘yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi, pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi, tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo‘jaliklari a’zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatlarning ishonchliligini tekshiradi.

Jamg‘arma o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarga xarajatlarni amalga oshirish bo‘yicha:

− ishlamaydigan pensionerlarga aloqa tashkilotlari va banklar orqali, ishlaydigan pensionerlarga esa – tashkilotlar orqali pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to‘lash yuzasidan topshiriqlarni rasmiylashtiradi va beradi, aloqa tashkilotlari, banklar tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri yetkazib berilishi hamda to‘lanishi yuzasidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi, yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga, shuningdek, dehqon xo‘jaliklari a’zolariga ular tomonidan ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha badallar to‘langan taqdirda, chaqaloq tug‘ilganda beriladigan nafaqalarni hisoblaydi va to‘laydi, tashkilotlarning ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo‘shimcha dam olish kuni uchun to‘lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko‘rgan fuqarolarga kompensatsiya to‘lovlarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarga xarajatlarini moliyalashtiradi;

− Fuqarolarning pensiya ta’minoti bilan bog‘liq boshqa masalalar bo‘yicha:ommaviy axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya ta’minoti masalalari bo‘yicha xabardor qiladi;

− belgilangan tartibda tayinlangan shaxsiy pensiyalar to‘lanishini tashkil etadi;

− imtiyozli pensiya ta’minoti huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlar ro‘yxatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkil etadi;

− fuqarolarning murojaatlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqadi, fuqarolarni qabul qiladi;

− O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankining bo‘linmalarida pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari hamda boshqa to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi monitoringini olib boradi va tekshiradi;

− normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi, fuqarolarning pensiya ta’minoti masalalari bo‘yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribani o‘rganadi;

− Jamg‘armaning mablag‘larini oluvchilar, pensiyalar hamda Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash to‘g‘risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi;

− pensiya ta’minoti masalalari bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

− Jamg‘arma vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalar bo‘yicha qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyotini umumlashtiradi, pensiya ta’minoti masalalari va Jamg‘armaning vakolatiga tegishli bo‘lgan boshqa masalalar bo‘yicha xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi.

Jamg‘arma o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Majlisni Kuzatuv kengashi raisi, u bo‘lmaganda esa – raisning o‘rinbosari o‘tkazadi. Kuzatuv kengashi majlisi, agar unda kengash

a’zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashsa huquqiy vakolatli bo‘ladi (kvorumga ega bo‘ladi).

Kuzatuv kengashining qarori uning majlisda qatnashgan a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.



8.2-rasm. **Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Qoraqalpog‘iston Respulikasi, viloyatlar boshqarmalarining tashkiliy tuzilmasi**[91]

Jamg‘armaning ijro etuvchi apparatiga Jamg‘arma Kuzatuv kengashining taqdimnomasi bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti roziligi bilan) ko‘ra lavozimga tayinlanadigan ijro etuvchi direktor rahbarlik qiladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparati tuzilmasi, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan tasdiqlanadi.

[91] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №-1252 qarori 2009-yil 30-dekabr.

Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi Jamg‘armani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Jamg‘arma Kuzatuv kengashining majlislari yil choragida kamida bir marta o‘tkaziladi. Jamg‘armaning ijro etuvchi apparati Kuzatuv kengashining ishchi organi hisoblanadi:

- Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;

- Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari;

- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi;

- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

Jamg‘arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari ta’minoti respublika byudjeti mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Jamg‘arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, shuningdek, tegishli muhr va shtamplarga ega bo‘ladi.

Jamg‘arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) majburiy to‘lovlar va badallar:

– belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari;

– alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug‘urta badallari;

– jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug‘urta badallari;

b) boshqa to‘lovlar.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo‘lganlarga pensiyalar to‘lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da’volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag‘larning 85 foizi;

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin

tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash uchun o‘tkaziladigan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari;

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash hisobiga o‘tkaziladigan yuridik shaxslar mablag‘lari;

dehqon xo‘jaliklari a’zolarining ixtiyoriy tartibda to‘lanadigan sug‘urta badallari;

hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta’minlash maxsus jamg‘armasiga hamda Jamg‘arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag‘batlantirish jamg‘armasiga undiriladigan summalardan tashqari);

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan, Davlat byudjeti mablag‘lari va ixtiyoriy badallar.

Majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlarni o‘tkazish Jamg‘arma daromadlarining belgilangan tasniflariga muvofiq tushumlarning har bir turi bo‘yicha Jamg‘armaning banklardagi tegishli hisob raqamlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

- manbalar turlari bo‘yicha Jamg‘armaga majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liqligi va o‘z vaqtida to‘lanishi nazorat qilinishini, manbalar turlari va to‘lovchilar bo‘yicha Jamg‘armaga majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlar hisobi yuritilishini, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Jamg‘armaga majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlar to‘g‘ri hisoblanishini, shuningdek, Jamg‘arma bilan o‘zaro hisob-kitoblarning holati tekshirilishini;

- qonun hujjatlariga muvofiq majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlarni hisoblash tartibi va to‘lash muddatlari buzilganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy va ma’muriy javobgarlik choralari qo‘llanilishini;

- tushgan majburiy to‘lovlar, badallar va to‘lovlar to‘g‘risidagi, Jamg‘armaga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlar turlari bo‘yicha qarzlar to‘g‘risidagi tezkor hisobotni har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha;

- majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlarni hisoblash va to‘lash to‘g‘risidagi hisobotni yuridik shaxslar tomonidan choraklik va yillik hisobot taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida taqdim etadi.

Bizning fikrimizcha, davlatning muhim ijtimoiy funksiyasi davlat pensiya ta’minotini moliyaviy barqarorligini ta’minlash borasida pensiya tizimiga ta’sir etuvchi omillarni kompleks tadqiq qilish, ularni saralash hamda amaliy xulosa va yechimlarni shakllantirishda pensiya ta’minotiga oid bo‘lgan ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy adabiyotlarni, mahalliy va xorij iqtisodchi olimlarining nazariy qarashlarini mufassal, tizimli o‘rganib chiqish, ularning davlat pensiya ta’minotining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy qarashlari va nazariyalaridan tadqiqot jarayonida foydalanish zarur.

Dunyoning istalgan mamlakatini olmaylik, davlat pensiya ta’minoti mohiyatan mamlakat aholisini ijtimoiy jihatdan himoyalash siyosatining eng munozarali va muammoli yo‘nalishidir. Hisob-kitoblarga ko‘ra, dunyo mamlakatlarida hozirgi kunda pensiya tizimi va pensiya fondlari orqali jahon iqtisodiyoti milliy daromadining yoxud yalpi ichki mahsulot (YaIM)ining o‘rtacha 10 foiziga yaqin qismi qayta taqsimlanadi.

8.2. Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari faoliyatining tashkil etilishi

Insoniyat o‘z sivilizatsiyasining cho‘qqisiga chiqqan hozirgi davrda ham ijtimoiy ta’minot va pensiya ta’minoti tizimi bag‘oyat muhim va dolzarb ahamiyatga egadir.

Chunonchi, hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisob-kitoblariga ko‘ra 2017-yilda dunyoda 962,3 million nafar aholi 60 yoshdan oshganlar tashkil etmoqda[92], bu esa dunyo aholisining qariyb 13 foizini tashkil etadi. Umuman olganda jamiyatdagi ijtimoiy ta’minot va pensiyaga muhtojlar sifatida qariyalar, kam ta’minlanganlar, mehnatga layoqatsizlar, boquvchisini yo‘qotganlarni tushunadigan bo‘lsak bu ko‘lam yanada salmoqli bo‘lishi shubhasizdir.

Ularning ijtimoiy ta’minoti uchun jamiyatning barcha a’zolari birdek mas’uldirlar. Shu jihatdan ham taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va boquvchisini yo‘qotganlarni moddiy ta’minlovchi pensiya yoki ijtimoiy sug‘urta fondlari shakllandi.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab davlat miqyosidagi pensiya tizimlari shakllana boshladi hamda aynan shu davrdan boshlab, davlat moliyasi tizimida pensiya fondlari va jamiyatda pensiya va nafaqalar tizimining muhimlik va ahamiyat darajasi orta boshladi. Rivojlangan davlatlarning demografik tuzilishi va mehnat bozori bilan bog‘liq masalalar, pensiya fondlari yillar davomida katta sarmoyalar to‘plashini anglatadi, ular institutsional investorlar sifatida muhim rol o‘ynaydi[93].

G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda hozirda dunyoning aksariyat mamlakatlarida amal qiluvchi davlat pensiya ta’minoti tizimlari shakllandi. Davlat pensiya tizimi o‘zining evolyutsiyasi davomida jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, inqirozlar, iqtisodiy rivojlanishlar va pasayishlar bilan o‘zaro hamohang tarzda rivojlana bordi. O‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab dunyoda pensiya ta’minotini chuqur tahlil qilish, uning barqarorligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy, nazariy, amaliy tadqiqot ishlari olib borila boshlandi va hozirda mazkur jarayon o‘zining eng yuqori bosqichiga keldi deyishga to‘la asoslimiz. Bu borada jahonning aksariyat mamlakatlarida davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish, tizimning ishlash mexanizmlarini iqtisodiy, ijtimoiy va demografik jarayonlarga mos holda tashkil etish va

[92] http://www.un.org/en/development/desa/population/publications/pdf/ageing/WPA2017_Highlights.pdf

[93] MARINELLA CADONI, ROBERTA MELIS, ALESSANDRO TRUDDA. PENSION FUNDS RULES: PARADOXES IN RISK CONTROL. FINANCE RESEARCH LETTERS 22 (2017) 20–29. P.: 20 HTTPS://WWW.SCIENCEDIRECT.COM/SCIENCE/ARTICLE/PII/S1544612316301994

shu orqali uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash ustida zarur chora-tadbirlar hamda strategik rivojlanish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Jahon mamlakatlarida pensiya ta’minoti tizimining moliyalashtirish usullari turlichadir (8.3-rasm).



8.3-rasm. **Jahonda pensiya ta’minotini moliyalashtirish metodlari**[94]

Pensiya ta’minotini tashkil etishning eng keng tarqalgan usuli ijtimoiy sug‘urta usuli hisoblanib, dunyoning aksariyat mamlakatlari pensiya fondlarini shu usul orqali tashkil etishadi. Ixtiyoriy sug‘urta tizimi ko‘proq yollanib ishlovchilar hamda o‘z-o‘zini bandligini ta’minlovchi shaxslar uchun tashkil etiladi. Ijtimoiy yordam usuli bu fuqarolarni yashashning minimal me’yorlariga yetarli moddiy mablag‘lar bilan ta’minlash maqsadida tashkil etiladi, buni moddiy ta’minlash uchun byudjetdan mablag‘lar yo‘naltiriladi, ularni ta’minlash Avstraliyada maxsus soliqlar mexanizmi orqali tashkil etiladi. Pensiyalarni tayinlash va to‘lash ishlarini tashkil qilish, ularni mablag‘ bilan ta’minlash tizimi har qanday mamlakatda ham eng dolzarb va birlamchi masalalardan hisoblanadi. Ko‘plab iqtisodiy adabiyotlarda keltirilishicha pensiya jamg‘armalarining moliyaviy ta’minoti ijtimoiy sug‘urta badallari orqali tashkil etiladi hamda mazkur badallar ish

[94] Xorijiy adabiyotlarni o‘rganish asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

beruvchi hamda ishlovchi tomonidan to‘lanadi[95]. Biroq hozirgi kunda jahon mamlakatlarida pensiya fondlarining daromad manbalari sifatida faqat pensiya badallari emas, balki fond mablag‘larini investitsiya qilishdan olinadigan daromadlar ham muhim ahamiyat kasb etadi, investitsion faoliyatdan pensiya fondlari daromadlarining salmoqli qismi shakllanadi. Quyidagi 8.4-rasmda xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlarining daromadlarini shakllantirish manbalari keltirilgan.



8.4-rasm. **Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlarining daromad manbalari[96]**

Yaqin yillargacha rivojlangan mamlakatlarda pensiya fondlarining investitsion faoliyatdan oladigan daromadlari uning qo‘shimcha daromadi sifatida qarab kelinar edi, lekin hozirgi kunda pensiya fondlari investitsion faoliyatning doimiy ishtirokchisiga aylanishgan, ko‘plab pensiya fondlari moliya bozorida professional ishtirokchi hisoblanadi. Quyidagi 2-jadvalda xorijiy mamlakatlarda pensiya ta’minotini amalga oshiruvchi fondlar va ularning moliyaviy manbalari haqida ma’lumot keltirilgan.

[95] Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta’minoti. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.132-b.
[96] Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

8.2-jadval

2018-yilda dunyoning ba’zi mamlakatlarida pensiya badallari stavkalari haqida ma'lumot[97]

№	Mamalakatlar	Davlat pensiyasini tayinlovchi organ	Pensiya ta’minoti tizimi daromad manbalari (mehnat haqi fondiga nisbatan, %da)		O‘rtacha oylik ish haqi (AQSh dollarida)	Pensionerlar va badal to‘lovchilar o‘rtasidagi o‘zaro nisbat			
			Ish beruvchi	Ishlovchi		Aholi soni (mln kishi)	Sug‘urta badallari to‘lovchilar soni (mln kishi)	Pensionerlar soni (mln kishi)	koeffitsiyent
1	O‘zbekiston	Moliya vazirligi Pensiya jamg‘armasi	11,9 % (nodavlat)/24,8 (davlat)	-	235,0	32,6	6,1	3,4	1,8
2	Rossiya	Pensiya fondi	22	-	549,3	146,4	76,1	43,2	1,8
3	Qozog‘iston	Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya fondi	5	10	417,6	18,5	8,1	2,8	2,9
4	Belorussiya	Ijtimoiy himoya fondi	28	1	361,3	9,5	3,2	4,4	0,7
5	Koreya	Davlat pensiya xizmati	4,5	4,5	2 505,0	51,0	26,8	6,1	4,4
6	Germaniya	“Deutsche Rentenversicherung” davlat pensiya muassasasi	10,15	10,15	3 703,0	81,4	41,7	25,2	1,7
7	Fransiya	Milliy sug‘urta kassasi	9,8	6,65	2 957,0	65,3	27,1	12,0	2,3
8	Estoniya	Ijtimoiy sug‘urta departamenti	20	2	1 221,0	1,3	0,6	0,4	1,5
9	Latviya	Ijtimoiy farovonlik vazirligi	24,5	6	1 013,0	1,9	1,0	0,6	1,7
10	Ozarbayjon	Davlat ijtimoiy himoya fondi	22	3	313,6	10,2	5,0	1,3	3,8
11	Buyuk Britaniya	Mehnat va pensiya departamenti	10	8	2 498,0	65,9	32,3	11,2	2,9
12	Tojikiston	Ijtimoiy sug‘urta va pensiya agentligi	25	1	122,7	9,1	1,3	0,7	1,7
13	Qizg‘iziston	Ijtimoiy fond	15	8	212,3	6,2	1,0	0,6	1,6

[97] Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil qilingan 13 ta mamlakatdan faqatgina O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasida fuqarolarning ish haqidan pensiya jamg‘armasiga badallar undirilmaydi. MDH davlatlarining deyarli barchasida ishlovchilarning badallari stavkasi ish beruvchilarning badal stavkasidan ancha pastdir. Dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida esa sug‘urta badallari stavkasi ish beruvchi va ishlovchilar o‘rtasida mutanosib qilib belgilangan. Badal to‘lovchilar va pensiya oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro nisbat Belorussiyada 0,7 ga teng bo‘lgan bo‘lsa, Ozarbayjonda 3,8 ga teng bo‘lgan.

8.3. O‘zbekiston Respublikasi Pensiya fondi moliyaviy resurslarining amaliy tahlili

Byudjetdan tashqari Pensiya fondining moliyaviy holati unga to‘lanadigan to‘lovlarning o‘z vaqtida va to‘liq miqdorda amalga oshirilishiga hamda pensiya ta’minoti boshqaruvining samarali tashkil etilishiga bog‘liqdir[98]. Davlat pensiya fondlari barqarorligini ta’minlash makroiqtisodiy nuqtayi nazardan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada AQShlik olim Jun Pengning quyidagi fikrlari ahamiyatlidir: “…pensiya ta’minoti boshqaruvi, nafaqat, pensiya ta’minotining moliyaviy barqarorligiga, balki butun davlat sektorining moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi, shu sababli pensiya ta’minoti boshqaruvi davlat pensiya tizimiga pensiya badalini to‘lovchi va kelgusida undan hukumat tomonidan kafolatlangan pensiya to‘lovlarini oluvchi har bir shaxsga dahldor bo‘lmog‘i lozim”[99].

Pensiya ta’minoti tizimining asosiy moliyaviy instituti – byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘lib, uning moliyaviy barqarorligi, birinchidan, to‘g‘ridan to‘g‘ri aholining ijtimoiy himoya tizimi barqarorligiga, ikkinchidan, Pensiya jamg‘armasiga to‘lanishi

[98] Vaxabov A.V. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash muammolari. “Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish” mavzusida O‘zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag‘ishlangan respublika iilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2017-yil 15-noyabr. – Toshkent: “Universitet”, 2017. 5-7-b.

[99] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 5.

lozim bo‘lgan majburiy to‘lovlar va badallar hamda boshqa to‘lovlarga bog‘liq bo‘ladi. Qolaversa, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligi davlatning ijtimoiy funksiyasiga ijobiy ta’sir qiladi. Shu sababli, mazkur jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalarining muntazam ravishda takomillashtirilib borilishi, tushumlarning o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta’minlashga erishish Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-sonli qaroriga va unga ilova qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizom”[100]ga ko‘ra Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi: majburiy to‘lovlar va badallar hamda boshqa to‘lovlar hisobiga shakllantiriladi.

Qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksida “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek, boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlash belgilangan”[101]. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan Pensiya jamg‘armasiga undiriladigan mablag‘lar soliqlarga tenglashtirilgan bo‘lib, yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy ravishda undiriladi va mablag‘larning o‘z vaqtida to‘liq undirilishi Davlat soliq qo‘mitasi zimmasiga yuklatilgan.

So‘nggi yillarda davlat pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish yuzasidan keng ko‘lamli huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash tizimini tubdan

[100] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-sonli qarori asosida tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizom.

[101] O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 37-modda.

takomillashtirish, pensionerlar, talabalar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini so‘zsiz ta’minlash, ularning O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida xarid qiladigan tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni to‘siqlarsiz amalga oshirishi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida 2017-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2753-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror mamlakatimiz hududlarida ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar to‘lashdagi mavjud ahvolni tanqidiy tahlil qilish natijasida qabul qilingan bo‘lib, 2017-yil fevral oyidan boshlab[102]:

– barcha turdagi pensiyalarni to‘lash hech qanday cheklovlarsiz to‘liq hajmda naqd shaklda amalga oshirilishi;

– 58 tog‘li va olis tumanlarda joylashgan byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi to‘lash, shuningdek, ushbu tumanlar aholisiga ijtimoiy to‘lovlar ham hech qanday cheklovlarsiz to‘liq hajmda naqd shaklda amalga oshirilishi;

– oliy o‘quv yurtlari talabalariga stipendiya to‘lash 50 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda naqd shaklda amalga oshirilishi belgilangan.

Fikrimizcha, ushbu qaror ijrosini ta’minlash ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar hamda ularga tenglashtirilgan to‘lovlarni amalga oshirish bilan bog‘liq vaziyatni tubdan yaxshilash va fuqarolarning o‘z pul mablag‘larini o‘zlariga qulay shaklda olish bo‘yicha qonuniy huquqlarini to‘la ta’minlashga xizmat qiladi.

Pensiya jamg‘armasining daromadlari shakllantirishda muhim o‘rinni yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar egallaydi. Yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar 2014-yilga nazar soladigan bo‘lsak, jami daromadlarga nisbatan 56,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yilga kelib 50,81 foiz bo‘lgan. Bunda pasayish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin. Fuqarolarning ish haqidan majburiy sug‘urta badallari esa o‘sish

[102] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2753-sonli qarori.

tendensiyasiga ega bo‘lmoqda, ya’ni, 2014-yilda jami daromadlarga nisbatan ushbu daromad turining ulushi 14,4 foizga teng bo‘lsa, 2018-yilga kelib, 19,2 foizga o‘sgan. Boshqa daromadlar ulushiga ham e’tibor beradigan bo‘lsak, yildan-yilga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin (1-ilova).

O‘zbekistonda davlat pensiya ta’minoti byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan amalga oshirilishini inobatga oladigan bo‘lsak, 2017-yilda Pensiya jamg‘armasi daromadlarining YaIM tarkibidagi ulushi 7,8 foizni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich taraqqiy etgan mamlakatlarda, xususan, Fransiyada 13,7 foizni, Germaniyada 11,3 foizni, Yaponiyada 10,2 foizni, Shvetsiyada 8,2 foizni, AQShda 6,8 foizni, Rossiyada 9,2 foizni tashkil qilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bunda taraqqiy etgan mamlakatlarning faqat davlat pensiya ta’minoti inobatga olingan, ya’ni ushbu mamlakatlardagi xususiy pensiya fondlari xarajatlari hisobga olinmagan. Albatta, agar taraqqiy etgan mamlakatlarda xususiy pensiya fondlari xarajatlari ham hisobga olinadigan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich bir muncha yuqori bo‘lishi aniq. Chunki taraqqiy etgan mamlakatlarda xususiy pensiya fondlari davlat pensiya fondlari bilan parallel ravishda faoliyat yuritib, aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ham xususiy pensiya fondlarining faoliyati davlat tomonidan nazorat qilib boriladi.

O‘zbekistonda pensiya ta’minotini amalga oshiruvchi asosiy moliyaviy muassasa bo‘lgan Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligiga Pensiya jamg‘armasiga jamlanadigan mablag‘larning hajmi va ularning o‘z vaqtida undirilishi hamda Pensiya jamg‘armasidan to‘lanadigan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarning moliyalashtirilishi ta’sir ko‘rsatadi. Pensiya jamg‘armasining respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatuvchi quyidagi jadvaldagi statistik ma’lumotlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2017-yilda Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari 2011-yilga nisbatan 3,1 martaga ortgan. 2011-2017-yillarda Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining o‘sish sur’atlari mamlakat YaIMning o‘zgarishi bilan sinxron holda o‘sgan bo‘lib, unga ko‘ra mazkur yillarda Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining o‘sish sur’atlari YaIMning o‘sish

sur’atlaridan yuqori bo‘lgan, faqat 2017-yilda YaIMning o‘sish sur’atlari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining o‘sish sur’atlaridan ortda qolgan. Buning asosiy sababi 2013-2018-yillarda fuqarolarning ish haqidan undiriladigan sug‘urta badali stavkasi oshirib borilgan va boshqa majburiy to‘lovlar stavkasi o‘zgarmasdan saqlab qolingan hamda 2015-yildan boshlab kichik biznes subyektlari va mikrofirmalar uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkalarining 25 foizdan 15 foizga tushirilganligi bilan izohlanadi.

8.3-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari va uning yalpi ichki mahsulotga nisbati[103]

Ko‘rsatkichlar	2013-yil (bazis)	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil
Yalpi ichki mahsulot (nominal) mlrd so‘mda	118987	144868	171369	199993,4	254043,1	361951,1
Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari mlrd so‘mda	10302,1	13013,7	16557	18113,3	19505,1	23240,1
Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %da	8,7	9,0	9,7	9,1	7,7	6,4

2013-2018-yillarda Pensiya jamg‘armasi daromad manbalaridan tushumlar miqdorlarining tarkibiy tahlili shundan dalolat beradiki, bunda Pensiya jamg‘armasining asosiy daromad manbalaridan biri yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, mazkur majburiy to‘lovdan Pensiya jamg‘armasiga tushumlar Pensiya jamg‘armasining jami daromadlarining 50-60 foizini tashkil etayotganligini va uning ulushi yildan-yilga kamayish tendensiyasiga ega bo‘lib borayotganligini ko‘rish mumkin. Fuqarolardan olinadigan

[103] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi 1449-sonli, 2011-yil 30-dekabrdagi 1675-sonli, 2012-yil 25-dekabrdagi 1887-sonli, 2013-yil 25-dekabr 2099-sonli, 2014-yil 4-dekabrdagi 2270-sonli, 2015-yil 22-dekabrdagi 2455-sonli, 2016-yil 27-dekabrdagi 2609-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli qarori, Moliya vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

sug‘urta badallari esa Pensiya jamg‘armasining jami daromadlari tarkibida 2013-yildagi 14,4 foizdan 2018-yilda 20,5 foizga ortgan. Yil boshiga qoldiq esa 2018-yilda 12,9 foizni tashkil qilib, 2013-yilga nisbatan 7 foizga ortgan.

8.4. O‘zbekiston Respublikasi Pensiya fondi mablag‘lari sarflanishining amaliy tahlili

Pensiya jamg‘armasining xarajatlari tarkibida asosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovlari hissasiga to‘g‘ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida dinamik o‘zgarish xususiyatiga egadir. 2014-yilda jami xarajatlarini tarkibida ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovlari xarajatlari 88,3 foiz, 2015-yilda 86 foiz, 2016-yilda 81,6 foiz, 2017-yilda esa bu xarajat turi bo‘yicha 85,2 foizni tashkil qilgan. Pensiya jamg‘armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo‘lib, uning ulushi o‘sish xususiyatiga egadir. Agar 2013-yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 8,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-

Statistika bo‘yicha 2019-yil 1-mart holatiga ko‘ra, respublikamizda pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni 3 515 005 kishini tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-mart oylarida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida jami 1,1 trln. so‘m miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 52,5 % byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar va 47,5 % respublika va mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan.

8.4-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan 2014-2018-yillarda yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar soni[104]

№	Ko‘rsatkichlar	2014- yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil
1	**Hisobot davrida yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar jami soni**	**163769**	**183868**	**225307**	**257812**	**298007**
2	**Pensiyalar**	**139219**	**157491**	**195 928**	**225317**	**251894**
2.1.	yoshga doir	111123	128292	164622	192 157	206 176
2.2.	nogironlik	13608	14 564	15005	16101	25304
2.3.	boquvchisini yo‘qotganlik	14488	14 635	16301	17059	20414
3	**Ijtimoiy nafaqalar**	**24550**	**26 377**	**29379**	**32495**	**46113**
3.1.	yoshga doir	631	877	1802	2934	5291
3.2.	1 va 2-guruh nogiron (staji yo‘q)	2028	2386	2945	3821	7621
3.3.	boquvchisini yo‘qotgan	3148	3393	3802	4267	4535
3.4.	1 va 2-guruh 16 yoshdan katta nogiron	6509	6299	6473	6379	9660
3.5.	16 yoshgacha nogiron bola	12234	13422	14357	15094	19006

Bu esa oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish, uning mablag‘laridan samarali foydalanish tizimidagi say-harakatlari natijasidir (2-ilova).

O‘zbekistonda 2019-yilning 1-yanvar holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar soni 3296,8 ming nafarni tashkil qilib, mamlakat aholisining 10,2 foizini qamrab oladi. HelpAge International xalqaro xayriya tashkiloti tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamkorligida tuzilgan va 1 oktabr – “Xalqaro keksa kishilar kuni”da e’lon qilingan Global AgeWatch Index 2014 reytingi natijalariga ko‘ra, 2050-yilga kelib, O‘zbekiston umumiy aholisi sonida keksa kishilar ulushi 19,4 foizga yetishi taxmin qilingan.

[104] Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yillik hisoboti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

2018-yilda Pensiya jamg‘armasi tomonidan fuqarolarga yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar jami soni 298007 tani tashkil qilib, bu ko‘rsatkich 2014-yilga nisbatan 134238 taga ko‘pdir. 2014-2018-yillarda o‘rta hisobda yiliga 193969 ta pensiyalar hamda 31782 ta nafaqalar tayinlangan (5-jadval).

Bunday holat Pensiya jamg‘armasi tomonidan fuqarolarga yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar sonining muttasil o‘sib borish tendensiyasiga ega ekanligini hamda mamlakatimizda pensiya va nafaqa oluvchi fuqarolar sonining ko‘payib borayotganligini ko‘rsatadi.

So‘nggi besh yil ichida byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan jami pensiya va nafaqa oluvchilarning jami aholidagi ulushi 9,7 foizdan 10,3 foizga ortgan yoki 375,2 ming nafarga ko‘paygan. Jami pensiya va nafaqa oluvchilarning mehnatga layoqatli aholiga nisbati 2014-yilda 22,2 foizdan 2018-yil oxirida 23,0 foizga yetgan. Ammo mehnatga layoqatli aholining atigi 4,8 mln nafari yoki 33 foizi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ijtimoiy sug‘urta badallari to‘lamoqdalar[105].

Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga muvofiq, fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimi barqaror faoliyat yuritishi uchun pensiya ta’minoti tizimiga sug‘urta badali to‘lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o‘zaro nisbati 4 : 1 darajada bo‘lishi ijobiy holat hisoblanadi. Biroq, bugungi kunda O‘zbekistonda mazkur ko‘rsatkich amalda 1,5 : 1 nisbatni tashkil qiladi.

2018-2025-yillar uchun demografik prognozlarga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi tarkibida pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 mln kishiga) ko‘payishi kutilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining mutanosib ravishda ortishiga olib keladi.

Yoshga doir pensiyaga chiqish uchun murojaat qilgan fuqarolarning yillik soni 2017-yilda 2013-yilga nisbatan 1,85 barobarga yoki 95,1 ming nafarga ko‘paygan. Agar, yoshga doir pensiyani tayinlashning amaldagi tartiblari saqlab qolinadigan bo‘lsa, murojaatlar soni 2025-

[105] Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yillik hisoboti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

yilga borib 300 ming nafardan ortishi prognoz qilinmoqda. Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaatlarning yuqori sur’atlarda ko‘payib borishiga, tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan (o‘tgan asrning 50–60 yillaridagi “Bebi-bum” davri) davrda tug‘ilgan fuqarolarning umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekistonda ham jahon mamlakatlarida sodir bo‘lganidek, demografik vaziyatning keskinlashuvi, jumladan, aholi yosh tarkibining jiddiy o‘zgarishi, ya’ni aholi yosh tarkibida keksa yoshdagi fuqarolar ulushining ortib borishi, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining oshib borishi kabilar pensiya ta’minoti tizimi xarajatlarining ko‘payishiga olib kelmoqda.

Jahon bankining hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 2017-yilda 60 yosh va undan yuqori yoshdagilar 962 mln kishini tashkil etib, 1980-yilga nisbatan 383 mln kishiga yoki 1,5 barobarga ko‘paygan. Mazkur ko‘rsatkich 2030-yilga borib, 1,4 mlrd ga, 2050-yilga kelib esa 2017-yilga nisbatan 2 baravar ko‘payishi, ya’ni 2,1 mlrd kishini tashkil etishi prognoz qilingan.

Bugungi kunda umr ko‘rish davomiyligi dunyo bo‘yicha o‘rtacha 71,9 yoshni tashkil etadi. Bu esa 1990-1995-yillarga nisbatan 7,3 yilga ko‘pdir. 2030-yillarga kelib, umr ko‘rish davomiyligi o‘rtacha 73,8 yoshni, 2050-yillarga kelib esa ushbu ko‘rsatkich 82,6 yoshni tashkil etishi prognoz qilingan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 75 yoshdan yuqori bo‘lgan barcha mamlakatlarda pensiya yoshi o‘rtacha 65 yoshni tashkil etmoqda.

O‘zbekistonda umumiy belgilangan pensiyaga chiqish yoshi 1956-yilda sobiq Ittifoq mamlakatlari fuqarolarining pensiya ta’minoti qonunchiligi bilan belgilangan miqdorda (ayollarga 55 yosh, erkaklarga 60 yosh) saqlanib turibdi. O‘sha davrning statistikasiga nazar soladigan bo‘lsak, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 47 yoshni tashkil etganligini ta’kidlash o‘rinlidir. O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi ko‘rsatkichi so‘nggi yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, jumladan, 1991-yilda ushbu ko‘rsatkich 66,4 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilda 70,8 yoshni, 2010-yilda 73,0 yoshni, 2017-yilda 73,8 yoshni (ayollarda – 76,2 yosh, erkaklarda – 71,4 yosh) tashkil etgan.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining “Ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlari to‘g‘risida”gi 102-sonli Konvensiyasining 26-moddasiga muvofiq, “belgilangan pensiyaga chiqish yoshi 65 yoshdan oshmasligi lozim yoki vakolatli organlar tomonidan mamlakatdagi keksalarning pensiyaga chiqish yoshini belgilashda ularning mehnatga layoqati hisobga olinishi zarur”. Demak, Xalqaro Mehnat Tashkilotining talablariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha pensiyaga chiqish yoshi 65 yoshdan oshmasligi maqsadga muvofiq, ammo bunda keksalarning mehnatga layoqatliligidan kelib chiqib, bu yosh oshirilishi ham mumkin. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha o‘rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil qiladi. Bunday holat, o‘z navbatida, O‘zbekistonda ham pensiyaga chiqish yoshini bosqichma-bosqich oshirib borish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Amaldagi pensiya ta’minoti tizimi, 7 yildan kam bo‘lmagan stajga ega bo‘lgan shaxslarga pensiya tayinlanishini nazarda tutadi. Bu huquq, faqatgina 7 yil ishlab, o‘zining butun mehnatga layoqatlilik davri uchun Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirishda eng kam hissa qo‘shgan shaxslarga pensiya olish imkonini beradi.

Fuqarolarning pensiya miqdorlari va mehnat qilish davomiyligi o‘rtasidagi bog‘liqlik zaif bo‘lib, xususan, 7 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan va 10 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan erkak pensionerlarning pensiya miqdorlarining o‘rtacha miqdorlari o‘rtasidagi farq 13 ming so‘mni yoki 6 foizga farq qiladi yoki 20 yillik stajga ega bo‘lgan va 25 yillik stajga ega bo‘lgan pensionerlarning pensiyalari o‘rtasidagi farq 93,4 ming so‘mni yoki 23,2 foizni tashkil etmoqda. Bundan ko‘rinadiki, pensiya miqdori va xodimning mehnat davomiyligi ulushi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik sezilarsizdir va fuqarolarning munosib pensiya olishlari uchun mehnat faoliyatini rag‘batlantirish maqsadiga ega emas.

Mamlakatda pensiya ta’minoti darajasini, uning samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri qoplash koeffitsiyenti (wage replacement rate) hisoblanadi. Ishlovchi mehnat qilish jarayonida ma’lum miqdorda ish haqi oladi. Qonunchilikda belgilangan pensiya yoshiga yetganida pensiyaga chiqadi va tegishli miqdorda pensiya oladi (davlat pensiya ta’minoti, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti va

h.k.). Olayotgan pensiya miqdori mehnat qilgan davrda olgan ish haqining qancha foizini tashkil etayotganligini qoplash koeffitsiyenti ifodalaydi. Bu ko‘rsatkich o‘rtacha pensiya miqdorining (Db) o‘rtacha ish haqiga (Da) nisbatini (K = Db / Da * 100) ifodalaydi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 40 foizdan kam bo‘lmasligi tavsiya etiladi. O‘zbekistonda mazkur ko‘rsatkich o‘rta hisobda 42,9 foizni tashkil qilgan.

Pensiyaning miqdoriga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri pensiya miqdorini hisoblashda olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining maksimal chegarasining belgilanganligidir. O‘zbekistonda mazkur chegara, amaldagi qonunchilikka ko‘ra, eng kam oylik ish haqining 8 barobari miqdorida belgilangan.

Bugungi kunda, qonunchilikda, yetarlicha mehnat stajiga ega bo‘lmasdan turib, ijtimoiy nafaqa olish imkoniyatining mavjudligi, nafaqa miqdori umumiy belgilangan yoshga doir pensiyaning eng kam miqdoridan 1,6 barobarga kamligi, minimal (to‘liqsiz) pensiya miqdoridan esa 1,2 barobarga ko‘pligi iqtisodiy faol aholining pensiya ta’minotidagi ishtirokidan manfaatdor emasligini ko‘rsatadi. Bu esa mehnat staji davomiyligi va pensiya miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining “Ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlari to‘g‘risida”gi 102-sonli Konvensiyaning 29-moddasi 2-bandiga ko‘ra, fuqarolar keksalik davrida minimal ta’minot (pensiya) olishlari uchun kamida 15 yil davomida sug‘urta badallari to‘lashlari zarur. Pensiyaga chiqish uchun talab qilinuvchi minimal mehnat stajining past darajada belgilanganligi, amalda fuqarolarning davlat ijtimoiy sug‘urtasidagi ishtirokiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda pensiya ta’minoti tizimining moliyaviy holati tahlili shundan dalolat beradiki, Pensiya jamg‘armasi xarajatlari yildan-yilga oshib borish tendensiyasiga ega. Bunday holat so‘nggi yillarda pensiya yoshiga yetgan fuqarolar sonining ko‘payib borishi, fuqarolarga to‘liqsiz mehnat staji bilan pensiya tayinlanishi, imtiyozli pensiya oluvchilar sonining ortib borishi va kishilarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining oshib borayotganligini ko‘rsatadi;

– fuqarolarning pensiya miqdori va mehnat staji o‘rtasidagi tafovutlar, pensiyaga to‘lanadigan ustamalar, imtiyozli shartlardagi pensiyalar, to‘liqsiz mehnat stajiga ega bo‘lmagan fuqarolarga tayinlanadigan davlat pensiyalari kabilar pensiya ta’minoti tizimini jiddiy isloh qilish zarurligini ko‘rsatadi;

– sug‘urta badali bo‘yicha tushumlar hajmi Pensiya jamg‘armasi daromadlari hajmining o‘sishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir va bu bog‘liqlik juda kuchli. Shu sababli, Pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta’minlashda sug‘urta badali to‘lovi bo‘yicha tushumlar miqdorini ko‘paytirish eng muhim omillardan hisoblanadi. Biroq, Pensiya jamg‘armasining kelajakda ham barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash, uni kelgusidagi demografik va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslagan holda takomillashtirib borish, daromad manbalaridan tushumlar miqdorini ko‘paytirish makroiqtisodiy darajadagi dolzarb masaladir. Ushbu masala, avvalo, demografik omillarga bog‘liq bo‘ladi:

– *ijtimoiy sug‘urta tizimini moliyalashtirishda aholining mutanosib ishtirokini ta’minlash zarurligi:* fuqarolarning ijtimoiy sug‘urta tizimida uzluksiz va uzoq muddatli ishtirokini rag‘batlantirish mexanizmlarining murakkabligi va shaffof emasligi; mehnatga layoqatli aholining deyarli 60 foizi pensiya ta’minoti tizimiga qamrab olinmaganligi, ularning aksariyatini norasmiy sektorda band bo‘lganlar va mehnat migrantlari tashkil etishi o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda pensiya ta’minoti tizimiga badal to‘lamagan fuqarolarning aksariyati pensiya olish huquqiga ega bo‘lmasligi holatini yuzaga keltiradi. Buning natijasida, birinchidan, Pensiya jamg‘armasining moliyaviy mablag‘larining kamayishiga, ikkinchidan, fuqarolarning keksayganda turmush farovonligining yomonlashuviga olib kelishi mumkin;

– *moliyaviy mablag‘larni taqsimlashdagi samarasiz vositalar va ijtimoiy sug‘urtadagi rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning zaifligi:* Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining sezilarli qismi imtiyozli pensiyalarni moliyalashtirishga sarflanayotganligi, imtiyozli pensiyalarning o‘rtacha miqdori yoshga doir pensiyaning o‘rtacha miqdoridan yuqoriligi; ish stajiga nisbatan 7 yil davomiylikdagi minimal

talabning mavjudligi fuqarolarning davlat ijtimoiy sug‘urtasidagi ishtirokida salbiy ta’sir o‘tkazadi;

– Pensiya jamg‘armasining daromadlari tarkibida asosiy tushum ish haqi fondiga nisbatan ajratiladigan yagona ijtimoiy to‘lovning hissasiga to‘g‘ri kelib, yillar davomida uning jami daromaddagi tutgan ulushi pasayish xususiyatiga egadir. Aksincha, fuqarolarning ish haqlari hisobidan Pensiya jamg‘armasiga ajratiladigan ijtimoiy sug‘urta badallari hissasi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi aholining ish bilan bandligining oshish sur’atlari va o‘tgan yillarga nisbatan ajratma stavkalarining oshishi hisoblanadi.

9-BOB. SUG‘ORILADIGAN YER MAYDONLARINING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH FONDI DAROMADLARI VA XARAJATLARI

9.1. Sug‘oriladigan yer maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash fondining maqsadi va vazifalari

Tuproq unumdorligini saqlash, yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, meliorativ tadbirlarni samarali tashkil etish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishning asosiy omili vazifasini o‘taydi. Shu bois yurtimizda mazkur sohani isloh qilish asnosi yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov alohida uqtirganidek, bu vazifa eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Madomiki, shunday ekan, Istiqlol yillari amalga oshirilgan melioratsiya ishlarini sarhisob qilish, xususan, ularning samaradorligini baholash orqali tendensiyalarini aniqlash va kelgusi istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug‘orma dehqonchilik mintaqalarida yerlarning meliorativ holati tuproqlarning sho‘rlanganlik, sho‘rtoblanganlik, gipslashganlik, botqoqlik, sizot suvlarining chuqurligi va sho‘rlanganligi darajasi kabi asosiy ko‘rsatkichlarga qarab baholanadi. Bu tizimning Mustaqillik davridagi samaradorligini baholash jarayonini, bizningcha, quyidagi uch bosqichga bo‘lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

Birinchisi – 1990-2005-yillar, suv xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bergan davr *(2003-yilgacha suv xo‘jaligi ma’muriy-hududiy boshqaruv asosida boshqarilgan).*

Ikkinchisi – 2005-2012-yillar, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida chuqur islohotlar boshlangan davr *(2007-2012 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi qabul qilinib, aniq maqsadlar, meliorativ tadbirlarni amalga oshirishning moliyaviy manbalari va qat’iy rejalar belgilab olindi).*

Uchinchisi – 2012-yildan hozirga qadar. Bu vaqt oralig‘ida yuqorida tilga olingan hujjatda belgilangan vazifalar bajarilishi, ularning ijobiy jihatlarini kuchaytirish va ayni jabhadagi intilishlarning mantiqiy davomi sifatida 2013-2017-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturini qabul qilib, ijrosini ta’minlash diqqat markazida bo‘ldi.

Ma’lumki, yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish aksariyat hollarda yer fondi tarkibiga, yer resurslarining ulardan foydalanuvchilar, hududlar, yer uchastkalari ijarachilari hamda mulkdorlar o‘rtasida to‘g‘ri va oqilona taqsimlanishiga bog‘liq. Yer fondi toifalari esa ko‘p jihatdan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari tarkibi bilan belgilanadi. Shu bois, ular bir toifadan ikkinchisiga o‘tib turishi, bu yer fondida tarkibiy o‘zgarishlar yuz berishiga olib kelishi mumkin.

Tahlillarga ko‘ra, 1990-2017-yillar oralig‘ida respublika yer fondining hajmi unchalik o‘zgarmagan bo‘lsada, uning tarkibi hisoblangan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hajmi qisqargan. Demak, yer fondi tarkibida qator o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Uning asosiy sababi esa yaylovlar o‘rmon fondi yerlari sirasiga o‘tgani, boshqa toifadagi yerlar ham mutlaq, ham nisbiy miqdorda ko‘paygani bilan bog‘liqdir.

Bu fikrimizni quyidagi dalillar ham tasdiqlaydi: 1990-yili jami qishloq xo‘jaligi yerlari 28080,4 ming gektar bo‘lgan. Shundan 14,9 foizi ekinzorlar, 1,3 foizi ko‘p yillik daraxtzorlar, 0,2 foizi bo‘z yerlar, 83,6 foizi yaylovlar va pichanzorlar hisoblangan. 2017-yilga kelib, jami qishloq xo‘jaligi yerlari 25621,4 ming gektarni tashkil etgani holda, 2007-yilga nisbatan qariyb 8,8 foizga ozaygan. Chunonchi, ekinzorlar 3,2 foizga, yaylov va pichanzorlar 10 foizga qisqargan. Ko‘p yillik daraxtzorlar esa, aksincha, 1,5 foizga ko‘paygan (10.1-jadval).

9.1-jadval

Respublika qishloq xo‘jaligi yer turlarining foydalanish maqsadlariga ko‘ra taqsimlanishi (ming ga)

Yer turlari	1990 y.	1995 y.	1997 y.	2007 y.	2017 y.	Jami qishloq xo‘jaligi yerlaridagi ulushi, %		2017-yilda 1990-yilga nisbatan, % da
						1990y.	2017 y.	
Ekin yerlari	**4176,5**	**4092,8**	**4056,6**	**4057,2**	**4043,6**	**14,9**	**15,8**	**96,8**
sh.j., sug‘oriladigan	3407,3	3339,4	3308,3	3303,6	3288,2	12,1	12,8	96,5
lalmikor yerlar	769,2	752,9	750,4	746	755,4	2,7	2,9	98,2
Ko‘p yillik daraxtzorlar	**366,8**	**374,5**	**346,9**	**335,8**	**371,9**	**1,3**	**1,4**	**101,5**
sh.j., sug‘oriladigan	354,5	361,0	332,3	322,7	354,1	1,2	1,4	99,9
Bo‘z yerlar	**62,1**	**69,2**	**82,8**	**83,6**	**80,3**	**0,2**	**0,3**	**129**
sh.j., sug‘oriladigan	25,9	36,0	48,4	48,4	46,9	0,09	0,2	181
Yaylov va pichanzorlar	**23475**	**22502,7**	**22246,4**	**21207,4**	**21125,6**	**83,6**	**82,4**	**90**
sh.j., sug‘oriladigan	37,3	42,0	44,3	43,4	43,0	0,1	0,16	115
Jami qishloq xo‘jaligi yerlari	**28080,4**	**27039,1**	**26734,5**	**25683,9**	**25621,4**	**100**	**100**	**97,6**

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.*

Albatta, ko‘p yillik daraxtzorlarning kengaygani mamlakatimizda meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida diqqatga molik islohotlar olib borilganining samarasidir. Lekin bo‘z yerlar yigirma besh yil mobaynida 29 foizga ko‘payganini qanday izohlash mumkin? Javobi tayyor: ular sug‘orish qoidalari buzilishi, tuproqning meliorativ holati yomonlashishi, yer eroziyasi, kuchli sho‘rlanishi, gipslanishi tufayli qishloq xo‘jaligi oborotidan chiqqan yerlar hisobiga kengaydi. Bunday

noxushliklar asosan 1990-2005-yillarda qizg‘in tus oldi. Keyinchalik bu jarayonni pasaytirish tendensiyalari kuzatila boshlandi.

Binobarin, sug‘oriladigan mintaqadagi bo‘z yerlar sug‘oriladigan ekinzorlar chegaralarida kichik uchastkalar ko‘rinishida joylashgan. Agar ular sug‘orish va kollektor shoxobchalari bilan ta’minlanib, zarur meliorativ choralar qo‘llanilsa, avvalgi holati qayta tiklanishi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi (oboroti)ga qaytarilishi mumkin.

Sohada erdan foydalanish samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan qaraganda, dehqonchilik qilinadigan yerlar tarkibini ulardan xo‘jalik maqsadida foydalanilishiga ko‘ra o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bunda sug‘oriladigan yerlar alohida o‘rin tutadi. Chunki etishtiriladigan ziroat mahsulotlarining asosiy qismi ularning hissasiga to‘g‘ri keladi. Ammo ekinzorlar toifasidagi sug‘oriladigan yerlar ulushi 2017-yili 1990-yildagiga nisbatan 3,4 foizga kamaygan.

Tahlil natijalari respublikamizdagi qishloq xo‘jaligi yerlarining asosiy qismi yaylov va pichanzorlardan iborat ekanligini isbotladi. Bu, eng avvalo, hududlarning geografik joylashuvi va o‘ziga xos xususiyatlariga daxldor. Aniqrog‘i, mamlakatimiz hududining aksariyat qismini tog‘ va tog‘oldi zonalari, cho‘llar va chala cho‘llar egallagan. Bu turdagi yerlarning jami qishloq xo‘jaligi yerlari tarkibidagi salmog‘i 1990-yili 83,6 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilda 82,4 foizni tashkil etdi.

Mamlakat qishloq xo‘jaligida haydaladigan yerlar muhim ahamiyatga ega. Ularning qishloq xo‘jaligi yerlari tarkibidagi jami ulushi 2017-yili 15,8 foiz bo‘ldi. 1990-yili haydaladigan ekinzorlarning 81,6 foizi, 2017-yili 81,3 foizi sug‘oriladigan yerlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

Hududlarda yerdan samarali foydalanish uchun uning ham miqdoriy, ham sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olish darkor. Diyorimizdagi sug‘oriladigan yerlar tuproq sifatining viloyatlar kesimida baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha tavsifi shuni ko‘rsatdiki, 2017-yil holatida Qoraqalpog‘istonda sug‘oriladigan yerlar respublikadagi sug‘oriladigan yerlarning 12,1 foizini tashkil qilgani holda ball-bonitet ko‘rsatkichi eng past bo‘lgan. Hududdagi sug‘oriladigan yerlarning 56,7 foizi o‘rtachadan past, 40,7 foizi esa o‘rtacha yerlar bo‘lib chiqqan *(10.2-jadval).*

Yurtimizdagi jami sug‘oriladigan yerlarning hududlar bo‘yicha eng yuqori ulushi Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri keladi. Aniqrog‘i, mamlakatimizdagi sug‘oriladigan jami yerlarning 12,5 foizi shu vohada joylashgan. Ularning 69,2 foizi o‘rtacha, 20,3 foizi yaxshi, 8,9 foizi esa o‘rtachadan past yerlardir.

Sug‘oriladigan yerlarning sifat jihatidan asosiy ko‘rsatkichi sanalgan ball-boniteti respublika bo‘yicha o‘rtacha 55 ballga to‘g‘ri keldi. Bu ko‘rsatkichdan past bo‘lgan hududlarga Buxoro, Jizzax viloyatlari kiritildi. **V** guruh juda yaxshi yerlar toifasida viloyatlar kesimidagi eng yuqori natija Namangan viloyatiga nasib etdi. U viloyatdagi jami sug‘oriladigan yerlarning 8,9 foizini tashkil qildi.

10.2-jadval.

Respublikada sug‘oriladigan erlarning tuproq sifatini baholash ko‘rsatkichlari, 2017 yil holatiga ko‘ra

Hududlar	**O‘rtacha ball boniteti**	**Sug‘oriladigan yer maydoni**	**Respublikadagi ulushi**	**I guruh yomon yerlar, % da**	**II guruh o‘rtadan pasterlar, % da**	**III guruh o‘rtacha yerlar, % da**	**IV guruh yaxshi yerlar, % da**	**V guruh juda yaxshi yerlar, % da**
	0-100	**ga**	**% da**	**0-20**	**21-40**	**41-60**	**61-80**	**81-100**
Qoraqalpog‘iston R.	41,3	445065	12,1	0,04	56,2	40,7	3,0	-
Andijon	57,5	232862	6,35	-	9,9	44,8	42,6	2,5
Buxoro	51	229110	6,2	0,1	28,0	45,9	25,9	-
Jizzax	51	271075	7,4	-	9,2	75,8	14,5	0,05
Qashqadaryo	52,5	460118,2	12,5	0	8,9	69,2	20,3	1,5
Namangan	60	234943	6,4	-	19,5	37,5	34,1	8,9
Navoiy	53	106144	2,9	0,2	24,6	41,5	32,2	1,4
Samarqand	59,3	306406	8,3	-	3,5	51,8	39,7	5,0
Surxondaryo	56	271091	7,4	-	13,8	57,4	26,6	2,2
Sirdaryo	53	267395	7,3	-	10,1	65,5	24,4	-
Toshkent	59	325909	8,0	0,007	5,3	47,8	43,9	2,9
Farg‘ona	56	296933	8,1	-	16,8	46,5	34,8	1,8
Xorazm	54	221049	6,0	-	17,6	52,3	30,1	0,02
Jami	**55**	**3668101**	**100**	**0,002**	**17,9**	**53,0**	**27,0**	**2,0**

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.*

Sirasini aytganda, 2017-yil holatida respublika bo‘yicha 3668101 gektar sug‘oriladigan yerning 53 foizi o‘rtacha, 17,9 foizi

o‘rtachadan past, 27 foizi yaxshi yerlar, 2 foizi esa juda yaxshi yerlar ekanligi qayd etildi.

Yerlarni sifat jihatdan tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan biri uning sho‘rlanganlik darajasi hisoblanadi. Jadval ma’lumotlari tahlili respublika bo‘yicha sho‘rlanmagan yerlar 2017-yili 1990-yildagiga nisbatan 272,7 ming gektarga yoki 13,5 foizga ko‘payganini, sho‘rlangan maydonlar 7,7 foizga kamayganini ko‘rsatdi. Qolaversa, shu davr mobaynida kam sho‘rlangan yerlar 45,3 ming gektar (3,3 foiz)ga, o‘rtacha sho‘rlangan yerlar 43,2 ming gektar (7,0 foiz)ga, kuchli sho‘rlangan maydonlar 77,1 ming gektar (42,5 foiz)ga qisqargan. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimiz miqyosida tuproqning sifat jihatidan tarkibiy tuzilishi ijobiy tomonga o‘zgarayotganidan dalolat beradi *(10.3-jadval).*

10.3-jadval.

Respublika bo‘yicha sug‘oriladigan yerlar sho‘rlanish darajasining o‘zgarishi

Yillar	Umumiy sug‘oriladigan maydon, (ming ga)	Sho‘rlanish darajasi									
		sho‘rlan-magan maydonlar		jami sho‘rlangan maydonlar		shu jumladan					
						kam sho‘rlangan		o‘rtacha sho‘rlan-gan		kuchli sho‘rlan-gan	
		ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%
1990	4182,4	2016,9	48,2	2165,5	51,8	1369,7	32,8	613,1	14,7	182,6	4,4
1995	4213,2	1969,7	46,8	2243,5	53,2	1438,1	34,1	635,3	15,1	170,2	4,0
1997	4245,6	1944,6	45,8	2301,0	54,2	1263,3	29,8	847,6	20,0	190,1	4,5
2005	4273,6	2093,3	49,0	2180,3	51,0	1323,7	31,0	695,4	16,3	161,3	3,8
2007	4299,5	2167,1	50,4	2132,4	49,6	1360,0	31,6	642,9	15,0	129,5	3,0
2017	4289,6	2289,6	53,4	2000,0	46,6	1324,4	30,9	569,9	13,3	105,5	2,5
2017 y. 1990 y.ga nisbatan, %	102,5	113,5		92,3		96,7		93,0		57,5	

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida hisoblangan.*

Sizot suvlari sathining joylashishi ham yerlarning meliorativ holatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar sirasiga kiradi. Uning o‘zgarish dinamikasi tahlillaridan ayon bo‘lishicha, 1990-yili sug‘oriladigan

yerlarning 2 foizida sizot suvlari 0-1 metrgacha, 14 foizida 1-1,5 metrgacha, 21,6 foizida 1,5-2 metrgacha, 29,4 foizida 2-3 metrgacha, 33 foizida esa 3 metrdan past bo‘lgan sathlarda joylashgan. 2017-yilda esa 1990-yildagiga nisbatan sizot suvlarining 0-1 metrgacha sathi bo‘lgan ulushi 33,8 foizga, 1-1,5 metgacha sathi bo‘lgan ulushi 62,6 foizga, 1,5-2 metrgacha sathi bo‘lgan ulushi 10,5 foizga kamaygan. 2-3 metrgacha – 42,3 foizga, 3 metrdan past bo‘lgan ulush esa 8 foizga oshgan *(10.4-jadval).*

10.4-jadval

Respublika bo‘yicha sizot suvlari sathi joylashishining o‘zgarishi

Yillar	Umumiy sug‘oriladigan maydon	Sizot suvlari sathi bo‘yicha maydonlarning joylashishi									
		0-1 metr		1-1,5 metr		1,5-2 metr		2-3 metr		3 metrdan past	
		ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%
1990	4182,4	84,3	2,0	585,3	14,0	901,4	21,6	1230,1	29,4	1382,2	33,0
1995	4213,2	77,3	1,8	540,9	12,8	803,7	19,1	1478,1	35,1	1431,0	34,0
1997	4245,7	95,0	2,2	501,1	11,8	850,1	20,0	1383,3	32,6	1415,3	33,3
2005	4273,6	166,2	3,9	372,1	8,7	1005,1	23,5	1434,4	33,6	1152,6	27,0
2007	4299,5	137,4	3,2	343,0	8,0	822,1	19,1	1592,6	37,0	1406,0	32,7
2017	4289,6	55,8	1,3	218,8	5,1	806,4	18,8	1750,2	40,8	1492,8	34,8
2017 y. 1990 y. ga nisbatan, %	102,5	66,2		37,4		89,5		142,3		108,0	

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida hisoblangan.*

Tuproq unumdorligiga keskin ravishda salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi sizot suvlarining 5-10 g/l va undan ortiq minerallashganlik holati 1990-1997-yillarda kuzatilmagan. 1997-yili esa barcha sug‘oriladigan yerlarning 1,1 foiziga taalluqli bo‘lgan. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga doir Davlat dasturi amalga oshirila boshlangach, bu ko‘rsatkich 2008-yildan bugungi qadar qayd etilmagan.

Qisqasi, tahlil qilingan yillarda yerlarning meliorativ holati yaxshilanish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Buni ijobiy holat sifatida

baholash kerak. Shu bilan bir qatorda, kelgusida meliorativ tadbirlarni samarali tashkil etishga, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan maqsadli harakatlarni quyidagi yo‘nalishlarga jalb etish, bizningcha, foydadan xoli bo‘lmaydi:

– meliorativ tadbirlar va unga sarflanayotgan moliyaviy mablag‘lar samaradorligini baholashning me’yoriy-huquqiy asoslarini mustahkamlash;

– meliorativ tadbirlarni amalga oshirish monitoringini yuritish tizimini takomillashtirish;

– tuproq unumdorligi masalalariga tegishli tendensiyalar va statistik ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun har besh yilda tabiiy (yer-suv) va boshqa resurslar (meliorativ texnika, sug‘orish tizimi)dagi o‘zgarishlar va jihatlarni inventarizatsiya qilishni yo‘lga qo‘yish.

Respublikamiz sharoitida sug‘oriladigan maydonlardan samarali foydalanish, sug‘oriladigan yerlarning unumdorligini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosili va sifatini oshirish – yerlarning meliorativ holatiga bevosita bog‘liqdir.

Hozirgi davrda respublikamizdagi mavjud 4,3 million gektar sug‘oriladigan maydonlarning qariyb 2,0 million gektari (46,7 %) turli darajada sho‘rlangan. Jumladan, 1 million 324 ming gektar (30,9 %) kam, 570 ming gektari (13,3 %) o‘rta va 105,5 ming gektari (2,5 %) kuchli sho‘rlangan yerlardir.

Ushbu sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilab borish va yer osti sizot suvlari sathini me’yor darajasida ushlab turish uchun 140 ming kilometr uzunlikdagi kollektor-drenaj tarmoqlari, 3475 dona vertikal drenaj quduqlari, 301 dona meliorativ nasos stansiyalar hamda 24839 dona meliorativ kuzatuv quduqlari xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Muhtaram Yurtboshimizning tashabbuslari va bevosita rahbarliklarida mamlakatimizning suv xo‘jaligi sohasini yanada rivojlantirish, uni zamonaviylashtirish, suvdan samarali va tejamli foydalanishni yo‘lga qo‘yish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash kabi dolzarb masalalarni o‘z ichiga qamrab olgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2007-yilning 29-oktabrdagi “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi, “O‘zmeliomashlizing” davlat lizing kompaniyasi, “Melioratsiya va boshqa suv xo‘jaligi ishlarini bajarishga ixtisoslashtirilgan 48 dona davlat unitar korxonalarining tashkil etilishi bu boradagi ishlar ko‘lamini yanada oshirish imkoniyatini yaratdi.

Ijozatingiz bilan, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2008–2017-yillar davomida olib borilgan ishlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

O‘tgan yillar davomida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ishlariga melioratsiya Jamg‘armasi tomonidan jami 748,7 milliard so‘m mablag‘ ajratildi.

Respublika bo‘yicha ushbu davrda 3 ming 561 kilometr uzunlikdagi (3144 km ochiq, 417 km yopiq-yotiq) kollektor-drenaj tarmoqlari, 143 dona meliorativ nasos agregatlari, 797 dona vertikal drenaj hamda 1417 dona kuzatuv quduqlarini rekonstruksiya qilish va qurish ishlari bajarildi.

Shuningdek, jami uzunligi 67 ming 205 kilometr bo‘lgan (62785 km ochiq, 4420 km yopiq-yotiq) kollektor-drenaj tarmoqlari, 5407 dona vertikal drenaj quduqlari, 194 dona meliorativ nasos agregatlari ta’mirlandi va tiklandi.

O‘z navbatida, Jamg‘arma mablag‘lari hisobiga “O‘zmeliomashlizing” kompaniyasi tomonidan xorijiy va mahalliy ishlab chiqaruvchilardan dastur doirasida 1450 dona meliorativ texnika, mashina va boshqa mexanizatsiyalash vositalari, shu jumladan 600 dona yuqori unumli ekskavatorlar, 180 dona buldozerlar, 88 dona avtotreylerlar va boshqalar xarid qilindi.

Yuqoridagi tadbirlarning bajarilishi natijasida loyihalar amalga oshirilgan hududlarda 1 million 200 ming gektardan ortiq sug‘oriladigan

maydonlarda yerosti sizot suvlari sathi me’yor darajada ushlab turilib, yerlarning meliorativ holati yaxshilanishiga va barqarorligi ta’minlanishiga erishildi hamda ushbu yerlarning meliorativ holati yomonlashuvining oldi olindi.

Respublika miqyosida kuchli va o‘rtacha sho‘rlangan maydonlar 105,0 ming gektarga, yerosti sizot suvlari sathi 2,0 metrgacha bo‘lgan maydonlar 117,6 ming gektarga kamayishiga erishildi.

Olib borilgan kuzatishlar, tadbirlar amalga oshirilgan hududlarda o‘rtacha hosildorlik gektaridan paxta maydonlarida 2,0–2,5, g‘allada 2,5–3,0 sentnerga oshganligini ko‘rsatdi.

2008–2017-yillarda amalga oshirilgan tadbirlarning samaradorligini to‘g‘ri baholagan holda kelgusida ushbu ishlarni davom ettirish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sug‘orish va meliorativ tarmoqlarni takomillashtirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va sug‘oriladigan yerlarning mahsuldorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 19-apreldagi “2013–2017-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Jamg‘armasining 2018-yilgi prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2008–2022-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 7-iyundagi PQ-3043-son qarorida belgilangan maqsadli parametrlar asosida prognoz qilingan. Yuqorida ko‘rsatilgan Davlat dasturi doirasida Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasidan yerlarning meliorativ holatni yaxshilash tadbirlari uchun 2018-yilda 553,4 mlrd so‘m mablag‘ ajratish rejalashtirilda. Buning natijasida quyidagi ishlar amalga oshirildi: 700,7 km kollektor tarmoqlarini, 310 km yopiq-yotiq kollektor drenaj tarmoqlarini, 118 ta vertikal drenaj quduqlarni, 4 ta meliorativ nasos stansiyalarini va 60 ta gidrotexnik inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilindi; umumiy uzunligi 14,9 ming km bo‘lgan ochiq va 1,2 ming km yopiq kollektordrenaj

tarmoqlari, 450,0 ta vertikal drenaj quduqlari, 20 ta meliorativ nasos agregatlari, 2050 ta gidrotexnik inshootlarni ta’mirlab-tiklandi; melioratsiya va suv xo‘jaligi qurilishi hamda ekspluatatsiya korxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida lizing asosida 61 ta meliorativ texnika va uskunalar yetkazib berildi; 1,8 ming gektar maydonda tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etildi; 500 gektar maydonda ihota daraxtzorlari barpo etildi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish natijasida 276,0 ming gektar sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilanishiga va shu bilan birga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligi hamda fermer xo‘jaliklarining daromadlari oshishiga erishildi.

10-BOB. BANDLIKKA KO‘MAKLASHISH DAVLAT JAMG‘ARMASINING DAROMADLARI HAMDA XARAJATLARI

10.1 Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining maqsadi va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Bandlik jamg‘armasi deb ataladi) bandlik va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek tuman (shahar) bandlikka ko‘maklashish markazlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi tadbirlarini moliyalashtirish uchun tashkil etilgan.

Bandlik jamg‘armasi maqsadli davlat jamg‘armasi hisoblanadi, yuridik shaxs tashkil etmasdan respublika va mahalliy darajalarda tashkil etiladi.[106]

Bandlik jamg‘armasining mablag‘lari uning mustaqil balansida aks ettiriladi.

Respublika va mahalliy darajada tashkil etilgan Bandlik jamg‘armasi mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi, G‘aznachilikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari tomonidan ochiladigan ularning shaxsiy hisob raqamlarida (keyingi o‘rinlarda Bandlik jamg‘armasining g‘aznachilik hisob raqamlari deb ataladi) jamlanadi.

Quyidagilar Bandlik jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan yagona ijtimoiy to‘lov ajratmalari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablar buzilganligi uchun davlat mehnat huquqi inspektorlari va davlat mehnat muhofazasi texnik inspektorlari, shuningdek mehnat sharoitlari bo‘yicha davlat

[106] "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2016 йил 25 апрель, 16-сон, 160-модда

ekspertizasining mansabdor shaxslari tomonidan belgilangan tartibda solinadigan ma’muriy jazolar summalari;

- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tasarrufidagi davlat unitar korxonalarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga barcha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan so‘ng qoladigan sof foydaning muassis tomonidan belgilanadigan miqdordagi qismi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat daftarchalarini sotishdan tushadigan daromadlar;
- Bandlik jamg‘armasining bo‘sh turgan mablag‘larini tijorat banklarida va boshqa moliyaviy tashkilotlarda joylashtirishdan olinadigan daromadlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik ehsonlari;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tushumlar.

Bandlik jamg‘armasi mablag‘larini tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat bosh boshqarmalari tasarruf etadilar.

Quyidagilar Bandlik jamg‘armasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- mehnat bozorini barqaror va muvozanatli rivojlantirishni ta’minlash, aholi bandligi darajasini oshirish va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga maqsadli yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni moliyaviy ta’minlash;
- ishsizlarni, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini, shuningdek ish qidirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish va moddiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan kafolatlarni amalga oshirish;
- ishsizlarga va band bo‘lmagan aholiga, birinchi navbatda, yoshlar, ayollar va nogironlarga kasb-hunarga qayta tayyorlash va ishga joylashtirish bo‘yicha sifatli xizmatlar ko‘rsatilishini tashkillashtirishga doir xarajatlarni moliyalashtirish.

Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan quyidagilar uchun foydalaniladi:

- tuman (shahar) bandlikka ko‘maklashish markazlarida (keyingi o‘rinlarda bandlikka ko‘maklashish markazlari deb ataladi) ish qidiruvchi va ishsiz maqomiga ega sifatida ro‘yxatga olingan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini mablag‘ bilan ta’minlash;
- ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, bandlikka ko‘maklashish markazlarining taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko‘chib o‘tish munosabati bilan kompensatsiyalar to‘lash, ishsizlarga moddiy yordam berish, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish davrida bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan beriladigan stipendiyalarni to‘lash;
- ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi xarajatlarini qoplash;
- bandlikka ko‘maklashish markazlarining ayrim bo‘linmalari, vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minlash markazlari, band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga o‘qitish mintaqaviy markazlari, ishsizlarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o‘quv markazlarini qonunchilikka muvofiqsaqlash va moddiy-texnik ta’minlash, shuningdek mehnat organlarini joylashtirish uchun binolar, xonalar qurish va ularni rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash ishlarini mablag‘ bilan ta’minlash;
- haq to‘lanadigan jamoat ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mablag‘ bilan ta’minlash;
- nogironlar va fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o‘rinlari tashkil etish tadbirlarini mablag‘ bilan qisman ta’minlash;
- axborot-ma’lumotnomalar chiqarish va reklama-noshirlik ishlarini amalga oshirish;

- ish bilan ta’minlash, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, mehnatni normalash va unga haq to‘lash masalalari bo‘yicha normativ-uslubiy va yo‘riqnoma materiallar ishlab chiqishni mablag‘ bilan ta’minlash;
- belgilangan tartibda respublika darajasida va hududiy darajada ijtimoiy kuzatuvlarni tashkil etish va o‘tkazish, ish bilan ta’minlash masalalari bo‘yicha aholining ayrim guruhlari o‘rtasida anketa so‘rovlari o‘tkazish;
- ish bilan band bo‘lmagan aholiga yordam ko‘rsatish, shu jumladan maslahatlar berish va kasbga yo‘naltirishni tashkillashtirish bilan bog‘liq xarajatlarniqoplash;
- aholini ish bilan ta’minlash maqsadli hududiy dasturlarini ishlab chiqishni hamda mehnat bozorida vaziyat murakkab bo‘lgan tuman va shaharlarda ish o‘rinlari tashkil etishni, shu jumladan alohida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalarini tayyorlashni, xizmatlar ko‘rsatish, sanoat vaqishloq xo‘jaligi sohalarida obyektlar tashkil etish uchun muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirishni va arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqishni mablag‘ bilan ta’minlash;
- bandlik va mehnat muhofazasiga taalluqli masalalar bo‘yicha jalb etiladigan yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalarni amalga oshirishni moliyalashtirish;
- aholi bandligini ta’minlash va ishga joylashtirish, bo‘sh ish o‘rinlari va band bo‘lmagan aholining hisobini yuritish sohalarida axborot-kompyuter tizimlari va texnologiyalarini yaratish, rivojlantirish va texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan ularga oid dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish va texnika vositalari sotib olish;
- mehnat organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish;
- aholi bandligi sohasida xalqaro hamkorlikni moliyalashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasining chet ellarga ishga yuborilgan fuqarolarini ishga joylashtirishni tashkil etish va ularning

ijtimoiy himoyasini ta’minlash masalalari bo‘yicha xalqaro loyiha va shartnomalarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish;

- Bandlik jamg‘armasining g‘aznachilikdagi shaxsiy hisob raqamiga tushadigan mablag‘larning 5 foizini yo‘naltirish orqali mehnat organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash jamg‘armasini shakllantirish;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa chora-tadbirlarni moliyalashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat bosh boshqarmalari o‘zlariga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun quyidagilarni amalga oshiradilar:

- Bandlik jamg‘armasining g‘aznachilikdagi shaxsiy raqamida yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalarni jamlash;
- ishsizlarga ishsizlik nafaqalarini, kompensatsiyalarni, stipendiyalarni, moddiy yordamni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarni o‘z vaqtida tayinlash, moliyalashtirish va to‘lash;
- Bandlik jamg‘armasining moliyaviy ahvolini tahlil qilish va prognozlash hamda uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun oldini oluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar miqdorlarini belgilash to‘g‘risida takliflar tayyorlash;
- kelgusi davr uchun byudjet buyurtmasini ishlab chiqish va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etish;
- o‘z vakolatlari doirasida Bandlik jamg‘armasining samarali faoliyati uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z vakolatlari doirasida ishlab chiqish;
- Bandlik jamg‘armasining daromadlari manbalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlarining kelgusi yil uchun prognozi loyihasini ishlab chiqish va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etish;
- Bandlik jamg‘armasi byudjetining ijrosi bo‘yicha hisobotlarni, shuningdek yiliga bir marta - Bandlik jamg‘armasi daromadlari va uning

mablag‘laridan foydalanishning ahvoli to‘g‘risidagi mustaqil auditorlik tekshiruvi natijalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish;

- Bandlik jamg‘armasining to‘lovlar subyektlari va moliyalashtirish obyektlari bo‘yicha to‘liq hisobi va elektron ma’lumotlar bazasi yuritilishini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi Bandlik jamg‘armasi vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan belgilangan tartibda hamkorlik qiladi.

Bandlik jamg‘armasining yagona ijtimoiy to‘lov va boshqa manbalar hisobiga shakllantiriladigan mablag‘larining etmish foizi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat bosh boshqarmalari tasarrufida qoladi hamda ular kelgusida bandlikka ko‘maklashish markazlari o‘rtasida qayta taqsimlanadi, o‘ttiz foizi esa - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat vazirligi, tegishli hududiy mehnat bosh boshqarmalari tomonidan to‘lov hujjati orqali o‘tkazilib, markazlashgan holda respublika darajasida jamlanadi.

Joylarda tashkil etilgan Bandlik jamg‘armasining etishmagan mablag‘lari Bandlik jamg‘armasi mablag‘larining respublika qismi hisobiga qoplanadi.

Zarurat bo‘lganda, hisobot davrining yakuniga ko‘ra, joylarda tashkil etilgan Bandlik jamg‘armasining g‘aznachilik shaxsiy hisob raqamidagi qolgan mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining qaroriga binoan uning respublika qismiga, keyinchalik qayta taqsimlash uchun, yo‘naltirilishi mumkin.

Yil boshida Bandlik jamg‘armasining bo‘sh turgan mablag‘lari, qonun hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining defitsitiniqoplashga yo‘naltirilishi mumkin.

Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

10.2 Bandlik jamg‘armasi daromadlari prognozini ko‘rib chiqish va kelishish hamda uning mablag‘laridan foydalanish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda har yili, lekin joriy yilning birinchi iyulidan kechikmay kelgusi yil uchun Bandlik jamg‘armasi daromadlarining tushish manbalari va uning mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha prognozni (keyingi o‘rinlarda Bandlik jamg‘armasi byudjeti loyihasi deb ataladi) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi, ushbu prognoz:

- hududlar bo‘yicha Jamg‘armaga tushum manbalari bo‘yicha o‘tgan yilda haqiqatda tushgan mablag‘lar va joriy yilning birinchi yarim yilida kutilayotgan daromadlar ijrosini;
- Bandlik jamg‘armasiga qonun hujjatlarida belgilangan to‘lovlar bo‘yicha moliyaviy hisobot yili oxiridagi tashkilotlarning (ish beruvchilarning) hududlar bo‘yicha kreditorlik qarzlarini;
- ko‘rib chiqilayotgan davr uchun tasdiqlangan prognozlarning bajarilishidan kelib chiqib, foydalanish yo‘nalishlari va hududlar bo‘yicha, o‘tgan yilda Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan amalga oshirilgan xarajatlarning yakuniy ko‘rsatkichlari va xarajatlar qismining joriy yilning birinchi qismida kutilayotgan ijrosini;
- o‘tgan yilgi xodimlar soni va ish haqining o‘sish sur’atlarini e’tiborga olib, hisoblangan ish haqi fondi prognozini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etilgan Bandlik jamg‘armasi byudjeti loyihasini ko‘rib chiqishda Bandlik jamg‘armasiga kelgusi yil uchun yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar stavkalarining prognoz qilinadigan o‘zgarishini va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ta’sirini hisobga oladi.

Bandlik jamg‘armasining ko‘rib chiqilgan va kelishilgan byudjeti loyihasi kelgusi yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti loyihasi bilan birga Byudjetnoma tarkibida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

Kelgusi yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining asosiy parametrlari, davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari qonunhujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Bandlik jamg‘armasi byudjetining asosiy parametrlarini o‘n ish kuni mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligiga etkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi Bandlik jamg‘armasi byudjetining asosiy parametrlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan olingan kundan boshlab bir hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat bosh boshqarmalari, bandlikka ko‘maklashish markazlari uchun, kelgusida ularning ish yakunlarini ko‘rib chiqqan holda, Jamg‘arma tushumlari manbalari bo‘yicha daromadlarining va uning mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha xarajatlarining kelgusi yilgi asosiy parametrlarini choraklarga bo‘lgan holda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi hay’at majlisida tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri mehnat bosh boshqarmalari, bandlikka ko‘maklashish markazlari Bandlik jamg‘armasi byudjetining tasdiqlangan ko‘rsatkichlarini bajarish uchun Bandlik jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining tasdiqlangan prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlaydilar.

Quyidagilar Bandlik jamg‘armasining ijro etuvchi organlari hisoblanadi:

❖ respublika darajasida - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish bo‘limi;

❖ hududiy darajada - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri mehnat bosh boshqarmalarining Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish hamda bandlikka ko‘maklashish markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish sho‘‘basi.

Ijro etuvchi organ:

Bandlik jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari prognozini va hisobot balanslarini shakllantiradi;

Bandlik jamg‘armasining daromadlari va xarajatlarining bajarilishi hisobini va hisobotini yuritadi, Bandlik jamg‘armasi mablag‘larini tasarruf etuvchi tomonidan tasdiqlagandan so‘ng tegishli moliya organlariga yuboradi;

Bandlik jamg‘armasi moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini ta’minlaydi;

Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalanish bo‘yicha auditni tashkil qiladi;

Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish masalalari bo‘yicha tushuntirishlar beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat bosh boshqarmalari, bandlikka ko‘maklashish markazlari Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan qat’iyan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan javob beradilar.

Ishsizlarga ishsizlik nafaqalarining, kompensatsiyalar, stipendiyalar, moddiy yordam va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa to‘lovlarning to‘g‘rihisoblanishi va to‘lanishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi hamda hududiy mehnat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanilishi yuzasidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi daromadlari asosan korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning ish haqi fondidan majburiy ajratmalari hisobidan shakllanib, 2018 yilda 58,2 mlrd. so‘mni tashkil qiladi hamda ishsizlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari, bandlikka ko‘maklashish markazlarini saqlash xarajatlarini oshirishni, ishsizlik bo‘yicha nafaqalar to‘lashni ta’minlaydi.

11-BOB. TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG‘ARMASINING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI

11.1 Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining tashkil topishi

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda “Jamg‘arma” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2006-yil 11-maydagi PF–3751-sonli Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Jamg‘arma Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa bo‘lib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bo‘yicha loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

Jamg‘arma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilib, yuridik shaxs huquqlariga, o‘zining mustaqil balansiga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida hisobvaraq, shu jumladan xorijiy valyutadagi hisobvarag‘iga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushirilgan muhriga ega bo‘ladi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi Jamg‘arma ijroiya organi va uning mablag‘larini tasarruf etuvchi hisoblanadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi tarkibida tegishli loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha tavsiyanomalar berilishi uchun mas'ul bo‘lgan ekspert guruhi tashkil qilinadi;

Jamg‘armaning ijro etuvchi direktori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va undan ozod qilinadi, maqomi bo‘yicha esa Vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi;

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyati Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash tomonidan tasdiqlanadigan xarajatlar smetasi asosida Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan ta’minlanadi.

Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, belgilansinki, har oyda Jamg‘arma hisobiga:

− respublikaning ayrim strategik resurslari bo‘yicha jahon bozorlaridagi qulay narxlar natijasida hosil bo‘lib, ortiqcha foydadan olinadigan soliqlar, yer bag‘ridan foydalanganlik uchun soliq va aksiz solig‘i tarzida respublika byudjetiga rejadan ortiqcha tushadigan mablag‘lar;

− har yili Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash chog‘ida Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan qimmatbaho metallarga belgilanadigan chegara narxdan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan mablag‘lar o‘tkazib boriladi.

Shu bilan bir qatorda, kelib tushishiga qarab Jamg‘arma hisobiga:

− O‘zbekiston Respublikasining xorijiy sheriklar bilan mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi bitimlari doirasida mahsulotni sotishdan oladigan daromadlari;

− davlat mulkini xorijiy investorlarga chet el valyutasiga sotishda Davlat byudjeti daromadlari rejasidan ortiqcha tushadigan mablag‘lar;

− Jamg‘arma aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan Jamg‘arma mablag‘larining bo‘sh qoldiqlarini joylashtirishdan olinadigan investitsiya daromadlari o‘tkaziladi.

Quyidagilar belgilansin:

− Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi hisobvaraqlarda chet el valyutasida shakllantiriladi;

− Jamg‘arma vakolatli banklarni moliyalashtirishni taklif etiladigan investitsiya loyihalari hamda ochiladigan kredit liniyalarining samaradorligi va o‘zini qoplash muddatlarini hisobga olgan holda moliyalashtirish shartlari va Jamg‘arma mablag‘larini qaytarish

mexanizmi to‘g‘risida imzolanadigan bosh bitimlar asosida amalga oshiradi.

− Jamg‘arma tomonidan beriladigan kredit resurslari bo‘yicha foiz stavkasi yiliga 6 foizgacha tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanadi.

Davlat byudjeti hisobiga qoplanadigan Jamg‘arma kreditlarini qaytarish O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan xorijiy valyutani qoplash kuniga belgilangan kursida so‘mda, keyinchalik xorijiy valyutani o‘rnatilgan tartibda Jamg‘arma hisob raqamlariga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

Jamg‘arma hisobidan moliyalashtiriladigan (qo‘shma moliyalashtiriladigan) import kontraktlari Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan import kontraktlari uchun belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tadi.

Jamg‘arma aktivlarining barqarorligi va ularning daromadliligini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Jamg‘arma bilan ishonchli boshqaruv to‘g‘risidagi bosh bitim asosida Jamg‘arma mablag‘larining bo‘sh qoldiqlarini yuqori likvidli, ishonchli xorijiy moliya vositalariga joylashtirishni amalga oshirsin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki bir oy muddatda:

Jamg‘armaning bo‘sh qoldiqlarini xorijiy moliya vositalariga, investitsiya operatsiyalariga joylashtirish tartibini, jumladan Jamg‘arma mablag‘larining bir qismini ishonchli tashqi boshqaruvchi tomonidan boshqarishga topshirishni belgilab beradigan me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqsin va Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengashga tasdiqlash uchun kiritsin;

Jamg‘arma manbalaridan biri sifatida — alohida soliq stavkalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish Tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi zarur aloqa vositalari bilan ta’minlangan holda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki binosiga joylashtirilsin.

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ijrochi direksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Tashqi

iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat mulki qo‘mitasining statistik axborotnomalari yuborilishi shart bo‘lgan ro‘yxatga kiritilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Moliya vazirligi, Markaziy banki, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda idoraviy normativ hujjatlarga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgarishlar kiritilishini ta’minlasin.

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda «Jamg‘arma» deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2006-yil 11-maydagi PF–3751-sonli farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Jamg‘arma Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa bo‘lib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bo‘yicha loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

Jamg‘arma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilib, yuridik shaxs huquqlariga, o‘zining mustaqil balansiga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida hisobvaraq, shu jumladan xorijiy valyutadagi hisobvarag‘iga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushirilgan muhriga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi timsolida Jamg‘arma muassisi hisoblanadi. Tijorat banklari, xorijiy jamg‘armalar, investorlar va boshqa manfaatdor tuzilmalar ham Jamg‘arma muassislari bo‘lishlari mumkin.

Jamg‘arma mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasi QKKMda Jamg‘armaning maxsus hisobvaraqlarida jamlanadi.

Jamg‘arma loyihalarni moliyalashtirish (qo‘shma moliyalashtirish) quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga kiritilgan vakolatli banklarning (keyingi o‘rinlarda — tijorat banklari) buyurtmanomalariga binoan — muddatli, to‘lovli va qaytarish asosida kreditlar berish va kredit liniyalarini ochish;

Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo‘yicha ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun Iqtisodiyot vazirligi buyurtmanomalariga binoan — grantlar yoki foizsiz kreditlar berish (yiliga Jamg‘armaning o‘tgan yildagi foydasining 5 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda);

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan tijorat banklari va qarz oluvchining buyurtmanomalari bo‘yicha hamda Hukumat qarorlari asosida — Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;

tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlarning ta’sis hujjatlariga va ularni tashkil etish to‘g‘risidagi Hukumat qarorlariga muvofiq — yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish (korxona yoki tashkilot ustav kapitali (fondi)ning 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda).

Shuningdek, Jamg‘arma mablag‘lari quyidagilarga ishlatilishi mumkin:

Moliya vazirligining buyurtmanomalari bo‘yicha va tegishli Hukumat qarorlariga asosan — davlatning tashqi qarzlari bo‘yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘lash;

tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq Hukumat qarorlari bo‘yicha — yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va

uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa tovarlarni xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi Jamg‘arma mablag‘larini tasarruf etuvchi hisoblanadi.

Jamg‘arma manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 101-uy.

11.2 Jamg‘armaning asosiy vazifalari va funksiyalari

Jamg‘armaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

− davlat va xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan tijorat banklari, xorijiy jamg‘arma va investorlar hamda boshqa manfaatdor tuzilmalarning moliyaviy mablag‘larini jamlab borish;

− iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va modernizatsiya qilishdagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish;

− strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalarni, birinchi navbatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;

− yoqilg‘i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik va rangli metallurgiya tarmoqlarini texnik jihatdan qayta qurollantirishga hamda ishlab chiqarish sur’at va hajmlarini oshirishga yo‘naltirilgan loyihalar moliyalashtirilishini ta’minlash;

− birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzulmasini shakllantirish bo‘yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarning amalga oshirilishini moliyalashtirish;

− kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini imtiyozli asosda, shu jumladan keyinchalik Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplash yo‘li bilan moliyalashtirish;

− respublikaning xalqaro kommunikatsiyalar tarmog‘iga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, xalqaro transport

yo‘laklari va jahon bozorlariga eng qisqa yo‘l bilan chiqishni ta’minlaydigan transport hamda telekommunikatsiyalar infratuzilmasini modernizatsiyalash va rivojlantirishni moliyalashtirish;

− davlatning tashqi qarzlari bo‘yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘lashni moliyalashtirish;

− xalqaro moliya institutlari, respublika va xorijiy mamlakatlarning kredit muassasalari bilan loyihalarning qo‘shma moliyalashtirilishini tashkil etishni ta’minlash.

Yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda Jamg‘arma quyidagi funksiyalarni bajaradi:

− navbatdagi yil uchun mo‘ljallangan makroiqtisodiy va pul-kredit ko‘rsatkichlari, Davlat byudjeti hamda Davlat investitsiya dasturining asosiy parametrlari bilan bog‘liq holda Jamg‘arma mablag‘larining kelib tushish va ulardan foydalanish prognozlarini ishlab chiqadi va belgilangan muddatlarda Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengashga taqdim etadi;

− kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini tuziladigan shartnomalar asosida kreditlaydi;

− davlatning tashqi qarzlari bo‘yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘lash uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qaytarib bermaslik asosida mablag‘larni beradi;

− yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritadi (korxona yoki tashkilot ustav kapitali (fondi)ning 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda);

− Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo‘yicha va Iqtisodiyot vazirligi buyurtmanomalariga binoan ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grantlar hamda foizsiz kreditlar beradi, ajratilgan kreditlar miqdori keyinchalik loyihaning umumiy qiymatiga va loyiha Jamg‘arma

kreditini jalb qilish yo‘li bilan amalga oshirilgan taqdirda, ajratilayotgan kreditning umumiy qiymatiga qo‘shiladi;

− yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo‘yicha imtiyozli kreditlar beradi;

− moliyalashtirish shartlari va Jamg‘arma mablag‘larini qaytarish mexanizmi to‘g‘risida imzolanadigan bosh bitimlar asosida, har bir tijorat banki uchun har yili belgilanadigan limitlar doirasida tijorat banklarini moliyalashtirishni amalga oshiradi;

Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi va tijorat banklariga berilgan mablag‘larning o‘z vaqtida qaytarilishi ustidan doimiy ravishda monitoring olib boradi hamda kelib tushish manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha Jamg‘arma mablag‘larining hisobini yuritadi;

tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlar va ular bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar to‘g‘risidagi har qanday ma’lumotni olish huquqiga ega bo‘lgan holda, tijorat banklari va qarz oluvchi korxonalar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan ularning faoliyatini o‘rganadi.

Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish bo‘yicha aniq maqsadli ishlarni amalga oshiradi;

Jamg‘arma faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘radi yoki belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan Jamg‘arma mablag‘larining bo‘sh qoldiqlarini ishonchli boshqarish to‘g‘risida shartnomalar tuzadi;

Jamg‘arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash Jamg‘armaning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash:

Jamg‘arma faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqadi;

Jamg‘armaning e’lon qilingan ustav kapitalini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, biroq u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida» 2006-yil 11-maydagi PF-3751-son Farmonida belgilangan darajadan past bo‘lmasligi kerak;

Jamg‘armaga mablag‘lar kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozlarini ko‘rib chiqadi hamda ularni navbatdagi yilga mo‘ljallangan makroiqtisodiy va pul-kredit ko‘rsatkichlarining asosiy parametrlari, Davlat byudjeti hamda Davlat investitsiya dasturi bilan bog‘liq holda belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritadi;

qarz olgan korxonalarni qayta moliyalashtirish (qo‘shma moliyalashtirish) uchun tijorat banklariga Jamg‘arma mablag‘larini berish muddatlari va shartlari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi, xalqaro sarmoya bozorlarida amal qilayotgan foiz stavkalaridan kelib chiqib Jamg‘arma tomonidan berilayotgan mablag‘lar bo‘yicha foiz stavkalarining aniq miqdorlarini tasdiqlaydi;

kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlarni berish muddatlari va shartlari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;

davlatning tashqi qarzlari bo‘yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘lash uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga mablag‘lar ajratib berish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalarning ustav kapitaliga Jamg‘arma mablag‘laridan investitsiya kiritish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;

ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grantlar va foizsiz kreditlarni ajratish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan

davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo‘yicha imtiyozli kreditlar berish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyati, ayniqsa Jamg‘arma mablag‘larining maqsadli yo‘naltirilganligi, tijorat banklariga moliyalashtirishni o‘z vaqtida ochish hamda ularga berilgan mablag‘larning qaytarilishini ta’minlash ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Jamg‘arma mablag‘larining ishlatilishi to‘g‘risida Jamg‘arma ijro etuvchi direktorining hamda qarz olgan korxonalar tomonidan Jamg‘arma mablag‘laridan samarali foydalanilishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib boradi;

Jamg‘armaga aktivlarni boshqarish, ekspertiza qilish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni jalb qiladi.

Ijro etuvchi direksiya Jamg‘armaning ijroiya organi hisoblanadi, uning tarkibi va soni o‘rnatilgan tartibda belgilanadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Ijro etuvchi direksiya:

Jamg‘armaga mablag‘larning kelib tushish va ulardan foydalanish prognozlarini ishlab chiqadi;

qarz oluvchi korxonalarni qayta moliyalashtirish uchun muddatli, to‘lovli va qaytarish shartlari asosida tijorat banklariga moliyaviy mablag‘larni taqdim etadi;

kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar berish to‘g‘risida shartnomalar tuzadi;

davlatning tashqi qarzlari bo‘yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘lash uchun Moliya vazirligiga mablag‘lar ajratadi;

yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalarning ustav kapitaliga Jamg‘arma mablag‘laridan investitsiya kiritadi;

ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun loyiha tashabbuskorlariga grantlar va foizsiz kreditlarni, ajratilgan kreditlar miqdorini keyinchalik loyihaning umumiy qiymatiga va loyiha Jamg‘arma kreditini jalb qilish yo‘li bilan amalga oshirilgan taqdirda ajratilayotgan kreditning umumiy qiymatiga qo‘shish sharti bilan berish to‘g‘risida bitimlar tuzadi;

yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq Hukumat qarorlari bo‘yicha xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar beradi;

Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi, tijorat banklariga berilgan mablag‘larning o‘z vaqtida qaytarilishi ustidan tizimli ravishda monitoring olib boradi;

tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlar holati va ular bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar to‘g‘risidagi har qanday ma'lumotni olish huquqiga ega bo‘lgan holda, qarz oluvchi korxonalar tomonidan Jamg‘arma kreditlari bo‘yicha majburiyatlarining bajarilishi masalalari yuzasidan ular faoliyatining monitoringini olib boradi.

Jamg‘arma daromadlari va xarajatlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni ishlab chiqadi va Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash tomonidan ma’qullangandan so‘ng uni belgilangan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Hisob palatasiga taqdim etadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direktori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, maqomi bo‘yicha vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi;

Jamg‘armaning ijro etuvchi direktori:

Jamg‘armaga yuklatilgan vazifa va funksiyalarga binoan ijrochi direksiyaning faoliyatini tashkil etadi va shaxsan mas’ul bo‘ladi, xodimlarning belgilangan cheklangan umumiy soni doirasida ijrochi

direksiyaning shtat jadvalini shakllantiradi, Jamg‘arma nomidan kredit, xo‘jalik va mehnat shartnomalarini imzolaydi;

Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash bilan kelishgan holda Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan belgilangan tartibda tekshiruvlar tashkil qiladi, ularning natijalarini ko‘rib chiqadi va ular bo‘yicha qarorlar qabul qiladi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zarur choralarni ko‘radi;

qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Jamg‘arma apparati tarkibida tegishli loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha xulosa yoki tavsiyalar berishga mas’ul bo‘lgan yuqori malakali ekspertlar guruhi tashkil qilinadi.

Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari va tartibi

Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

respublikaning ayrim strategik resurslari bo‘yicha jahon bozorlaridagi qulay narxlar natijasida hosil bo‘lib, ortiqcha foydadan olinadigan soliqlar, yer bag‘ridan foydalanganlik uchun soliq va aksiz solig‘i tarzida respublika byudjetiga rejadan ortiqcha tushadigan mablag‘lar;

har yili Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash chog‘ida Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan qimmatbaho metallarga belgilanadigan chegara narxidan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan mablag‘lar;

Hukumatning xorijiy valyutadagi aktivlarining bir qismi;

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy sheriklar bilan mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi bitimlari doirasida mahsulotni sotishdan oladigan daromadlari;

davlat mulkini xorijiy investorlarga chet el valyutasiga sotishda Davlat byudjeti daromadlari rejasidan ortiqcha tushadigan mablag‘lar;

Jamg‘arma aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan Jamg‘arma mablag‘larining bo‘sh qoldiqlarini joylashtirishdan olinadigan investitsiya daromadlari;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan bir qatorda, tijorat banklari, xorijiy jamg‘arma va investorlar, shuningdek, boshqa

manfaatdor idoralar ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan muassislarning badallari;

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushum va daromadlar.

Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi hisobvaraqlarda chet el valyutasida shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Jamg‘arma hisobvaraqlariga tushgan mablag‘larni ular tushgan kuni amalda bo‘lgan Markaziy bankning almashuv kursi bo‘yicha chet el valyutasiga konvertatsiya qiladi va Jamg‘armaning valyuta hisobvarag‘iga o‘tkazadi.

Soliq va to‘lovlarning ayrim turlari bo‘yicha mablag‘larni Jamg‘arma hisobvarag‘iga o‘tkazish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jamg‘arma mablag‘lari tushumi manbalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlari har yili belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritiladi va Jamg‘arma balansida aks ettiriladi.

11.3 Jamg‘arma mablag‘larini shakllanish manbalari va mablag‘lardan foydalanish tartibi

Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

a) avvalo yoqilg‘i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik, rangli metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa bazaviy tarmoqlarida, shuningdek, transport va telekommunikatsiya sohasida Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan g‘oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar ishtirokidagi loyihalarda O‘zbekiston Respublikasi ulushini qo‘shma moliyalashtirish;

b) kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalash maqsadida, shu jumladan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;

d) yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish;

e) davlatning tashqi qarzlari bo‘yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘lash;

f) iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha Hukumat tomonidan tasdiqlangan dasturlar doirasida, tijorat banklariga xorijiy valyutada ochiladigan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish va amalga oshirish;

g) ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni grant asosida yoki foizsiz kreditlar ajratish yo‘li bilan moliyalashtirish;

h) yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo‘yicha imtiyozli kreditlar berish;

i) birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarini, Davlat byudjeti va investitsiya dasturining tasdiqlangan parametrlari doirasida, grant asosida moliyalashtirish (qo‘shma moliyalashtirish);

j) tijorat banklari bilan birgalikda qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturi (biznes-rejalari)ni, shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko‘paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish hamda qo‘shilgan qiymat o‘sishini ta’minlashga imkoniyat beruvchi loyihalarni qo‘shma moliyalashtirish;

k) Jamg‘armani boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash.

Mablag‘larni berish muddati va shartlari Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash qarori bilan belgilanadi. Jamg‘arma tomonidan

beriladigan kredit resurslari bo‘yicha foiz stavkasi yiliga 6 foizgacha tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanadi.

Jamg‘armaning kredit resurslari shartnomada belgilangan chet el valyutasida ajratiladi.

Tijorat banki marjasining eng yuqori chegarasi Jamg‘arma va tijorat banki o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomasida har bir loyiha bo‘yicha alohida belgilanadi.

Ajratilgan mablag‘larning qaytarilishi tijorat banklari tomonidan kechiktirilgan holatlarda har bir kechiktirilgan kun uchun muddati kechiktirilgan to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik summasining 0,01 foizi miqdorida (qarzga olingan mablag‘lar hajmining 10 foizidan oshmagan holda) penya undiriladi.

Tijorat banklariga ajratiladigan kredit mablag‘larining hajmi ularning buyurtmanomalari asosida belgilanadi va ushbu buyurtmanomalarda qarz oluvchi korxonalarning kredit olish uchun tijorat banki tomonidan ma’qullangan loyihalar mablag‘larining umumiy miqdori aks ettiriladi.

Tijorat banklariga har bir loyiha (modernizatsiya, qayta qurish yoki ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish) uchun beriladigan kredit hajmi loyiha qiymati umumiy miqdorining 75 foizidan oshmasligi kerak.

Qarz oluvchi korxonalar (tashkilotlar)ga kredit berish Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash tomonidan tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish shartlari, ko‘rib chiqish tartibi va ekspertizasi to‘g‘risidagi Nizom va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi me’yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshirib boriladi.

Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash tomonidan tijorat banklarining buyurtmanomalarini ko‘rib chiqish muddati ariza olingan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim. Ushbu muddatda Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash tijorat banki tomonidan taklif qilingan loyihani moliyalashtirish to‘g‘risida ijobiy qaror

chiqaradi yoki tijorat bankiga yozma ravishda asoslangan raddiyanoma beradi.

Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengashning ijobiy xulosasi qabul qilinganidan so‘ng Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi 5 ish kuni mobaynida tijorat banki bilan kredit shartnomasini tuzadi.

Kredit shartnomasida tijorat bankiga berilayotgan kredit resurslarining miqdori, foiz stavkasi va maqsadi (yo‘naltirish manzili), muddati va shartlari, shuningdek, tomonlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq huquq va burchlari hamda boshqa masalalar aks ettiriladi.

Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining buyurtmanomalarini ko‘rib chiqish muddati buyurtmanoma olingan sanadan boshlab 15 kundan oshmasligi lozim.

Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengashning ijobiy qarori qabul qilinganidan so‘ng Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi 5 ish kuni mobaynida taqdim etilgan buyurtmanoma va Kengash qaroriga binoan:

1) Moliya vazirligi bilan — qaytarib bermaslik asosida buyurtmanomada va ushbu Nizomda belgilangan maqsadlar uchun mablag‘ ajratish to‘g‘risida bitim;

2) Iqtisodiyot vazirligi va tegishli loyihaning tashabbuskori bilan — buyurtmanomada va ushbu Nizomda belgilangan maqsadlar uchun grant asosida mablag‘ ajratish yoki foizsiz kredit berish to‘g‘risida bitim tuzadi.

29. Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh mablag‘lari ularni birinchi darajali xalqaro moliya vositalariga joylashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga ishonchli boshqaruv uchun belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Jamg‘arma mablag‘lari bo‘sh qoldiqlarining umumiy hajmi uning jami aktivlarining kamida qirq foizini tashkil etishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki har chorakda Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengashga Jamg‘arma mablag‘larini ishonchli boshqarish natijalari, jumladan operatsiyalar bo‘yicha daromadlilik, hisobot davrida olingan daromad miqdori, joylashtirilgan

Jamg‘arma mablag‘lari portfeli tarkibi, foiz stavkalarining joriy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi har yili O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Markaziy banki, tijorat banklari va boshqa idoralardan olingan dastlabki ma’lumotlar hamda hisobot davrida o‘tkazilgan tizimli monitoring asosida keyingi kalendar yil uchun Jamg‘armaga mablag‘lar kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozi loyihasini ishlab chiqadi hamda uni Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash tasdiqlashi uchun taqdim etadi.

Jamg‘arma mablag‘larining kelib tushishi va ulardan foydalanishning prognoz loyihalarini tayyorlash, ko‘rib chiqish va tasdiqlashda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va Investitsiya dasturining kelgusi yil parametrlarini ishlab chiqish va tasdiqlash bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Respublikaning strategik resurslari bo‘yicha jahon bozorlaridagi qulay narxlar natijasida hosil bo‘ladigan prognozdan yuqori tushumlarning pul massasi hajmiga va inflyatsiya darajasiga ta'sirini bartaraf qilish maqsadida Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanishning yuqori chegarasi asosiy makroiqtisodiy va pul-kredit ko‘rsatkichlarining prognoz parametrlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Jamg‘arma mablag‘lari kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozlarida umuman prognoz qilinayotgan yil uchun, shu jumladan choraklar bo‘yicha quyidagilar aks ettiriladi:

jumladan, har bir manba bo‘yicha mablag‘ tushumlarining umumiy hajmi;

ustuvor investitsiyaviy va ijtimoiy yo‘naltirilgan loyihalarni, qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturlarini moliyalashtirish, olinayotgan uzoq muddatli kredit va investitsiyalarga xizmat ko‘rsatish hamda Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyatini moliyaviy ta’minlash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashga mablag‘lar ajratib berish bo‘yicha sarf-xarajatlar.

Jamg‘armaning huquqlari:

a) tijorat banklari hamda qarz olgan tashkilotlarda Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan tekshiruvlar o‘tkazish;

b) Jamg‘arma mablag‘larining maqsadli foydalanilishi monitoringini olib borish uchun zarur bo‘ladigan ma’lumotlarni, jumladan, Jamg‘arma tomonidan ajratilgan mablag‘lar ishlatilishining holati va prognozi to‘g‘risidagi hamda boshqa ma’lumotlarni tijorat banklaridan olish;

d) loyihalarning birlamchi texnik-iqtisodiy asoslanganligini ko‘rib chiqish, shu jumladan Jamg‘arma mablag‘larining maqsadli va samarali foydalanilishi monitoringi hamda tekshiruvini olib borish maqsadida yuqori malakali mustaqil ekspertlar va soha mutaxassislarini jalb qilish.

Jamg‘arma majburiyatlari:

a) yuklatilgan vazifalarga muvofiq holda:

Jamg‘arma mablag‘larini jalb etish va jamlashga qaratilgan ishlarning olib borilishini;

Jamg‘arma mablag‘larining aniq belgilangan maqsadlarga yo‘naltirilishini ta’minlash.

b) Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengashga choraklik va yillik hisobotlarni belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etish.

Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi uchun javobgarlik va uni nazorat qilish

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi zimmasiga Jamg‘arma mablag‘larining qat’iyan maqsadli va qonuniy yo‘naltirilishi, shuningdek buxgalterlik hisobining yuritilishi va Jamg‘arma faoliyati bo‘yicha hisobotlarning tuzilishi uchun javobgarlik yuklanadi.

Tijorat banklari Jamg‘arma mablag‘laridan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish hamda ularni o‘z vaqtida qaytarish uchun mas’uldirlar.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi Jamg‘arma mablag‘larining maqsadli yo‘naltirilishi monitoringini doimiy ravishda belgilangan tartibda o‘tkazib boradi.

Tijorat banklari tomonidan Jamg‘arma mablag‘larining maqsadga muvofiq bo‘lmagan holda foydalanish holatlari aniqlanganda, maqsadga nomuvofiq foydalanilgan mablag‘larning umumiy hajmi muddatidan

oldin undirib olinib, Jamg‘arma hisobvarag‘iga o‘tkaziladi hamda Jamg‘arma va tijorat banki o‘rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan jarima sanksiyalari qo‘llaniladi.

Jamg‘arma mablag‘larining Jamg‘arma ijro etuvchi direksiyasi tomonidan qonuniy va qat’iyan maqsadli yo‘naltirilishi ustidan nazorat Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha Kengash tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg‘armaning har yilgi auditi mustaqil xalqaro auditor tomonidan amalga oshiriladi, Jamg‘arma mablag‘larining shakllantirilishi va foydalanilishi O‘zbekiston Respublikasi hisob palatasi tomonidan tekshirib turiladi.

Tijorat banklari tomonidan o‘z vaqtida qaytarilmagan Jamg‘arma mablag‘lari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undiriladi.

Jamg‘armani qayta tuzish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

12-BOB DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY VA TASHKILIY ASOSLARI

12.1. Davlat moliyaviy nazorat organlari, ularning vazifalari va funksiyalari

Bozor iqtisodiyoti uchun davlat moliyaviy nazorati faoliyatning alohida bir sohasiga aylanib boradi. Davlat moliyaviy nazoratning obyekti bo‘lib boshqarishning barcha darajalarida moliyaviy resurslarning shakllanishi va ishlatilishidan taqsimlanish jarayonlari maydonga chiqadi. Bu boradagi davlat moliyaviy nazorati avvalo davlat moliyaviy resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishi, davlat mulkidan oqilona foydalanishini ta’minlashga xizmat qilmog‘i lozim.

Rossiyalik iqtisodchi olim N.S.Maleinning fikricha, “Moliyaviy nazorat – moliyaviy, kredit va xo‘jalik organlari (tashkilotlari)ning rejalarning bajarilishi jarayonida moliyaviy, byudjet, soliq, kredit, hisob–kitob va kassa intizomini ta’minlanishiga qaratilgan va pul xarajatlarining qonuniyligi, asosligi va oqilonaligini tekshirishdan iborat qonun normalari bilan tartibga solinuvchi faoliyatidir”[107].

Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda boshqaruv organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo‘naltirilgan tizimidir. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda mamlakatning Konstitutsiyasi hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Uning huquqiy reglamenti davlatning tipiga, uning sotsial-siyosiy yo‘naltirilganligiga, iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, mulkchilik shakllarining nisbatiga bog‘liq. Davlat moliyaviy nazorati YaIM taqsimlanishining qiymat proporsiyalarini kuzatishga qaratilgan. Bu nazorat davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularning to‘liq va o‘z vaqtida tushib turishi va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul resurslari harakatining barcha kanallariga (tarqatiladi) tegishli hisoblanadi. Bu narsa, eng avvalo, barcha darajalardagi byudjetlar va nobyudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish,

[107] Малеин Н.С. Кредитно-расчетные правоотношения и финансовый контроль.–М.: Наука.-2009 г. 248 стр.

tasdiqlash va ijro etish, korxona va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni anglatadi. Agar umummilliy iqtisodiy manfaatlar bilan belgilangan (aniqlangan) bo‘lsa, davlat moliyaviy nazoratchilari ham davlat sektorida va xususiy hamda korporativ biznes sektorida taftish va tekshirishlarni amalga oshirish huquqiga egadir. Biroq iqtisodiyotning nodavlat sektorida davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat faqat soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ham qo‘shib olgan holda davlat oldidagi pul majburiyatlarining bajarilishi sohalarini, ularga ajratilgan byudjet subsidiyalari va kreditlarini sarflashda maqsadga muvofiqlilik va qonuniylikning rioya qilinishi, shuningdek, hukumat tomonidan o‘rnatilgan (belgilangan) pul hisob-kitoblarini tashkil qilish, buxgalteriya hisobi va hisobotni yuritish qoidalariga rioya etilishini qamrab oladi.

Byudjet tashkilotlarini moliyaviy mablag‘ bilan ta’minlashda umumdavlat moliyaviy nazoratni mustahkamlash va yanada kuchaytirish, moliyaviy nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish muammosi hamisha dolzarb masala bo‘lib kelgan va hozirgi sharoitda ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishning naqadar muhimligini yanada aniqroq ko‘rsatib beradi.

Davlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyati organlarining hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan, shuningdek, davlat va mahalliy mulkdan qonuniy tarzda foydalanish ustidan nazorat qilish yuzasidan moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan maqsadli faoliyatdir. Bu faoliyatning asosiy maqsadi nazorat qilinadigan obyektlar faoliyatidagi kamchiliklarni topish va mansabdor shaxslarni jazolashdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki bu kamchiliklarning oldini olish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, ogohlantirishdan iboratdir.

Davlat moliyaviy nazorati byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir. Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining daromadlari qismi bo‘yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi[108].

Mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tartibga solish, nazorat organlari tomonidan ularning faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tekshiruvlarni tartibga solish va nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish to‘g‘risida” 1996-yil 8-avgustdagi №UP-1503 farmoni bilan Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish kengashi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mazkur Kengash xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat nazorat etish sohasidagi markaziy muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Kengash qarorlari xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirishga vakolat berilgan barcha organlar uchun majburiy hisoblanadi.

Kengash tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Kengash o‘z faoliyatini Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish kengashi to‘g‘risida nizomga asosan amalga oshiradi[109].

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda tegishli hududiy komissiyalar tuzilgan bo‘lib, ularning tarkibi Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Kengash faoliyatining maqsadi, mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tartibga solish va muvofiqlashtirish, ularning ish-faoliyatiga nazorat organlari tomonidan asossiz ravishda aralashishga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat.

Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari qilib belgilangan:

1) Nazorat organlarining xo‘jalik yurituvchi subyektlar ish-faoliyatini tekshirish masalalari bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

[108] O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. (173-moddasi). T.: Norma MCHJ. 2014 y. 96 b.
[109] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 19-noyabrdagi № PF-2114–sonli farmoni.

2) Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ish-faoliyati bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshiruvlarning umumiy sonini qisqartirish;

3) Tekshiruvlar, shuningdek, nazorat organlarining faoliyatini qaytarishga yo‘l qo‘yuvchi kompleks tekshiruvlarning muvofiqlash-tiruvchi rejalarini ishlab chiqish;

4) Tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi rejalarga rioya etilgan holda nazorat organlarining faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish va Kengash bilan kelishilmay turib, rejadan tashqari, qarshi tekshiruv va nazorat tartibida tekshiruvlar o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

5) Tekshiruvlarni qisqartirish va takomillashtirish maqsadida ularni tashkil etish tizimini tartibga solish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Kengash hududiy komissiyalarining asosiy funksiyalariga:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish bo‘yicha hududiy muvofiqlashtiruvchi reja-grafiklar ishlab chiqish;

- muvofiqlashtiruvchi reja-grafiklar bajarilishiga rioya etilishi ustidan monitoring o‘rnatish kabi vazifalar kiradi.

Kengash o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi uchun hamda o‘z maqomiga muvofiq ravishda quyidagi huquqlarga ega:

- respublika barcha vazirliklari va idoralaridan yaqinlashib kelayotgan davr uchun mo‘ljallangan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshiruv rejalarini so‘rash va olish;

- tekshiruvlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibga rioya etilishini ta’minlash talab qilingan ko‘rsatmalarni, Kengash Raisi imzosi qo‘yilgan holda, nazorat organlariga jo‘natish;

- tekshiruvlarni muvofiqlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish yoki Kengash qarorlarini buzishda aybdor bo‘lgan nazorat organlari rahbarlari va mansabdor shaxslarga ma’muriy choralar belgilanganligi to‘g‘risidagi taqdimnomalarni, Kengash Raisi imzosi qo‘yilgan holda, jo‘natish;

- nazorat organlarining rejadan tashqari tekshiruvlar o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorlarini, agar ularni o‘tkazish uchun yetarlicha asoslar bo‘lmasa, bekor qilish.

Kengash nazorat organlari tomonidan nazoratni tartibga solish sohasidagi qonunchilikka qat’iy rioya etishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning nazorat organlarining noqonuniy harakatlari ustidan tushgan arizalarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqishi, ular yuzasidan qarorlar qabul qilishi hamda olib borilayotgan ishlarning natijalari to‘g‘risida hukumatga muntazam ravishda axborot berib turishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-3093 farmoni[110]ga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosi, davlat aktivlari va passivlarining holati hamda harakati, qimmatbaho metallar va toshlar bilan operatsiyalar amalga oshirilishi, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish, xorijiy kapitalni respublika iqtisodiyotiga jalb etish va undan samarali foydalanish, davlatning tashqi qarzi o‘z vaqtida qaytarilishi doimiy monitoringi va nazoratini ta’minlash maqsadida - O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 4-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-3592-son farmoniga muvofiq Hisob palatasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning maqsadli va samarali ijro etilishi, davlat aktivlari va passivlarining holati va harakati, oltin valyuta zaxiralari hamda tashqaridan qarz olishlarni amalga oshirish, boshqarish va tasarruf etish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan moliya nazoratining yuqori organi hisoblanadi.

Hisob palatasi o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarni qonuniylik, xolislik, mustaqillik va oshkoralik qoidalari asosida amalga oshiradi. Davlat moliyaviy nazorati tizimida Hisob palatasiga katta rol ajratilgan bo‘lib, u mustaqil va obyektiv organ sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

Hisob palatasining nazorat faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalari va tashkiliy-nazorat masalalari bo‘yicha davlat maslahatchilari bilan kelishilgan yarim yillik va yillik Nazorat ishlari dasturlari asosida amalga oshiriladi.

[110] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2005 y.dagi PF-3592-son farmoni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan

Belgilangan tartibda Hisob palatasining Nazorat ishlari dasturiga kiritilgan yuridik shaxslar (byudjet tashkilotlaridan tashqari) ro‘yxati nazorat qilish organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika Kengashi bilan kelishiladi.

Nazorat tadbirlarining yarim yillik va yillik dasturlari asosida tekshirishlarni amalga oshirayotganda Hisob palatasi vazirliklar va idoralarning mas’ul xodimlarini, shuningdek, malakali mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda huquqbuzarliklarning turi va xususiyatini, huquqbuzarliklarni sabablarini aniqlaydi va ularni bir tizimga soladi.

Yuqoridagi farmonga muvofiq quyidagilar Hisob palatasining asosiy vazifalari etib belgilangan:

-davlat byudjeti loyihasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va parametrlarini shakllantirish jarayonini chuqur va puxta o‘rganish, ularni bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida o‘tkazilayotgan siyosatning g‘oyat muhim ustuvor yo‘nalishlariga, respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish sohasida qabul qilingan maqsadli kompleks dasturlarga to‘la-to‘kis mos kelishi nuqtayi nazaridan tanqidiy baholash;

-tarmoqlar va hududlar bo‘yicha davlat byudjetining daromad qismi shakllantirilishi va ijrosini moddama-modda, har tomonlama chuqur tahlil etish, byudjet daromadlarining asosiy moddalari bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarining realligi va tig‘izligiga baho berish, bunda yoqilg‘i-energetika kompleksi, qazib chiqarish sanoati, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish va savdo, iqtisodiyotning daromad hosil qiluvchi boshqa tarmoq va sohalaridagi zaxiralarni aniqlashga alohida e’tibor qaratish;

-agrosanoat kompleksidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati monitoringini amalga oshirish, qishloq va suv xo‘jaligini rivojlantirishga ajratiladigan byudjet mablag‘lari hamda byudjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘laridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanilishini nazorat qilish;

-mahalliy byudjetlar shakllantirilishi va amalga oshirilishini, ularning balanslanishini muntazam tahlil etish va nazorat qilish, mahalliy boshqaruv va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish uchun ularga real moliyaviy mablag‘lar ajratib berish vazifasini hal etish

zarurligidan kelib chiqqan holda respublika va mahalliy byudjetlar o‘rtasidagi nisbatni maqbullashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

-byudjetdan tashqari jamg‘armalarga yig‘iladigan mablag‘lari to‘liq tushishi, ulardan maqsadli, oqilona va samarali foydalanilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirish;

-o‘tkazilayotgan pul-kredit siyosatini, milliy valyutani mustahkamlash, uning xarid qobiliyatini oshirish, pul massasi va pul agregatlarini maqbul holga keltirish, bankdan tashqari pul aylanishini keskin qisqartirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni chuqur tahlil qilish va baholash;

-tashqaridan olinadigan qarzlarning hajmlari va maqsadga muvofiqligini tanqidiy baholash, olinadigan xorijiy kredit va grant mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanilishini, shuningdek, hukumat tomonidan yoki hukumatning kafolati bilan olingan tashqi kreditlarga o‘z vaqtida xizmat ko‘rsatilishini qattiq nazorat qilish;

-oltin-valyuta zaxiralarining holati va uning harakati ustidan nazoratni amalga oshirish, tashqi aktivlarni boshqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish va ularni xorijiy banklarda samarali joylashtirish va qayta joylashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, oltin-valyuta zaxiralari, shu jumladan, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar ustidan nazoratni ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasig Moliya vazirligi davlat vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta’minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta’minlaydi[111].

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo‘limlari, davlat sug‘urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi.

[111] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-№2847-sonli qarori, 2017-yil 18-mart

Moliya vazirligi o‘z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo‘yicha quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalar yuklangan:



12.1-rasm. **O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vazifa va funksiyalari**[112]

Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi mavjud bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi to‘g‘risida Nizom[113]ga asosan faoliyat yuritadi. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda Bosh boshqarma deb ataladi) va uning hududiy

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-№2847-sonli qarori, 2017-yil 18-mart.

[113] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi “O‘zbekiston respublikasi moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 870-sonli qarori.

boshqarmalarining maqomini, vazifalari va funksiyalarini, huquqlari va javobgarligini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Bosh boshqarma moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, byudjet tizimi byudjetlari mablag‘lari maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan byudjet qonunchiligiga, shuningdek, byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat moliyaviy nazorat organi hisoblanadi.

Bosh boshqarma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Byudjet kodeksi va boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

Bosh boshqarmaning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Bosh boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi va o‘z faoliyatida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga bo‘ysunadi va hisobot beradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat moliyaviy nazorati boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda hududiy boshqarmalar deb ataladi) o‘z faoliyatida bevosita Bosh boshqarmaga bo‘ysunadilar va hisobot beradilar.



12.2-rasm. **Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasining vazifalari**[114]

Bosh boshqarmaning hududiy boshqarmalari yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va davlat tilida o‘z nomi yozilgan muhrga, mustaqil

[114] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi 870-sonli qarori bilan tasdiqlangan) 7-bandi

balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligida g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘ladi.

Bosh boshqarma moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, byudjet tizimi byudjetlari mablag‘lari maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan byudjet qonunchiligiga, shuningdek, byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat moliyaviy nazorat organi hisoblanadi.

Mazkur moliyaviy nazorat organining asosiy vazifalari quyidagilardir:

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi[115]:

a) byudjet tashkilotlarida byudjet mablag‘larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo‘yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish sohasida:

− xarajatlar smetasiga kiritilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni haqqoniyligi va ularni amaldagi normativlarga muvofiqligi yuzasidan dastlabki nazoratni o‘tkazish;

− mehnatga haq to‘lash bo‘yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo‘shimchalar va boshqa to‘lovlar miqdorlariga rioya etilishi ustidan dastlabki nazoratni amalga oshirish;

− xodimlarning belgilab qo‘yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o‘rtasidagi o‘zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga rioya etilishi yuzasidan dastlabki nazoratni amalga oshirish;

− tarifikatsiya ro‘yxatlarini tuzishning qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibi va normativlariga rioya etilishi yuzasidan dastlabki nazoratni o‘tkazish;

b) byudjet qonunchiligiga rioya etish bo‘yicha byudjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish sohasida:

[115] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi 870-sonli qarori bilan tasdiqlangan) 8-bandi

− byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarini rejalashtirish davrida profilaktika ishlarini kuchaytirish va uning samaradorligini oshirish;

− elektron tarzda byudjet tizimi byudjetlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘armalar mablag‘larining harakati to‘g‘risida tegishli manbalardan olinadigan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida moliyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilishi xavfi mavjud bo‘lgan moliyaviy nazorat obyektida profilaktika ishlarini olib borish;

− hududiy moliya organlari va g‘aznachilik bo‘linmalarida byudjet qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash yuzasidan profilaktika ishlarini olib borish;

d) byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarni talon-taroj qilish, kamomadlarga yo‘l qo‘yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish sohasida:

− moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini olib borish uchun ma’lumotlar bazasini shakllantirish, umumlashtirish va hisobini yuritish;

− byudjet tizimi byudjetlari va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘armalar mablag‘laridan foydalanishda masofadan kuzatish tizimini va kameral nazoratni joriy etish orqali tekshirishlar samaradorligini oshirish;

− moliyaviy nazorat va huquqbuzarliklar profilaktikasi shakllari hamda usullarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

− aniqlanayotgan tizimli va xarakterli moliyaviy huquqbuzarliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish yuzasidan Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo‘yicha idoralararo kengashga tegishli takliflar kiritish;

e) masofaviy nazoratni keng ko‘lamda qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma’lumotlar bazasi vositasida tekshirish obyektlari va maqsadlarini aniqlash yo‘li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda byudjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish sohasida:

− bir hudud yoki sohada aniqlangan xarakterli moliyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan respublika hududidagi nazorat obyektlarida tizimli tekshirishlarni o‘tkazish;

− moliyaviy huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon yaratuvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha moliyaviy nazorat obyektlariga taqdimnomalar kiritish;

− byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va maqbullashtirish bo‘yicha tahliliy ishlarni amalga oshirish hamda tegishli takliflar ishlab chiqish;

f) O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘laridan foydalanishda byudjet qonunchiligiga hamda byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish sohasida:

− O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘laridan maqsadli foydalanilishida byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun markazlashgan manbalardan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam to‘lovlari uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik muassasalari tomonidan chet el valyutasidagi mablag‘lardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− byudjet ssudalaridan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga rioya etilishi yuzasidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

− davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirishlarni tashkil etish;

− davlat nazorati hujjatlarini umumlashtirish, ular yuzasidan tegishli axborotlar va takliflar tayyorlash;

− davlat moliyaviy nazorati natijalarida aniqlangan xato-kamchiliklarni bartaraf etish, maqsadsiz va noqonuniy xarajatlarni, pul mablag‘lari va tovar-moddiy boyliklar kamomadini undirish, nazorat obyekti aybdor shaxslarini javobgarlikka tortish yuzasidan taqdimnomalar tayyorlash;

− nazorat tadbirlarini muvofiqlashtirish va uslubiy jihatdan ta’minlash;

− ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish, qonunda ko‘zda tutilgan ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etilishini tashkillashtirish;

− davlat moliyaviy nazorati natijalari bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirilgan materiallar harakatini monitoring qilish;

g) O‘zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan), shuningdek, insonparvarlik yordami va texnik ko‘maklashish mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish sohasida:

− O‘zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan) va kredit liniyalaridan maqsadli foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− insonparvarlik yordami va texnik ko‘maklashish mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− investitsiya loyihalari uchun byudjet tizimi byudjetlari hamda grant mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi, loyiha-smeta hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

h) davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘armalar mablag‘laridan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish sohasida:

− davlat maqsadli jamg‘armalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘armalar mablag‘laridan foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi va uning tarkibidagi tashkilotlarni saqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasidan ajratilgan mablag‘laridan maqsadli foydalanishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan buyurtmachi-tashkilotlarga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan yo‘l va boshqa obyektlarda bajarilgan qurilish, rekonstruksiya, kapital ta’mirlash va ekspluatatsiya (joriy ta’mirlash, saqlash, qish mavsumida saqlash va ko‘kalamzorlashtirish) ishlari hajmlari hisobotlarda va haqiqiy xarajatlar buxgalteriya hujjatlarida to‘g‘ri aks ettirilganligi, shuningdek, xom ashyo va boshqa materiallarni amaldagi normativlarga asosan hisobdan chiqarilishini tekshirish;

− O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasidan buyurtmachi-tashkilotni saqlash uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− meliorativ dastur doirasida sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari uchun ajratilgan mablag‘larni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlariga maqsadli sarflanishi hamda bajarilgan ishlar hajmlarini hisobotlarda va haqiqiy xarajatlarini buxgalteriya hujjatlarida to‘g‘ri aks ettirilganligi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining meliorativ texnikasini sotib olish uchun ajratilgan

(uzoq muddatli imtiyozli lizing, qarz) mablag‘laridan maqsadli foydalanishni tekshirish;

− O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini maqsadli sarflanishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarni to‘g‘ri tayinlanishi, hisoblanishi, o‘z vaqtida moliyalashtirilishi va to‘lanishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar, tashkilotlardagi fuqarolarning pensiya yig‘majildlarida mavjud bo‘lgan ish stajini tasdiqlovchi va ish haqi to‘g‘risidagi hujjatlar to‘g‘riligi va haqqoniyligini tekshirish;

− tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari xizmati faoliyatini nazorat qilish;

− shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to‘g‘ri va to‘liq hisoblab chiqarilishi, o‘z vaqtida to‘lanishi hamda Xalq banki va uning filiallarida fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi hamda foizlar to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi mablag‘larini maqsadli sarflanishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

− O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini texnika bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘larining hisob-kitoblarga asoslangan holda to‘liq va o‘z vaqtida o‘tishi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish;

− O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish jamg‘armasi, Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi, “Sof ichimlik suvi” jamg‘armasi va qonun hujjatlariga

muvofiq boshqa jamg‘armalar mablag‘larini maqsadli sarflanishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

i) paxta tozalash korxonalarida hisobga olish va hisobotning haqqoniyligi ustidan davlat nazoratini amalga oshirilishini ta’minlash sohasida:

− paxta xomashyosini qabul qilish, qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali monitoring qilish va profilaktika tadbirlarini tashkillashtirish;

− paxta xomashyosini qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotlar haqiqiy miqdorini hamda ishlab chiqarish kuyindilarining tasdiqlangan normativlarga muvofiqligini tekshirish;

− qabul qilingan paxta xomashyosi va uni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotlar harakati hisobi va hisobotlari haqqoniyligini nazorat qilish;

− qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilaridan qabul qilingan paxta xomashyosi uchun amalga oshirilgan yakuniy hisob-kitoblarning to‘g‘riligi yuzasidan nazorat olib borish;

− tayyorlangan urug‘lik chigitlarning texnik talablar hamda navlarni joylashtirishning belgilangan topshiriqlarga muvofiqligi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

− ma’lumotlar bazasini shakllantirish, umumlashtirish va hisobini yuritish orqali qonun buzilishi holatlari oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini olib borish;

j) o‘z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlash sohasida:

− jismoniy va yuridik shaxslarning, shuningdek, moliyaviy nazorat obyektlarining (davlat moliyaviy nazorati natijalari bo‘yicha e’tirozlar) murojaatlarini ko‘rib chiqish (o‘rganish va tekshirish);

− kelib tushgan va ko‘rib chiqilgan (o‘rganilgan, tekshirilgan) murojaatlarini umumlashtirish, tahlil qilish va ularning natijalari bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish;

k) moliya inspektori lavozimi joriy etilgan korxonalarda aksiz solig‘ini to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida to‘lanishi yuzasidan nazorat o‘rnatish sohasida:

− moliya inspektorlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

− O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro‘yxati tasdiqlanadigan korxonalarda alohida mahsulot turlari bo‘yicha aksiz solig‘ini to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish;

− aksiz solig‘i to‘lanadigan ayrim turdagi tovarlarning aksiz markalari bilan to‘liq markalanishi va olingan aksiz markalari sonining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga muvofiqligini taqqoslab borish;

− aksiz solig‘i solinadigan ayrim turdagi mahsulotlarni sotilishi bo‘yicha belgilangan tartiblarga amal qilinishi yuzasidan nazorat o‘rnatish;

− har oyda aksiz markalarining haqiqatda mavjudligini xatlash, shikastlangan aksiz markalarini yo‘qotishga topshirishdan oldin ularni sonini buxgalteriya hisobotlariga muvofiqligini o‘rganish;

− haqi oldindan to‘lanmagan mahsulotni iste’molchiga yuklab jo‘natilishi, aksiz solig‘i bo‘yicha hisobot buzib ko‘rsatilishi, aksiz solig‘i hisoblanishi va to‘lanishi hamda aksiz markalari bilan markalash tartibini buzilishi, o‘simlik yog‘i korxonalarida tayyor mahsulot chiqishining belgilangan normativlari bajarilmasligi hollari to‘g‘risida tegishli chora-tadbirlar ko‘rish uchun vakolatli organlarni tezkor xabardor qilish.

− Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

− Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari o‘zlariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega[116]:

− davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, banklardan, g‘aznachilik bo‘linmalaridan, shuningdek, boshqa tashkilotlardan davlat

[116] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi 870-sonli qarori bilan tasdiqlangan) 9-bandi

moliyaviy nazoratini amalga oshirish yuzasidan zarur bo‘lgan ma’lumotlarni so‘rash va olish;

− nazorat obyektlarining elektron ma’lumotlar bazasi va axborot resurslaridan foydalanish;

− boshqa davlat moliyaviy nazorat organlari, vazirlik va idoralarning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari bilan axborot almashish;

− G‘aznachilik bo‘linmalaridan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklaridan byudjet tizimi byudjetlari, Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘armalar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa jamg‘armalar mablag‘larining harakati to‘g‘risida ma’lumotlar so‘rash va olish;

− yozma so‘rov asosida davlat moliyaviy nazorati sohasida Bosh boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bank va tijorat sirini tashkil etuvchi byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag‘lari oluvchilar haqidagi ma’lumotlarni olish;

− O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki filiallaridan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga kelib tushgan pensiya badallari to‘g‘risida ma’lumotlarni so‘rash va olish;

− davlat xaridlari bo‘yicha savdolarni o‘tkazuvchi tashkilot va muassasalarning maxsus axborot portalidan (yopiq qismidan) foydalanish;

− davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan masalalarni ko‘rib chiqish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlarning mutaxassislarini ekspert sifatida jalb etish;

− nazorat obyektining mansabdor va boshqa mas’ul shaxslardan moliyaviy nazorat tadbiri jarayonida paydo bo‘ladigan masalalar bo‘yicha tushuntirishlar berishni talab qilish;

− nazorat obyekti mansabdor va boshqa mas’ul shaxslarining tushuntirishlar berish va nazorat tadbiri natijalari bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarni imzolashdan bosh tortganliklari to‘g‘risidagi dalolatnomani tuzish;

− zarur hollarda, kassa va kassa binolari, omborlar, arxivlar va boshqa binolarni muhrlash, qalbakilashtirish, soxtalashtirish va boshqa suiiste'molliklar alomatlari aniqlangan taqdirda esa nazorat obyekti tegishli hujjatlarini olib qo‘yish, shuningdek, nazorat obyekti mansabdor shaxslaridan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni xatlovdan o‘tkazilishini talab qilish;

− davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish jarayonida aniqlangan xato kamchiliklarni bartaraf etish, maqsadsiz va noqonuniy xarajatlarni, pul mablag‘lari va tovar-moddiy boyliklar kamomadini undirish, paxta xomashyosi va uning mahsulotlari miqdorini aniqlangan kamomadga asosan hisobotlardan chiqarib tashlash hamda nazorat obyekti aybdor shaxslarini javobgarlikka tortish yuzasidan majburiy tusga ega taqdimnomalar kiritish.

− Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

− Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari quyidagilarga majbur[117]:

− o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni sifatli bajarish;

− davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, xolisligi va to‘liqligini ta'minlash;

− davlat sirlarining hamda nazorat obyektlarining qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

− hududiy boshqarmalar tomonidan aniqlangan xarakterli huquqbuzarliklar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Bosh boshqarmani xabardor qilish.

Shuningdek, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda g‘aznachilik organlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda G‘aznachilikni tashkil etish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish” loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2002-yil 26-apreldagi 144-son qarori qabul qilinishi bilan boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2004-yil

[117] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktyabrdagi 870-sonli qarori bilan tasdiqlangan) 10-bandi

26-avgustda “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi G‘aznachilikning tashkil etilishida va Davlat byudjetining g‘azna ijrosi joriy etilishida muhim bosqichlardan biri bo‘ldi. Qonun 2006-yil 1- yanvardan boshlab kuchga kirdi.

Davlat byudjeti g‘azna ijrosining ayrim elementlarini tajriba shaklida joriy etish 200- yil 1-iyundan boshlab Toshkent shahrida va Samarqand viloyatida boshlandi.

Byudjetning g‘azna ijrosi elementlarini bosqichma-bosqich kengaytirish 6 mintaqada (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari) 2006-yilda, qolgan mintaqalarda (Andijon, Farg‘ona, Toshkent, Jizzax, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida) 2007-yildan amalga oshirildi.

Ixtisoslashtirilgan moliya organi - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007-yil 28-fevraldagi PQ-594-son qarori asosida respublikaning barcha mintaqalarida 2007-yildan boshlab tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-martdagi 53-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risidagi Nizom qabul qilindi.

G‘aznachilik o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi[118]:

- byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to‘lovlar, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag‘lari bilan to‘lanadigan boshqa to‘lovlarni to‘lash uchun G‘aznachilikning bank hisob raqamlariga mablag‘lar o‘tkazadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida yagona g‘aznachilik hisob raqamida va hududiy g‘aznachilik hisob raqamlarida mablag‘larning harakati to‘g‘risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi;

[118] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-martdagi 53-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risida Nizom 9-bandi

- byudjetdan mablag‘ oluvchilarga ular uchun G‘aznachilikda yoki uning hududiy bo‘linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko‘chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag‘lari o‘tkazilganligini tasdiqlaydigan to‘lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

- manbalar bo‘yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;

- davlat byudjeti ijrosi jarayonida respublika byudjeti daromadlari tushumi va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzadi;

- moliya organlarining topshirig‘i bo‘yicha yuqori byudjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, byudjet ssudalari summasini va boshqa to‘lovlarni quyi byudjetlarning shaxsiy g‘aznachilik hisob raqamlariga o‘tkazadi;

- byudjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko‘rsatilgan summalar doirasida va maqsadlarga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

- byudjetdan mablag‘ oluvchilar nomidan ro‘yxatga olingan shartnomalarda yoki byudjet mablag‘larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlariga o‘tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan summalar doirasida tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko‘rsatuvchilar)ning bevosita bank hisob raqamlariga to‘lovlarni amalga oshiradi;

- byudjet tashkilotlarini, jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan byudjet mablag‘laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib boradi, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta’minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini hamda, qoidaga ko‘ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechishni nazarda tutadi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko‘rsatadi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etadi.



12.3-rasm. **O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligining asosiy vazifalari**[119]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G‘aznachiligi davlat xaridlari bo‘yicha Hukumat komissiyasining ishchi organi sifatida davlat xaridlari bo‘yicha ma’lumotlar, shu jumladan davlat xaridlari bo‘yicha byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan joylashtiriladigan buyurtmalar, shuningdek, byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga narxlar bo‘yicha ma’lumotlar elektron bazasini shakllantiradi va doimiy ravishda yangilab boradi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi moliyaviy nazoratga oid asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

[119] O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risida Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-martdagi 53-sonli qarori bilan tasdiqlangan) asosida mustaqil tayyorlandi

Moliyaviy nazoratning ahamiyati shundan iboratki, uning yordamida birinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan o‘z moliyaviy faoliyatlarida huquqiy tartibga rioya etilishini kuzatib borish; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirishni amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat moliyaviy faoliyatni amalga oshirish paytida qonunchilikka rioya etish, harakatlarni maqsadga muvofiqligini ta’minlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyati organlarining hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan, shuningdek, davlat va mahalliy mulkdan qonuniy tarzda foydalanish ustidan nazorat qilish yuzasidan moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan maqsadli faoliyatdir. Bu faoliyatning asosiy maqsadi nazorat qilinadigan obyektlar faoliyatidagi kamchiliklarni topish va mansabdor shaxslarni jazolashdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki bu kamchiliklarning oldini olish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, ogohlantirishdan iboratdir.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi ya’ni Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish ustuvor yo‘nalishi belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida davlat moliyasini isloh qilish yuzasidan bugungi kunda olib borilayotgan o‘zgarishlarning markazida davlat byudjetining shakllanishi va uning mablag‘laridan yanada samarali foydalanish, byudjet taqchilligi o‘sishiga ta’sir etuvchi omillarning oldini olish, shu bilan birga byudjet mablag‘laridan foydalanish jarayonida byudjet intizomlariga rioya etilishini va bunda moliyaviy nazoratni kuchaytirish, qolaversa, samarali moliyaviy nazorat tizimini shakllantirish orqali davlat byudjetining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini oshirish masalalari turadi.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo‘lishini ta’minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir. Bu borada faqat byudjet profitsiti haqida so‘z borishi mumkin va zarur. Bu muhokama qilishni emas, balki so‘zsiz bajarishni talab etadigan strategik vazifadir”[120].

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, 2018-yil yakuniga ko‘ra, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 407,5 trln. so‘mni tashkil etgan holda 2017-yilga nisbatan 5,1 foizga o‘sdi. YaIM o‘sish sur’atiga sanoat tarmog‘i eng katta ta’sir ko‘rsatdi (2,1 foiz). Xizmatlar sohasining ijobiy ta’siri esa, 1,8 foizni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmi o‘tgan yil bilan taqqoslaganda 9,9 foizga o‘sdi va YaIMning mutloq o‘sishida qurilish tarmog‘ining ijobiy hissasi 0,5 foizni darajasida baholandi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 0,3 foiz darajasida ijobiy o‘sish sur’ati qayd etildi. Mazkur tarmoqning YaIM mutloq o‘sish sur’atiga ta’siri 0,1 foizni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2018-yilgi ijrosida ijtimoiy sohalarni yanada rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish va ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlash borasidagi masalalarning moliyalashtirilishiga alohida e’tibor qaratilgani qayd etildi. Jumladan, hisobot davrida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan xarajatlar Davlat byudjetining 53,8 foizini, ya’ni YaIM nisbatan 10,5 foizni tashkil etdi.

2018-yilda aholi umumiy daromadlari 286,3 trln. so‘mni tashkil etdi va 2017-yilga nisbatan 110,3 foiz real o‘sish sur’atiga erishildi. Yil yakunlariga ko‘ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 33,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 27,3 foizga o‘sdi.

2018-yil davomida Davlat byudjeti daromadlari 79 trln. 99 mlrd. so‘mni tashkil qildi va 2017-yilga nisbatan 59,2 foizga o‘sdi hamda belgilangan 62 trln 500 mlrd. so‘m reja 16 599,0 mlrd. so‘mga ortig‘i bilan (126,6 foiz) bajarildi. O‘z navbatida, Davlat byudjeti

[120] Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. 6 b.

daromadlarining Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 19,4 foizni tashkil qildi[121].

Davlat moliyasini isloh qilish yuzasidan olib borilayotgan o‘zgarishlarning markazida davlat byudjetining shakllanishi va uning mablag‘laridan yanada samarali foydalanish, byudjet taqchilligi o‘sishiga ta’sir etuvchi omillarning oldini olish, shu bilan birga byudjet mablag‘laridan foydalanish jarayonida byudjet intizomlariga rioya etilishini va bunda moliyaviy nazoratni kuchaytirish, qolaversa, samarali moliyaviy nazorat tizimini shakllantirish orqali davlat byudjetining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini oshirish masalalari turadi.

12.2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasining byudjet mablag‘laridan foydalanish yuzasidan amalga oshirayotgan faoliyatining holati

Byudjet xarajatlaridan oqilona foydalanish yo‘llarini ijobiy hal qilishda byudjet xarajatlarining tarkibiy tuzilishi va ularning asosiy yo‘nalishlari muhim ahamiyatga egadir. Davlat byudjetidan xarajatlarni moliyalashtirish byudjet ko‘rsatkichlari doirasida yirik ijtimoiy tadbirlarni va ustuvor iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishini hamda davlat va milliy dasturlarni moliyalashtirishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti xarajatlari davlat xarajatlarini tashkil etishga oid tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bunday tamoyillar qatoriga:

1. Mablag‘larni maqsadli taqsimlash (kapital qurilish, ijtimoiy-madaniy tadbirlar va h.k.);
2. Mablag‘lardan eng yuqori samara olinishiga erishadigan holda foydalanish;
3. Tejamkorlik rejimiga qat’iy amal qilish;
4. Byudjet intizomiga rioya etilishini ta’minlash.

Oxirgi to‘rtinchi tamoyilga amal qilish davlat byudjeti xarajatlarining maqsadli, samarali va tejamli asosda o‘zlashtirilishiga katta imkoniyat yaratadi. Shu nuqtayi nazardan ham byudjetdan

[121] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining 2018-yildagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobot.

moliyalashtiriladigan muassasalarda byudjet intizomiga rioya qilinishini ta’minlash va uni kuchaytirish, hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Byudjet nazoratini amalga oshirishdan maqsad byudjet mablag‘larini hosil qilish va ishlatishda maqsadlilik, samaradorlilik, tartiblilik, qonuniylikning ta’minlanishiga erishish zarurligidan iboratligiga e’tiborni qaratsak, bunda byudjet intizomi va uning nazoratida quyidagi chizmada ko‘rsatilgan muhim ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o‘z ish faoliyatini yuritishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi to‘g‘risida”gi nizomiga asoslanib kelingan.

Vazirlikning asosiy vazifalari Respublika hududida kelishilgan yagona moliya-byudjet siyosatini amalga oshirish bo‘yicha vazirlikning bo‘lim va boshqarmalar ishlarini muvofiqlashtirish bu borada:

- bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va aholini ijtimoiy himoyalash bo‘yicha mustahkam moliyaviy bazani yaratish;

- davlatning yig‘ma moliyaviy balansi va byudjetini tuzishda xalq xo‘jaligi tarmoqlarining moliyaviy va iqtisodiy ahvolini tahlil qilish;

- respublika hududlaridagi mavjud mablag‘larni byudjetga jalb qilish va davlat mablag‘larini tejamli ravishda xarajat qilinishini ta’minlash.

Yuqorida qayd etilgan bosqichlardan xarajatlarni nazorat qilish vazifasi bevosita Moliya Vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi va uning hududiy Davlat moliyaviy nazorat boshqarmalariga yuklatilgan bo‘lib, davlat mablag‘larining ayrim joylarda boshqa maqsadlarga xarajat qilinganligi, ajratilgan mablag‘lar evaziga olingan moddiy-tovar boyliklarini o‘zlashtirib, ular hisobidan kamomadlar sodir etilishi va shunga o‘xshash bir qancha xato-kamchiliklarni aniqlashda shu boshqarmaning amalga oshirayotgan ishlari katta ahamiyatga egadir.



13.4-rasm. **Byudjet intizomi va nazorati ko‘rsatkichlari tizimi**[122]

2017-yilning oktyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 870-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston

[122] Turabov B.T. Byudjetdan moliyalashtirilayotgan muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtorefati. T. -2007.

Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi to‘g‘risida”gi nizomda shu bosh boshqarma va uning joylardagi boshqarmalarining asosiy vazifasi etib, davlat tomonidan ajratilgan byudjet mablag‘laridan to‘g‘ri va maqsadga muvofiq foydalanilayotganligi ustidan moliyaviy nazorat ishlarini tashkil etish va uni amalga oshirish belgilangan.

Shuningdek, uning asosiy vazifalaridan yana biri bu korxona, tashkilot va muassasalarda moliya-byudjet intizomiga rioya qilinishi va mavjud mablag‘lardan oqilona foydalanilayotganligi, tekshirish o‘tkazilayotgan joylarda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o‘tkazish bo‘yicha qabul qilingan hukumat qarorlari to‘g‘ri bajarilayotganligi yuzasidan nazorat ishlari o‘tkazish belgilangan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Byudjet intizomiga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[123] bilan Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari turli darajadagi byudjetlar ijrosini ko‘rib chiqish, byudjet mablag‘lari oluvchilarining moliya-xo‘jalik faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida taftish qilish va tekshiruvdan o‘tkazish huquqlari berildi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar samarasi va natijalari byudjet tizimida ham o‘ziga xos o‘zgarishlar qo‘llanishga zarurligini taqozo qildi. O‘z navbatida, bunday o‘zgarish va takomillashuvlar byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda byudjet intizomida rioya qilish va uning ijrosi nazoratini kuchaytirishga o‘z ta’sirini ko‘rsata olish natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot va ta’lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son qarori ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi 870-sonli qaror bilan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi sifatida qayta tashkil etildi va uning yangi nizomi tasdiqlandi.

[123] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 1- fevraldagi “Byudjet intizomiga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 66-sonli qarori

Yangi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi to‘g‘risida”gi nizom 6 bob, 22 banddan iborat bo‘lib, shunga ko‘ra, Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalarining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, tashkiliy tuzilmasi va ular ishini tashkil etish kabi muhim jihatlarida ham ancha to‘ldirishlar va paxta tozalash sanoatiga doir qo‘shimchalar amalga oshirilganligini ko‘rish va uni ijobiy baholash mumkin.

Shuningdek, yuqoridagi Nizomda Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmalarining funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari aniq belgilab berilgan. Byudjet jarayonining barcha bosqichlarida byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Davlat moliyaviy nazorat boshqarmalarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga[124] muvofiq, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobidagi moliyalashtiriladigan muassasalar faoliyati yuzasidan tahlil va tekshirishlar o‘tkazishda nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi talab etilmaydi.

Bunday muassasalarda tahlil va tekshirishlar Moliya vazirligi va boshqa moliya organlarining ish rejasi hamda alohida holatlarda esa rejasiz amalga oshiriladi.

Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi va uning joylardagi organlari tomonidan zimmalariga yuklatilgan mas’uliyatli vazifalarni bajarish va berilgan huquqlardan to‘liq foydalanish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar va amalga oshirilgan nazorat ishlari ta’sirida respublika moliya vazirligi tizimida va barcha bo‘g‘indagi byudjet muassasalarida byudjet intizomini sezilarli darajada mustahkamlandi, moliya organlari hamda byudjet muassasalari rahbar

[124] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni №717-I. Qabul qilingan sana 24.12.1998 y., kuchga kirish sanasi 20.01.1999

va mansabdor shaxslarning mas’uliyati va saviyasi ancha yuqoriga ko‘tarildi, byudjet intizomini buzish holatlari keskin kamaytirishga hamda birinchi darajali xarajatlarni o‘z vaqtida mablag‘ bilan ta’minlanib berilishiga erishildi.

Shu bilan o‘tkazilayotgan tekshirishlar va taftishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, moliya organlari va byudjet xarajatlari faoliyatida byudjet mablag‘larini noto‘g‘ri sarflash holatlariga hali ham yo‘l qo‘yilmoqda, byudjet tashkilotlarida belgilangan limitlardan ortiqcha mablag‘lar sarflash hollari davom etmoqda, rahbar va mansabdor shaxslar tomonidan belgilangan shtat intizomi buzilmoqda.

Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi va hududiy boshqarmalari tomonidan moliya muassasalari faoliyati ustidan nazoratni bo‘shashtirib yuborganligi oqibatida moliya organlari va byudjet tashkilotlari rahbarlari birinchi darajali xarajatlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirish o‘rniga byudjet parametrlarida ko‘rsatilmagan xarajatlarga yo‘naltirish, byudjet mablag‘larini boshqa moddalarga sarflash holatlariga yo‘l qo‘yishni davom ettirmoqda.

Bunda o‘z o‘rnida byudjet intizomini buzilishining quyidagi xarakterli ko‘rinishlarini keltirib o‘tish joizdir:

1. Birinchi darajali to‘lovlarni (ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, ijtimoiy nafaqalar va stipendiyalar) o‘z vaqtida moliyalashtirilmasligi hamda naqd pul bilan ta’minlanmasligi, to‘lov muddatlarini kechiktirish;

2. Byudjet parametrlariga va xarajatlar smetalaridagi limitlarga amal qilmaslik natijasida ish haqi, kommunal xizmatlar va xo‘jalik xarajatlaridan ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yish;

3. Byudjet muassasalarining xarajatlar smetalarida ko‘zda tutilmagan xarajatlarni amalga oshirish va byudjet mablag‘laridan samarasiz va boshqa maqsadlarda foydalanish;

4. Byudjet muassasalarining rahbarlari tomonidan shtat-smeta intizomiga rioya qilmaslik, ortiqcha shtat birliklaridan foydalanish, ish haqlarini belgilangan miqdorlarini oshirib yuborish, ishlamagan xodimlarga haq to‘lash;

5. O‘z-o‘zini boshqarish organlari (mahalla qo‘mitalari) orqali aholining ta’minlanmagan qatlamlariga to‘lanadigan ijtimoiy nafaqalarni tayinlashdagi turli mahalliychilik va qarindosh-urug‘chilikka yo‘l qo‘yish hamda ularni to‘lash davrida bank muassasalari xodimlari va o‘z-o‘zini boshqarish organlari xodimlari bilan birgalikda turli qonun-buzarliklarga va davlat mablag‘larini o‘zlashtirishga yo‘l qo‘yish;

6. Mahalliy hokimiyat organlari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslarning byudjet jarayoniga asossiz arlashuvi natijasida, byudjet mablag‘larini byudjet parametrlarida ko‘zda tutilmagan qurilish, ta’mirlash ishlariga, avtomobillarga dabdabali jihozlar sotib olishga hamda turli tadbirlar o‘tkazishga sarflash;

7. Moddiy javobgar shaxslar tomonidan javobgarlikdagi moddiy qiymatliklar va naqd pullardan kamomadlarga hamda talan-tarojliklarga yo‘l qo‘yish;

8. Byudjet muassasalari tomonidan xarajatlar smetasini rejalashtirishda amaldagi me‘yoriy hujjatlar talablari chuqur o‘rganilmaganligi natijasida byudjetdan ortiqcha mablag‘ olish;

9. Umumta‘lim muassasalarida tarifikatsiya jadvalini tuzishda vakant soatlarga yuqori toifali tarif razryadlari qo‘llanilishi natijasidan byudjetdan ortiqcha mablag‘ olish;

10. Turli sabablar bilan o‘tilmagan dars soatlari hisobidan iqtisod bo‘lgan mablag‘larni o‘z vaqtida (hisobot davri yakuni bilan) tegishli byudjetga qaytarilmasligi;

11. Vakant saqlanayotgan shtat birliklari hisobidan iqtisod bo‘lgan mablag‘larni o‘z vaqtida (hisobot davri yakuni bilan) tegishli byudjetga qaytarilmasligi;

12. Mehnatga haq to‘lashning Yagona tarif setkasi razryadlarini va koeffitsiyentlarini hamda ustama to‘lovlarini noto‘g‘ri qo‘llash hisobiga ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yish va h.k.

2018-yilda Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan ish rejasi, hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning topshiriqlari asosida 7 047 ta nazorat tadbirlari o‘tkazildi. Shuni ta’kidlash joizki, 2018-yilda o‘tkazilgan

nazorat tadbirlari soni o‘tgan yilga nisbatan 2 martaga kamaydi. (2017-yilda – 14 296 tani tashkil etgan).

O‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida 539,3 mlrd. so‘m miqdorida byudjet intizomini buzilish holatlari va boshqa noqonuniy xarajatlar aniqlandi va 2017-yilda o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan (534,1 mlrd. so‘m) miqdorga teng bo‘ldi.

I. Nazorat tadbirlarining asosiy qismi, 5 575 tasi (79,1 %) byudjet intizomiga rioya etilishi va mablag‘larning maqsadli foydalanilishi yuzasidan o‘tkazilgan bo‘lib, nazorat tadbirlarida 68,1 mlrd. so‘m byudjet intizomini buzish, pul va tovar moddiy boyliklar kamomadi, maqsadsiz va asossiz mablag‘lar sarflanishi aniqlanib, 51,1 mlrd. so‘mi (75 %) byudjetga tiklanishi ta’minlandi.

Ma’lumot uchun: 2017-yilda o‘tkazilgan 11 510 ta nazorat tadbirlarida byudjet qonunchiligini buzish holatlari 91,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan 72,2 mlrd. so‘mi (79%) byudjetga tiklangan.

Byudjet qonunchiligini buzish holatlari Davlat byudjeti xarajatlarning 2017-yilda 0,18 foiziga teng bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018-yilda 0,09 foizni tashkil etib 2 martaga kamaygan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar vazirlik va idoralar kesimida eng ko‘p miqdorda aniqlangan qonun buzilish holatlari natijalarini quyidagi (13.1-jadval) ko‘rish mumkin.

13.1-jadval

Vazirlik va idoralar kesimida eng ko‘p miqdorda aniqlangan qonun buzilish holatlari[125]

Sohalar	**Qonun buzilish holatlari miqdori** *(mlrd. so‘mda)*		**Shundan byudjetga tiklangani** *(mlrd. so‘mda)*	
	2018-yilda	2019-yil I-chorakda	2018-yilda	2019-yil I-chorakda

[125] Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi hisobotlari (https://www.mf.uz/uz/mf-fin-control-menu.html) asosida mustaqil tayyorlandi.

Sog‘liqni saqlash	17,1	1,5	13,1 (77 %)	1,4 (89 %)
Xalq ta’limi	10,9	3,7	9 (83 %)	3 (80 %)
Oliy ta’lim	6,6	6,2	4,5 (68 %)	4,9 (78 %)
Maktabgacha ta’lim	5,4	1,5	4,4 (81 %)	1,2 (89 %)

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga asosan, Vazirlik va idoralar kesimida eng ko‘p miqdorda aniqlangan qonunbuzilish holatlari:

Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida qonun buzilish holatlari miqdori 2018-yilda 17,1 mlrd. so‘mni, 2019-yil I-choragida 1,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan 2018-yilda 13,1 mlrd. so‘mni (77 %), 2019 yil I-choragida 1,4 mlrd. so‘mi (89 %) byudjetga tiklandi;

Xalq ta’limi vazirligi tizimida qonun buzilish holatlari miqdori 2018-yilda 10,9 mlrd. so‘mni, 2019-yil I-choragida 3,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan 2018-yil 9,0 mlrd so‘mi (83 %), 2019-yil I-choragida 3 mlrd. so‘mi (80 %) byudjetga tiklandi;

Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi tizimida qonun buzilish holatlari miqdori 2018-yilda 6,6 mlrd. so‘mni, 2019-yil I-choragida 6,2 mlrd. so‘m tashkil etib, shundan 2018-yil 4,5 mlrd. so‘mi (68 %), 2019-yil I-choragida 4,9 mlrd. so‘mi (78 %) byudjetga tiklandi;

Maktabgacha ta’limi vazirligi tizimida qonun buzilish holatlari 2018-yilda 5,4 mlrd. so‘mni, 2019-yil I-choragida 1,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan 2018-yil 4,4 mlrd. so‘mi (81 %), 2019-yil I-choragida 1,2 mlrd. so‘mi (89 %) byudjetga tiklandi.

2018-yil davomida mahalliy byudjetlardan mablag‘ bilan ta’minlanadigan muassasalarda ko‘p miqdorda aniqlangan qonun buzilish holatlari:

Farg‘ona viloyatida – byudjet tashkilotlaridagi qonun buzilish holatlari 6,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan 3,9 mlrd. so‘mi (62 %) byudjetga tiklandi;

Andijon viloyatida – byudjet tashkilotlaridagi qonun buzilish holatlari 5,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan 5,0 mlrd. so‘mi (89 %) byudjetga tiklandi;

Surxondaryo viloyatida – byudjet tashkilotlaridagi qonun buzilish holatlari 4,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan 3,7 mlrd. so‘mi (83 %) byudjetga tiklandi;

Samarqand viloyatida – byudjet tashkilotlaridagi qonun buzilish holatlari 3,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan 3,1 mlrd. so‘mi (90 %) byudjetga tiklandi.

2018-yilda mahalliy byudjetlarning tuzilishi va ijrosi yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasida, Andijon, Buxoro va Navoiy viloyatlarida keng qamrovli nazorat tadbirlari o‘tkazildi.

Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi yuzasidan nazorat tadbirlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ma’lumotlar bazasi vositasida kameral nazoratdan keng foydalanildi.

Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va hududiy boshqarmalari tomonidan “Davlat moliyasini boshqarish axborot dasturi” va byudjet tashkilotlari bevosita ishlaydigan “UzASBO dasturi” ma’lumotlaridan foydalangan holda 1691 ta muassasalarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzilishi yuzasidan kameral nazorat o‘tkazildi.

Kameral nazorat o‘tkazilgan muassasalardan 1409 tasida me’yoriy hujjatlarga amal qilmagan holda 26,8 mlrd. so‘mlik xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlanib, ushbu muassasalarga kiritilgan taqdimnoma va ko‘rsatmalar natijasida 15,7 mlrd. so‘m mablag‘larning asossiz sarflanishini oldi olindi. Quyida keltiriladigan 13.5-rasmda 2017–2019-yilning o‘tgan davri mobaynida javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslar to‘g‘risida ma’umotni ko‘ramiz.



13.5-rasm. **Javobgarlikka tortilgan mansabdorlar**[126]

13.5-rasmga ko‘ra, byudjet intizomini buzilishiga yo‘l qo‘ygan byudjet tashkilotlarining 2017-yilda 289 nafar, 2018-yilda 201 nafar, joriy yilining birinchi choragi davomida 67 nafar mansabdor shaxslar qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortildi.

Byudjet tashkilotlarining 2018-yil uchun xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzilishi va ularni me’yoriy hujjatlarga muvofiqligi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida 17,6 mlrd. so‘m byudjet mablag‘larining noqonuniy va asossiz sarflanishini oldi olindi.

Shuningdek, nazorat tadbirlari yakunlari bo‘yicha nazorat obyektining e’tirozlarini xolisona ko‘rib chiqish va baho berish uchun Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalarida Nazorat komissiyalari tashkil etildi.

Ushbu Nazorat komissiyalarining 149 ta majlislarida 1068 ta byudjet muassasalarda o‘tkazilgan tekshirishlar bo‘yicha nazorat obyektning e’tirozlari ko‘rib chiqilib, ularga xolisona tushuntirishlar berildi.

[126] Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi hisobotlari (https://www.mf.uz/uz/mf-fin-control-menu.html) asosida mustaqil tayyorlandi.

II. Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi tomonidan davlat maqsadli jamg‘armalari va Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘armalari mablag‘larini maqsadli sarflanishi yuzasidan o‘tkazilgan 1472 ta nazorat tadbirlarida 357,8 mlrd. so‘m miqdorida moliyaviy qonun buzilish holatlari va asossiz xarajatlar aniqlangan bo‘lib, shundan 236,7 mlrd. so‘mni tiklanishi ta’minlandi.

Shuningdek, Hukumat va huquqni muhofaza qilish organlarining qarorlari va topshiriqlariga asosan 205 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy xo‘jalik faoliyati yuzasidan nazorat tadbirlari o‘tkazilgan bo‘lib, aniqlangan 113,4 mlrd. so‘m miqdoridagi moliyaviy qonun buzilish holatlari bo‘yicha nazorat tadbirlari hujjatlari qonuniy chora ko‘rish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga yuborildi.

Bundan tashqari, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari mablag‘larini maqsadli sarflanishi, “Jamoat ishlari” jamg‘armasi va “Yoshlar-kelajagimiz” jamg‘armasi mablag‘larini maqsadli sarflanishi yuzasidan nazorat tadbirlari o‘tkazilib, Vazirlar Mahkamasiga axborotlar kiritildi.

Davlat byudjetidan, byudjetdan tashqari fondlar mablag‘laridan, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarning to‘g‘ri tayinlanishi va to‘lanishini, shuningdek, jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi va uning mahalliy organlari tomonidan amalga oshiriladi. Zarurat bo‘lganda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi organlari tomonidan, mustaqil ekspertlar jalb qilingan holda bosh, tumanlararo, tuman va shahar tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan berilgan ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomalari va xulosalar hujjatlari takroran ekspertizadan o‘tkazilishi mumkin.

Nazorat tadbirlarida byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Andijon viloyati tuman va shahar bo‘limlarida 180 ta holatda 358,2 mln. so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi.



12.6-rasm. Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi tomonidan 2018-yil 1-choragida Andijon viloyatida O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan moliyaviy nazorat tadbiri natijalari[127]

Yuqoridagi rasmdan ko‘rish mumkinki, pensiya dasturi bazasiga ish haqi va boshqa ma’lumotlarni asossiz ravishda oshirilib ko‘rsatilishi natijasida 36 fuqarolarga 29,6 mln. so‘m mablag‘lar ortiqcha to‘lab berilgan.

Fuqarolarga pensiya tayinlashda tashkilotlar va korxonalar tomonidan ish haqi va mehnat stajlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga noto‘g‘ri raqamlar kiritilishi hamda soxtalashtirilishi oqibatida 8 ta holatda 28,1 mln. so‘m pensiya pullari ortiqcha tayinlanib, to‘lab yuborilgan.

[127] Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi hisobotlari (https://www.mf.uz/uz/mf-fin-control-menu.html) asosida mustaqil tayyorlandi.

Andijon shahrida 140 mln. so‘m, Ulug‘nor tumanida 86,6 mln. so‘m, Xo‘jaobod tumanida 28,3 mln.s o‘m va Asaka tumanida 3,2 mln. so‘m ko‘chib ketgan yoki vafot etgan hamda mavjud bo‘lmagan fuqarolarga qayta pensiya tayinlanishi va to‘lov ro‘yxatlari qayta tuzilishi natijasida 50 ta holatda 258 mln. so‘m noqonuniy sarflangan.

AT “Xalq banki” Andijon viloyat filiali Amaliyot bo‘limining 17-sayyor kassasi xodimlari tomonidan 71 nafar fuqarolarning 28,5 mln. so‘mlik pensiya va nafaqa pullari o‘zlashtirilgan.

Yuqorida aniqlangan holatlar bo‘yicha to‘plangan tekshirish materiallari huquqni muhofaza qilish organlariga yuborildi.

Xulosa qilib aytganda, Moliya vazirligi tizimida byudjet muassasalari faoliyatini nazorat qilish Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, ular tomonidan byudjet intizomiga rioya etish, davlat byudjeti mablag‘laridan oqilona foydalanish nazorat qilinib, tashkilot-muassasalar va ularnnig aybdor mansabdor shaxslariga qonunda ko‘zlangan jazo choralari qo‘llanilmoqda. Bu esa, davlat byudjeti mablag‘larini maqsadli ishlatilishini va byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

“DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH” FANIDAN TEST VA NAZORAT SAVOLLAR

1.Davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi – bu ….?
a) Respublika byudjeti;
b) Mahalliy byudjet;
d)*Davlat byudjeti;
e) Davlat maqsadli jamg‘armalari.

2. AQShda byudjet tizimi necha bo‘g‘inli?
a) *3 bo‘g‘inli;
b) 2 bo‘g‘inli;
d) 4 bo‘g‘inli;
e) 5 bo‘g‘inli.

3. Byudjet nazorati moliyaviy nazoratning qanday turiga kiradi?
a) *Davlat nazorati;
b) Nodavlat nazorati;
d) Auditorlik nazorati;
e) Mustaqil nazorat.

4. GFRda byudjet tizimi necha bo‘g‘indan iborat?
a) Bir bo‘g‘inli byudjet tizimi;
b) Ikki bo‘g‘inli byudjet tizimi;
d) Uch bo‘g‘inli byudjet tizimi;
e) To‘rt bo‘g‘inli byudjet tizimi.

5. Moliya vazirligi tarkibiga qanday organ kiradi?
a) *Tuman moliya bo‘limi;
b) Shahar soliq inspeksiyasi;
d) Tijorat banklari;
e) Sug‘urta tashkilotlari.

6. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining qaysi sohasiga mansub?
a) *Davlat moliyasi tarkibiga;
b) Sug‘urta korxonalari moliyasiga;
d) Korxonalar moliyasiga;
e) To‘g‘ri javob yo‘q.

7. Byudjet tizimini boshqarish subyektiga qanday organ kiradi?
a) *Oliy majlis;
b) Sug‘urta tarmoqlari;
d) Markaziy bank;
e) Tijorat banklari.

8. O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?
a) 1992-yil 29-dekabrda;
b) *2013-yil 26-dekabrda;
d) 1999-yil 3-sentyabrda;
e) 2013-yil 25-dekabrda.

9. Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlash – bu .....
a) Davlat byudjeti;
b) *Byudjet tasnifi;
d) Byudjet tizimi;
e) Byudjet jarayoni.

10. Turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi – bu ..... ?
a) Davlat byudjeti;
b) Byudjet tasnifi;
d) *Byudjet tizimi;
e) Byudjet jarayoni.

11. Byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag‘lari - bu ….?
a) Byudjet ssudasi;
b) Byudjet subvensiyasi;
d) Byudjet dotatsiyasi;
e)*Byudjet transferti.

12. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag‘lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag‘lari – bu ….?
a) Byudjet transferti;

b) *Byudjetdan malag‘ ajratish;
d) Aylanma kassa mablag‘i me’yori;
e) Byudjet dotatsiyasi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Jamlanma byudjeti tarkibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
a) Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar;
b) Respublika byudjeti, viloyatlar byudjetlari, Toshkent shahar byudjeti;
d) *Davlat byudjeti, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlari;
e) Byudjet mablag‘lari iste’molchilari jami.

14. To‘lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo‘yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo‘lgan tasnif – bu ..... ?
a) Davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi;
b) Davlat byudjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi;
d) *Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi;
e) Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini.

15. Davlat byudjeti qaysi organ tomonidan qabul qilinadi?
a) *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;
b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;
d) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;
e) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan.

16. Byudjet tashkilotlari hisobvaraqlaridagi byudjet mablag‘lari qoldiqlari nimaga yo‘naltiriladi?
a) Respublika byudjetiga;
b) Mahalliy byudjetga;
d) Kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirishga;
e) *Byudjet tashkilotlarini maxsus mablag‘lari hisobvarag‘iga.

17. Byudjet tashkilotlarining maxsus mablag‘larini shakllantirish va sarflash tartibi kim tomonidan belgilanadi?
a) Oliy Majlis;
b) *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
d) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
e) Davlat soliq qo‘mitasi.

18. Agar kelgusi moliya yili uchun Davlat byudjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan bo‘lsa, Davlat byudjeti qabul qilingunga qadar bo‘lgan davrda davlat xarajatlari qanday tartibda amalga oshiriladi?

a) *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda byudjet mablag‘larining avvalgi moliya yili so‘nggi uch oyining uchdan bir qismidan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda har oyda amalga oshiriladi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda byudjet mablag‘larining avvalgi moliya yili so‘nggi uch oyining yarmisidan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda har oyda amalga oshiriladi;

d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda byudjet mablag‘larining avvalgi moliya yili so‘nggi oyining to‘liq miqdoridan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda har oyda amalga oshiriladi;

e) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda byudjet mablag‘larining avvalgi moliya yili so‘nggi ikki oyining yarmisidan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda har oyda amalga oshiriladi.

19. Davlat byudjeti qaysi funksiyalarni bajaradi:

a) Taqsimlash va qayta taqsimlash;

b) Nazorat;

d) *Taqsimlash, nazorat;

e) Iqtisodiy, ijtimoiy, tartibga solish.

20. Iqtisodiy faollik darajasining oshishi bilan xarajatlarning ko‘payishi natijasida yuzaga kelgan taqchillik – bu …

a) Passiv taqchillik;

b) *Aktiv taqchillik;

d) Tarkibiy taqchililik;

e) Davriy taqchililik.

21. Byudjet loyihasini tuzish, tasdiqlash, ijrosini tashkil qilish va ijrosi bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish jarayonlari majmuasi byudjet jarayoni hisoblanadi?

a) Byudjet taqchilligi;

b) Byudjet ssudasi;

d) Byudjet tasnifi;

e)*Byudjet jarayoni.

22. Byudjet jarayoni necha bosqichdan iborat?

a) Ikki bosqich;

b) Uch bosqich;

d) *To‘rt bosqich;

e) Besh bosqich.

23. O‘zbekiston Respublikasida smeta xarajatlari qancha muddatga tuziladi?
a) *Bir moliya yiliga;
b) Ikki moliya yiliga;
d) Uch moliya yiliga;
e) To‘rt moliya yiliga.

24. Qaysi vakolatli organ davlat boshqaruvi va ijroiya organlarining davlat byudjetini ijro etish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi?
a) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;
b) *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
c) 3 ta viloyat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
d) Hududiy Moliya organlari.

25. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, boshqa byudjet tashkilotlari tomonidan ijro etiladigan asosiy vazifalar bo‘yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo‘lgan tasnif – bu .....
a) *Davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi;
b) Davlat byudjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi;
d) Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi;
e) Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.

26. Byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar ularni bevosita oluvchilar o‘rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar va tadbirlar turlari bo‘yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo‘lgan tasnif– bu .....
a) Davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi;
b) *Davlat byudjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi;
d) Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi;
e) Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.

27. Moliya Vazirligi tomonidan tayyorlangan davlat byudjeti loyihasi qaysi muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi?
a) *Joriy yilning 15-sentyabrigacha;
b) Joriy yilning 1-oktyabrigacha;
d) Joriy yilning 1-sentyabrigacha;
e) Joriy yil oxirigacha.

28. Byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar olish uchun beriladigan buyurtma shakli va uni tuzish tartibi kim tomonidan belgilanadi?
a) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
b) Oliy Majlis;
d) *O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
e) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi.

29. Hisoblab chiqarilgan, biroq joriy yilning 31-dekabrigacha davlat byudjetiga to‘lanmagan daromadlar … .
a) Joriy yilda yuzaga kelgan byudjet taqchilligini qoplashga yo‘naltiriladi;
b) Kelgusi yil uchun tasdiqlangan davlat byudjeti daromadlari hisobiga o‘tkaziladi;
d) *Kelgusi yilda joriy yil hisobidan davlat byudjetiga o‘tkaziladi;
e) Shu byudjet bo‘g‘inining qarzi hisoblanadi.

30. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va barcha darajadagi mahalliy byudjetlar hisobvaraqlaridagi byudjet mablag‘lari qoldiqlari nimalarga yo‘naltiriladi?
a) Tasdiqlangan miqdorda kassa daromadini shakllantirishga;
b) Tasdiqlangan miqdorda qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirishga;
d) *Tasdiqlangan miqdorda aylanma kassa mablag‘i me’yorini shakllantirishga;
e) Tasdiqlangan miqdorda byujet tashkilotlarini moliyalashtirishga.

31. Quyidagilardan qaysi biri tartibga soluvchi daromadlar bo‘la olmaydi?
a) Aksiz solig‘i;
b) *Mulk solig‘i;
d) Yuridik shaxslar foyda (daromad) solig‘i;
e) Jismoniy shaxslar daromad solig‘i.

32. Jismoniy shaxslar daromadi solig‘i qaysi guruhga kiradi?
a) *Bevosita soliqlar;
b) Bilvosita soliqlar;
d) Resurs soliqlari;
e) O‘zgaruvchan soliqlar.

33. Yer solig‘i qaysi guruhga kiradi?
a) *Resurs solig‘i;
b) Egri soliq;
d) Umumdavlat solig‘i;
e) O‘zgaruvchan soliq.

34. Jismoniy shaxslar daromadi solig‘i qaysi guruhga kiradi?
a) *Bevosita soliqlar;
b) Bilvosita soliqlar;
d) Resurs soliqlari;
e) O‘zgaruvchan soliqlar.

35. Yer solig‘i qaysi guruhga kiradi?
a) *Resurs solig‘;i
b) Egri soliq;
d) Umumdavlat solig‘i;
e) O‘zgaruvchan soliq.

36. Soliqlarning asosiy funksiyalari to‘grisini ko‘rsating.
a) Taqsimlash va nazorat, ogohlantirish;
b) Taqsimlash va qayta taqsimlash;
d) *Fiskal va iqtisodiy rag‘batlantirish;

37. Federativ davlatlarda soliqlar qanday guruhlarga bo‘linadi?
a) Federativ, vaqtinchalik, mahalliy;
b) *Federativ, federatsiya subyektlari, mahalliy;
d) Federativ, konfederativ subyektlar, mahalliy;
e) Barcha javoblar to‘g‘ri.

38. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida byudjet daromadining asosiy manbai nima hisoblanadi?
a) Davlat mulkini sotishdan;
b) *Soliqlar;
d) Soliqsiz to‘lovlar;
e) Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan.

39. Progressiv soliq stavkalari:
a) *Soliqqa tortiladigan obyekt o‘sib borishi bilan soliq stavkalari ham o‘sib boruvchi stavkalar;
b) Soliqqa tortiladigan obyekt o‘sib borishi bilan soliq stavkalari kamayib boruvchi stavkalar;
d)Soliqqa tortiladigan obyekt o‘sishi yoki kamayishidan qat’iy nazar o‘zgarmaydigan stavkalar;
e) Milliy pul birligida joriy etilgan soliq stavkalari.

40. Regressiv soliq stavkalari:

a) Soliqqa tortiladigan obyekt o‘sib borishi bilan soliq stavkalari ham o‘sib boruvchi stavkalar;

b) *Soliqqa tortiladigan obyekt o‘sib borishi bilan soliq stavkalari kamayuvchi boruvchi stavkalar;

d) Soliqqa tortiladigan obyekt o‘sishi yoki kamayishidan qat’iy nazar o‘zgarmaydigan stavkalar;

e) Milliy pul birligida joriy etilgan soliq stavkalari.

41. Akademik litseylar, kollejlar qaysi xarajatlar tarkibida moliyalashtiriladi?

a) *Ta’lim;

b) Ijtimoiy-madaniy;

d)Fan;

e)Madaniyat, ommaviy axborot vositalari.

42. Vazirlar Mahkamasining 3-sentyabr 1999-yildagi 414-sonli qaroriga ko‘ra telefon aloqasi xarajatlari qaysi guruhga kiritilgan?

a) Xarajatlarning 1-guruhiga;

b) Xarajatlarning 2-guruhiga;

d)Xarajatlarning 3-guruhiga;

e)*Xarajatlarning 4-guruhiga.

43. Dafn marosimlari uchun nafaqalar ... hisobidan beriladi.

a) *Pensiya fondidan;

b) “Kamolot” jamg‘armasidan;

d)“Nuroniy” jamg‘armasidan;

e) Zaxira jamg‘armasidan.

44. Iqtisodiy mohiyati bo‘yicha byudjet xarajatlari qanday turkumlarga bo‘linadi?

a) *Joriy va kapital xarajatlar;

b) Markazlashtirilgan investitsiyalar, ijtimoiy soha xarajatlari;

d) Ijtimoiy madaniy tadbirlarga xarajatlar, mudofaa, boshqarish;

e) Mahalliy byudjet xarajatlari, Respublika byudjeti xarajatlari.

45. Smetali moliyalashtirish nima?

a) *Tasdiqlangan smetaga muvofiq muassasa va tashkilotlar xarajatlarini qoplash usuli;

b) Tijorat korxonalarida asosiy ishlab chiqarish fondlarini moliyalashtirish usuli;
d) Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar aylanma ishlab chiqarish fondlarini moliyalashtirish usuli;
e) Tijorat korxonalarida asosiy ishlab chiqarish fondlarini moliyalashtirish usuli, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish usuli.

46. Byudjet tashkilotlari xarajatlarining iqtisodiy tasnif bo‘yicha guruhlanishi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
a) Joriy xarajatlar, kapital xarajatlar;
b) Ish haqi, ish haqiga ustamalar, kanselyariya va xo‘jalik xarajatlari, oziq-ovqat va dori-darmon xarajatlari (jami 18 ta modda bo‘yicha);
d) *Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, ish haqiga hisoblangan ajratmalar, kapital qo‘yilmalar, boshqa xarajatlar;
e) Iqtisodiyot xarajatlari yo‘nalishlari.

47. Davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari tarkibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
a) *Fan, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport;
b) Ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy himoya, san’at, madaniyat, bayramlar va marosimlarni tashkil etish;
d) Ijtimoiy himoya, pensiya ta’minoti, ta’lim, madaniyat, konsert-tomosha tashkilotlarini saqlash;
e) Ijtimoiy sohalar majmui, pensiya ta’minoti.

48. Agar kelgusi moliya yili uchun Davlat byudjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan bo‘lsa, Davlat byudjeti qabul qilingunga qadar avvalgi moliya yilida qilinmagan byudjet xarajatlari amalga oshiriladimi yoki yo‘qmi?
a) *Amalga oshirilmaydi;
b) Amalga oshiriladi;
d) Byudjet tashkiloti rahbari qaroriga asosan amalga oshiriladi;
e) Moliya organi mudiri qaroriga asosan amalga oshiriladi.

49. Byudjet tashkilotlarini amaldagi byudjetdan moliyalashtirish tartibini belgilab bergan hujjat qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
a) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 25-dekabr 610-son qarori.
b) *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabr 414-son qarori

d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 31-dekabr 567-son qarori
e) “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi qonun.

50. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiyot xarajatlariga kirmaydi?
a) Obodanlashtirish;
b) Qishloq xo‘jaligi;
d) Uy-joy kommunal xo‘jalik;
c) *Madaniyat xarajatlari.

51. Oliy o‘quv yurtlari xarajatlari qaysi byudjetdan moliyalashtiriladi?
a) Maorif byudjetidan;
b) *Respublika byudjetidan;
d) Ta’lim dasturining maqsadli ajratmalari;
d) Mahalliy byudjetlardan.

52. Maktab xarajatlarini moliyalashtirishda qaysi byudjet bo‘g‘ini ishtirok etadi?
a) *Mahalliy byudjetlar;
b) Respublika byudjeti;
d) Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat fondi;
e) Homiylar mablag‘i.

53. Sanitariya-epidemiologiya markazlari xarajatlari. ..... hisobidan moliyalashtiriladi.
a) *Ijtimoiy-madaniy;
b) Ijtimoiy himoya;
d) Iqtisodiyot;
c) Boshqaruv.

54. Quyidagi muassasalarning qaysi biri kasb-hunar ta’limi muassasalari qatoriga kiradi.
a) *Kollejlar;
b) Litseylar;
d) Oliy ta’lim muassasalari;
e) Maxsus maktablar.

55. Muayyan byudjet muassasasining xarajatlari smetasida ... ko‘rsatilmaydi.
a) 1-guruh xarajatlari – “Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar”;
b) 2-guruh xarajatlari – “Ish haqidan ajratmalar”;
d) *3-guruh xarajatlari –“Kapital qo‘yilmalar”;

e) 4-guruh xarajatlari – “Boshqa xarajatlar”.

56. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xarajatlari ... hisobidan moliyalashtiriladi.
a) Viloyatlar byudjeti;
b) *Respublika byudjeti;
d) Shaharlar byudjeti;
e) Tumanlar byudjeti.

57. Maktablarni moliyalashtirish ... xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi.
a) *Ijtimoiy-madaniy tadbirlar;
b) Ijtimoiy himoya;
d) Iqtisodiyot;
e) Boshqaruv.

58. Tuman poliklinikalari ... hisobidan moliyalashtiriladi.
a) Davlat byudjeti;
b) Respublika byudjeti;
d) Viloyat byudjeti;
e) Tuman byudjeti.

59. Maktabgacha ta’lim muassasalari ... hisobidan moliyalashtiriladi.
a) Davlat byudjeti;
b) Respublika byudjeti;
d) Viloyat byudjeti;
e) *Tuman byudjeti.

60. Moliya yilida Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobvaraqlarida turishi mumkun bo‘lgan pul mablag‘lari qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdori qanday nomlanadi?
a) Byudjet dotatsiyasi;
b) Byudjet subvensiyasi;
d) *Aylanma kassa me’yori;
e) Mahalliy byudjetlarga byudjet ssudasi.

61. Mahalliy byudjetlarga respublika byudjetidan beriladigan moliyaviy yordam turini aniqlang.
a) Byudjet dotatsiyasi;
b) Byudjet subvensiyasi;
d) Byudjet ajratmalari;

e) *Byudjet dotatsiyasi va byudjet subvensiyasi.

62. Yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud Respublika byudjetidan rezident yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘ – bu ... .
a) Byudjet dotatsiyasi;
b) *Byudjet ssudasi;
d)Byudjetdan mablag‘ ajratish;
e)Byudjet subvensiyasi.

63. O‘z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari – bu ... .
a) *Byudjet dotatsiyasi;
b) Byudjet ssudasi;
d) Byudjetdan mablag‘ ajratish;
e) Byudjet subvensiyasi.

64. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari – bu ... .
a) Byudjet dotatsiyasi;
b) Byudjet ssudasi;
d) Byudjetdan mablag‘ ajratish;
c) *Byudjet subvensiyasi.

65. O‘zbekiston respublikasi byudjet tizimining bo‘g‘inlarini ko‘rsating.
a) Federal byudjetlar, munitsipal va mahalliy byudjetlar;
b) Hududiy byudjetlar, mahalliy byudjetlar, Respublika byudjeti;
d) *Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar;
e) Davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar.

66. Quyidagilarning qaysi biri byudjet munosabatlariga kiradi...
a) *Soliqlarni to‘lash bo‘yicha davlat va korxonalar o‘rtasidagi munosabatlar;
b) Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta kompaniyalari va korxonalar o‘rtasidagi munosabatlar;
d) Olingan kredit bo‘yicha to‘lanadigan foiz orqali tijorat banklari va korxonalar o‘rtasidagi munosabatlar;
e) Olingan xomashyoga to‘lash bo‘yicha korxonalar va xomashyo yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar.

67. Moliya yilida Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobvaraqlarida turishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori - bu ….?
a) Byudjet qoldig‘i;
b) Byudjet mablag‘lari;
d) *Aylanma kassa mablag‘i me’yori;
e) Aylanma kassa mablag‘i.

68. Muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi - bu ….?
a)*Byudjet profitsiti;
b) Byudjet taqchilligi;
d) Byudjet transferti;
d) Byudjet mablag‘lari.

69. Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi - bu ... ?
a) Taqchillikni moliyalashtirishning inflyatsion va noinflyatsion manbalari bo‘yicha guruhlash;
b) Taqchillikni moliyalashtirishning qarzli va qarzsiz manbalari bo‘yicha guruhlash;
d) *Taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo‘yicha guruhlash;
e) Taqchillikni moliyalashtirishning kredit va qarz manbalari bo‘yicha guruhlash.

70. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va barcha darajadagi mahalliy byudjetlar hisobvaraqlaridagi byudjet mablag‘lari qoldiqlarning aylanma kassa mablag‘i me’yorining tasdiqlangan miqdoridan ortiq qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining hamda tegishli hokimlarning qaroriga ko‘ra nimalarga yo‘naltirilishi mumkin?
a) Kassa daromadini shakllantirishga;
b) *Qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirishga;
d) Tasdiqlangan miqdorda aylanma kassa mablag‘i me’yorini shakllantirishga;
e) Byujet tashkilotlarini moliyalashtirishga.

71. Davlat byudjeti taqchilligi nima?
a) Xarajatlar va daromadlarning balansliligi;
b) *Xarajatlarning daromadlardan oshib ketishi;

d) Daromadlarning xarajatlardan oshib ketishi;
e) Obyektiv holat bo‘lib, ahamiyatsizdir.

72. Taqchillikni moliyalashtirishning inflyatsiyaga olib keluvchi manbalari:
a) *Pul emissiyasi Markaziy bank kreditlari;
b) Davlat mulkini xususiylashtish;
d) Tashqi qarzlar;
e) Davlat qimmatli qog‘ozlari va obligatsiyalari.

73. Dotatsiya va subvensiya qaysi daromad manbaiga kiradi:
a) Biriktirilgan daromadlar;
b) *Tartibga soluvchi daromadlar;
d) Boshqaruvchi daromadlar;
e) Moliyaviy tenglashtirish siyosati orqali tushuvchi daromadlar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati.
2. Moliyaviy tizim nima?
3. Dunyoda davlat moliyasini boshqarishni tashkil qilishning qaysi turlari keng tarqalgan?
4. Davlat moliyasining afzalliklari qanday?
5. Davlat moliyasini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari qanday?
6. Davlat moliyasini boshqarish subyektlarining mas’uliyati qanday?
7. Davlat moliyasini boshqarish funksiyalari.
8. O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini rivojlantirish tendensiyalari.
9. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning shakllari, usullari va vositalari.
10. Davlat regulyatorlarining samaradorligi va ularning kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha iqtisodiy strategiyasini shakllantirishga ta’siri.
11. Mahalliy, mintaqaviy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlat moliyasining ahamiyati.
12. Mahalliy ekologik muammoli obyektlar va ularni moliyalashtirish manbalari.
13. Hududiy ekologik mintaqalar va ularning moliyaviy ta’minoti.
14. Davlat ekologik muammolarini bartaraf etishda davlat moliyasining rolini oshirish yo‘llari.
15. Davlat korxonalari moliyasining nazariy va xuquqiy asoslari.

16.Davlat korxonalari moliyasini tashkil etishning tashkiliy asoslari va sabablari.

17.Davlat korxonalarining tashkiliy huquqiy shakllari va tashkil etish nizomlari.

18.Davlat korxonalari moliyasining asosiy funksiyalari.

19.Davlat korxonalari moliyaviy resurslarining manbalari va tarkibi.

20.Davlat korxonalari moliyasida investitsiya siyosatining roli.

21.Davlat korxonalarining moliyaviy munosabatlari.

22.Davlat va munitsipal korxonalarning o‘z mablag‘lari tarkibi.

23.Moliyaviy bozordan olayotgan mablag‘lari. Jalb qilingan mablag‘lar tarkibi. Qarziy mablag‘lar tarkibi.

24.Xorijiy investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati.

25.Davlat korxonalarini tashkil etishning iqtisodiy ahamiyati.

26.Tarmoqlar bo‘yicha davlat korxonalarining tarkibi.

27.Davlat va munitsipal korxonalari tarkibini pasaytirish choralari. Davlat tijorat korxonalari. Davlat notijorat korxonalari.

28.Davlat va munitsipal korxonalarning xarajatlar tarkibi.

29.Davlat byudjetining mohiyati va uning asosiy xususiyatlari.

30.Byudjet munosabatlarini taqsimlash jarayoni (iqtisodiy tarmoqlar, ijtimoiy faoliyat sohasi, mamlakat mintaqasidagi iqtisodiyotning iqtisodiyoti).

31.Byudjet munosabatlarining obyektiv xususiyati. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari.

32.Davlat byudjeti vazifalari va ularning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o‘rni.

33.Byudjet jarayoni. Unitar davlatlarning byudjet jarayoni. Ikki darajali byudjet tizimi.

34.Federal davlatlarda byudjet jarayoni.Uch bosqichli byudjet tizimi.

35.Byudjet defitsiti va uni moliyalashtirish manbalari.

36.Byudjet loyihasini tayyorlash, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, byudjet ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash.

37.Respublika byudjetining iqtisodiy ahamiyati vauning davlat byudjetidagi o‘rni.

38.Respublika byudjetining daromad manbalari. Umumdavlat soliqlari, poshlinalar, bojlar va boshqa soliqsiz daromadlar.

39.Davlat mulki va boshqa aktivlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar. Musodara qilingan mulklarni realizatsiya qilishdan shakllangan daromadlar.

40.Xorijiy mamlakatlar, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning xayriyalari hamda boshqa daromadlar.

41.O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari.

42.Soliq islohotlarini taqozo qilgan muammolar.

43.Soliq islohotlari konsepsiyasining asosiy jihatlari.

44.Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi.

45.Davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirish va optimallashtirishdagi muammolar.

46.Byudjet xarajatlari ijrosini samarali tashkil qilishdagi muammolar.

47.Byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosini tashkil qilishdagi muammolar.

48.Davlat byudjeti xarajatlari ijrosini nazorat qilishdagi muammolar.

49.Byudjet siyosatini amalga oshirish mexanizmlari.

50.Byudjet defitsitini qisqartirish va oldini olish chora-tadbirlari.

51.Defitsitni boshqarish va tartibga solishdagi dolzarb muammolar.

52.Barcha darajadagi byudjetlar barqarorligini ta’minlashning dolzarb muammolari.

53.Mahalliy byudjetlar daromadlarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019 y. - 40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. T.: “O‘zbekiston” 2013-yil 26-dekabr. № O‘RQ-360.
3. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2018 y. PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlarinig javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-№445-sonli qarori 2017-yil 12-dekabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-№2847-sonli qarori, 2017-yil 18-mart.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. “Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузурида бюджетдан ташқари таълим ва тиббиѐт муассасаларининг моддий-техника базасини ривожлантириш жамғармасини ташкил этиш тўғрисида”. ПҚ-3242-сонли, 2017 йил 24 август. 27.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. “Ўзбекистон Республикасининг Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси ресурс базасини янада мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида”. ПҚ-1387-сонли, 2010 йил 11 август.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo‘ljallari" to‘g‘risida PQ-№4086-sonli qarori 2018-yil 26-dekabr.

10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 48 b.
13. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Tashkent: IPTD «Uzbekistan», 2019.-56 b.
14. Malikov T.S. Moliya: O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.: “Iqtisod-moliya”, nashriyoti, 2018 y. - 268b
15. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.:“Iqtisod-Moliya”, 2016, - 116 b.
16. Ўзбекистон Республикаси Президенти шавкат Мирзиёевнинг олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағишланган илмий-оммабоп қўлланма [Матн]. – Т.: «Маънавият», 2019. – 312 бет.
17. Vahobov A.V, Malikov T.S., “Moliya” o‘quv qo‘llanma, Noshir, T.:- 2012. -12 b
18. Бабич, А.М. Государственные и муниципальные финансы / А.М. Бабич, Л.Н. Павлова. - М.: Юнити-Дана, **2017**. - 687 с
19. Жиянова Н.Э. Управление государственными финансами: Учебное пособие/ Н.Э.Жиянова;-Т.: «Iqtisod-Moliya», 2019.-384 с.
20. Мысляева, И. Н. Государственные и муниципальные финансы / И.Н. Мысляева. - М.: ИНФРА-М, **2016.** - 400 с.
21. Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы/ Система государственного и муниципального управления: Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям "Государственные и муниципальные финансы", "Юриспруденция", "Политология" - 2-е

изд.,перераб. и доп. (ГРИФ) /Мухаев Р.Т. ; Мухаев Р. Т. ; 2009; Юнити-Дана

22. Пансков, В.Г. Налоги и налогообложение / В.Г. Пансков, В.Г. Князев. - М.: МЦФЭР, 2018. - 336 с.

23. Барулин С. В. Финансы: учебник. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2015. – 641 с.

24. Слепова, В. А. Государственные и муниципальные финансы / Под редакцией С.И. Лушина, В.А. Слепова. - М.: Экономистъ, 2016. - 763 с.

25. Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2017. -B.

26. Ракитина И.,Берёзина Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебник и практикум М: Юрайт - М, 2017. – 392 стр.

27. Мысляева И.И. Государственные и муниципальные финансы Учебник М: ИНФРА - М, 2013. – 393стр.

28. Xusainov R.R. Moliya va soliqlar. II qism (Soliqlar): o‘quv qo‘llanma. T.: "Voris - nashriyot", 2014. - 336 b.

29. Барабашев, А. Г. Государственное и муниципальное управление. Технологии научно-исследовательской работы: учебник для вузов / А. Г. Барабашев, А. В. Климова. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 194 с.

30. Васильев, В. П. Государственное регулирование экономики: учебник и практикум для СПО / В. П. Васильев. — 3-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 164 с.

31. Васильева, В. М. Государственная политика и управление : учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / В. М. Васильева, Е. А. Колеснева, И. А. Иншаков. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 441 с.

32. Public finance. Harvey S. Rosen, Ted Gayer.10 th ed.United States. 2013

33. Финансы некоммерческих организаций : учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / И. В. Ишина [и др.]; под ред. И. В. Ишиной. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 319 с.

34. Финансовые и денежно-кредитные методы регулирования экономики. Теория и практика : учебник для магистратуры / Е. В. Маркина [и др.] ; под ред. Е. В. Маркиной, Л. И. Гончаренко, М. А. Абрамовой. — 2-е изд., испр. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 486 с.

35. Налоговая политика государства : учебник и практикум для академического бакалавриата / Н. И. Малис [и др.] ; под ред. Н. И. Малис. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 361 с.

36. Мишле, Е. В. Региональные и местные налоги и сборы с организаций : учебное пособие для академического бакалавриата / Е. В. Мишле. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 148 с.

37. Пансков, В. Г. Налоги и налогообложение : учебник и практикум для прикладного бакалавриата / В. Г. Пансков. — 6-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 436 с.

Internet saytlari

38. https://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

39. https://www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

40. https://www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

41. https://www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

42. https://www.soliq.uz– O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.

43. https://www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

44. https://www.sciencedirect.com – ommabop ilmiy jurnallar sayti;

45. https://reader.elsevier.com – ommabop ilmiy jurnallar sayti;

46. http://www.scopus.com – xalqaro maqola va anjumanlar sayti.

MUNDARIJA

KIRISH 3

1-BOB . DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISH XUSUSIYATLARI

1.1 Davlat moliyasi iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatida..... 4

1.2 Davlat moliyasini boshqarishning asosiy funksiyalari 11

1.3. Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida davlat va moliya siyosatining iqtisodiy roli 14

1.4. Moliya siyosatining mohiyati va turlari..... 21

2-BOB. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH: ASOSIY INSTRUMENTLAR VA USLUBLAR

2.1. Zamonaviy iqtisodiy tizimlarda davlat tomonidan tartibga solishning mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari..... 28

2.2. Xo‘jalik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi mohiyatining hozirgi talqini 54

3-BOB . DAVLAT KORXONALARINING MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH: SHAKLLANTIRISH VA FOYDALANISH

3.1. Davlat wmoliyasining mustaqil bo‘g‘ini sifatida davlat korxonalari moliyasi tushunchasi va mohiyati 61

3.2. Davlat korxonalari moliyasini tashkil etish tamoyillari 70

3.3 Davlat korxonalarining faoliyati va faoliyat yuritishi uchun normativ-huquqiy asoslarni tartibga solish 73

3.4. Davlat korxonalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish manbalari 86

3.5. Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari 89

4-BOB . O‘ZBEKISTONDA BYUDJET TUZILISHI VA BYUDJET JARAYONI

4.1. Davlat byudjeti: tushunchasi, mohiyati, funksiyalari, ishlab chiqarish jarayonida o‘rni va ahamiyati, holati 93

4.2. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimining byudjetlari 101

4.3. Byudjet jarayonining metodologiyasi 105

4.4. O‘zbekiston Respublikasida byudjet jarayoni 112

5-BOB . RESPUBLIKA VA MAHALLIY BYUDJETLARNING DAROMADLARI VA XARAJATLARI

5.1. Davlat byudjeti daromadlarining iqtisodiy mohiyati va ularning davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o‘rni 133

5.2. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish tarkibi, tuzilmasi va manbalari 137

5.3. 2017-2019 yillar uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarida to‘g‘ri soliqlar tahlili 145

5.4. Davlat byudjet xarajatlarining mohiyati, zaruriyati va ularni moliyalashtirish usullari 149

5.5. Davlat byudjeti xarajatlarining asosiy yo‘nalishlari va ularning tashkiliy-huquqiy asoslari 162

5.6. Mahalliy byudjetlar mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari 179

5.7. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishning hozirgi holati tahlili 189

5.8. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini amalga oshirishning hozirgi holati tahlili 195

5.9. Mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirishda byudjetlararo munosabatlardan foydalanish amaliyoti 205

6-BOB. BYUDJETDAN TASHQARI MAQSADLI JAMG‘ARMALARNING DAROMADLARI VA XARAJATLARI HAMDA ULARNING XUSUSIYATLARI

6.1. Byudjetdan tashqari jamg‘armalar tushunchasi, mohiyati va tasnifi 221

6.2. Xorijiy mamlakatlar moliya tizimida byudjetdan tashqari jamg‘armalarning ahamiyati 227

6.3. O‘zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari jamg‘armalarni rivojlantirish 235

7-BOB. RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASI DAROMADLARI VA XARAJATLARI

7.1. Respublika yo‘l jamg‘armasining maqsadi va vazifalari 239

8-BOB. PENSIYA FONDI VA UNDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

8.1. O‘zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya fondi faoliyatining tashkiliy va iqtisodiy asoslari 251

8.2. Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari faoliyatining tashkil etilishi 259

8.3. O‘zbekiston Respublikasi Pensiya fondi moliyaviy resurslarining amaliy tahlili 264

8.4. O‘zbekiston Respublikasi Pensiya fondi mablag‘lari sarflanishining amaliy tahlili 269

9-BOB. SUG‘ORILADIGAN YER MAYDONLARINING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH FONDI DAROMADLARI VA XARAJATLARI

9.1. Sug‘oriladigan yer maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash fondining maqsadi va vazifalari 277

10-BOB. BANDLIKKA KO‘MAKLASHISH DAVLAT JAMG‘ARMASINING DAROMADLARI HAMDA XARAJATLARI

10.1 Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining maqsadi va vazifalari 288

10.2 Bandlik jamg‘armasi daromadlari prognozini ko‘rib chiqish va kelishish hamda uning mablag‘laridan foydalanish tartibi 294

11-BOB. TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG‘ARMASINING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI

11.1 Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining tashkil topishi 297

11.2 Jamg‘armaning asosiy vazifalari va funksiyalari 302

11.3 Jamg‘arma mablag‘larini shakillanish manbalari va mablag‘lardan foydalanish tartibi 309

12-BOB DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY VA TASHKILIY ASOSLARI

12.1. Davlat moliyaviy nazorat organlari, ularning vazifalari va funksiyalari 316

12.2.O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasining byudjet mablag‘laridan foydalanish yuzasidan amalga oshirayotgan faoliyatining holati 341

TEST VA NAZORAT SAVOLLAR 355

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... 371

QAYDLAR UCHUN

A.A. SHERNAYEV
N.E. JIYANOVA

DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH

DARSLIK

Muharrir Sh. Bazarova
Badiiy muharrir K. Boyxo‘jayev
Kompyuterda sahifalovchi K. Boyxo‘jayev

Nashr lits. AI¹ 305. Bosishga ruxsat etildi 13.12.2019.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog‘i 21,9.
Hisob-nashr tabog‘i 22,8. Adadi 50.
55-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60[a].

«DAVR MATBUOT SAVDO» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo‘yliq, 4-mavze, 46.